27. Хасанова, Ш. Б. (2023). РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СИСТЕМНЫХ ОТНОШЕНИЙ РУССКОЙ ЛЕКСИКИ В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1220-1226.
28. Nigmatova Gulnoz Khamidovna, & Khasanova Shakhnoza Bakhodirovna. (2022). System Relations in the Vocabulary of the Russian Language. *Global Scientific Review*, 3, 44–48. Retrieved from <https://www.scientificreview.com/index.php/gsr/article/view/22>
29. Д.А. Муродова (2022). Колоризмы в лирике АС Пушкина: выпускная бакалаврская работа по направлению подготовки: 45.03. 01-Филология.
30. Муродова, Д. А. (2022). ЦВЕТОВАЯ ГАММА В ЛИРИКЕ А. ПУШКИНА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 432-434.
31. Murodova, D. (2023). THE CONCEPT OF THE WORDS "GENEROSITY AND COWARDICE" IN THE LAK LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(6), 1147–1149.
32. Муродова. Д. А. (2023). ОБРАЗ МАТЕРИ В ПРОЗЕ Ч.Т.АЙТМАТОВА. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 26–29. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1685>
33. Durova Shakhnoza Shokirovna. (2023). A PRACTICAL WAY OF STUDYING CONDITIONALS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(10), 39–43.
34. Durova, S. S. (2023). KEYS TO LEARN LANGUAGE EFFECTIVELY. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 4-6.
35. Tasheva, N. (2023). EXPLORING THE RICH TAPESTRY OF LINGUISTICS: A COMPREHENSIVE OVERVIEW. *Science and innovation in the education system*, 2(11), 51-57.
36. Tasheva, N. (2023). SEMANTIC ANALYSIS OF LEXEMES WITHIN THE CONCEPT OF THE IDEA OF THE GREAT MAN IN MARLOWE'S DRAMA "TAMERLANE THE GREAT". *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(18), 90-93.

37. Tasheva, N. (2023). EXPRESSION OF LEXICAL-SEMANTIC AND SOCIO-EDUCATIONAL PARAMETERS IN THE CREATION OF A GREAT HUMAN FIGURE IN ENGLISH RENAISSANCE DRAMA: A COMPREHENSIVE ANALYSIS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(7), 11-14.
38. Tasheva, N. (2023). THE ROLE OF CHRISTOPHER MARLOWE IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL ENGLISH DURING THE RENAISSANCE. *Models and methods in modern science*, 2(7), 14-19.
39. Tasheva, N. (2023). THE IMAGE OF THE EAST IN THE PLAY "TAMERLANE THE GREAT" BY K. MARLOWE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(3), 113-120.
40. Tasheva, N. (2023). THE GREAT TAMBURLEN AS THE PSYCHOTYPE OF THE EASTERN RULER IN THE POETRY OF CHRISTOPHER MARLOW. *Академические исследования в современной науке*, 2(4), 52-58.
41. Tasheva, N. (2022). INDIVIDUALISM OF THE PHENOMENON OF A STRONG PERSONALITY IN THE AGE OF THE RENAISSANCE. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 454-462.
42. Gulamova, D. . (2023). ЭВФЕМИЗМЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧЕНИКОВ. *Modern Science and Research*, 2(8), 231–236. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22630>
43. Gulamova, D. I. (2022). USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 841-846.
44. Fayzullayeva, N. S. qizi . (2023). Theoretical Views on the Use of the Term "Concept" in Cognitive Linguistics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(5), 27–31. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/1685>
45. Fayzullayeva, N. (2023). USAGE OF THE FLORA IN THE EARLY MODERN ENGLISH POETRY. *Modern Science and Research*, 2(9), 36–39. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24078>

ПРОЕКТИРОВАНИЯ ГАЗОСНАБЖЕНИЕ ГОРОДОВ И ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Д.Г.Азизова

доцент кафедры Нефтегазовое дело

Л.Н.Орипова

старший преподаватель кафедры Нефтегазовое дело

Каршинский инженерно-экономический институт

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10077449>

Аннотация. Проекты газоснабжения областей, районов, городов, поселков и других населенных пунктов разрабатываются на основе схем и проектов районной планировки, генеральных планов городов, поселков и сельских населенных пунктов с обязательным учетом их развития на перспективу.

Ключевые слова: газоснабжение, цистерн и баллонов, тупиковые, кольцевые, смешанные, газораспределительная станция, газораспределительный пункт, ПХГ – хранилище газа.

DESIGNING GAS SUPPLY OF CITIES AND INDUSTRIAL ENTERPRISES

Abstract. Gas supply projects for regions, districts, cities, towns and other populated areas are developed on the basis of regional planning schemes and projects, master plans for cities, towns and rural settlements, with mandatory consideration of their future development.

Key words: gas supply, tanks and cylinders, dead-end, ring, mixed, gas distribution station, gas distribution point, UGS - gas storage.

В топливно-энергетическом обеспечении городов продолжает возрастать доля газа. Газоснабжение городов определяется расходами на промышленные и жилищно-коммунальные нужды, причем последние все время растут, поскольку увеличивается количество газифицированных квартир. Проекты газоснабжения областей, районов, городов, поселков и других населенных мест разрабатываются на основе схем и проектов районной планировки, генеральных планов городов, поселков и сельских населенных пунктов с обязательным учетом их развития на перспективу. Системы газификации представляют собой комплекс магистральных газопроводов, подземных газохранилищ и кольцевых газопроводов, обеспечивающих надежное газоснабжение районов.

Газоснабжение – это организационная подача и распределение газового топлива для нужд народного хозяйства. Наиболее крупные потребители природного газа – тепловые электростанции, металлургия, химическая и цветная промышленность. В коммунальном хозяйстве газ используется для нужд предприятий коммунального и бытового обслуживания, для приготовления пищи, для нагрева воды для бытовых и санитарно-гигиенических целей, для отопления (котельных), а также для заправки автомобилей.

Газоснабжение или подача и распределение газового топлива разделяем на две группы: централизованное газоснабжение и местное газоснабжение

Централизованное газоснабжение имеет место при наличии городской газовой сети с разводкой по предприятиям, жилым домам.

Централизованное газоснабжение предусматривает разветвленную систему газопроводов подземной и надземной прокладки, другие инженерные сооружения, пункты учета расхода газа.

Местное газоснабжение от местных газогенерирующих установок или цистерн и баллонов, заполняемых сжатым или сжиженным газом, применяется в случаях, когда мелкие населенные пункты или другие объекты удалены от магистральных газопроводов.

Газопроводы, прокладываемые в городах и населенных пунктах, различаются по назначению и давлению в них.

По назначению:

1. Уличное – для транспортировки газа по проездам;
2. Ответвления и вводы – для подачи газа от уличных газопроводов к потребителям;
3. Внутри объективные – для подачи газа от отключающего устройства до а вводе к потребляющим аппаратам и устройствам.

По давлению:

1. Низкого давления $P = 0,02-0,03$ кгс/см²;
2. Среднего давления $P = 0,05-3$ кгс/см²;
3. Высокого давления $P = 3-6$ кгс/см².

Чем выше давление, тем больше газа можно перекачать через трубопровод небольшого сечения, но при этом повышается опасность, например возникновение утечек, свищей, разрывов труб и аппаратуры. Ниже давление – безопаснее, но нужны трубы большего сечения.

Существенной особенностью работы систем газоснабжения является то, что подача газа равномерна, а потребление неравномерно, переменное из-за колебания суточного потребления, погоды. Поэтому излишки газа в период меньшего потребления (летом) заканчивают в хранилище, а затем используют по мере надобности, когда потребление возрастает (зимой).

Для равномерного обеспечения газоснабжения сооружаются подземные хранилища. В общем подземные хранилища газа обеспечивают:

- покрытие сезонной неравномерности газопотребления;
- уменьшение капитальных вложений в магистральный газопровод;
- создание государственных запасов;
- создание запасов сырья и запасов готовой продукции;
- уменьшение мощностей заводов по очистке;
- выравнивание колебаний потребления электроэнергии;
- повышение надежности работы системы дальнейшего газоснабжения в целом.

Конфигурация схем зависит от размеров населенного пункта, насыщенности промышленными предприятиями, местных условий.

Схемы бывают:


- трехступенчатые;
- двухступенчатые;
- одноступенчатые.

Трехступенчатая схема наиболее гибкая и безопасная в эксплуатации.

Схемы бывают: тупиковые, кольцевые, смешанные.

Тупиковая – концы трубопроводов не соединяются между собой, поэтому у различных потребителей давление может быть различным. Эта схема для небольших населенных пунктов.


Кольцевая – схема дает более равномерный режим у всех потребителей, но дороже, так как требует больших труб.



1-рисунок. Трехступенчатая схема газоснабжения населенного пункта:
1 – магистральный газопровод; 2 – газопровод низкого давления; 3 – газопровод среднего давления; 4 – газопровод высокого давления; ГРС – газораспределительная станция;

ГРП – газораспределительный пункт; ПХГ – хранилище газа.

Газоснабжение промышленных предприятий имеет свою специфику. Газ на территорию предприятия поступает через главную задвижку ГЗ. Затем, пройдя расходомерный пункт, распределяется по цехам. Если цех потребляет газ более низкого давления, то на входе устанавливают газораспределительный пункт ГРУ.



2-рисунок. Схема межцехового газопровода среднего давления

- отключающее устройство в колодце;
- сепаратор жидкости;
- расходомерное устройство;
- сброс газа на факел.

REFERENCES

1. Шур И.А. Газорегуляторные пункты и установки – Л.: изд.Недра, 1995
2. Ионин А. А. Газоснабжение. М., 2012. 2. Кязимов К. Г., Гусев В. Е. Основы газового хозяйства. М., 2009.
3. Колпакова Н.В., Колпаков А.С. Газоснабжение, Учебное пособие Издательство Уральского университета 2014

MAKTABLARDA MUMTOZ SHE'RLARIMIZNI O'QITISH AHAMIYATI.

Mamadaliyeva Nargizabonu Umurzaqaliyevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
o'zbek filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi.

nargizabonu1287@gmail.com

+998 88 349 45 45

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10077487>

Annotatsiya. Bizning boy adabiyotimiz durdonalari sanalmish mumtoz she'riyatimizning o'qilishida maxsus qoidalar bo'lib, uni o'quvchilarga o'qishni o'rgatishda ustozdan yuquri malaka va bilim talab etiladi. Bu maqolada adabiyotshunos, Filologiya fanlari doktori, professor Anvar Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznini o'rganish" adabiyot ustozlar uchun o'quv qo'llanma tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: aruz, vazn, she'r, maktab, o'qituvchi, o'quvchi, bo'g'in, cho'ziq va qisqa bo'g'inlar, Navoiy.

THE IMPORTANCE OF TEACHING OUR CLASSICAL POEMS IN SCHOOLS.

Abstract. There are special rules for the reading of our classic poetry, which are masterpieces of our rich literature, and teaching students to read it requires high skill and knowledge from the teacher. In this article, the study guide for literature teachers "Learning Aruz weight at school" by literary critic, doctor of philological sciences, professor Anvar Hojiahmedov is researched.

Key words: aruz, weight, poem, school, teacher, pupil, syllable, long and short syllables, Navoi.

ВАЖНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ НАШЕЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ В ШКОЛАХ.

Аннотация. Для чтения нашей классической поэзии, являющейся шедевром нашей богатой литературы, существуют особые правила, и обучение ее чтению требует от учителя высокого мастерства и знаний. В данной статье исследуется учебное пособие для учителей литературы «Изучение веса Аруз в школе» литературоведа, доктора филологических наук, профессора Анвара Ходжихмедова.

Ключевые слова: аруз, вес, стихотворение, школа, учитель, ученик, слог, долгий и краткий слоги, Навои.

Hozirgi kunda O'zbekistonimizning o'rta maktablar uchun tuzilgan adabiyot dasturlarida mumtoz adabiyotimiz namunalariga tobora kengroq o'rin ajratilmoqda, o'quvchilarning ming yillik adabiy merosimiz bilan atroflicha tanishib, mutafakkir shoirlarimiz ijodi, ularning badiiy salohiyatlari, hayotiy muammolar, insonning turli-tuman kechinmalarini teran mazmunli, nafis va jozibador misralarda jilolantirishlagi san'atkorliklarini o'rganib borishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratilmoqda. Lekin bundan bir necha asrlar muqaddam Sharq adabiyotining o'ziga xos uslublari asosida, turli-tuman majoziy timsollar, she'riy san'atlar vositasida, xususan, anchagina murakkab aruz vazni o'lchovlari zaminida yaratilgan g'azallaru ruboiylar, muxammaslaru musaddaslar, qit'alaru tuyuqlar, qasidalaru dostonlarni ifodali o'qish, sharhlash, tahlil qilish til va adabiyot o'qituvchilaridan yetuk bilim va malakani, barkamol ustozlik mahoratini talab qiladi.

She'r yodlash xotirani mustahkamlaydi, uni ifodali o'qish esa go'zal va chiroyli, ta'sirchan nutqqa ega bo'lishiga, she'rni yozish esa insonning barcha qobiliyatlarini ishga soladi.

Shunday insonlar borki, ular yosh bolalarning she'r yodlaganiga qarab, odobiga va kelajakda kim bo'lishini belgilaydi. Chunki she'r yodlagan insonlar eslab qolish qobiliyati kuchli bo'lib, o'ziga bo'lgan ishonchi ham yuqori bo'lib, bemalol o'z fikrini boshqalarga mustaqil tarzda yetkazib bera oladi.

Jarangdor o'qilgan she'rning ahamiyati shundaki, bu insonda boshqalarni boshqarish qobiliyati yuqori bo'lib, tasirli va ohanglari kuy kabi har qanday she'r turlarini o'qigan insonlarda ijodkorlik, bunyodkorlik qalbida jo'sh uradi.

Shuning uchun ham she'r yodlash va o'qish ahamiyati juda katta. Maktabning boshlang'ich sinflaridan tortib 8-sinfgacha barmoq va erkin vaznidagi she'rlar o'qilib yodlaniladi. Undan yuqori sinflardan ya'ni 9-sinflardan boshlab, mumtoz she'riyatimizga oid jozibador, o'qilishi murakkab she'rlarimizning qonun qoidalari tushuntirilib, latif va go'zal ohangda o'qilish tartibi o'rgatiladi.

“Mumtoz adabiyotimizning durdona asarlarini, ulardagi har bir bayt, misra, har qaysi so'zni o'z vazniga, shoir nazarda tutgan she'riy o'lchovga muvofiq o'qilmas ekan, ijodkorning g'oyaviy-badiiy niyatini anglab yetish ham, tanlangan ohang lazzatini his qilish ham amrimahol. Ifodali o'qilmagan she'riy asar, xususan, nodir she'riyatimiz javohirlari o'quvchi ko'zi oldida o'z latofatini yo'qotishi, uning qalbida, ongida bunday asarga qiziqish ham, muhabbat ham uyg'otmasligi aniq. Misol uchun, aruzdagi she'riy asarlarni badiiy o'qishga o'rgatib borish o'qituvchining muhim va mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Buning uchun esa, avvalo, uning o'zi mumtoz she'riyatimiz namunalarini sa'atkorlarcha o'qiy olish mahoratini egallagan bo'lishi kerak”-deya o'zining ohangrabodek tortuvchi so'z san'tini qo'llagan aruzshunos olim Anvar Hojiahmedov o'zining “Maktabda aruz vaznini o'rganish” kitobining yozilishi haqida.

Vazn haqida qisqacha to'xtalib, quyidagicha bayon qilinadi: “Vazn—badiiy shaklning eng muhim qismlaridan biri. Asar mazmuni: tanlangan mavzu, ijodkor dilini to'lqinlantirayotgan muammolar, badiiy timsollarda mujassamlantirilayotgan umumbashariy g'oyalarni jozibali, ta'sirchan, o'qimishli kilib ifodalashda vazn alohida ahamiyatga egadir. Binobarin, shoir u yoki bu o'lchovni asossiz, tasodifan tanlamaydi, balki muayyan g'oyaviy-badiiy niyatdan kelib chiqib, eng maqbul vaznlarga murojaat qiladi. Ko'rinadiki, ijodkorning vazn tanlash, o'z asarining musiqiy ohangdorligini ta'minlash, xilma-xil she'riy o'lchovlar vositasida o'z qahramonlari qiyofasini jonli, hayotiy qilib tasvirlash mahoratini o'rganish asarni badiiy tahlil qilishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu ham o'qituvchining mazkur sohada chuqur bilim va malakaga ega bo'lishini taqozo etadi.

Shu narsa ham sir emaski, o'quvchilarni aruz she'riy o'lchov tizimi nazariyasi bilan tanishtirish, mumtoz she'riyatimiz namunalarini ifodali o'qishga o'rgatib borish, asarni tahlil qilish davomida shoirning vazn ustida ishlash mahoratini kuzatish muayyan metodika asosidagina amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchilarni shu xil metodika asoslari bilan qurollantirish esa maktabda aruz nazariyasi va amaliyotini zarur darajada o'rganib borish nuqtai nazaridan nihoyatda muhim. Ushbu kitobda yuqoridagi mulohazalarning barchasi hisobga olindi”. [4; 4-5]

Kitob quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Kirish.
2. “Aruz” she'riy o'lchov tizimi yaratmasi asoslari.
3. Maktabda aruz ilmini o'rganish.

4. Aruz vazindagi asarlarni ifodali o'qish.

5. Xulosalar.

Qo'llanmaning kirish qismi 3 ga ajratilgan:

1-qismida Aruz vaznini qo'llash tarixi va undan foydalanib ijod etganlar, asarlari keltiriladi:

— "Aruz" she'riy o'lchov tizimiga asos solgan VIII asrda yashab ijod qilgan arab adabiyotshunos, musiqashunos olimi Xalil ibn Ahmad hisoblanishi;

— Mazkur o'lchov tizimi IX asr boshlaridanoq fors-tojik adabiyotida ham qo'llanila boshladi, hamda Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, keyin Umar Xayyom, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy kabi buyuk shoirlar ijodidan mustahkam o'rin egallashi;

— X asr o'zbek aruzi rivojida alohida bosqich sanaladi. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari, Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" dostoni, yana boshqa asarlar: "Qissasi Rabg'uziy" kitobi, „Muhabbatnoma“, „Xisrav va Shirin“, „Guliston“ tarjimalari kabi o'lmas asarlarni bitishda mohirona foydalanilgan o'ttizdan ortiq vazn aruz o'lchovining adabiyotimizga tobora chuqurroq kirib borgani.

— Atoiy, Sakkokiy, Durbek, Gadoiy, Lutfiy singari turkigo'y ijodkorlar o'z asarlarini aruzning eng jozibali o'lchovlari asosida yaratib, ko'plab vaznlarni she'riyatimizga olib kirgan bo'lsalar, buyuk Alisher Navoiy o'zining lirik she'rlari, dostonlarini yaratish jarayonida aruz o'lchovining barcha imkoniyatlarini sinovdan o'tkazib, yuzga yaqin vazn qo'llab, bu sohada eng yaxshi muvaffaqiyatlarga erishishlari, hamda bu buyuk siymoning mazkur sohadagi an'alarini davom ettirgan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek aruzini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarishi;

— Bu ijodkorlardan ilhomlanib, izidan borib, aruz vaznini takkomillashiga hissalarini qo'shgan Mashrab va Nodira, Munis va Ogahiy, Muqimiy va Furqat, Hamza va Avloniylar;

— Aruz tizimidan 1917-yildan keyingi davrda ham foydalangan ijodkorlar: Cho'lpon, Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy;

— 60-80-yillardan boshlab Erkin Vohidov ("Yoshlik devoni"), Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Oydin Hojiyeva, E'tibor Oxunova kabi ko'plab shoirlar o'z she'rlari bilan o'zbek aruzining go'zalligini, jozibali ohanglarga boyligini yana bir bor dalilladilar.

Ikkinchi qismida aruz tizimi bo'yicha nazariyalar, risolalar yaratgan olim va ijodkorlar keltirilgan:

Xalil ibn Ahmaddan so'ng Ibn Usmon Maziniy, Imom Ahmad ibn Abdurabbih, Ibn al-Xatib at-Tabriziy, Ziyovuddin Abul Jaysh al-Hazrajiy kabi arab olimlarining nomlari tilga olinadi.

Fors-tojik adabiyotshunosligida: Mavlono Yusuf Nishoburiy (X asr), Rashididdin Vatvot (XIII asr)ning "Hadoyiq us-sehr", Shams Qays (XIII asr)ning "Al-mu'jam fi meyor ash'or al-ajam", Nasriddin Tusiy (XIV asr)ning "Meyor-ul ash'or", Salmon Savojiy (XIV asr)ning "Kasidatun masnuot al-aruz", Abdurahmon Jomiy (XV asr)ning "Risolai aruz asarlari fors-tojik" aruzining nazariy va amaliy rivojida alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Aruz ilmi rivojiga turkiy xalqlar orasidan etishib chiqqan adabiyotshunos olimlar: mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiy (X asr), Abu Ali ibn Sino (X-XI asrlar), Abul Qosim Zamaxshariy (XI — XII asrlar), Abu Ya'qub Yusuf ibn Abubakr Sakkokiy (XII-XIII asr)lar o'zlarining arab va forsiy tilda bitgan ilmiy asarlari bilan faqat arab va forsiy aruzlarga emas, ayni vaqtda turkiy aruz taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdilar. Alisher Navoiyning ilk bor turkiy tilda yaratilgan

“Mezonul avzon” (“Vaznlar o‘lchovi”) asari va Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” deb nomlangan yirik ilmiy asarining ahamiyati beqiyosdir.

XIX asr oxirlarida Zokirjon Furqat ham aruz ilmiga doir risola bitgan.[7;125-126]

1936-yil Fitrat qalamiga mansub “Aruz hakida” risolasi nashr etildi. 1948-yili adabiyotshunos olim Sodiq Mirzayev “Navoiy aruzi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyani yozib tugatdi.

O‘zbek aruzining nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha: Alibek Rustamov, S. Hasanov, Ummat To‘ychiyevlar o‘zlarining tadqiqot ishlari va risolalari bilan o‘z ulushlarini qo‘shishdi.

Uchinchi qismida aruz ilmi va amaliyotiga asos solgan Xalil ibn Ahmad she‘r turlaridagi bahr va vaznlar faqat arab tili va she‘riyatiga tushishi, boshqa xalqlar adabiyotlariga o‘tib borishi orqali o‘zgarishlarga uchrashi haqida ma‘lumot keltiriladi.

Masalan: fors-tojik she‘riyatiga kirib borgan aruz nazariy jihatdan ham, amaliy nuqtai nazaridan ham qator o‘zgarishlarga duch keladi: arab adabiyotiga muvofiq keluvchi qator bahr hamda vaznlar, xususan, tavil, madid, basit, muqtazab, qarib, mushokil, g‘arib bahrlari fors-tojik she‘riyatiga mos kelmaganligi tufayli tushib qoldi, boshqa bahrlarning vaznlarida ham ko‘pgina o‘zgarishlar - almashuvlar ro‘y berdi; bular oqibatida fors-tojik aruzi deb atalgan she‘riy o‘lchov tizimi shakllanib bordi.

Aruz turkiy adabiyotlarga ko‘chganida ham xuddi shu xil xolat yuz berdi, yuqorida zikr etilgan bahrlarning turkiy she‘riyatlarga ham mos tushmasligi ma‘lum bo‘ldi. Arab she‘riyatiga xos bo‘lgan vofir, tavil, madid, basit, qarib, mushokil, g‘arib, muqtazab bahrlari o‘zbek aruzida qo‘llanmaydi.

Turkiy tillarning arab va fors tillariga nisbatan o‘zgachaligi, xususan, unda cho‘ziq hijolarning nisbatan kamroq qo‘llanishi, qisqa hijolarning ketma-ket kelishi kabi xususiyatlar turkiy aruzning shakllanishiga sabab bo‘ldi.

“Aruz” she‘riy o‘lchov tizimi yaratmasi asoslari 1-bo‘limida aruz nazariyasi asoslariga bag‘ishlanadi. Bu bo‘lim aruz tizimining barcha nazariy masalalarini qamrab olmaydi, albatta; muallif unda adabiyot o‘qituvchilari uchun zarur bo‘lgan asosiy ma‘lumotlarnigina berishni lozim topgan.

Bu birinchi bo‘lim quyidagilar haqida ma‘lumot keltiriladi:

1. Aruz asoschisi, aruz va bayt deb aytilish sabablari, hamda aruz vazni bilan barmoq vazning farqlarihaqida qisqacha ma‘lumot.

2. Qisqa (V), cho‘ziq (—) va o‘ta cho‘ziq (~) bo‘g‘inlar.

3. Sabab, vata, fosila haqida

4. Rukn, uning tuzilish va turlari.

5. Bahrlar, ularning tuzilishi va turlari.

6. Zihoflar.

7. Mafoiylun ruknining tarmoqlari:

1) Bo‘g‘inlarning son jihatidan o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan tarmoq ruknlar (Maf‘ulun, Faulun, Faal, Fa‘)

2) Bo‘g‘inlarning sifat jihatidan o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan tarmoq ruknlar.

3) Bo‘g‘inlarning son va sifatli jihatidan o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan tarmoq ruknlar

8. Ruboiy vaznlari haqida.

H. Olimjonning “O‘zbekiston” she‘ridan olingan 4 misrasini, Alisher Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azalining matla‘si va Furqatning “Sayding quya ber, sayyod” musaddasidan ikki misrasining bo‘g‘inlaridagi farqlar bo‘yicha misol keltiradi.[4;13]

Masalan, H. Olimjon: Bo‘g‘inlarining chizmasi quyidagicha:

Vodiylarni yayov kechganda, — — — — V — — — —
Bir ajoyib his bor edi menda, — V — — — — V — — — —
Daryolardan kuylab o‘tardim, — — — — — — V — — —
Qo‘shiqlarga quloq tutardim. V — — — — V — V — — —

Har qaysi misrada 9 tadan bo‘g‘in bo‘lib, ular 4-5 tarzida turoqlarga bo‘linib takrorlanadi. Lekin misralardagi cho‘ziq va qisqa bo‘g‘inlar soni ham har xil, o‘rni ham muayyan emas, ya‘ni ular istagan miqdorda va istalgan o‘rinda kela oladi. Aruz tizimida esa har qaysi misradagi qisqa va cho‘ziq bo‘g‘inlar soni ham bir xil, o‘rni ham muayyan bo‘ladi.

Navoiy:

Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otkuncha uyqu kelmadi.

Bu baytning chizmasi quyidagicha:

— V — — — — V — — — — — V — — — — V — —
— V — — — — V — — — — — V — — — — V — —

Har qaysi misrada 15 tadan bo‘g‘in bo‘lib, ularning 11 tasi cho‘ziq, 4 tasi qisqa ekanini, ana shu qisqa va cho‘ziq bo‘g‘inlar misralarda ma‘lum o‘rinlarda kelayotganini ko‘rish mumkin, ya‘ni birinchi misraning chizmasi 2-misraning chizmasi bilan bir xil. Cho‘ziq va qisqa bo‘g‘inlarning shu tarzidagi takrorlanishi mayin musiqiy ritm-ohangni ta‘minlaydi.

Yoki Furqatning “Sayding qo‘ya ber, sayyod” musaddasidan ikki misrani shu tarzda ko‘zdan kechiraylik:

Sayding qo‘ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mendek.

Bu misralarning chizmasini shunday ko‘rsatish mumkin:

— — V V — — — — — — V V — — — —
— — V V — — — — — — V V — — — —

Mazkur baytning har misrasida 14 tadan bo‘g‘in bo‘lib, ularning 10 tasi cho‘ziq, 4 tasi qisqa. Ana shu bo‘g‘inlar misralarda qat‘iy bir tartibda barqaror bo‘lib takrorlanadi. Aruz tizimiga mansub qaysi bir vazni olib qaramaylik, ularda ana shu qoidaning qat‘iy saqlanishini ko‘ramiz.

3- bo‘lmi “Maktabda aruz ilmini o‘rganish”

Qo‘llanmaning maktabda aruz ilmini o‘rganishga doir qismida asosiy diqqat mumtoz adabiyotimiz namunasi ifodali o‘qish muammosiga qaratiladi: har bir asarning vazni, rukni, o‘ta cho‘ziq bo‘g‘in hijolar, qo‘shib o‘qiladigan bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qish yo‘llari ko‘rsatiladi. Ayni vaqtda ijodkorlarning vazni ustida ishlash mexanizmlarini ishlab chiqishning maqbul usullari tavsiya etiladi.

4-bo‘lim “Aruz vazindagi asarlarni ifodali o‘qish”

Darsdan va sinfdan tashqarida aruz ilmi va amaliyotini o‘rganish tadbirlari bayon qilinadi.

Xulosa qismida aruz vaznidagi she‘rlar qoidalarini o‘rgatish yuqori sinflardan emas balki 5-sinfdan boshlanishi kerakligi yoritilgan. Hozirgi Zamonaviy texnologiyalar asrida barcha texnik

vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarga eshittirib, tushuntirib, yetkazib berishi kerakligiga alohida to‘xtalangan.

Xulosa qilib aytganda, bu o‘qtuvchilarning she’riy tizimlarni o‘quvchilarga tushuntirish, o‘qilishi, aytilishini o‘rgatishga qaratilgan metodik qo‘llanma hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki barcha o‘qituvchi-muallimlar uchun aruz vazni bilan to‘liq holatda tanishib chiqib, o‘rganish va uni o‘quvchilarga sodda va tushunarli qilib, chiroyli tarzda yetkazib berish mahorati talab etiladi.

Har bir adabiyotchi ustozlar ushbu kitobdan foydalanib, amalga tadbiiq qilsa, dars samaradorligi oshadi.

REFERENCES

1. Алибек Рустамов. Аруз ҳақида суҳбатлар. “Фан” нашриёти, Тошкент, 1972.
2. А. Рустамов. Навоийнинг бадиий маҳорати, Тошкент, 1979
3. А. Рустамов. Ҳабибий шеърларининг вазни. Адабий мерос, 2-сон Тошкент, 1971;
4. Anvar Hojiahmedov. “Maktabda aruz vaznini o‘rganish” adabiyot ustozlar uchun o‘quv qo‘llanma. T. “O‘QITUVCHI”. 1995-y.
5. С. Ҳасанов. Бобурнинг “Аруз рисоласи” асари. “Фан” нашриёти, Тошкент 1981.
6. У. Гуйчиев. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. “Фан” нашриёти, Тошкент, 1985.
7. Ғ. Каримов. Халк, тарих, адабиёт. Ғафур Ғулум номида ги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1977

BOLALARDAGI IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Nigora Ro'ziqulova Alisher qizi

O'zbekiston davlat jahon tillar universitet talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10077543>

Annotatsiya. Bu ilmiy maqolada biz bolalarda ijodkorlikni, ya'ni qobiliyatni turli xil yo'llarini o'rganamiz. Qanday qilib bolalarda ijodkorlikni uyg'otish lozimligini ushbu maqolada ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: bolalar, ijodkorlik, uyqu, hayajon, qobiliyat.

WAYS TO DEVELOP CREATIVITY IN CHILDREN

Abstract. In this scientific article, we will explore different ways of creativity, that is, ability, in children. In this article, we will consider how to awaken creativity in children.

Key words: children, creativity, sleep, excitement, ability.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА У ДЕТЕЙ

Аннотация. В этой научной статье мы исследуем различные способы развития творческих способностей, то есть способностей, у детей. О том, как пробудить в детях творческие способности, мы и поговорим в этой статье.

Ключевые слова: дети, творчество, сон, азарт, способности.

Kirish

Psixologiya sohasida ijodkorlik, bu tushunchalar noto'g'ri fikrlashni, hayotga ijodiy yondashishni anglatadi.

Fikrlashning ijodkorligi, ijodiy faoliyatning har qanday jarayonini juda hayajonli narsaga aylantirish imkonini beradi. Nostandard - shablonni fikrlashning to'liq qarama-qarshidir. Bu sizga kunlik vaziyatlarda yagona harakat qilish imkonini beradi, bu muqarrar ravishda yangi "naqshlar" ning paydo bo'lishiga olib keladi va insonning ijodini shakllantiradi.

Asosiy qism.

Ijodkorlikni qanday rivojlantirish mumkin?

Ijodiy shaxsni tarbiyalash uchun turli xil ijodiy faoliyatga kirish kerak, ya'ni ijod qilish uchun ba'zi mashqlarni bajarish kerak.

Kamera sotib olishning eng oddiy usuli yoki hatto sizning uyali telefoningiz atrofingizdagi g'ayritabiiy narsalarni olishi mumkin. Kundalik hayotda go'zallikni ko'rishga harakat qiling.

Uyquga ketishdan oldin, kelajakdagi mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar haqida o'ylamang, tasavvurlaringizni qabul qiling, tushingizni o'ylang.

Shaxsiy badiiy qobiliyatlari bo'lmagan taqdirda ham, shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish juda chizilgan.

Agar uy bekasi bo'lsangiz, pishirish sizning ijodiy tabiatingizni ko'rsatishga yordam beradi. O'zingiz yaratgan allaqachon tayyorlangan retseptlardan foydalanmang, chunki siz o'zingizning oilangizning har bir a'zosini xushnud qilayotganingizdan ham ko'proq narsani bilasiz.

Hammaga qiziq. Olingan ma'lumotni madaniy boyitish, ijodingizning ufqlarini kengaytiradi. Barcha ko'rgazmalarga qatnashing, kino va teatrga boring.

San'at asarlarini o'qishda, kitobda bayon etilgan tarixning davomi bilan harakat qilib ko'ring.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni bolalikdan boshlash tavsiya etiladi. Deyarli har doim (hatto ba'zan ongsiz ravishda) shaxs yaratishga intiladi, shuning uchun original echimlar va yangi g'oyalarni izlash shaxsiy o'sish va o'z-o'zini anglashning asosiy shartlaridan biridir. Har bir inson ajoyib ijodiy salohiyatga ega va agar erta bolalikda uning namoyishi uchun shart-sharoit yaratilsa, qobiliyatlar rivojlanishi ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Bu, albatta, kelajakdagi faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijod qobiliyatlari - insonning o'ziga xos xususiyatlari, unga qandaydir bir faoliyatni o'zlashtirishga imkon beradi. Ular bilim va ko'nikmalar bilan chambarchas bog'liq, lekin ular bilan bir xil emas. Qobiliyatlari, ularning rivojlanish tezligi, rivojlanish dinamikasi va h.k. kabi juda ko'p mahoratga ega emas. Bolaning muayyan harakatlarda ishtirok etishi u tegishli faoliyat bilan shug'ullana boshlaganidan keyin bo'ladi. Uning ijodiy qobiliyatlari tufayli, ilgari mavjud bo'lmagan yangi narsalarni yaratish mumkin bo'ladi. Ular turli sohalarda o'zlarini ko'rsatishlari mumkin: texnik, musiqiy, badiiy va boshqalar

Entsiklopedik lug'atda ijodkorlikning shunday ta'rifi berilgan - (lotin tilidan) yaratish - yaratish. Ijodiy, konstruktiv, innovatsion faoliyat.

Ijodkorlikning yana bir ta'rifi - bu an'anaviy yoki qabul qilingan fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan va iqtidorlilik tarkibiga mustaqil omil sifatida kiritilgan tubdan yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlik bilan tavsiflangan shaxsning ijodiy qobiliyatlari, shuningdek uni hal qilish qobiliyati. statik tizimlarda yuzaga keladigan muammolar. A.Maslouning fikricha, bu har bir kishiga tug'ma xos bo'lgan, lekin atrof-muhit ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishdir.

E.Torrensning fikricha, ijodkorlik muammolarga nisbatan sezgirlikni oshirish, bilimlarning etishmasligi yoki nomuvofiqligi, bu muammolarni aniqlash, gipotezalarga asoslangan holda ularning yechimlarini topish, gipotezalarni sinab ko'rish va o'zgartirish, yechim natijasini shakllantirish bo'yicha harakatlarni o'z ichiga oladi. Ijodkorlikni baholash uchun turli xil fikrlash testlari, shaxsiyat anketalari va ishlash tahlili qo'llaniladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun to'liq bo'lmagan yoki yangi elementlarni birlashtirish uchun ochiq bo'lgan o'quv vaziyatlaridan foydalanish mumkin, bunda talabalar bir nechta savollarni shakllantirishga undaydi.

Tadqiqotchilar ijodkorlik uchun quyidagi mezonlarni aniqlaydilar:

Xulosa.

Ravonlik - vaqt birligida yuzaga keladigan g'oyalar soni;

O'ziga xoslik - bu umumiy qabul qilinganlardan farq qiladigan g'ayrioddiy g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati. Ranko ta'kidlaganidek, bu parametrlarning ahamiyati ikki holatga bog'liq: birinchidan, bu parametr muammoni hal qilish jarayonida moslashuvchanlikni ko'rsatadigan shaxslarni, ularni hal qilishda qat'iylik ko'rsatadigan shaxslarni ajratishga imkon beradi, ikkinchidan, bu bizga imkon beradi. muammolarni hal qiladigan asl shaxslarni soxta o'ziga xoslikni ko'rsatadiganlardan farqlash.

Sezuvchanlik - g'ayrioddiy tafsilotlarga, qarama-qarshiliklarga va noaniqlikka sezgirlik, bir fikrdan ikkinchisiga tezda o'tishga tayyorlik;

Metaforik - mutlaqo g'ayrioddiy kontekstda ishlashga tayyorlik, ramziy, assotsiativ fikrlashga moyillik., Murakkabni oddiyda va oddiyini murakkabda ko'rish qobiliyati.

REFERENCES

1. <https://uz.unistica.com/ijodkorlikni-rivojlantirish/>
2. <https://uz.atomiyme.com/ijodkorlikni-rivojlantirish-bu-muvaffaqiyatga-erishish-yolidir/>
3. <https://eurodomik.ru/uz/materials/kreativnost-chno-eto-takoe-uprazhneniya-dlya-razvitiya-kreativnosti-chno-takoe.html>

BIR O'ZGARUVCHILI TENGLAMALAR BILAN YECHILADIGAN MURAKKAB MASALALARNI YECHISHGA O'RGATISH.

Erkinova Odinaxon Kozimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Matematika va informatika yonalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10077582>

Annotatsiya. Umumiy o'rta-talim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun, jumladan uzluksiz matematik talim tizimi jarayonida ilgor pedagogik tajribani organish va yoyish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish zarurdir.

Boshlang'ich sinf matematik darslarida ilgor pedagogik texnologiyadan foydalanib dars otilsa, tenglamalarni o'qitish jarayoni takomillashadi. Mavzuning asosiy shu bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich inf, tenglama, masala, bir o'zgaruvchili tenglamalar.

TEACHING TO SOLVE COMPLEX PROBLEMS THAT CAN BE SOLVED WITH SINGLE-VARIABLE EQUATIONS.

Abstract. In order to improve the quality and effectiveness of the general secondary education process, it is necessary to study and spread the advanced pedagogical experience in the process of the continuous mathematical education system, to create the theoretical and practical foundations of modern pedagogical technology.

The process of teaching equations will be improved if lessons are taught using advanced pedagogical technology in elementary math classes. The main theme is based on this.

Key words: pedagogical technologies, elementary information, equation, , problem, one-variable equations.

ОБУЧЕНИЕ РЕШЕНИЮ СЛОЖНЫХ ЗАДАЧ, РЕШАЕМЫХ УРАВНЕНИЯМИ С ОДНОЙ ПЕРЕМЕННОЙ.

Аннотация. В целях повышения качества и эффективности процесса общего среднего образования, в том числе изучения и распространения передового педагогического опыта в процессе непрерывного математического образования, необходимо создание теоретических и практических основ современных педагогических технологий.

Процесс обучения уравнениям улучшится, если уроки будут проводиться с использованием передовых педагогических технологий на уроках начальных классов математики. На этом основана основная тема.

Ключевые слова: педагогические технологии, элементарная информация, уравнение, задача, уравнения с одной переменной.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida shakllangan uzluksiz talim tizimi barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash jarayonining samarali tashkil etilishini taminlashga xizmat qiladi.

Uzluksiz talim tizimi doirasida faoliyat olib boruvchi talim muassasalari ilgor, demokratik hamda insonparvar goyalarga tayangan, hamda yangicha mazmunga ega bulgan talim jarayonini tashkil etishda muhim orin tutadi. Uzluksiz talim tizimini shakllantirish, shuningdek, taglim mazmunini yangilash talim sohasida olib borilayotgan islohotlarning bosh goyasi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida uzluksiz talim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni izlab

topish, bu borada eng maqbul omil deb topilgan yangi pedagogik texnologiyalarni umumiy orta talim kasb-hunar kollejlari, akademik litseylari va oliy o'quv yurti faoliyatlariga tatbiq etish borasida amaliy harakatlarni olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda.

METODOLOGIYA

Masala qaraymiz: «Qafasda tustovuq va quyonlar bor. Ularning boshlari 19 ta, oyoqlari 62 ta. Qafasda nechta tustovuq va nechta quyon bor?» Bu masalani arifmetik yechish mumkin. Ammo eng sodda yechish usuli tenglama tuzib yechishdir. Tustovuqlar sonini x harfi bilan belgilay-miz. U holda tustovuqlar oyoqlari $2x$ ta. Quyonlar soni $19 - x$ ta, ularda oyoqlar soni $4(19 - x)$ ta. Masala sharti bo'yicha $2x + 4(19 - x) = 62$, ya'ni $76 - 2x = 62$. Tenglama bajarilishi kerak. Bu tenglamani yechamiz: $2x = 76 - 62 = 14$, shuning uchun $x = 7$. Demak, qafasda 7 ta tustovuq va 12 ta quyon bo'lgan.

Agar masala shartida quyon va tustovuqlarning oyoqlari soni 61 ta bo'lganda edi $2x + 4(19 - x) = 61$ tenglamani hosil qilgan bo'lar edik, bundan $x = 7$. Bu masala shartiga zid, chunki x – natural son. Biz masalani yechib, unda oyoqlar soni 80 ta ekanligini topish bilan ham ziddiyatga kelar edik. $2x + 4(19 - x) = 80$ tenglamaning ildizi $x = -2$, lekin tustovuqlar soni manfiy bo'la olmaydi. Umuman, x soni 18 dan katta bo'lmagan natural sonlardan iborat bo'lishi kerak (qafasda hech bo'lmaganda bitta quyon bor deb hisoblansa), ya'ni x soni $x = \{1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; 14; 15; 16; 17; 18\}$ to'plamga tegishli bo'lishi kerak.

Tenglamalarni yechishda ba'zi shakl almashtirishlarni kiritamiz. Masalan, $76 - 2x = 62$ tenglamani yechishda tenglamaning ikkala qismiga $2x$ ni qo'shib, ikkala qismidan 62 ni ayirdik. Natijada $2x = 14$ tenglama hosil bo'ldi. Uni yechish uchun teng-lamaning ikkala qismini 2 ga bo'ldik. Bu o'zgarishlarning har biridan keyin yangi tenglama hosil bo'ldi, ammo hosil bo'lgan tenglamalar $76 - 2x = 62$ tenglama ham, $2x = 14$ tenglama ham, $x = 7$ tenglama ham (bu ham tenglama) bitta yechimga, aynan 7 soniga teng bo'ladi.

Endi nimaga asoslanib tenglamalarni bunday o'zgartirganimizni va nima uchun bunday o'zgarishlar kiritganimizda yechilayotgan tenglamaning ildizlari o'zgartirganimizni aniqlaymiz. Ba'zan bunday tushuntiriladi: tenglamaning yechimlaridan biri x bo'lsin. U holda x ning bu qiymatida tenglama to'g'ri sonli tenglikka aylanadi. Agar sonli tenglikning ikkala qismiga bir xil son qo'shilsa yoki ikkala qismidan bir xil son ayirilsa, sonli tenglik o'zgarishsizligi uchun yuqoridagi o'zgarishlarni kiritib, oxirida x soni nimaga tengligi topiladi. Bunday yondoshishda x ni son deb qabul qilinadi. Biroq yechimga ega bo'lmagan tenglamalar mavjud, masalan, $2x = 2x + 6$. Bundan yuqoridagi o'zgarishlarni bajarib $0 = 6$ yolg'on tenglikka kelamiz. Bu esa tenglamaning yechimi ni « x son tenglamaning yechimi bo'lsin» degan ibora bilan boshlash mumkin emasligini bildiradi.

MUHOKAMA

Undan tashqari, tenglamani bunday usulda yechish ortiqcha ildizlarga olib keldi, bu ildizlar o'zgartirishlar kiritilganda hosil boigan tenglamalarni qanoatlantiradi, ammo dastlab berilgan tenglamani qanoatlantirmaydi. Shunday qilib, tenglamalarni ko'rsatilgan usulda yechishda har bir topilgan ildizni tenglamaga qo'yib tekshirish kerak, buni har doim ham bajarib bo'lmaydi.

Shuning uchun tenglama va uning ildizlariga aniqroq ta'rif beramiz: x o'zgaruvchili $f_1(x)$ va $f_2(x)$ ikki ifoda berilgan bo'lsin, bunda x o'zgaruvchi birorta to'plamning qiymatlarini birin-ketin qabul qiladi. Bir o'rinli $f_1(x)$ va $f_2(x)$ X predikatni tenglama deymiz. Tenglamani yechish

x o'zgaruvchining qiymatlarini topish, ya'ni berilgan predikatning rostlik to'plamini topish demakdir, bu qiymatlarni tenglamaga qo'yganda tenglik hosil bo'ladi.

Kelgusida $f_1(x) = f_2(x)$, $x \in X$ predikatning rostlik to'plamini tenglamalar yechimining to'plami, bu to'plamga kiruvchi sonlarni tenglamalarning iildizlari deymiz.

Masalan, $(x - 1) - (x - 3) = 0$ tenglama ikkita ildizga ega: 1 va 3, demak, bu tenglamaning yechimlari to'plami $T = \{1; 3\}$ ko'rinishga ega. Cheksiz ko'p yechimga ega bo'lgan tenglamalar ham mavjud. Masalan, $x = \sqrt{x} \sqrt{v}$. Tenglamani har qanday nomanfiy son qanoatlantiradi. Bunda yechimlar to'plami barcha nomanfiy sonlardan iborat.

Shunday bo'lishi ham mumkinki, $f_1(x) = f_2(x)$ ifoda x to'plamdan olingan birorta a da qiymatga ega emas. U holda $f_1(x) = f_2(x)$ tenglik yolg'on hisoblanadi va shuning uchun a son $f_1(x) = f_2(x)$ tenglamaning ildizi bo'la olmaydi.

1- Rif. $F_1(x) = f_2(x)$ va $F_1(x) = F_2(x)$ ikki tenglamaning yechimlari to'plami teng bo'lsa, teng kuchli deyiladi, ular, ya'ni birinchi tenglamaning har bir yechimi ikkinchi tenglamaning yechimi bo'lsa va aksincha, ikkinchi tenglamaning har qanday yechimi birinchi tenglamani qanoatlantirsa, bu tenglamalar teng kuchlidir.

Bunda biz ikkala tenglama bitta X aniqlanish sohasiga ega deymiz. Boshqacha aytganda, agar $f_1(x) = f_2(x)$ va $F_1(x) = F_2(x)$ predikatlar ekvivalent bo'lsa, tenglamalar teng kuchli bo'ladi.

2-ta'rif. Agar $f_1(x) = f_2(x)$ tenglamaning yechimlar to'plami $F_1(x) = F_2(x)$ tenglamaning yechimlar to'plamining qism to'plami bo'lsa, $F_1(x) = F_2(x)$ tenglama $f_1(x) = f_2(x)$ tenglamaning natijasi deyiladi.

Boshqacha aytganda, agar $f_1(x) = f_2(x)$ tenglamaning har bir ildizi $F_1(x) = F_2(x)$ tenglamani qanoatlantirsa, $F_1(x) = F_2(x)$ tenglama $f_1(x) = f_2(x)$ tenglamaning natijasidir.

Masalan, $(x + 1)^2 = 16$ tenglama $x + 1 = 4$ tenglamaning natijasidir. Haqiqatan, $x + 1 = 4$ tenglama bitta $x = 3$ ildizga ega. Bu ildizni $(x + 1)^2 = 16$ tenglamaga qo'yib, $(x + 1)^2 = 16$ rost tenglikni hosil qilamiz. Bu tenglik 3 soni $(x + 1)^2 = 16$ tenglamani ham qanoatlantirishini ko'rsatadi.

NATIJA

Agar ikki tenglamaning har biri ikkinchisining natijasi bo'lsa, bu ikki tenglama teng kuchli deyiladi.

Ba'zan tenglama ikki yoki undan ortiq tenglamalar dizyunksiyasiga teng kuchli bo'ladi. Masalan, $(x - 1)(x - 3) = 0$ tenglamani va ikki tenglama dizyunksiyasi $(2x - 1 = 0) \cap (7x - 21) = 0$ ni olaylik. $(x - 1)(x - 3) = 0$ tenglamaning yechimlar to'plami $\{1; 3\}$. Agar ikki son ko'paytmasida ko'paytiruvchilardan aqalli bittasi nolga teng bo'lsa, ko'paytma nolga teng bo'ladi, u holda $(2x - 2 = 0) \cup (7x - 21) = 0$ tenglamaning dizyunksiyasi x ning barcha qiymatlarida rost mulohaza bo'ladi. X ning bu qiymatlari uchun $2x - 2 = 0$ yoki $7x - 21 = 0$ mulohazalardan aqalli bittasi rost bo'ladi. Agar $x = 1$ bo'lsa, $2x - 2 = 0$ rost, $x = 3$ bo'lsa, $7x - 21 = 0$ ham rost. Demak, $\{1; 3\}$ dizyunksiyasi rost to'plami bo'ladi. Bu esa $(x - 1)(x - 3) = 0$ tenglamaning $(2x - 2 = 0) \cup (7x - 21) = 0$ dizyunksiyaga teng kuchliligini bildiradi.

$X = a$ tenglamaning yechimini topish juda oson, uning yechimlari to'plami bitta a sonidan iborat, $T = \{a\}$. Shuning uchun tenglamalarni yechishda ular sodda ko'rinishga ega bo'lgan teng kuchli tenglamalar bilan almashtiriladi, bu almashtirish $x = a$ tenglamaga yoki shunday tenglamalar dizyunksiyasi $x = a \cup$

$X = a_2 U \dots Ux = a_n$ ga kelguncha davom ettiriladi. U holda berilgan tengla-maning yechimlari to'plami $T = \{a_1; a_2; \dots; a_n\}$ bo'ladi. Ba'zan berilgan tenglamadan unga teng kuchli tenglamaga emas, uning natijasiga o'tishga to'g'ri keladi. Bunda yechimlar to'plami kengayadi, shuning uchun oxirida topilgan hamma ildizlarni berilgan tenglamaga qo'yib, tekshiriladi.

2 – sinfdan o'quvchilarni tenglama yechishga o'rgatish murakkab jarayon hisoblanadi va o'qituvchidan katta mehnat talab etadi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tenglamalarni yechishga o'rgatishda, ulardagi tenglama haqidagi tushunchalarini shakllantirish; ularning tenglama yechish usullari haqidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish; matematika darslarini hayot bilan bog'lagan holda ularning o'qishdagi faolligini oshirish va fikrlash qobiliyatini charxlash.

Tenglama tushunchasi haqidagi bilimlarni qoidalarga tayanib, lahlil qilgan holda tenglama yechishga o'rgatish va misollar yorgamida mustahkamlashni amalga oshirish lozimdir.

REFERENCES

1. Jumoyeva M.E. , Tojiev Z.G'. "Boshlang'ich sinflarda matematik O'qitish metodikasi" Tosh. 2015
2. Bikbayeva N.U. ,Sidelniqova R.U. , Adambekova G.A. "Boshlang'ich Sinflarda matematik o'qitish metodikasi" Tosh. 2020
3. Levenberk L.Sh. , Ahmadjonov I.T., Nurmatov A. N. "Boshlang'ich Sinflarda matematik o'qitish metodikasi" Tosh. 2017
4. Bikbayeva N.U, Yangaboyeva E, Matematika 3-sinf u-n darslik "O'qituvchi"-Tosh. 2015

O'ZGARUVCHAN VA O'ZGARMAS XOTIRA QURILMALARI.

J.T.Metinqulov

Jizzakh Polytechnic Institute

F.B.Irisboyev

Jizzakh Polytechnic Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10081998>

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda tez suratlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalarning asosi xotira qurilmalari hisoblanadi. Xotira qurilmalarning ikki turini yani o'zgaruvchan va o'zgarmas turini ko'rib o'tamiz. Qaysi biridan foydalanish qulay.*

***Kalit so'zlar:** Registr fayli, protsessorga o'rnatilgan kichik xotiralar, yarimo'tkazgichli xotira qurilmalari.*

VOLATILE AND NON-VOLATILE MEMORY DEVICES.

***Abstract.** Memory devices are the basis of today's rapidly developing technologies. We will consider two types of memory devices: volatile and non-volatile. Which one is convenient to use.*

***Key words:** Register file, small memories embedded in the processor, semiconductor memory devices.*

ЭНЕРГОЗАВИСИМЫЕ И ЭНЕРГОНЕЗАВИСИМЫЕ ЗАПОМИНАЮЩИЕ УСТРОЙСТВА.

***Аннотация.** Устройства памяти являются основой современных быстро развивающихся технологий. Мы рассмотрим два типа запоминающих устройств: энергозависимые и энергонезависимые. Какой из них удобно использовать.*

***Ключевые слова:** Регистровый файл, малая память, встроенная в процессор, полупроводниковые запоминающие устройства.*

Kirish

Operativ xotira-protsessorga o'rnatilgan (odatda) nisbatan ichik xotira. U protsessor ishlayotgan qiymatlarni vaqtincha saqlash uchun skretchpad sifatida ishlatiladi - siz uni protsessorning qisqa muddatli xotirasi deb atashingiz mumkin.

RAM nomi qayerdan kelgan?

Tarixiy sabablarga ko'ra, o'zgaruvchan xotira odatda RAM deb ataladi - Tasodifiy kirish xotirasi. Albatta, tasodifiy qism xotiraga kirishda tasodif ishtirok etadi degani emas. Bu qisqartma kompyuterlar rivojlanishining dastlabki bosqichida yaratilgan. O'sha paytlarda o'zgaruvchan xotiraning har xil turlari mavjud edi: Biri istalgan manzilga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkonini beradigan va faqat ketma-ket o'qilishi va yozilishi mumkin bo'lgan (shift registr xotirasi deb ataladigan). Muhandislar xotira nuqtai nazaridan har qanday "tasodifiy", ya'ni o'zboshimchalik bilan manzilga kirish mumkinligini aks ettirish uchun avvalgi turni "tasodifiy kirish xotirasi" deb atashga qaror qilishdi. Xotiraning oxirgi turi hozirda ko'p ishlatilmaydi lekin RAM atamasi saqlanib qoladi.[1]

Tashqi xotira-Uzoq muddatli saqlash uchun umumiy protsessorlar odatda registr faylidan ancha katta bo'lgan tashqi xotiradan foydalanadilar. U erda saqlanadigan ma'lumotlar qisqa muddatli bo'lishi mumkin, lekin protsessor ishlayotgan vaqt uchun ham amal qilishi mumkin. Albatta, tashqi xotirani protsessorga ulash uchun ma'lum apparatkuchlari talab qilinadi va shuning

uchun ma'lum xarajatlar talab etiladi. Shu sababli, mikrokontrollerlar odatda chipdagi ma'lumotlar xotirasiga ega.

Ma'lumotlar xotirasi kabi, buyruq xotirasi odatda nisbatan katta tashqi xotira (hech bo'lmaganda umumiy protsessorlar bilan). Aslida, von-Neumann-arxitekturalari bilan u hatto ma'lumotlar xotirasi qurilmasi bilan bir xil xotira qurilmasi bo'lishi mumkin. Mikrokontrollerlar bilan ko'rsatmalar xotirasi ham odatda MCU ga birlashtirilgan. [2]


Bular protsessorlarda yoki uning atrofida xotiradan eng ko'p foydalanishlari. Biroq protsessorlarda ko'rinadiganidan ko'ra ko'proq xotira mavjud. CPU turiga qarab, quvur liniyasi registrlari, keshlar, turli buferlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

MCUga o'rnatilgan xotira haqida: Tabiiyki, bunday chipdagi xotira hajmi cheklangan. Bundan ham yomoni, ko'pincha xotirani tashqaridan kengaytirish mumkin emas (dizaynni oddiy saqlash uchun).

Biroq, MCU ko'pincha nisbatan oddiy vazifalar uchun qo'llanilganligi va shuning uchun ortiqcha xotira hajmini talab qilmasligi sababli, chipga oz miqdordagi ma'lumotlar va ko'rsatmalar xotirasini qo'shish oqilona. Shunday qilib, umumiy tizim narxi sezilarli darajada kamayadi va xotira kengaytirilmasa ham, siz unga yopishib qolishingiz shart emas: MCU oilasining turli a'zolari odatda har xil hajmdagi xotirani ta'minlaydi, shuning uchun siz ma'lum bir MCU ni tanlashingiz mumkin. tegishli xotira maydoni. [3]

Endi yuqorida aytilgan xotira turlarining funktsional farqi xotiradan foydalanish usuliga asoslanadi. Dasturchi nuqtai nazaridan bu mantiqiy. Biroq, apparat yoki chip dizaynerlari odatda xotirani boshqacha ko'rishadi: ular xotira yaratilgan elektron qismlarning fizik xususiyatlariga ko'ra farqlashni afzal ko'radilar. U erda eng asosiy farq uchuvchan va o'zgaruvchan xotira bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, uchuvchanlik, tizimning quvvati o'chirilishi bilanoq xotira tarkibi yo'qolishini anglatadi.

Albatta, har ikkala turdagi xotirani amalga oshirishning turli usullari mavjud. Shuning uchun, jismoniy xususiyatlarga asoslangan farqni batafsilroq kiritish mumkin. O'zgaruvchan xotira statik yoki dinamik bo'lishi mumkin va juda ko'p turli xil o'zgaruvchan xotira turlari mavjud: ROM, PROM, EPROM, EEPROM, FLASH, NV-RAM. Keling, ularni batafsilroq ko'rib chiqaylik.




1-rasm. Yarimo'tkazgich xotirasining turlari.

O'zgaruvchan xotira: Yuqorida aytib o'tilganidek, o'zgaruvchan xotira faqat tizim

yoqilgan vaqtgacha o'z tarkibini saqlab qoladi. Unda nima uchun doimiy xotiradan foydalanish mumkin bo'lsa, unda doimiy xotira mavjud bo'lsa? Bu erda muammo shundaki, o'zgaruvchan xotira odatda ancha sekinroq, ishlashga ko'proq jalb qilinadi va ancha qimmatroq. Shaxsiy kompyuteringizdagi o'zgaruvchan xotira nanosekundlar oralig'ida kirish vaqtlariga ega bo'lsa-da, ba'zi o'zgaruvchan xotira turlari ularga bitta yomon bayt yozgandan so'ng millisekundlar davomidamavjud bo'ladi.[3.4]


Tabiat va jamiyatda har bir hodisa, voqelik muayyan sabab asosida yuzaga keladi. Bu sababiy bog'lanish falsafiy jihatdan sabab va oqibat kategoriyalarini tashkil etadi. Til va nutqiy faoliyatda ham har bir lisoniy dalil muayyan sabab natijasidir. Bu sabab zarurat, maqsad, o'zaro munosabat, zidlanish, miqdor va sifat o'zgarishlari xarakterida bo'lishi mumkin. Har qanday muloqot markazida, albatta, shaxs turishi yuqorida ham ayildi. Nutqiy faoliyatda gapirish va tushunish, nutq hosil qilish va uni idrok qilish jarayonlari almashinib turadi³³. Mazkur jarayonlar davomida matn mazmuni shakllanadi, axborot etkazish va anglash bosqichlarida matn mazmunining yashirin hamda oshkora jihatlari uzatiladi, idrok etiladi.

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, matn tilning barcha imkoniyatlari: leksik-semantik, uslubiy, grammatik, kommunikativ-pragmatik, diskursiv, antropotsentrik xususiyatlari reallashadigan, axborot uzatish va ta'sir etish vazifalari uyg'un tarzda amalga oshadigan tizim

³³ Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixoj'ajeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 3.

hisoblanadi. E.Aznaurova ham ifodaning semantik-uslubiy va pragmatik mazmuni – kompleks tushuncha ekanligi, uni aniqlash jarayoni ko‘p bosqichlilikini qayd etib, bu jarayon o‘z ichiga quyidagilarni olishini ko‘rsatib o‘tadi: verbal kontekstda aks etgan birliklarning mazmuni va kombinatorikasi bilan belgilanadigan kontekstual ma‘noni ochib berish; bu bosqichda ifoda “yopiq” tizim sifatida ko‘riladi. Ifoda yaxlit matnning bir qismi sifatida ko‘riladigan matnli implikatsiyalar mazmunini anglash. Bunda retsipyentning lingvistik malakasi faol ishga tushadi. Pragmatik axborotning o‘zini aniqlash, ya’ni aniq bir KPV (kommunikativ-pragmatik vaziyat) va uning parametrlari etnik sotsium a‘zolarining qabul qilingan me‘yoriy pozitsiyalari nuqtai nazaridan jamiyatning institutsional va rolli strukturasi va ularning strukturaviy tarkibi haqidagi tasavvurlarning aniqlanishi va nihoyat, nutqiy muloqotning aniq bir ishtirokchisiga kommunikativ aktning aniq amalga oshirish joyi, vaqtida “ko‘rinadigan” pragmatik ma‘nolarni ajratib olish, boshqacha aytganda kommunikatsiya ishtirokchilari tomonidan dunyo, jamiyat va insonning talqin etilishini pragmatik mazmunini ochib berish³⁴. Demak, matnda uzatiladigan axborotning mazmuniy-pragmatik tuzilishini tahlil etish tadqiqotchidan semantik va pragmatik kategoriyalarni chuqur bilishni talab etadi.

Matn mazmunining shakllanishi, strukturasi tarkib topishida uni tashkil etuvchi har bir lisoniy birlikning semantikasi va pragmatikasi muhim o‘rin tutadi. Matn mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar haqida fikr yuritilganda *propozitsiya*, *referensiya*, *presuppozitsiya*, *implikatura*, *tagma’no* kabi terminlar kuzatiladi. Propozitsiya va referensiya nutqiy birlikning borliq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador, denotativ qismini tashkil etsa, presuppozitsiya, implikatura, tagma’no kabilar bevosita ifodalanmagan, ammo umumiy bilish fondiga asoslangan holda anglanishi lozim bo‘lgan axborotni qamrab oladi. Tilshunoslikda bunday ifodalanish umumiy tarzda *implikatsiya*, *implikatura*, *yashirin ma’no* terminlari bilan yuritiladi.

Propozitsiya tushunchasi hozirgi tilshunoslikda keng qo‘llanib, muayyan sintaktik qurilma vositasida ifodalangan obyektiv voqelikni ifodalaydi.³⁵ O‘zaro munosabatda bo‘lgan predmet, hodisa, xususiyat, harakat va hokazo birligidan tashkil topgan ob‘ektiv borliqning alohida elementlari tilning asosiy birliklari – so‘zning, alohida elementlar ansambli esa gapning denotati hisoblanadi.³⁶ Propozitsiya termini o‘z mohiyatiga ko‘ra gap semantikasida o‘z ifodasini topgan obyektiv mazmunni bildiradi. Professor M.Hakimovning ta’kidlashicha, fikrlash faoliyati natijasida noma’lum voqelikning ma’lum voqelikka aylanishi uchun ifodada yashirin semantik komponent ishtirok etadi. Ifoda semantik tuzilishidagi hamma uchun ma’lum bo‘lgan axborot oshkora (eksplitsit) mazmun deb qaraladi. Buni mantiqiy atama bilan propozitsiya deb ataladi.³⁷ Ma’lumki, propozitsiya nutqiy aktning denotativ tomonini tashkil etadi. Professor Sh.Safarovning fikricha, gap ma’nosining asosini tashkil qiluvchi propozitsiya voqelikda yoki tasavvurda kechayotgan hodisa-faktning semantik ramzidir. Matn mazmuniy markazi yoki, boshqacha aytganda, uning semantik mohiyati – voqelik va uning nutqiy-tafakkur idroki jarayonida tug‘iladigan tushuncha hamda lisoniy tuzilma o‘rtasidagi signifikativ ramzidir. Bunday lisoniy va ruhiy-mantiqiy bog‘liqlik propozitsiya ko‘rinishini oladi hamda ushbu turdagi propozitsiya faqat

³⁴ Qarang: Qazaqova N. A. G‘afur G‘ulom asarlarining pragmaligvistik tadqiqi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa d-ri (Doctor of philosophy)...diss. – Namangan, 2019. – B.140 Aznaurova E. Pragmatika xudojestvennogo slova. – Tashkent: Fan, 1988. – B. 80.

³⁵ Usmonova H.O‘zbek tilida gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi: filol. fanlari d-ri... diss. – Toshkent, 2010. – B. 67.

³⁶ Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 35.

³⁷ Hakimov M. O‘zbek pragmaligvistikasi asoslari. – Toshkent: Akadernashr, 2013. – B. 74.

kechayotgan voqea haqidagi xabargina bo‘lib qolmasdan, yetkazilayotgan xabarning tasdig‘i hamdir³⁸.

Matn semantikasi haqida so‘z borganda referensiya hodisasi ham qayd etiladi. Referensiya haqida tilshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar referensiya va propozitsiya terminlarini ma‘nodosh tarzda qo‘llaydilar. Jumladan, G.Frege har qanday gapda fikr (mazmun) sathidan referensiya sathiga (ma‘noga) qadam qo‘yiladi, shu bilan birga, ayrim ma‘nolarning tasdiq yoki inkor qilish akti sodir bo‘ladi, deydi. Referent sath uchun propozitsiya terminini ishlatadi. Referensiya zamonaviy tilshunoslikda til belgisining tildan tashqaridagi real borliqdagi obyektlar va vaziyatlar bilan munosabati jarayoni sifatida aniqlanadi. Referensiya hodisasi ham denotativ semantika doirasida talqin qilinadi va an‘anaga binoan nomlovchi lisoniy birliklarning borliqdagi obyektga munosabati va u bilan bog‘liq tushunchalar sifatida tavsiflanib kelinmoqda. Aslida, lisoniy nomni voqelik bilan bog‘lashda so‘zlovchining (yoki lisonidan foydalanuvchi shaxsning) maqsadi, lisoniy faoliyat niyati muhim o‘rin egallaydi³⁹. Referent esa referensiya jarayonida til belgisi yo‘naltirilgan obyekt, voqelikdagi hodisani ifodalaydi. Referent termini tilshunoslikda denotat tushunchasiga ma‘nodosh sifatida ham qo‘llanadi. Ba‘zi tilshunoslar bu ikki tushunchaning farqli jihatlari borligini qayd etadilar. Referent, yana bir ta‘rifga ko‘ra, inson ongida atrofda voqelik obyektlari va hodisalarini aks ettiruvchi nutqni yo‘naltiruvchi mental qurilmadir.

Referensiya hodisasi matn mazmuni uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, voqelik bayonining uzluksizligini va davomiyligini ta‘minlab, uning qismlari o‘rtasidagi anaforik va kataforik munosabatlarni hamda retrospektiv va prospektiv bog‘liqliklarni namoyon qiladi. Matn mavzusiga oid axborot bayoni jarayonida oldinroq ma‘lum qilingan yoki xabar qilinishi kutilayotgan axborot, ma‘lumotlarga murojaat qilishga majbur bo‘linadi. Bunday turdagi axborotlar vositasida predmet va hodisalarini o‘xshatish, ma‘lumotlarni aniqlashtirish, odingi yoki kutilayotgan ma‘lumotlarga murojaat, aytilgan fikrni rivojlantirish, asoslash kabi maqsadlar amalga oshiriladi. Matn referensiyasi axborotni umumlashtirish va qayta to‘plash, retrospektiv tahlil etish imkonini yaratib, yangi ma‘lumotlarni oldindan tahlil qilish, anglash sharoitini hosil qiladi.⁴⁰ Masalan, referensiya tushunchasi ayrim tadqiqotlarda propositiv mazmun asosida aniqlanadigan qo‘shimcha axborotlar sifatida talqin qilinadi.

Professor S. Boymirzayeva matn referensiyasining ikki ko‘rinishini qayd etadi:

1) matn elementlari tizimli munosabatga kirishib, tizimli strukturani tashkil qiladi va bu tizim asosida matnning ichki referensiyasi hosil bo‘ladi; 2) matnda tasvirlanayotgan voqelik ob‘ektiv borliqdagi predmet-hodisalar bilan taqqoslanadi va shu yo‘sinda tasavvurdagi “matn dunyosi”ga baho berish yo‘li bilan tashqi referensiya hosil bo‘ladi⁴¹. Ichki referensiya informativ mazmun yetakchilik qiladigan matnlarda kuzatilsa, tashqi referensiya badiiy va publitsistik matnlarda yetakchilik qiladi. Tashqi referensiya intertekstuallik, allyuziya kabi hodisalar orqali reallashadi.

Har qanday gap, shuningdek, yirik sintaktik birliklar semantikasi haqida so‘z borganda, uning mazmunida propositiv, modal va kommunikativ aspektlar ishtirok etishi ma‘lum. Modal va

³⁸ Boymirzaeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – B. 16.

³⁹ Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – B. 118.

⁴⁰ Boymirzaeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fanlari d-ri... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2010. – B.18.

⁴¹ Boymirzaeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fanlari d-ri... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2010. – B 19.

kommunikativ jihatlar sintaktik birlikning pragmatik tomonini tashkil etadi. Tilshunoslar tomonidan e'tirof etilishicha, ayrim gaplar, nutqiy tuzilmalarda propozitsiya, ya'ni denotativ qism aniq mavjud bo'lmasa, gap semantikasi obyektiv borliqdagi muayyan predmet bilan bog'lanmasa-da, unda modal va kommunikativ jihatlar shakllangan bo'lishi mumkin. Chunki har qanday nutqiy tuzilma so'zlovchining ichki niyatini reallashtirish uchun yuzaga keladi.

Ma'lumki, muloqot jarayoni murakkab bo'lib, har qanday nutqiy tuzilmaning mohiyati aynan uni ifodalayotgan grammatik asoslarga, semantikaga, propozitsiyaga muvofiq kelmasligi, bu esa so'zlovchi yoki muallifning mo'ljali va kommunikativ strategiyasi asosida shakllanishi mumkin. Aynan shu holatda matn implikaturasi yuzaga keladi. Implikaturaning ikki turi kuzatiladi: grammatik implikatura (implikatsiya), semantik implikatura (implikatsiya). Grammatik implikatsiya nutqiy jarayonda keng kuzatiladigan hodisa bo'lib, tilning tejamkorlik tamoyili natijasidir.

Pragmalingvistika uchun semantik implikatsiyalashuv ahamiyatli bo'lib, referensial tagma'no, presuppozitsiya, allyuziya kabilar implikatsiyalashuv ko'rinishlari sifatida ko'rsatiladi.

Allyuziya (lat.allusio hazil) uslubiy figura sifatida tarixiy shaxslar, voqea-hodisalarga ishora qilish, mashhur shaxslarning nutqlaridan parcha keltirish san'ati bo'lib, tilshunoslik nuqtai nazaridan intertekstuallikning bir ko'rinishini ifodalaydi. Tarixiy shaxslar, diniy-mifologik qarashlar bilan bog'liq qahramonlar, asar personajlariga ishora qilish, ularning nutqidan vaziyatga mos parcha keltirish, shu orqali yashirin ma'no ifodalash allyuziyaning mohiyatini tashkil qiladi. Masalan: *Hay-hay-hay! Ismu nasablarindan aylanayin: ehtimol birlari – Dodaxo jamikinlar, yana birlari kimsan – Abonosirning shaxsan o'zlari deymenov.* (Tanlangan asarlar,8-jild, "Ikki afandi",79-bet). Muallif maqsadi, albatta, asar qahramonlarining tashqi qiyofasini bo'rttirib, ta'sirli ifodalash. O'quvchidan bu jarayonda esga olingan asar qahramoni haqida ham tasavvurga ega bo'lish talab qilinadi. O'quvchi yoki tinglovchi matndagi assotsiativ bog'lanishdan xabardor bo'lmasa, uning mazmun-mohiyatini yetarlicha anglay olmaydi. Masalan: *Ta'kid joizkim, mazkur "mo'ylab" atamoq otlig' tuklarga ikki mas'ul vazifa yuklang'ondir. Ya'nikim, erkak sanalmish ul zotg'a husn berib turmog'i va yanakim, sho'rpo ichular damda har biri Olovuddinning g'orini eslatg'uchi burun kataklarini ixota qilmoqluk* (Tanlangan asarlar,8-jild,"Ikki afandi",79-bet). Sharq ertaklaridagi Olovuddin va u bilan bog'liq voqealardan bexabar kitobxon bu allyuziv nomning qo'llanishini to'liq tushuna olmaydi.

Tohir Malik allyuziyani qo'llashda ham o'zining individual uslubidan kelib chiqqan holda yumoristik ruhni ifodalovchi kontekstdan foydalanadi. Masalan: *"Sizning ishqingizda shoir bo'lib ketdim", debdilar-a! She'rlari biram g'alatiki... bitta o'qishda yodlanib qolsa-ya!"Qani Layli bilan Shirin, ulardan noz o'rgangin, qani o'sha Farhod bilan majnun deganlari men ularga ishqni o'rgatib qo'yayin"* (Tanlangan asarlar,8-jild,239-bet).

Tilning pragmatik vazifasini ko'rsatuvchi hodisalardan yana biri presuppozitsiyadir. Bu hodisa gapning to'g'ri anglanishi uchun eng zarur komponentdir. Chunki presuppozitsiya gapning vaziyat, kontekst hamda so'zlovchi va tinglovchilarning oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlari kabi elementlarni o'z ichiga oluvchi hodisadir. Shuning uchun har qanday gap presuppozitsiya hodisasi asosida tahlil etilmasa, to'g'ri baholanmaydi ⁴².

⁴² Rahimov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: filol. fanlari nomzodi ... diss. Samarqand, 1994. – B. 3.

Presuppozitsiya hodisasiga nisbatan tagbilim termini ham qoʻllanadi. Chunki presuppozitsiya fon bilimiga tayanadi. Presuppozitsiya koʻpincha lisoniy shakl bilan bogʻliq boʻlib, muayyan shakl presuppozitsiya signali vazifasini bajaradi. Oʻzbek tilshunosligida A. Nurmonov, N. Mahmudov, U. Rahimovlarning ilmiy tadqiqotlarida mazkur hodisaning mohiyati va turlari tahlil qilingan. Maʼlumki, presuppozitsiya hodisasi nutqiy tejamlilikni taʼminlovchi hodisalardandir. Professor N. Mahmudovning taʼkidlashicha, har qanday tekst presuppozitsiyaga koʻra formal jihatdan ixchamlashib, qisqarib boradi. Til taraqqiyotining etakchi tendensiyasi boʻlgan til vositalarining ekonomiyasi tendensiyasi presuppozitsiyalarini formal tasvirlanishi lozim boʻlsa, unda tekst hajman kattalashadi. Nutq temasi bilan tinglovchi (oʻquvchi) tanish boʻlmagan holatlarda zaruriy ravishda shunday qilinadi ham, yaʼni ayni nutq bilan bogʻliq presuppozitsiyalar birin-ketin eksplitsit tasvirlanadi ⁴³.

Professor A. Nurmonovning fikricha, faqat maʼlum tashqi signallar (grammatik koʻrsatkichlar) orqali anglashilgan presuppozitsiya lingvistik presuppozitsiya hisoblanishi kerak. Masalan, *Ahmad ham keldi* gapida ikki propozitsiya: birinchisi Ahmadning kelganligi, ikkinchisi yana boshqasining (Karim, Halim, Salim va boshqalar) kelganligi mavjud boʻlib, ikkinchisi lingvistik presuppozitsiyadir. Chunki bu propozitsiyaga ishora qiluvchi maxsus signal – ham yuklamasi ishtirok etyapti ⁴⁴.

Tadqiqotchi U. Rahimov presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalarni morfologik, sintaktik, prosodik va ekstralingvistik vositalarga ajratadi. Morfologik vositalar qatoriga mustaqil va yordamchi soʻz turkumlari, mustaqil soʻz turkumlaridagi kategoriyalar, sintaktik vositalar sirasiga soʻroq gaplar, oʻxshatishli qurilmalar ishtirok etgan gaplar, soʻz tartibi kabilarni, ekstralingvistik vositalarga hayotda mavjud boʻlgan turli vaziyatlar, paralingvistik vositalar, sotsial vositalarni kiritadi ⁴⁵.

Presuppozitsiya tahliliga oid tadqiqotlardan maʼlumki, yordamchi soʻzlar presuppozitsiya ifodalashda eng sermahsul vositalardan hisoblanadi. Chunki yordamchi soʻzlar nutqning mazmun va formal jihatdan shakllanishida juda muhim vazifalar bajaradi. A. Pardayev yuklama qatnashgan jumlaning semantik strukturasi yuklama qatnashmagan jumlagi nisbatan murakkabligi bilan ajralib turishini, yuklamalarning jumla mazmuniy tuzilishini murakkablashtirishdagi taʼsiri presuppozitsiya orqali namoyon boʻlishini taʼkidlaydi ⁴⁶.

Koʻmakchilar ham presuppozitsiya ifodalashda yetakchi vositalardan boʻlib, oʻzbek tilida *boshqa, boʻlak, oʻzga, tashqari, koʻra, qaraganda, keyin, soʻng, burun, oldin, ilgari, bilan, binoan, asosan, kabi, singari, yangligʻ, buyon, beri, nari, qaramay, qaramasdan, sayin, sari, sababli, tufayli, orqali, chogʻli, osha, boʻyicha, boʻyi, chamasi, haqida, toʻgʻrisida, holda, yoʻsinda, tomon, qadar, qarshi, qarab, yarasha, loyiq, muvofiq, qarata, boshlab, tortib kabi* koʻmakchi va koʻmakchi vazifasidagi soʻzlar presuppozitsiya anglatish uchun vosita boʻla oladi ⁴⁷.

Soʻz turkumlari orasida eng murakkab kategoriya sanaluvchi feʼllarning presuppozitsiya ifodalashi masalasi ham tilshunoslar eʼtiborini jalb etgan. Jumladan, *yuvmoq, topmoq, qidirmoq, qutulmoq, ozod boʻlmoq, saqlab qolmoq, omon qolmoq, qaytarmoq, shoshmoq, eshitmoq, qurimoq* kabi feʼllarning fakultativ maʼno komponentlari asosida presuppozitsiyaga yoʻl ochiladi. Chunki

⁴³ Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // Oʻzbek tili va adabiyoti. – 1986. – №6. – B. 31.

⁴⁴ Nurmonov A. Koʻmakchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi // Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 239.

⁴⁵ Rahimov U. Oʻzbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: filol. fanlari nomzodi ... diss. – Samarqand, 1994. – B. 21.

⁴⁶ Pardaev A. Yuqorida koʻrsatilgan asar. – B. 145.

⁴⁷ Rahimov U. Yuqoridagi dissertatsiya. – B. 26.

fe'llarning nutqiy vaziyat talabi bilan presuppozitsiyani ifodalashi ularning semantik imkoniyati bilan bog'liq tarzda yuzaga keladi.

Ko'p hollarda so'zlovchi o'zi uchun muhim bo'lgan axborot ko'rinishlaridan birini oshkora bayon qilishni istamaganligi uchun yoki nutqning ta'sir kuchini yanada oshirish uchun uni matn ichiga tagma'no sifatida joylashtiradi. O.S.Axmanova tagma'noga "ichki, ko'zda tutilgan, so'z bilan ifodalanmagan fikr, matn" deb ta'rif beradi.⁴⁸ O'zbek tilshunosligida tagma'noning yuzaga kelishi, nutqdagi ahamiyati va turlari haqida turlicha qarashlar, xususan, tagma'no va presuppozitsiya terminlarini aralash holda qo'llash mavjud. Pragmatik lingvistika bo'yicha qator ilmiy izlanishlar muallifi M.Hakimov har ikki hodisa o'zaro umumiy jihatlariga ega, lekin farqli tushunchalar ekanligini ta'kidlaydi: "Jumladan, tagma'noning muhim xususiyatlari shundaki, bayon qilingan jami propozitsion axborotning umumiy yakuni so'zlovchi nazarda tutgan tagma'no hisoblanadi. So'zlovchi nazarda tutgan tagma'no ko'rinishi o'zida baho mazmunini ifodalaydi. So'zlovchi bu bilan tinglovchining xatti-harakatlariga va so'zlariga o'z munosabatini ifodalaydi"⁴⁹. Presuppozitsiya tagma'no bilan bir necha umumiy jihatlariga qaramay, "istalgan matn semantik tuzilishining mantiqiy tahlili yordamida aniqlanishi mumkin"⁵⁰.

Professor Sh.Safarov implikaturani umuman yashirin ma'no emas, maqsadli, nutqiy yashirin ma'no sifatida tushunib, bu hodisa presuppozitsiyaga yaqin tursa-da, o'zaro farq qilishini aytib o'tadi. Implikatura doimiy bo'lmagan, matnda tez o'zgarib turadigan, hatto yo'qolishi mumkin bo'lgan ma'no, mazmun elementidir. Presuppozitsiya esa, aksincha, matnda yo'qolmaydigan, doimiylik xususiyatiga ega bo'lgan mazmuniy hodisadir. Bu ikki hodisaning yana bir farqi shundaki, presuppozitsiya ko'pincha lisoniy shakl bilan bog'liqdir, implikatura butunlay ma'no doirasiga kiradi va lisoniy shaklning o'zgarishi unga qariyb ta'sir o'tkazmaydi, deb ikki hodisaning farqli tomonlariga izoh beradi⁵¹.

Badiiy matn mazmunini shakllantiradigan implitsit ifodaning yuzaga kelishida kamida uchta axborot mazmuni ishtirok etadi: bu birinchidan, matndagi lisoniy vositalar orqali ifodalangan axborot – propozitsiya, ikkinchidan, kitobxonga avvaldan ma'lum bo'lgan, matnni tushunishda yordam beradigan fon bilimlar, uchinchidan, ifoda mazmunidan va lisoniy usullardan kelib chiqadigan va idrok etilishi zarur bo'lgan yangi axborot. Shundan kelib chiqqan holda matn tilshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis I.R.Galperin matndagi parallel, lekin ikki sathda ifodalangan axborotning eksplitsit shaklini tema, yashirin shaklini rema deb yuritadi⁵².

Matn pragmatik mazmunini shakllantirishda modallik kategoriyasi muhim o'ringa ega. Chunki "...modallik harakatdagi tilga, ya'ni nutqqa xos kategoriya va shu sababli u kommunikativ jarayonning asosidir"⁵³. Modallik matnning o'ziga xos mazmuniy xususiyatlaridan biri bo'lib, uning voqelanishi muloqot jarayonining muhim talablaridan biri sanaladi. Matn modalligi ayni matnning o'zida mavjud bo'ladigan ham ontologik, ham gnoseologik xarakterli mazmuniy hodisa va uning shakllanishi bilish faoliyati jarayonida predmet-hodisalarning ontologik xususiyatlarining e'tiborga olinishini taqozo etadi. Tilning kommunikativ va gnoseologik

⁴⁸ Qarang: Qazaqova N. A. G'afur G'ulom asarlarining pragmaligivistik tadqiqi: Filol. fanlari bo'yicha falsafa d-ri (Doctor of philosophy)...diss. – Namangan, 2019. –B. 140. Axmanova O. Slovar lingvisticheskix terminov. – Moskva, 1966. – S. 320.

⁴⁹ Hakimov M. O'zbek pragmaligivistikasi asoslari. – Toshkent: Akademiya, 2013. – B. 112.

⁵⁰ Hakimov M. Yuqoridagi asar. – B. 116.

⁵¹ Safarov Sh. Pragmaligivistika. – Toshkent, 2008. – B. 132.

⁵² Qarang: Qazaqova N. A. G'afur G'ulom asarlarining pragmaligivistik tadqiqi: Filol. fanlari bo'yicha falsafa d-ri (Doctor of philosophy)...diss. – Namangan, 2019. –B. 140. Galperin I. R. Tekst kak ob'ekt lingvisticheskogo issledovaniya.– Moskva, KomKniga, 2006. – S. 44.

⁵³ Galperin I. R. Yuqoridagi asar. – B. 113.

vazifalarining o'zaro munosabati asosida matnda modallik kategoriyasi shakllanadi...Subyektiv modallik mazmunining asosida muallif intenziyasi turadi, zero, matn yaratayotgan shaxs o'zgalar tafakkuriga, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish maqsadini ko'zlaydi⁵⁴.

Modallik umumlisoniy kategoriya sanaladi va turli vositalar: grammatik shakllar, leksik, frazeologik, sintaktik, intonatsion, uslubiy vositalar orqali ifodalanadi.

Demak, matn mazmuniy tuzilishida propozitsiya, referensiya hodisalari informativ qismni, presuppozitsiya, tagma'no, allyuziya, modallik kabilar pragmatik qismni tashkil etadi.

REFERENCES

1. Abdurahmonov H., Mahmudov N. So'z estetikasi. –Toshkent: Fan, 1981. – 59 b.
2. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 88 b.
3. Ahmedova N. O'zbek tili murojaat birliklari.–Toshkent, 2009.
4. Ibragimova E. O'zbek tili leksikasining aksiologik tadqiqi. – Farg'ona, 2018.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, Fan, 2007. – 123 b.
6. Қазақова Н. А. Фафур Гулом асарларининг прагмалингвистик тадқиқи: Филол. фанлари бўйича фалсафа д-ри (Doctor of philosophy)...дисс. – Наманган, 2019. 140-б.
7. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn nazariyasi. – Farg'ona, 2016. – 112 b.
8. Маслова А. Введение в прагмалингвистику. – Москва: Флинта, 2010.– 152 с.
9. Mirtojdiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi.– Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 288 b.
10. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. – Toshkent: Universitet, 2002. – 28 b.
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent, 2008. –318 b.
12. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 133 b.
13. O'zbek tili grammatikasi. 2 tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 560 b.
14. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 304 b.
15. Lutfullayeva D., Boboxanov L. O'zbek tilining ayrim morfopragmatik vositalari tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. 2010. – №3. –B. 63-66.
16. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Farg'ona, 1996. – 165 b.
17. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol.fanlari d-ri ... diss. –Toshkent, 2001. – 265 b.

⁵⁴ Boymirzaeva S. O'zbek tilida matnning kommunikativ–pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fanlari d-ri... diss. avtoreferati. –Toshkent, 2010. – B. 17.

YURAK - QON TOMIRLAR TIZIMINING TUZILISHI HAMDA TUG'MA YURAK NUQSONLARINING TURLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI.

Rasulova Sarvinoz Sanjar qizi

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti

2-bosqich talabasi

sarvinozsanjarovna17@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10086980>

Annotatsiya. Biz mazkur maqola orqali yurak - qon tomirlarining tuzilishi hamda tug'ma yurak patologiyasi vaqtida boshqa organlarda jumladan o'pka va tomirlarda yuz beradigan anomaliyalar, bular oqibatida kechadigan belgilar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishib olamiz.

Kalit so'zlar: Yurak, tomirlar, to'qimalar, miokard, yurak hujayralari, bo'lmacha, qorincha, fallo tetradas, koronar arteriya, ateroskleroz, xolesterin.

THE STRUCTURE OF THE CARDIOVASCULAR SYSTEM AND THE TYPES OF CONGENITAL HEART DEFECTS AND THEIR CAUSES.

Abstract. Through this article, we will get acquainted with information about the structure of the heart and blood vessels and anomalies that occur in other organs, including the lungs and veins, during congenital heart pathology, and the resulting symptoms.

Key Words: Heart, vessels, tissues, myocardium, heart cells, compartment, ventricle, tetrad of phallus, coronary artery, atherosclerosis, cholesterol.

СТРУКТУРА СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ, ВИДЫ ВРОЖДЕННЫХ ПОРОКОВ СЕРДЦА И ИХ ПРИЧИНЫ.

Аннотация. Благодаря этой статье мы познакомимся с информацией о строении сердца и сосудов, и аномалиях, возникающих в других органах, в том числе легких и венах, при врожденной патологии сердца, и возникающих симптомах.

Ключевые слова: Сердце, сосуды, ткани, миокард, клетки сердца, компартмент, желудочек, тетрада фаллоса, коронарная артерия, атеросклероз, холестерин.

KIRISH:

“Asosiy vazifamiz – tibbiyot sohasini yuqori samara bilan ishlaydigan, chinakam xalqchil tizimga aylantirishdan iborat“.

SHAVKAT MIROMONOVICH MIRZIYOYEV.

ASOSIY QISM:

Yurak mushakli a'zo nasos vazifasini bajarib, qonni tomirlarga ritmik ravishda haydab beradi. Yurak uch qavat mushaklardan; endokard, miokard va epikarddan iborat. Yurak to'rt kamera ikkita bo'lmacha va qorinchaga bo'linadi. Yurak – qon tomiri tizimini funksional sinflash bosimlar farqiga qarab bo'lingan: yuqori bosimli va past bosimli. Uch xil qon tomiri mavjud; arteriya, vena va kapillyar.

Tug'ma yurak nuqsonlari – bu guruhli kasallik bo'lib, yurakning anatomik yetishmovchiligi (klapan, tomir), onaning qornida kechadigan, yurak ichi va gemodinamikaning buzilishi bilan xarakterlanadigan kasalliklardir. Tug'ma yurak nuqsonlari – bu yurak va yirik qon tomirlar kasalligi bo'lib, qon oqimi o'zgarishlari, yurak

yetishmovchiligiga olib keladi. Asosiy belgilari terining oqarishi, ko'karish belgilari, yurak shovqinlari, rivojlanishdan ortda qolish, nafas va yurak yetishmovchiligi belgilaridir.

Yurak nuqsonlari kelib chiqishining sabablari bu xromosomadagi o'zgarishlar, gen mutatsiyasi, tashqi muhit ta'sirlari va poligen faktoriyalarga moyillik. Homila rivojlanishining birinchi uch oyligida tug'ma yurak nuqsonlarining hosil bo'lish ehtimoli yuqori darajaga yetgan bo'ladi. Ona qornida qizilcha virusi bilan zararlanish, uchta kasallik glaukoma yoki katarakta, karlik va yurak nuqsonlari (Fallo tetradasi, magistral tomirlar transpozitsiyasi, klapan yetishmovchiligi va o'pka arteriyasi stenoz) ga olib kelishi mumkin.

Tug'ma yurak nuqsonlarining bir necha xil turlari mavjud.

1.O'pka orqali juda ko'p qon o'tishiga olib keladigan muammolar.

Bu nuqsonlar kislorodga boy qonni o'pka orqali aylanishiga yordam beradi, natijada esa o'pkada bosim va stressni keltirib chiqaradi. Quyidagi muammolar sabab:

* Patent arterioz kanali tug'ilishdan keyin arterioz kanali yopilmay qolishi. Bunda qo'shimcha qon aortadan o'pkaga o'tadi va o'pkaning "to'lib ketishi" tez nafas olish va yomon vazn ortishiga sabab bo'ladi. Bu nuqson ko'pincha erta tug'ilgan chaqaloqlarda kuzatiladi.

* Arterial septal nuqson bunday holatda yurakning ikki yuqori kamerasi – o'ng va chap bo'lmachalar o'rtasida teshik bo'ladi. Bu teshik yurak orqali normadan ortiq ko'p qon olib keladi. Ba'zi bolalarda alomatlar bo'lmasligi va sog'lom ko'rinishi mumkin.

* Ventrikulyar septal nuqson bunda esa chap va o'ng qorinchalar devorida teshik paydo bo'ladi. Ushbu teshik ochilishi tufayli chap qorinchadagi qon shu qorinchadagi yuqori bosim orqali o'ng qorinchaga qaytadi. Bu o'ng qorincha tomonidan o'pkaga qo'shimcha miqdorda qon quyilishiga olib keladi va shu paytda o'pkaga tiqilib qolishi mumkin.

2.O'pka orqali juda kam miqdorda qon o'tishiga olib keladigan muammolar.

Bu orqali tana yetarli kislorod olmaydi va chaqaloq siyanotik bo'lishi mumkin yoki ko'k ranga ega bo'lib qoladi. Bularning ham sabablari bor:

*Tricuspid atresia - bunday holatda uch tabaqali klapan hosil bo'lmaydi. Shuning uchun o'ng bo'lmachadan o'ng qorinchaga qon o'tmaydi. Va natijada o'pkaga yomon qon oqimi, kislorod yetishmasligidan kelib chiqqan teri va shilliq pardalarning ko'k rangi (sinoz) bunda o'pkaga qon oqimini oshirish va alohida qon aylanishini o'rnatish uchun ko'pincha bir qator jarrohlik muolajalari talab qilinadi.

*Fallo tetradasi yurak tug'ma anomaliyasi, sianoz bilan kechadi va quyidagi vaqtlarda kuzatiladi o'pka arteriyasining stenoz, o'ng qorincha gipertrofiyasi, aortaning o'nga siljishi, qorinchalararo to'siq nuqsoni. Sianozga sabab – qorinchalararo to'siq nuqsoni natijasida o'ng qorinchadagi venoz qon chap qorinchadagi arterial qon bilan aralashadi. "Tet spells" – chaqaloq terisida vaqtincha (1 minutdan kam) sianoz kuzatiladi. Bu holat chaqaloq yig'laganda va harakat qilganda kuzatiladi.

3.Tanaga juda kam qon ketishiga olib keladigan muammolar.

Ushbu nuqsonlar yurak kameralarining kam rivojlanganligi, qon tomirlarining tiqilib qolishi natijasida yuzaga keladi.

*Aorta koarktatsiyasi- bu holatda aorta toraygan. Bu tananing pastki qismidagi qon oqimiga to'sqinlik qiladi va siqilishdan yuqori qon bosimini oshiradi. Odatda bola tug'ilishida alomatlar yo'q, lekin ular hayotining birinchi haftasidayoq rivojlanishi mumkin.

4. Koronar yurak kaslligi, shuningdek koronar arteriya kasalligi sifatida tanilgan, yurakning asosiy tomirlari (koronar arteriyalar) tiqilib qoladigan va torayib oqimni cheklaydigan keng tarqalgan yurak kasalligi. Yog', xolesterin va boshqa moddalar to'planib, ateroskleroz deb ataladigan jarayon orqali arteriyalarda blyashka hosil qiladigan blokirovkalar paydo bo'lishi mumkin. Blyashka qon laxtalarini (tromboz) hosil qilishi mumkin, agar arteriya devoridan ajralib chiqsa, tanadagi qon oqimini to'xtatadi. Kislorod yetarli bo'lmasa, yurak to'g'ri ishlay olmaydi. Bu ko'krak og'rig'I (angina) ga olib kelishi mumkin. Agar qon ivishi yurakda qon oqimini to'sib qo'ysa yoki to'xtatsa, bu hayot uchun xavfli yurak xurujiga olib kelishi mumkin.

Koronar yurak kaslligining uch xil turi mavjud.

A. Obstruktiv koronar arteriya kasalligi.

Ateroskleroz deb ham ataladigan blyashka to'planishi tufayli koronar arteriyalar asta-sekin torayganida yuzaga keladi. Blyashka xolesterin konlaridan iborat.

B. Nonobstruktiv koronar arteriya kasalligi.

Koronar arteriyalar bilan bog'liq boshqa muammolar orqali kelib chiqadi. Bunga blyashka to'planishi sabab bo'lmaydi. Buning o'rniga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

* Yurak mushaklaridan siqilish (miokard ko'prigi)

* Noto'g'ri siqilish (koronar vazospazm)

* Arteriya shilliq qavatining shikastlanishi (endotelial disfunktsiya)

* Kichik arteriya shoxlarida buzilishlar (mikrovaskulyar disfunktsiya)

D. Spontan koronar arteriya kasalligi.

O'z-o'zidan koronar arteriya parchalanishi, koronar arteriya devoridagi kuch bilan otiliyotgan qon oqimini qisman yoki to'liq to'sib qo'yganda sog'ir bo'ladi. Bu kabi yoki boshqa koronar arteriya kasalliklarining asosiy sababi bu aterosklerozdir. Ateroskleroz –bu bolalikdan boshlanishi mumkin bo'lgan asta sekin rivojlanib yomonlashadigan kasallik. Aniq sabab noma'lum. Bu arteriya ichki qatlamining shikastlanishi bilan boshlanishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytib o'tadigan bo'lsam hozirgi kunda bolalar kardiologiyasining asosiy muammolaridan biri bu tug'ma yurak nuqsoni bo'lgan bolalarni, hayotining birinchi yilida operativ davolash usuli hisoblanadi. Har bir yurak tug'ma nuqsoni holatiga ko'ra davolanadi. Ko'plab operatsiyalar sianozli yurak tug'ma nuqsonlari uchun olib boriladi.

Bugungi kunda yurak- qon tomir xirurgiyasi sohasidagi ulkan yutuqlar tufayli yurak hamda yirik tomirlar tuzilishidagi tug'ma va turmushda orttirilgan turli nuqsonlar operatsiya yo'li bilan davolanadi. Operatsiyalarni oldini olish uchun yurak poroklariga sabab bo'ladigan kasalliklarni o'z vaqtida davolash lozim. Yuqorida aytganimdek bunday tug'ma nuqsonlar homila hayotining birinchi uch oyligida boshlanadi. Bu davrda ona hech qanday kasalliklarga chalinmasligi kerak. Sog'lom avlod dunyoga kelishi uchun avvalambor ona sog'lom bo'lishi darkor.

Men tibbiyot sohasining talabasi ekanman hozirda yurtboshim tomonidan yaratilyotgan tibbiyot sohasidagi qo'shimcha shart-sharoitlar, imkoniyatlardan unumli foydalib, mana shu sohaga munosib hissa qo'shish va Ibn Sino bobom kabi bemorlarga shifo ulashuvchi malakali kadr bo'lish asosiy maqsadimdir. Hozirgi yangilanayotgan O'zbekistonda tibbiyot sohasiga

katta e'tibor qaratilmoqda va eng so'ngi texnologiyali tibbiyot asboblari kirib kelmoqda. Va biz yosh avlod o'qib o'rganishimiz, ulrni amaliyotda tatbiq etishimiz lozim bo'lmoqda.

REFERENCES

1. *Sharopov O'.B., G'afforova F.K., Shodmonov U.I., Ichki kasalliklar , T., 2003. Mahmud Pirnazarov.
2. *Sulaymonov A.S. va boshqalar , Bolalar xirurgiyasi ,T ., 2000; Xaydarov G'.O., Ermatov Sh. X., Ichki kasalliklar, T ., 2002.
3. *Avitsenna. uz
4. *t.me\med_english_bsmi., Fatilloev Ogabek.
5. *Prezident Shavkat Mirziyoyevning tibbiyot xodimlari bilan o'tkazgan muloqotidagi nutqidan. 18.03.2022-yil.

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ИҚТИСОДИЁТИДА ЕНГИЛ САНОАТ КОРХОНАЛАРНИНГ ЎРНИ

Холманова Феруза Ураловна.

Термиз давлат Университети.

Жаҳон тарихи кафедраси

Катта ўқитувчиси (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10087010>

Аннотация. Мақолада вилоятимизнинг енгил саноатида хорижий камкорлар томонидан инвестицияларнинг киритилиши ва уларнинг самарадорлиги ҳақида тўхталиб ўтилган.

Калим сўзлар: “Сурхондарёсавдо”, инвестиция, ип-газлама, қўшма корхона.

THE ROLE OF LIGHT INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE ECONOMY OF SURKHANDARYA REGION

Abstract. The article focuses on the introduction of investments by foreign entrepreneurs in the light industry of our region and their effectiveness.

Key words: "Surkhondaryosavdo", investments, cutting, joint venture.

РОЛЬ ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЭКОНОМИКЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В статье основное внимание уделяется внедрению инвестиций иностранных предпринимателей в легкую промышленность нашего региона и их эффективности.

Ключевые слова: «Сурхондарёсавдо», инвестиции, нарезка, совместное предприятие.

Кириш: Ўзбекистонда экспорт салоҳиятини ошириш мақсадида, хорижий давлатлар билан ўзаро ҳамкорлик муносабатлари яхши йўлга қўйилган. Бу борада ҳукуратимиз томонидан бир қанча қарорлар қабул қилинган ва ушбу қарорлар асосида экспорт салоҳиятини ривожлантириш давлат дастури ишлаб чиқилган.

Ўзбекистоннинг савдо сотиқдаги асосий мижозлари: АҚШ, Буюк Британия, Нидерландия, Бельгия, Швейцария, Франция, Германия, Италия, Россия, Туркия, Хитой, Жанубий Корея ва бошқа мамлакатлар.

Ўзбекистон Республикасининг ташқи савдо айланмасида кейинги йилларда муҳим таркибий ўзгаришлар бўлмоқда. Дунёнинг 140 дан ортиқ мамлакати билан ташқи савдо қилинмоқда⁵⁵.

Саноатда амалга ошириладиган инвестиция лойиҳалари ишчи кучи қийматига сезувчан бўлади. Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни киритишнинг асосий таҳдидлари мавжуддир. Буларга мамлакатдаги молиявий беқарорлик, ҳарбий ва сиёсий беқарорлик, инвестиция муҳитининг ўзгариши ва бошқа омиллар сабаб бўлиши мумкин. Энг муҳим таҳдидлар ичида биринчи ўринга ҳарбий ва сиёсий беқарорлик чиқади.

⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Энциклопедик маълумотнома. – Тошкент.: “Давлат илмий нашриёти”, 2002. – Б 333.

Инвесторлар жавобига Ироқ, Афғонистон ва дунёнинг бошқа хуудларидаги харбийларнинг режа ва ҳаракатлари таъсир қилади.

Инвестиция иқтисодийнинг ривожланишига таъсир этувчи омиллардан биридир. Инвестиция ёрдамида янги саноат корхоналари курилади, мавжудлари таъмирланади, янги машина ва ускуналар сотиб олинади. Мамлакатимизнинг импорт ва экспорт салоҳиятига назар ташлар эканмиз, 1991 йилларда вилоятимизда кичик, хусусий ва қўшма корхоналар ташкил этила бошланганлигига гувоҳ бўламиз. Жумладан, пахта толасини ип-газламага, газламани эса тайёр кийим-кечакка айлантириш, иқтисодийтимизга ўзининг ижобий ўзгаришларини кўрсатиши муҳим вазифа қилиб олинди.

Германия давлати билан ташқи иқтисодий алоқаларимиз 1997 йилда 6204,0 минг долларни ташкил этиб, бунга асосан экспорт таркибида пахта толаси ва озиқ-овқат маҳсулотлари кирди⁵⁶.

Жаркўрғондаги ип-газлама қўшма корхонаси 1997 йилда экспортга маҳсулот сотиш режасини 140 фоизга бажарди. Корхона томонидан Чехия, Польша ва Австрия мамлакатларига 312 минг долларлик ип-калава маҳсулотлари сотилди. 1800 нафардан зиёд ишчилар 1602 тонна калава ип, 8866 минг погонметр мато ишлаб чиқариб, бу борадаги режа топшириқларини ортиғи билан бажариб, корхонанинг 2000 йилдаги соф фойдаси 34,5 миллион сўмни ташкил қилди. Фабрика қошида “Ўзбекистон-Америка” қўшма корхонаси ташкил этилиб, унинг қуввати йилига 42 тонна калава ип ва 1920 минг погон. метр мато ишлаб чиқаришга мўлжалланган. Корхонанинг умумий лойиҳа қуввати 13 миллион 132 минг 036 евро бўлиб, хорижий таъсисчи Американинг улуши ҳисобига (53 %) ташкил этилди. Қўшма корхонада Германия ва Чехия давлатларининг замонавий йиғирув дастгоҳлари ўрнатилиб, жаҳон бозорлари талабларига жавоб берадиган юқори сифатли калава ип ва мато ишлаб чиқарадиган маҳсулотнинг 70 фоизи экспортга сотилди⁵⁷.

Бойсун туманида Ишонч ҳиссадорлик жамияти базасида йилига 600,0 тонна калава ип ишлаб чиқариш бўйича қўшма корхоналар ташкил этиш учун Россия Федерацияси ва Жанубий Корея давлатлари билан музокаралар олиб борилди ва келишув имзоланди⁵⁸.

Вилоятда 1998 йилда ташқи савдо айланмаси 124404 минг долларга тенг бўлди. 1997 йилнинг шу даврига нисбатан 108,5 фоиз, жами ташқи савдо айланмасининг 90,9 фоизи экспорт маҳсулотлари ва 9,1 фоизи импорт маҳсулотлари ҳиссасига тўғри келди⁵⁹.

Вилоят ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо бошқармаси Ўзбекистон Республикаси билан Украина ўртасида 1999-2008 йилларга мўлжалланган “Иқтисодий ҳамкорлик дастури” га мувофиқ Сурхондарё вилоятида қуйидаги ишларни амалга оширди. “Техно-Текс” Ўзбекистон-Украина қўшма корхонаси 2007 йилнинг 21 июнь куни Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги, Сурхондарё вилояти Адлия бошқармасидан 33- рақамли реестр билан рўйхатдан ўтган. Жамият иштирокчиларининг низом жамғармасидаги улушлари қуйидагича тақсимланган: Украиналик иштирокчи “ООО ПФК Меркурий ЛТД” фирмаси 480,0 минг доллар (60 фоиз), Ўзбекистонлик иштирокчи “Пўлат Алп” ХИТФ 320,0 минг доллар (40 фоиз) ни ташкил этди. Корхонанинг асосий фаолият

⁵⁶ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 1091- жамғарма, 1-рўйхат ,661- иш, 36- варак.

⁵⁷ Турсунов С., Тўхтаев А. Жаркўрғон. – Тошкент.: “Фан”, 2008. – Б. 142.

⁵⁸ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 1091- жамғарма, 1-рўйхат , 293- иш, 78- варак.

⁵⁹ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 698- жамғарма, 1- рўйхат ,101- иш, 21 - варак.

туридан бири гилам маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва сотиш ҳисобланади. Хорижий ҳамкор томонидан қиймати 486,7 минг доллар миқдоригадаги замонавий асбоб-ускуна ва жиҳозлар келтирилди. 2007 йилда корхона томонидан 16,1 млн. сўмга, 2008 йилда эса 43,2 млн. сўмга тенг гилам маҳсулотлари ишлаб чиқарилди⁶⁰.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 11 октябрдаги “Қўшма корхоналар” ни ташкил этишда хорижий инвесторларни жалб этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги 393- сон қарорининг 9-иловасига мувофиқ вилоятимизнинг туманларида 2001-2005 йилларда 19 та қўшма корхоналар ташкил этилиши, шу жумладан 2001 йилда 5 та қўшма корхоналар тузилиши режалаштирилган эди⁶¹.

Бинобарин, сўнгги ўн йилликда юртимизда енгил саноат тизими тараққиёт сари юз тутди. “Сурхонтекс” қўшма корхонасида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар ҳажми ва турини кўпайтириш мақсадида 2010 йилда ишлаб чиқариш қуввати 2,0 минг тонна, умумий қиймати 2400 минг доллар қийматидаги лойиҳа амалга оширилди⁶².

“Сурхонтекс” Ўзбекистон Буюк Британия қўшма корхонаси собиқ “Сурхонтекстиль” корхонаси ўрнида 2013 йилда қайта ташкил этилди. Илгари корхонада 970 киши ишлаган, 2,5 минг тонна пахта хом ашёси қайта ишланган бўлса, бугунги кунда 240 нафар ишчи фаолият юритмоқда. 2018 йилда ишлаб чиқариш қуввати 5 минг тоннани ташкил этган. Бу кўрсаткич эса корхонанинг янги замонавий технологиялар билан жиҳозланганлигини кўрсатади. Ўртача иш ҳақи 550 мингдан ошган. 2017 йил корхонада 16 млрд. сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилган, шунинг 90 фоизи хорижга экспорт қилинди. Чет давлатларга экспорт қилинган маҳсулот таннархи қарийб 2 млн. долларни ташкил этди. Маҳсулот асосан Россия, Хитой, Туркия ва Болтиқбўйи мамлакатларига етказиб берилди. 2016 йилда 600 минг доллардан зиёд чет эл сармояси асосида корхонага келтирилган 2 та саваш линиялари учун 4 та дастгоҳ келтирилганлиги сифат ва самарадорликни янада оширди⁶³. Ислоҳотлар натижасида “Сурхонтекс” қўшма корхонаси томонидан 2588,9 долларлик тўқимачилик маҳсулотлари экспорт қилинди.

Пилла маҳсулотларини қайта ишлашда Термиз шаҳридаги “Inter Silk Pro” Ўзбекистон-Хитой қўшма корхонаси вилоят иқтисодий ҳаётида ўз ўрнига эга. Корхонада пилла хомашёсидан ишлаб чиқараётган ип-калава сифати ва дизайни билан жаҳон бозорида тобора мустаҳкам ўрин эгалламоқда. Пилла хом-ашёсидан харидоргир ип-калава ишлаб чиқараётган масъулияти чекланган жамияти шаклидаги “Inter Silk Pro” Ўзбекистон-Хитой қўшма корхонаси 1 миллион 170 минг доллар қийматидаги замонавий технологиялар билан жиҳозлангани рақобатбардош, жаҳон стандартларига мос тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришда қўл келаётир. 2015 йил корхона Сурхондарё вилоятида етиштирилган 1 минг 550 тонна пиллани қабул қилган ва хомашё сифатли қайта ишланиб, тайёр маҳсулот хорижий давлатлардаги буюртмачиларига жўнатилди. Корхонада меҳнат қилаётган 80 дан зиёд ишчининг унумли меҳнат қилиши учун барча шароит яратилган. Бепул тиббий ва транспорт хизмати кўрсатиш йўлга қўйилган, узоқ қишлоқлардан қатнаб ишлайдиганлар учун

⁶⁰ Сурхондарё вилоят ҳокимлиги жорий архиви, 1091- жамғарма, 1- рўйхат, 33- иш, 95-варақ

⁶¹ Сурхондарё вилоят давлат архиви, М. 698 жамғарма, 1-рўйхат , 110- иш, 121- варақ.

⁶² Сурхондарё вилоят ҳокимлиги жорий архиви, М.1091- жамғарма, 1- рўйхат, 33 иш, 78-варақ

⁶³ Сурхон тонги, 2018 йил 3 (17403) - сон.

ётоқхоналар мавжуд. 2015 йил корхона 150 минг доллар қийматидаги ип-калавани экспорт қилди. Янги йилгача яна 350 минг доллар қийматидаги рақобатбардош маҳсулот чет эллик буюртмачиларига жўнатилади. Бу ерда хом ашё етиштиришдан тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришгача бўлган жараён тўлиқ технологик занжир асосида ташкил этилган. Жумладан, ипак қурти боқиш, мато ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш, гилам тўқиш йўлга қўйилган. Кластер усулида маҳсулот етиштириш учун Сурхондарё вилоятидаги бир нечта туманлар бириктириб берилган.

Корхона фаолияти икки сменили бўлиб, 300 дан ортиқ доимий, 250 дан зиёд мавсумий иш ўринлари яратилган. Бугунги кунда корхона маҳсулотлари Осиё ва Европа давлатларига сотилмоқда. 2017 йилда қарийб 2 миллион 140 минг доллар, 2018 йилда 2 миллион 873 минг доллардан зиёд миқдорда экспорт қилинган.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, мазкур жараёнлар Сурхондарё вилоятида қишлоқ хўжалиги маҳсулоти, хусусан, пахта ва пилла етиштириш асосида тўқимачилик индустрияси шаклланишига хизмат қилмоқда. Унинг таркибини пахта тозалаш, ип ва ипак йигирув, тикувчилик саноати ташкил этади ва бу соҳаларни ривожлантириш эса вилоят иқтисодиётини ривожлантиришга хизмат қилади.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Энциклопедик маълумотнома. – Тошкент.: “Давлат илмий нашриёти”, 2002. – Б 333.
2. Турсунов С., Тўхтаев А. Жарқўрғон. – Тошкент.: “Фан”, 2008. – Б. 142.
3. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 1091- жамғарма, 1-рўйхат , 293- иш, 78- варақ.
4. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 698- жамғарма, 1- рўйхат ,101- иш, 21 - варақ.
5. Сурхондарё вилоят ҳокимлиги жорий архиви, 1091- жамғарма, 1- рўйхат, 33- иш, 95- варақ
6. Сурхондарё вилоят давлат архиви, М. 698 жамғарма, 1-рўйхат , 110- иш, 121- варақ.
7. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 1091- жамғарма, 1-рўйхат ,661- иш, 36- варақ.
8. Сурхондарё вилоят ҳокимлиги жорий архиви, М.1091- жамғарма, 1- рўйхат, 33 иш, 78- варақ
9. “Сурхон тонги”, 2018 йил 3 (17403) - сон.
10. Ergasheva, S. A. (2020). CRAFT OF SURKHANOAKH FROM THE HISTORY OF DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (7), 56-59.
11. Ergasheva, S. A. (2021). History of baisun silk knitting factory. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 581-585.
12. Ergasheva, S. A. (2020). The history of surkhan doppies (skullcups) and the characteristics of this folk craft. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 1(6), 7-13.
13. Abdusoatovna, E. S. (2023). SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHIDA BOYSUN AN’ANAVIY HUNARMANDCHILIGINING O ‘RNI. *PEDAGOGS jurnali*, 31(1), 10-17.
14. Abdusoatovna, E. S. (2022). BOYSUN-UMUMBASHARIY QADRIYATLAR BESHIGI. *PEDAGOGS jurnali*, 12(2), 114-119.

15. Холманова, Ф. У. (2020). О роли предприятий легкой промышленности в экономике Сурхандарьи. *Бюллетень науки и практики*, 6(12), 483-486.
16. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
17. Rahmonov, M. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 341-344.
18. То‘Rayev, S. G. O. G. L., & Rahmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG‘LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.
19. Холманова, Ф. У. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИСТОРИИ, КАК НАУКА И УЧЕБНЫЙ ПРЕДМЕТ. *Интернаука*, (3-1), 30-32.
20. Холманова, Ф. У. ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИНИНГ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ. *ЎТМИШГА НАЗАР*, 436.
21. Habibullo o‘g‘li, R. M. (2023). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMINING AN‘ANAVIY TURMUSH TARZI.

1950-1980 YILLARDA NOGIRONLAR HUNARMANDCHILIK ARTELLARINING SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Ergasheva Sayyora Abdusoatovna

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi

kafedrasida katta o'qituvchisi,

sergasheva223@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10087040>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekistonning janubiy hududlaridan ya'ni Surxondaryo viloyatida nogironlik kooperatsiyalarining tashkil topishi va uning respublika, jumladan viloyat iqtisodiyotida tutgan o'rni haqidagi fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, 1950-1980 yillar davomida Termiz shahri hamda Sariosiyo va Sherobod tumanlarida tashkil etilgan nogironlar ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat olib borgan mohir hunarmandlar haqidagi ma'lumotlar arxiv materiallari asosida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: kooperatsiya, nogironlik, hunarmand, tikuvchi, bordonchi, etikdo'z, sartarosh, artel turlari, Termiz, Sariosiyo, Sherobod.

THE ROLE OF CRAFTSMANSHIPS OF DISABLED PEOPLE IN THE ECONOMY OF SURKHANDARYA REGION IN 1950-1980

Abstract. This article describes the establishment of disability cooperatives in the southern regions of Uzbekistan, i.e. in the Surkhandarya region after the Second World War, and their role in the economy of the republic, including the region. The information about the artisans who worked in production enterprises for the disabled, established in the districts, is widely covered based on archive materials.

Key words: cooperation, disability, craftsman, tailor, shoemaker, shoemaker, hairdresser, types of artel, Termiz, Sariosiyo, Sherobod.

РОЛЬ РЕМЕСЛЕНСТВ ИНВАЛИДОВ В ЭКОНОМИКЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В 1950-1980 ГГ.

Аннотация. В данной статье описывается создание кооперативов инвалидов в южных регионах Узбекистана, т.е. в Сурхандарьинской области после Второй мировой войны, и их роль в экономике республики, в том числе региона. Сведения о ремесленниках, работавших в производственные предприятия для инвалидов, созданные в районах г.

Ключевые слова: кооперация, инвалидность, ремесленник, сапожник, парикмахер, виды артели, Термез, Сарисия, Шерабад.

Kirish. Kooperativlar faoliyatini tadqiq etish shuni ko'rsatdiki, Sovet davlati davrida yurtimiz tarixidagi ulkan o'zgarish va turli vaziyatlarga qaramay, kooperativlar har qanday sharoitda odamlarni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynadi. Bu o'rinda keng iste'mol mollari ishlab chiqarishda yetakchi tarmoqlardan biri bo'lgan hunarmandchilik kooperatsiyasi muhim rol o'ynadi. Mazkur kooperatsiya tizimdagi ishlab chiqarish hunarmandchilik artellarini o'zida birlashtirdi. Surxondaryo viloyati hunarmandchilik kooperatsiyasi va uning artellari faoliyatiga oid tadqiqot ishlari nihoyatda kam bo'lib, ayniqsa nogironlar kooperatsiyasi artellari faoliyati umuman tadqiq etilmagan.

1921-yil 8-dekabrda RSFSR Xalq Komissarlari Kengashi (SNK) va Mehnat va Mudofaa Kengashi (STO) raisining o'rinbosari A.D. Syurup RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining o'sha

paytda ijtimoiy ta'minot shakllaridan biri sifatida qabul qilingan nogironlar uchun kooperatsiyani tashkil etish to'g'risidagi qarorini imzoladilar [14.B.67].

1922-yilda nogironlar kooperativlari ittifoqi tashkil etildi. Hunarmandchilik ustaxonalari artellarga birlashib, asosan yengil sanoat buyumlari ishlab chiqarardi. Ishlab chiqarishni tashkil etish va chakana savdoni kengaytirish bilan Vsekoopinsoyuz (Butunittifoq nogironlar kooperativ ittifoqi) shug'ullangan. Nogironlarning jamiyatga yanada muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun 1925-yil 13-martda ko'zi ko'rlar va 1926-yil 21-sentabrda (O'zbekistonda 1929-yil 21-mayda) [3.B.115] kar-soqovlarning jamiyatlari tashkil etildi. Ular birinchi navbatda ko'zi ko'r va zaif eshituvchilarni o'qitish va ishga joylashtirish bilan shug'ullangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1950-1980 yillarda nogironlar hunarmandchilik artellarining Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida tutgan o'rni

haqidagi ma'lumotlar Surxondaryo viloyat davlat arxivining 376 -фонд, Artel invalidov "Put Staxanova" Djarkurganskogo rayona, 553-fond, Surxondaryo ko'rlar markaziy jamiyati Surxondaryo viloyat pravleniyasi (ko'rlar jamiyati Termiz ishlab chiqarish muassasasi, 1967-1991 yy.). 457-fond, O'zbekiston Ko'rlar jamiyati Surxondaryo viloyat bo'limi (1941-1958 yy.) hujjatlarida yoritilgan.

Maqolani yozishda arxiv hujjatlaridan tashqari tadqiqot mavzusiga bag'ishlangan o'lkashunoslarning asarlari, statistik to'plamlar, davriy matbuot materiallari, shuningdek sovet va mustaqillik davri olimlarining tadqiqotlari muhim manba vazifasini o'tab, ulardagi ko'pgina ma'lumotlar birinchi marotaba ilmiy tadqiqot doirasiga kiritildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, Surxondaryo viloyati mahalliy sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlanishida nogironlar hunarmandchilik artellarining ahamiyati tadqiq etilgan

Tahlil va natijalar. Nogironlar jamiyati nogironlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, ularni moddiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni kengaytirishga hissa qo'shishi kerak edi. Nogironlar hamkorligining o'ziga xos jihati shundaki, harbiy yoki mehnat frontida jarohatlangan, sog'lig'ini Vatan ravnaqi uchun fido qilgan fuqarolar artellarga a'zo bo'lishdi. Ular turli yoshdagilar edi. Artel tarkibiga nafaqadagilar ham kirdi. Nogironning turmush darajasini oshirish nafaqat davlat ijtimoiy nafaqalari hisobidan, balki o'z mehnati hisobidan ham amalga oshirilishi kerak deb taxmin qilingan[9.B.12].

1948-yil 1-oktabr holatiga ko'ra nogironlar kooperatsiyasi tizimida 7981 kishi, shu jumladan, 5889 nafar artel a'zolari, 2092 nafar yollanma ishchilar bo'lib, ular a'zolar tarkibining 35,5 foizini tashkil etgan. Artel a'zolarining 1873 nafari Ikkinchi jahon urushi va 2883 nafari mehnat va baxtsiz hodisa nogironlari, 1046 nafarini vafot etgan jangchilar va harbiy xizmatchilar oilalaridan iborat bo'lgan[10.B.582].

Qayd etish kerakki, 1950-yillarda kooperativ sanoati ittifoq miqyosida keng iste'mol mollarinin choragidan yarmigacha bo'lgan qismini ishlab chiqargan bo'lib, xizmat ko'rsatishning asosiy qismi uning hissasiga to'g'ri kelgan[12,B.1]. Bu davrda respublika aholisi keng iste'mol mollariga bo'lgan talabining 15-18 foizi hunarmandchilik kooperatsiyasi hisobidan qondirilgan[15,B.144]. Yanada achinarlisi shundaki, SSSR Ministrlar Sovetining 1952-yil 29-oktabrdagi maxfiy qaroriga asosan, xo'jalik ob'ektlarini qo'riqlash Butunittifoq nogironlar

kooperatsiyasi uyushmasidan Ichki ishlar ministrligiga o'tkazilgan, oqibatda, 35 ming nafar nogironlar ishsiz qoldi[13.B.75].

Kooperativ birlashma birdamlik g'oyasiga asoslanib, muhtoj va aziyat chekkan insonga yordam ko'rsatib, o'z a'zolarining nafaqat moddiy ehtiyojlarini qondirish, balki ularning kasbiy o'sishi uchun ham g'amxo'rlik qildi[11.B.45]. Kooperativlar mablag'larning bir qismini kadrlar tayyorlash fondiga ajratdilar. Kooperativlarning madaniy-ma'rifiy ishlari tufayli aholining madaniy saviyasi ko'tarildi. Ba'zi artellarning ishi shu qadar olg'a bosdiki, ular hatto boshqa muhtoj nogironlarga yordam fondiga mablag' ajrata boshladilar. Chunonchi, 1955-yil Jarqo'rg'on tumanidagi urush nogironlarining "Put Staxanova" arteli urush nogironlari o'zaro yordam kassasiga har oyda 50 so'm o'tkazishga qaror qilishdi[25.B.45].

O'rganilayotgan davrda nogironlar kooperatsiyasi korxonalarini tomonidan urush nogironlarini ish bilan ta'minlash, ularning ijtimoiy himoyasini yanada ta'minlash borasida faol ishlar davom ettirildi. Shu bilan birga, kooperativ korxonalarini tugatish, ularning mol-mulkini davlat korxonalariga topshirish uchun zamin tayyorlandi[4.B.16]. 1953-yilgacha nogironlar artellari viloyat va respublika nogironlar kooperatsiyasi uyushmalari tomonidan birlashtirildi. 1953-yil 8-mayda Butunittifoq nogironlar kooperativ ittifoqi tugatildi va har bir ittifoq respublikasida savdo kooperatsiyasi Sovetlari va nogironlar kooperatsiyasi ittifoqlari bitta kengashga-Savdo kooperativlari kengashiga birlashtirildi.

1953-yilda artel korxonalarini milliyalashtirish va birlashtirish to'g'risida hukumat qarori chiqdi. Natijada ko'pchilik artellar zavod va ishlab chiqarish birlashmalariga aylantirildi. Tashkil etilgan davlat korxonalarida nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yaxshilandi[5.B.53]. Biroq, mahsulotning xilma-xilligi iqtisodiyotni boshqarishning rejalashtirilgan tizimi ta'siri ostida pasaya boshladi. Shunga qaramay, XX asrning 50-80 yillarida mahsulot taqchilligi yuzaga kelgan do'konlarda yengil sanoat mahsulotlari aynan nogironlar artellari va nogironlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki tufayli mavjud edi.

Surxondaryoda ham 1950-1980 yillarda nogironlar jamiyatiga qarashli bir nechta ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat ko'rsatgan edi. Ilmiy tadqiqot davomida arxiv ma'lumotlari asosida shu narsa aniqlandiki, "Progress", "Qizil askar", "Yangi kuch", "Kuybishev", "Staxanov", "Oxunbobev", "Stalin", "Qo'chqor Turdiyev", "Taraqqiyot", "Rodina", "Pogranichnik", "Yangi turmush", "Voroshilov", "Usmon Yusupov" va "Qizil tuyachi" hunarmandchilik artellarida ko'plab II-III guruh nogironlari mehnat qilishgan[21.B.34]. Jumladan, Qalandarov E., Boboyev M.[20.B.20], Umbarov B., Boboyev D.[18.B.10], Samadov I.[22.B.40]lar sartarosh, Qo'ziyev S., Eshonqulov N., Qorayev E., Xudoynazarov R., Kabordin A., Grigorev M.lar temirchi[23.B.9], Jumayev O, Raxmonov P.lar tikuvchi, Isayev H., Mirzayev B., Voroshilov S., Ishmuhammedov A., Shukurov B., Ahmedov M., Shukurov A., Normatov M.lar etikdo'z, Ashrapov duradgor, To'ychiyev X. Bordonchi[19.B.12] bo'lib o'z mehnat faoliyatlarini davom ettirishgan. Ularning aksariyat ko'pchiligi Ikkinchi jahon urushi nogironlari hisoblanishadi. Bundan tashqari nogironlik artellarida qo'l mehnati asosida ko'rpa tikish, gilam, xo'jalik shyotkalarini to'qish bilan shug'ullanganlar.

Surxondaryo viloyatida birinchi bor 1946-yili Denov shahridagi Said Otaliq madrasasi binosida nogironlar uchun kichik hajmdagi arqon sexi tashkil etildi[7.B.20]. Uning birinchi tashabbuskorlari Skachkov I.V. hamda Haydarov M. lar edi. 1950-yili korxonada Denovdan Termiz shahriga ko'chirilib, arqon va supurgi sexlari ishga tushdi. 1953-yilda esa poyandoz sexi tashkil

etildi [8.B.32]. Ko'rupa-to'shak tayyorlash ishlari 1964-yildan yo'lga qo'yildi. 1966-yili korxonada ish faoliyatini bo'shab qolgan nogironlar uyida davom ettirdi [17.B.63].

Skachkov I.V. 1946-1951 yillarda direktorlik lavozimida ishlagan bo'lsa, 1951-yildan 1952-yilgacha Qo'chqorov I., 1952-yildan 1953-yil avgustgacha yana Skachkov I.V., undan keyin esa Toshpo'latov A. korxonaga rahbarlik qildilar [27.B.76]. 1954-yil dekabr oyida 15 nafar ko'zi ko'rni jamlab Jarqo'rg'on tumanida korxonaning filiali tashkil etildi va Qilich Tilovov unga boshliq etib tayinlandi. Filialning dastlabki ish faoliyati chiy tayorlashdan iborat bo'lgan [24.B.27].

1958-yil 1-iyulda kooperativ savdo artellariga a'zo bo'lgan hamda kooperativ ishlab chiqarish artellarida ishlaydigan barcha nafaqa yoshiga yetgan shaxslar uchun imtiyozlar belgilandi. Umumiy ustaxonalarda ishlaydigan nogironlari uchun ishlab chiqarish normalari sog'lig'ining holati va nogironlik darajasi hisobga olindi [17.B.63].

Xonaliyev A.E. rahbarlik qilgan 1972-1978 yillarda Termiz ko'zi ko'rlar ishlab chiqarish korxonasi yig'och dastgohlar metall dastgohlarga almashtirildi. 1979-1982 yillarda korxonada ishchilari uchun 20 ta kvartirali turar joy binosi bunyod etildi hamda uzoq yillar mobaynida foydalanilgan tufayli yaroqsiz holga kelib qolgan transport vositalari yangisi bilan almashtirildi [3.B.112].

Ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun ham birmuncha ishlar qilindi. Bo'yoq sexidagi quritish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lib, uni hal etish uchun quritish agregati sotib olindi va bo'yoq sexiga o'rnatildi. Biroq shu yillari ishlab chiqarishda katta yutuqlarga erishilmadi. Ayrim hollarda yillik rejalar bajarilmadi. 1975-yil yakunlariga ko'ra xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha reja bajarilmagan hamda 58 ming so'mlik mahsulot yetkazib berilmadi [16.B.124]. Bunga asosiy sabab, ishchi kuchi va xom ashyoning yetishmasligi bo'ldi. 1979-yilgi viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotida keltirilishicha Termiz shahar Ko'zi ko'rlar korxonasi besh oylik rejaga ko'ra mahsulotni realizatsiya qilish 105,2, yalpi mahsulot ishlab chiqarish 87,8, mehnat unumdorligi esa 98,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, Sariosiyo korxonasi esa mahsulotni realizatsiya qilish 100,6, yalpi mahsulot ishlab chiqarish esa 97,7 va mehnat unumdorligi esa 114,3 foizni tashkil etdi [2.B.3].

Xulosa qiladigan bo'lsak, nogironlar kooperatsiyasi korxonalari tomonidan urush nogironlarini ish bilan ta'minlash, ularning ijtimoiy himoyasini yanada yaxshilash borasida ishlar amalga oshirilgan. Ushbu amalga oshirilgan ishlar bilan hukumat aslida kooperativ korxonalarini tugatish va mol-mulklarini davlatga o'tkazish uchun zamin tayyorlab kelgan. 1953-yil 8-mayda Butunittifoq nogironlar kooperativ ittifoqi tugatildi nogironlar kooperatsiyasi uyushmasi ham bitta kengashga-Savdo kooperativlari kengashiga birlashtirilgan. O'z faoliyatini davom ettirayotgan artellar zavod va ishlab chiqarish birlashmalariga aylantirildi. Davlat korxonalarida nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yaxshilanganligi tufayli XX asrning 50-80 yillarida mahsulot taqchilligi yuzaga kelgan do'konlarda yengil sanoat mahsulotlari aynan nogironlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki tufayli mavjud bo'lganligi arxiv va davriy matbuot ma'lumotlari asosida o'rganildi. Shuningdek, viloyatda ilk bor nogironlar uchun Denovdagi Said Otaliq madrasasidagi arqon sexining tashkil etilishi viloyat nogironlari uchun ishlab chiqarish korxonalarining keyingi faoliyati uchun dastlabki qadam bo'lganligi alohida ta'kidlash o'tish joizdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-57-son qarori. <https://lex.uz/docs/4535422>
2. "Lenin bayrog'i" gazetasi, 1979-yil 16-iyun.
3. Abdusoatovna, E. S. (2022). Boysun-umumbashariy qadriyatlar beshigi. *pedagogs jurnali*, 12(2), 114-119.
4. Abdusoatovna, Ergasheva Sayyora. "Surxondaryo viloyati iqtisodiy rivojlanishida Boysun an'anaviy hunarmandchiligining o'rni" *PEDAGOGS jurnali* 31.1 (2023): 10-17.
5. Abdusoatovna, Ergasheva Sayyora. "The Role of Crafts in the Economy of Surkhan Oakh (In the Example of Cosibility)." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.6 (2022): 51-54.
6. Dadamirzayeva G.A. 1946-1960-yillarda Farg'ona vodiysida ishlab chiqarish kooperativlari faoliyati, Farg'ona, 2022. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Diss. Avtoreferati, B.102.
7. Denov tumani davlat arxivi, 43-fond, 1-ro'yxat, 7-ish, 20-varaq.
8. Denov tumani davlat arxivi, 62-fond, 1-ro'yxat, 16-ish, 32-varaq.
9. Ergasheva S. A. The history of surkhan doppies (skullcups) and the characteristics of this folk craft // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2020. – T. 1. – №. 6. – C. 7-13.
10. Ergasheva, Sayyora Abdusoatovna. "History of baisun silk knitting factory." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 581-585.
11. Э.С. Абдусоатовна. The significance of traditional craftsmanships in the economic development of local industry enterprises of surkhondaryo region. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)* 4 (4), 277-283.
12. Isaev, A., S. Ergasheva, and O. Isaev. "Termez culture in IX-XII centuries." *T: New Age Generation* (2001).
13. Nazarov P. N. Promislovaya kooperatsiya RSFSR i ekonomicheskaya politika... – S. 1.
14. Pass A. A. Trud invalidov v ekonomike 1950-x godov: obuza ili spetsificheskiiy resurs (na primere promislovix kooperativov Yujnogo Urala) // *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta*. - 2014. №12 (341). – S. 75.
15. Pisarenko E.YE. Aleksandr Dmitriyevich Syurupa // *Voprosi istorii*. 1989. №5.
16. Sipkina M. A. Razvitiya promislovoy kooperatsii Uzbekistana... – C. 144.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 45-fond, 1-ro'yxat, 1830-ish, 124-varaq.
18. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 526-fond, 1-ro'yxat, 34-ish, 63-varaq.
19. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 322-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 10-varaq.
20. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 322-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 12-varaq.
21. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 322-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 20-varaq.
22. Termiz shahar shaxsiy tarkib hujjatlari arxivi, 457-fond, 2-ro'yxat, 34-ish, 76-varaq.
23. Ergasheva, S. A. (2020). CRAFT OF SURKHANOAKH FROM THE HISTORY OF DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (7), 56-59.

24. Ergasheva, S. A. (2021). History of baisun silk knitting factory. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 581-585.
25. Ergasheva, S. A. (2020). The history of surkhan doppies (skullcaps) and the characteristics of this folk craft. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 1(6), 7-13.
26. Abdusoatovna, E. S. (2023). SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHIDA BOYSUN AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIGINING O'RNII. *PEDAGOGS jurnali*, 31(1), 10-17.
27. Abdusoatovna, E. S. (2022). BOYSUN-UMUMBASHARIY QADRIYATLAR BESHIGI. *PEDAGOGS jurnali*, 12(2), 114-119.
28. Холманова, Ф. У. (2020). О роли предприятий легкой промышленности в экономике Сурхандарьи. *Бюллетень науки и практики*, 6(12), 483-486.
29. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
30. Rahmonov, M. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 341-344.
31. То'Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG'LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.
32. Холманова, Ф. У. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИСТОРИИ, КАК НАУКА И УЧЕБНЫЙ ПРЕДМЕТ. *Интернаука*, (3-1), 30-32.
33. Холманова, Ф. У. ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИНИНГ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ. *ЎТМИШГА НАЗАР*, 436.
34. Habibullo o'g'li, R. M. (2023). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMINING AN'ANAVIY TURMUSH TARZI.

SANOAT KORXONALARI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA AGRAR TIZIMDAGI ISLOHOTLAR

Xolmanova Feruza Uralovna

Termiz Davlat Universiteti Jahon tarixi kafedrası
katta o'qituvchisi (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10087098>

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasida agrar sohaning rivojlanish tarixi mustaqillik yillaridan so'ng yangi bosqichga kirdi. Surxondaryo viloyati asosan paxta etishtirishga ixtisoslashganligi sababli ham vohada paxta tozalash sanoatining alohida o'rni bor. Mustaqillik yillarida Surxondaryoda yangi paxta tozalash zavodlari qurilib ishga tushirila boshlandi va engil sanoat sohasida katta o'zgarishlar bo'ldi.

Kalit so'zlar: Paxta, Uzun, Denov, Xayrobod, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, xom ashyo, "Jarqo'rg'on tola", "Surxonpaxtasanoatsotish", Viloyat paxta tozalash zavodlari.

INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES AND REFORMS IN THE AGRARIAN SYSTEM

Abstract. The history of the development of the agricultural sector in the Republic of Uzbekistan entered a new stage after the years of independence. Due to the fact that Surkhandarya region mainly specializes in cotton cultivation, cotton ginning industry has a special place in the oasis. During the years of independence, new cotton ginning factories were built and put into operation in Surkhandarya, and great changes took place in the field of light industry.

Keywords: Cotton, Uzun, Denov, Khairabad, Shorchi, Kumkurgan, raw materials, "Jharkurgan fiber", "Surkhanpakhtasanoatsotish", Regional cotton ginning factories.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И РЕФОРМЫ В АГРАРНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация. История развития агропромышленного комплекса Республики Узбекистан после лет независимости вступила в новый этап. В связи с тем, что Сурхандарьинская область в основном специализируется на выращивании хлопка, особое место в оазисе занимает хлопкоочистительная промышленность. За годы независимости в Сурхандарьинской области были построены и введены в эксплуатацию новые хлопкоочистительные заводы, произошли большие изменения в сфере легкой промышленности.

Ключевые слова: Хлопок, Уzun, Денов, Хайрабад, Шорчи, Кумкурган, сырье, «Джаркурганское волокно», «Сурханпахтасаноатсотиши», Областные хлопкоочистительные заводы.

Kirish. O'zbekiston jahonda paxta etishtirish bo'yicha etakchi hisoblansada 1991 yilga qadar xom-ashyoni yarim mahsulot va tayyor mahsulotga qayta ishlash ulushi 7-10 foizdan oshmas edi. Paxta tolasining qolgan qismi boshqa mamlakatlarga qayta ishlash uchun olib ketilar edi.⁶⁴

1996 yilga qadar paxta tolasini chetga oldib chiqib ketish strategiyasi va tendensiyasi davom etdi, chunki to'qimachilik korxonalarida uskunalari va qo'lanilayotgan texnologiyalarning

⁶⁴ Орлова Т. Легкая промышленность: новый этап- новые задачи. "Народное слово" 16 июля 2002 г.

eskiligi oqibatida jahon bozorida raqobatbardosh tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyati yo'q, eksport qilinayotgan paxta tolasining bahosi ancha yuqori edi. Shu omillarning natijasida hamda sanoatdagi tarkibiy siljishlar oqibatida, ya'ni yoqilg'i energetika majmuasi va avtomobilsozlik mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishi sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmida to'qimachilik sanoati ulushining sezilarli kamayishiga olib keldi. 1991 yilda to'qimachilik sanoatining ulushi 29,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda 17,6 tashkil qildi.

1996 yildan boshlab paxta tolasining jahondagi bahosining pasayishi sababli, respublikada paxta tolasini qayta ishlash hajmi orta boshladi va 1996 yil 12 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2003-2004 yillarda 24-25 foizga etdi. Shu bilan birgalikda to'qimachilik ishlab chiqarish xajmi ham orta boshladi. 1996-2004 yillarda kalava ip ishlab chiqarish 18 martaga, ip gazlama ishlab chiqarish 10,5 foizga o'sdi, trikotaj mato 5-6 mln. tonna hajmda barqaror ishlab chiqarildi.⁶⁵

2000 yilda to'qimachilik sanoatining YAIM dagi ulushi 2,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining bir muncha ko'payishi natijasida bu tarmoqning YAIM dagi ulushi 2,8 foizga etdi. Bu ko'rsatkich talab darajasidan ancha pastdir.

2004 yil yakunlariga ko'ra yigirish va to'quvchilik tarmog'ida asosiy vositalarning eskirish darajasi 45 foizni, tikuvchilik tarmog'ida esa 95 foizni tashkil qilgan. Tarmoqdagi 2000 yilga qadar tashkil etilgan barcha korxonalarni texnik qayta jihozlash va uskunalarni modernizatsiya qilish zarur. Korxonalardagi uskunalarning eskirish darajasining yuqoriligi natijasida jahoni andozalariga mos keluvchi mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas va Shu bilan birgalikda ishlab chiqarilayotgan mahsulot bahosi past bo'ladi.

Surxondaryo viloyati asosan paxta etishtirishga ixtisoslashganligi sababli ham vohada paxta tozalash sanoatining alohida o'rni bor. Mustaqillik yillarida Surxondaryoda yangi paxta tozalash zavodlari qurilib ishga tushirila boshlandi. Jarqo'rg'on tumani paxta tozalash zavodi qoshida 1991 yilda "Jarqo'rg'on tola" hissadorlik jamiyati paxta tolasini Shveysariya, Buyuk Britaniya, Italiya va Koreya kabi davlatlar firmalariga sotishni yo'lga qo'ydi. Dastlab, hissadorlik jamiyatida 25 nafar ishchi mehnat qildi. Ularning o'rtacha ish haqlari 2001 yilda 15 ming so'mni tashkil qildi⁶⁶.

1990 yilda mavjud 11 ta paxta tozalash zavodida 143,5 ming tonna paxta tolasini ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1991 yilda bu raqam 145,4 ming tonnani tashkil etdi. Viloyat engil sanoat korxonalarida 1992 yilda umumiy uzunligi 1247000 metr bo'lgan shoyi gazlama, 99,5 mln. dan ortiq so'mlik tikuvchilik buyumlari, 20,1 ming juft poyabzal, 19,2 ming dona trikotaj buyulari, 5,2 ming dona paypoq, 2,3 tonna yigirilgan ip tayyorlandi⁶⁷.

"Surxonpaxtasanoatsotish" XJ - 27260,7 ming AQSH dollari miqdorida paxta tolasini eksport qildi⁶⁸.

1994 yilda viloyat paxtakorlari 380098 tonna paxta etishtirib yillik rejani bajargan⁶⁹.

⁶⁵ "Ўзбекенгилсаноат" ДАК маълумотлари

⁶⁶ Турсунов С., Тўхтаев А. Жарқўрғон. Т., "Фан", 2008. – Б.138.

⁶⁷ Раҳимов Б. "Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (Сурхондарё вилояти мисолида 1991-2005 йй)". Номзодлик диссертацияси автореферати. Т. 2008. – Б.11.

⁶⁸ Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1 рўйхат, 972 иш. 56- варақ.

⁶⁹ Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1 рўйхат, 316 иш. 27 - варақ.

1996 yilda “Surxonoziqovqatsanoati” viloyatda chigitni qayta ishlovchi yagona korxonasi hisoblanardi.

Ushbu korxonada 1988-89 yillarda 45 ming tonnaga qadar o‘simlik yog‘i ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1995 yilda esa 32 ming tonna o‘simlik yog‘i ishlab chiqarildi. 1996 yil 7 oyida jamoada, 1995 yildagiga nisbatan 76 foizga o‘shirishga erishildi. Buning asosiy sababi uyushma tomonidan texnik chigit bilan ta‘minlanmaganligidir⁷⁰.

1997 yilda Surxondaryo viloyatiga jami: 260 ta traktor va paxta terish mashinalari berilgan. Shundan: Traktor TTZ-100 “Kamminz” dvigatellari o‘rnatilgan 170 ta, paxta terish mashinasi 90 ta, keys apparati bilan 6tani tashkil etgan⁷¹.

1997 yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra viloyatimizda jami bo‘lib. 12 ta paxta tozalash zavodi Uzun, Denov, Xayrobod, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Surxon, Jarqo‘rg‘on, Termiz, Muzrabot, Sherobod, Qiziriq, Angor tumanlari bo‘lib ularning tola ishlab chiqarish quvvati bir yilda 230 ming tonna tola yoki 700-710 ming tonna paxta xom-ashyosini ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan..

Zavodlarni katta miqdorda paxta ishlay olish quvvati bilan qurilib qolishining asosiy sababi respublikada paxta etishtirishni 6 million, Shu jumladan viloyatimizda 550-600 ming tonnaga etkazish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy xokimiyatining 1980-85 yillarda tuzgan 5yillik paxta etishtirishni rivojlantirish to‘g‘risidagi qaroriga asosan bo‘lgan.

Ammo keyingi yillardagi ya‘ni 1997 yilda paxta yakka xokimligiga barxam berish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini boshqa turlarini etkazishini ham rivojlantirish maqsadida respublikada, Shu jumladan viloyatimizda etishtirilayotgan paxta xom-ashyosi miqdori rejasi bir muncha qisqarib, 380 ming tonna atrofida bo‘lib qoldi.

Jumladan Uzun paxta tozalash zavodida ishlab chiqarish quvvati 40 foizga, Jarqo‘rg‘on 30 foizga, Denov paxta tozalash zavodi 40 foizga, Termiz paxta tozalash zavodi 30 foizga qisqartirildi.

1997 yilda bo‘shab qolgan ishchi kuchini ish bilan ta‘minlash maqsadida barcha zavodlarda tikuv sexi, Uzun, Angor paxta tozalash zavodlarida noto‘qima mato ishlab chiqarish kichik korxonalari ishlamoqda⁷².

1997 yilda viloyatimizda paxta tolasini qayta ishlaydigan “O‘zbekengilsanoat” davlat uyushmasiga qarashli yagona “Surxontekstil” xissadorlik jamiyati faoliyat yuritgan.

Termiz Paxta tozalash korxonasi Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25 noyardagi № 491-sonli qarorining 2- bandi bilan Respublikada yagona ingichka tolali paxta urug‘ini etishtirib beradigan korxonasi hisoblanardi. Termiz tumanida joylashgan ingichka tolali paxta seleksiyasini etishtirib sinovdan o‘tkazadigan birdan-bir paxtachilik ilmiy sinov tajriba stansiyasi tomonidan etishtirilgan yangi seleksiyalarni ham Shu zavodda qayta ishlab chiqariladi.

Termiz paxta tozalash korxonasi urug‘lik chigit ishlashga moslashtirilgani uchun texnologik jaryon zamonaviy yangi texnikalar bilan jihozlangan, atrof-muhitni ifloslantirish tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi talablariga to‘la javob beradi. Korxonasi istiqbolli g‘o‘za seleksiyasi urug‘larini ishlab chiqarishga moslashgan⁷³.

⁷⁰ Surxondaryo viloyat davlat arxivida 1091 jamg‘arma, 1r‘uyxat ,444 ish. 40- varaq.

⁷¹ Surxondaryo viloyat davlat arxivida 1091 jamg‘arma, 1r‘uyxat ,522 ish. 4- varaq.

⁷² Surxondaryo viloyat davlat arxivida 1091 jamg‘arma, 1r‘uyxat ,515 ish. 10- varaq.

⁷³ Surxondaryo viloyat davlat arxivida 1091 jamg‘arma, 1r‘uyxat , 795 ish. 75- varaq.

Korxonada 1998 yilda o‘rtacha 809,0 mln, so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lib, Termiz shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 75 foizini tashkil etadi, ishlab chiqarilgan mahsulotning 77 foizi chet malakatlarga eksport qilingan. Ushbu yilda korxonada 17768 ming so‘m foyda bilan yakunlagan va korxonada 500 kishidan ortiq ishchi xizmatchi va injener texnik xodimlar ishlashgan. 1999 yilda korxonada 282 ta xotin-qizlar ishlagan⁷⁴.

Bu korxonada 2000 ga yaqin ishchi va xizmatchilarni ish bilan ta‘minlab, yiliga 2000 tonna paxta tolasini qayta ishlagan va “Uzpaxtasanoatsotish” uyushmasiga qarashli Uzun hamda Angor tumani paxta tozalash zavodlari qoshidagi “Noto‘qimato” ishlab chiqarish sexlarini kalava ip bilan ta‘minlab kelgan⁷⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-1987 sonli farmonidan kelib chiqib, aholining sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish va yangi o‘rinlarini yaratish maqsadida “CHUNG” xususiy sanoat savdo korxonasi tashkil etilgan.

Bu korxonada yiliga 850 tonna xo‘jalik paxta mahsulotlarini qayta ishlab, 255,0 mln so‘mlik tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega⁷⁶.

Viloyat paxta tozalash zavodlari 2001 yilning 15 yanvarigacha bo‘lgan holatiga ko‘ra yog‘- moy korxonalariga chigit etkazib berish rejasini 1 ming tonnaga bajarmagan, natijada yog‘- moy mahsulotlari ishlab chiqarish keskin kamayib ketdi. Aholi o‘simlik yog‘i, chorvachilik ozuqa em bilan ta‘minlanmayapti⁷⁷.

2001 yilda “Xayrobodpaxta” AJ da kam ta‘minlangan oilalarga va ishchilarga dafn va to‘y marosimlarini o‘tkazish uchun moddiy yordamlar berilgan. Ushbu summa 10.000 mingdan 15.000 mingacha bo‘lgan hamda dam olish kunlari ishlaganliklari uchun qo‘shimcha haq to‘langan⁷⁸.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishiga asosan 1 avgust 2001 yildan ish haqqi, stendiyalar va ijtimoiy nafaqalarning 1,4 barobariga oshganligidan kelib chiqib, zavod mehnatkashlarining bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ularning ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini himoyalash maqsadida “Xayrobodpaxta” AJda bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Korxonada 1 avgust 2001 yildan boshlab, eng kam ish haqqi 5000 so‘m, ishchilar ovqat puli 350 ming so‘m miqdorida belgilangan⁷⁹.

2002 yil “Qariyalarni qadrlash yili” Davlat dasturidan kelib chiqqan holda hamda “1-oktyabr Murabbiylar va Nuroniylar kuni” munosabati bilan “Hayrobodpaxta” AJ da ishlab nafaqaga chiqqan bir guruh nuroniylarga bayram dasturxonini tashkil etilgan hamda 25.000 ming, 15000 ming va 10.000 ming so‘m miqdorida mukofot pullari berilgan⁸⁰. 2002 yili korxonada har haftaning dushanba kuni “Sifat kuni” deb belgilangan⁸¹.

2003 yil hosilidan tayyorlangan jami 39837,9 tonna xom-ashyosini 9366,7 tonnasi Surxondaryo viloyat “Paxtasanoat” birlashmasining buyrug‘iga asosan Termiz paxta zavodiga

⁷⁴ Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1 рўйхат, 795 иш. 75-76- варақ.

⁷⁵ Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1 рўйхат, 522 иш. 204- варақ.

⁷⁶ Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1 рўйхат, 107 иш. 20 - варақ.

⁷⁷ Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1 рўйхат, 1156 иш. 9- варақ.

⁷⁸ Денов туман давлат архиви 711 жамғарма, 1 рўйхат, 5-иш. 4-варақ.

⁷⁹ Денов туман давлат архиви 711 жамғарма, 1 рўйхат, 5-иш. 20-варақ.

⁸⁰ Денов туман давлат архиви 711 жамғарма, 1 рўйхат, 4-иш. 29-варақ.

⁸¹ Денов туман давлат архиви 711 жамғарма, 1 рўйхат, 5-иш. 51-варақ.

2870,4 tonna, Jarqo‘rg‘on paxta zavodi 2003,9 tonna, Angor paxta zavodi 4468,0 tonna, Sherobod paxta zavodiga 34,4 tonna paxta xom-ashyosini qayta ishlash uchun berilgan⁸².

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki 1991-2003 yillarda Surxandaryo viloyatida paxta sanoatida bir qancha iqtisodiy o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Orlova T. Legkaya promyshlennost: novyy etap- novye zadachi. “Narodnoe slovo” 16 iyulya 2002 g.
2. “O‘zbekengilsanoat” DAK ma’lumotlari
3. Tursunov S., To‘xtaev A. Jarqo‘rg‘on. T., “Fan”, 2008. – B.138.
4. Rahimov B. “O‘zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yy)”. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2008. – B .11.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1091 jamg‘arma, 1 ro‘yxat , 972 ish. 56- varaq.
6. Tursunov S., To‘xtaev A. Jarqo‘rg‘on. T., “Fan”, 2008. – B.138.
7. Rahimov B. “O‘zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yy)”. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2008. – B .11.
8. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1091 jamg‘arma, 1 ro‘yxat , 972 ish. 56- varaq.
9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1091 jamg‘arma, 1ro‘yxat ,795 ish. 75-76- varaq.
10. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1091 jamg‘arma, 1ro‘yxat ,522 ish. 204- varaq.
11. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1091 jamg‘arma, 1 ro‘yxat , 107 ish. 20 - varaq.
12. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1091 jamg‘arma, 1 ro‘yxat , 1156 ish. 9- varaq.
13. Denov tuman davlat arxivi 711 jamg‘arma, 1 ro‘yxat, 5-ish. 4-varaq.
14. Ergasheva, S. A. (2020). CRAFT OF SURKHANOAKH FROM THE HISTORY OF DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (7), 56-59.
15. Ergasheva, S. A. (2021). History of baisun silk knitting factory. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 581-585.
16. Ergasheva, S. A. (2020). The history of surkhan doppies (skullcups) and the characteristics of this folk craft. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 1(6), 7-13.
17. Abdusoatovna, E. S. (2023). SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHIDA BOYSUN AN‘ANAVIY HUNARMANDCHILIGINING O‘RNI. *PEDAGOGS jurnali*, 31(1), 10-17.
18. Abdusoatovna, E. S. (2022). BOYSUN-UMUMBASHARIY QADRIYATLAR BESHIGI. *PEDAGOGS jurnali*, 12(2), 114-119.
19. Холманова, Ф. У. (2020). О роли предприятий легкой промышленности в экономике Сурхандарьи. *Бюллетень науки и практики*, 6(12), 483-486.
20. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
21. Rahmonov, M. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 341-344.

⁸² Ўзбекистон Миллий архиви.8 жамғарма, 1 рўйхат, 693 иш .479- varaq.

22. To‘Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG‘LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.
23. Холманова, Ф. У. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИСТОРИИ, КАК НАУКА И УЧЕБНЫЙ ПРЕДМЕТ. *Интернаука*, (3-1), 30-32.
24. Холманова, Ф. У. ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИНИНГ ХУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ. *ЎТМИШГА НАЗАР*, 436.
25. Habibullo o‘g‘li, R. M. (2023). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMINING AN‘ANAVIY TURMUSH TARZI.

НЕОЛОГИЗМЫ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Юлдашева Шахризода Салимовна
Студентка 2 курса 222 группы филологического
Факультета русских и родственных языков
Термезского Государственного университета
Шадиева Д.К.
Научный руководитель

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10087136>

Аннотация. В статье сравнивается неологизм в современном русском и английском языках по способу словообразования и сферам употребления.

Ключевые Слова: Английский язык, русский язык, неологизм, языковая система, способы словообразования.

NEOLOGISMS IN MODERN RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES

Abstract. The article compares neologism in modern Russian and English according to the method of word formation and areas of use.

Key Words: English language, Russian language, neologism, language system, methods of word formation.

Лексика — наиболее подвижная часть языка, которая в свою очередь непрерывно совершенствуется, развивается, вместе с тем реагирует на изменения в окружающей нас действительности, то есть развивается параллельно с жизнью общества. Появление неологизмов, или новых слов, — это само собой является очевидным фактором жизнеспособности языка, его тенденцией раскрыть всю ценность знаний индивидуума и прогресса цивилизации. На сегодняшний день в мире существует большое разнообразие языков. Для лиц, являющимися представителями различной национальности а также имеющие разнообразные культуры и обычаи, процессы и этапы глобализации служат мощным стимулом для их же коммуникации. Непосредственная коммуникация между носителями различных лингвокультур требует выбора определённого языка общения. Согласно статистике, свыше 1 млрд. человек используют английский язык в качестве альтернативы к их родному языку за рубежом, который в свою очередь получил статус глобального. Сегодня учёные пишут о вступлении мира в эру билингвизма: для многих родной язык и английский язык сосуществуют. Само по себе изучение неологизмов способствует расширению словарного запаса и пониманию реалий современной жизни. А изучение новых слов в языке, носителем которого человек является, и в языке международного общения путём их сравнения способствует этому вдвойне. Далекое не все люди понимают значения неологизмов, и это для них является проблемой. Этим определяется актуальность исследования.

Теоретические аспекты неологии. Понятие неологизма.

В современном мире в связи с появлением все новых и новых вещей, предметов культуры, апгрейдов в сфере информационной технологии и представлений о бытие, в языке появляются новые слова или словосочетания. Их называют неологизмами (др. греч. νέος — новый + λόγος — слово). Неология — наука, которая занимается изучением неологизмов. Неология, как молодая и перспективная отрасль, языкознания переживает так называемый «неологический пик». Несмотря на это, ряд нерешённых проблем все таки присутствуют в этой новизне. К их числу относятся изъясн чёткой терминологической основы, в том числе и определения объекта неологии — неологизма. Согласно филологу Л. П. Катлинская, «Что такое неологизм в плане самой лингвистики, по прежнему не имеет точного и чёткого определения». Все это, по мнению другого лингвиста Е. В. Сенько, дает

нам основание делать вывод, что неология — «не сложившаяся», а пока лишь «формирующаяся и развивающаяся» наука в области языкознания. Это вполне естественный закономерный процесс. Любая наука не сразу становится полноценной, а проходит долгий, тернистый и сложный этап становления.

Виды неологизмов.

В современном русском языке существуют две группы неологизмов: языковые и авторские. Языковые неологизмы — это такого рода слова, существующие в качестве названия для новых предметов, явлений, понятий, у которых отсутствует конкретное определение в языке (терминологические неологизмы) или как новые названия для уже существующих предметов или понятий (стилистические неологизмы). Они могут пополнить список словарного запаса и словаря русского языка. В связи с развитием производства и различных отраслей человеческой деятельности, появляются все больше и больше терминологических неологизмов. В качестве примера, компьютер, принтер, сайт, сервер; Internet, digital — цифровой. Стилистические неологизмы — слова, словосочетания и выражения, которые используются в целях создания выразительности и самое главное для улучшения конкретности того или иного слова. Например, релакс — отдых; trigger-happy — воинственный. Авторские неологизмы (или окказионализмы (от лат. occasionalis — случайный) — это слово или значения слова, созданное писателем, поэтом, публицистом для обозначения новых или выдуманных явлений деятельности, предметов или понятий. Неологизмы этого типа «прикреплены» к контексту, имеют автора. Слова, словосочетания и выражения созданные советским поэтом В. В. Маяковским, являются явными примерами окказионализма. В качестве примера, выражения «темно свинцовоночие», «сливают губы с холода», типичные примеры авторского неологизма, имеют негативный смысл означающий ужасное состояние труда, однако не взирая на все минусы, рабочие строят «город -сад». Эпитеты «серпастый», «молоткастый» выражают гордость Маяковского за паспорт великой страны — СССР. Некоторые авторские неологизмы оказались настолько удачными, что стали общеупотребительными словами. Так, Н. В. Гоголь гордился ушедшим в народ «не вытанцовывается», Ф. М. Достоевский ввел в литературную речь слово «штушеваться», М. Е. Салтыков-Щедрин — «мягкотелость», «халатность», А. П. Чехов — «недотёпа». Рекламы, имеющие обширные просторы в сфере телевидения, часто используют окказионализмы в целях привлечения общественности к товарам и услугам например, «восхрустительный» (о сухариках), «аромагия» (о кофе), «фрумеладки» (о мармеладе). Способы образования неологизмов Учёные-лингвисты выделяют следующие способы образования неологизмов: фонологический, семантический, конверсия, аффиксация, словосложение, аббревиация, заимствования, словослияние. Фонологические неологизмы появляются благодаря сочетанию отдельных звуков. Они выглядят как уникальное сочетание звуков, часто используя звукоподражательные междометия. В литературе такие слова называют «искусственными» или «изобретёнными». Примеры: мимишный — милый (от звуков умиления); to whee — волноваться (от междометия, выражающего восторг), уеск, уиск — междометия, выражающие отвращение (американский сленг). Слова у которых уже смысл ясен но несмотря на это, имеющие ещё дополнительное значение, называются семантическими. Возможны следующие варианты: 1) «устаревшие» слова целиком изменяют свой смысл, лишаясь уже существовавшего; 2) слово сохраняет своё старое значение и приобретает новое, не теряя уже существовавшего. Своеобразие семантических неологизмов состоит в том, что как лексемы они давно известны в языке, но, обновив своё значение, перемещаются из одной сферы языкового пространства в другую, изменяя при этом лексическую сочетаемость, стилистическую закреплённость, экспрессивную окраску. Примеры: взломать — ломая, открыть, вскрыть что-либо запертое, новое значение — преодолеть систему защиты компьютера; whaling — охота на китов, новое значение — вид

кибермошенничества с целью похищения конфиденциальных данных высокопоставленных людей. Конверсия — морфолого-синтаксический способ словообразования, в этом случае наблюдается переход слова из одной части речи в другую. Примеры: прил. большой (человек) — сущ. большой; сущ. Google (поисковая система) — гл. to google («гуглить»), искать информацию по поисковой системе). Аффиксация — способ образования слов с помощью аффиксов, то есть присоединение аффиксов к корню или основе слова. Аффиксальные новообразования подразделяются на префиксальные и суффиксальные. Присоединение суффиксов к корням или основам называется суффиксацией или постфиксацией: газетчик, силач, жемчужина, варка. А добвка к слову приставок называется префиксацией. Например, неметаллы, контрпредложение, сварить, оседлать. Словосложение — способ, дающий возможность сделать из двух слов одно единое, со своим конкретным смыслом. Примеры: марсоход; friendzone — зона дружбы. Аббревиация — способ, образующий в настоящее время большое количество неологизмов, применяемых при общении в социальных сетях. Инициальный способ сокращения — для создания используются первые буквы слов. В свою очередь есть два отдельных вида инициальных аббревиатур: буквенные аббревиатуры (произносятся по буквам, например, НЛО, ФРГ) и звуковые (читаются как полноценные слова, например, НАТО, UFO). Комбинированный способ — инициальная аббревиатура соединяется с усечённым словом или несколькими усечёнными словами, например, СевГУ — Севастопольский государственный университет. Заимствование — это процесс усвоения одним языком слова, выражения или значения другого языка. Заимствованные слова имеют свою отдельную большую классификацию по способам заимствования. Примеры английских заимствований в русском языке: менеджер, триллер, дайвинг, чизбургер. Словослияние — это такой способ словообразования, при котором часть одного слова сливается, чтобы образовать единое целое с частью другого слова или с целым словом. Примеры: Минпромторг (Министерство промышленности и торговли); staycation (stay, vacation) — отпуск, проведённый у себя дома.

В русском языке неологизмы наиболее часто встречаются в сферах коммуникаций, искусства и моды, психологии и бизнеса. В английском языке — в области психологии и коммуникаций. В моем исследовании английские неологизмы в IT сфере занимают незначительное место, несмотря на то, что основная часть терминов в этой области имеет англоязычное происхождение. Это объясняется тем, что эти термины уже стали общеупотребительными словами. Не является новостью тот факт, что научные разработки, в том числе в области информационных технологий, опираются на англоязычные термины. Но то, что в сфере психологии и коммуникаций используется много неологизмов и в английском, и в русском языке.

Предложения по теме исследования Неологизмов — великое множество. Не все они нужны обычным людям. Но без некоторых не обойтись в бизнесе, общении или других сферах. Поэтому неологизмы нужно знать, понимать и правильно применять. Кроме того, русские неологизмы в большинстве своем являются англицизмами (английскими заимствованиями). Поэтому знание неологизмов может способствовать изучению английского языка, обладающего статусом глобального.

Заключение

Неологизмы используются во всех сферах человеческой жизни, особенно в области психологии и коммуникаций. Причём этот факт имеет место и в русском, и в английском языках. Это доказывает то, что появление неологизмов — неотъемлемый процесс развития языка. Не следует избегать использования новых слов: это невозможно и бессмысленно. Их надо изучать. Использование неологизмов способствует расширению словарного запаса, пониманию современной жизни. Как сказал австрийский философ Людвиг Витгенштейн: «Язык можно рассматривать как старинный город: лабиринт маленьких улочек и площадей,

старых и новых домов, домов с пристройками разных эпох; и все это окружено множеством новых районов с прямыми улицами регулярной планировки и стандартными домами»

REFERENCES

1. Катлинская. Л. П. Живые способы создания русских слов. М., 1995. С. 7.
2. Сенько. Е. В. Теоретические основы неологии. Владикавказ. 2001. С. 16.
3. Гак В. Г. О современной французской идеологии // Новые слова и словари новых слов. Л., 1978. С. 38.
4. Котелова, В. З. Первый опыт лексикографического описания русских неологизмов/ Новые слова и словари новых слов. — Л.: 1978, С.15–31.
5. Сырескина, С. В. Неологизмы в современном английском языке. 2017. С. 207–210.
6. Людвиг Витгенштейн. Философские исследования. 1953 г.
7. Котелова Н. З. Неологизмы // Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990. С. 331.
8. Елисеева В. В. Лексикология английского языка: учебник / СПб: СПбГУ, 2003. С. 44.
9. Котелова Н. З. Первый опыт лексикографического описания русских неологизмов. Л.: Наука ЛО, 1990. С. 8–90.
10. Курбанова Н. А. Основные модели словообразования неологизмов // Молодой ученый. 2014. № 17 (76). С. 602–603.

TIPIK BO‘Z TUPROQLAR SHAROITIDA G‘O‘ZADA ORGANIK KOMPOSTLARNI QO‘LLASH SAMARADORLIGINI O‘RGANISH

Amankulov Shaxzod Shodibek o‘g‘li

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Ochilova Odinoxon Akmal qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Toshmurodova Fotima Xolboy qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Ergashev Urozali Maxmud o‘g‘li

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10087399>

***Annotatsiya.** Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida organik o‘g‘itlarga bo‘lgan talab yuqori bo‘lib, ayrim hollarda ularning yetishmasligi kuzatiladi. Masalan O‘zbekiston sharoitida gumus balansini defitsitsiz holatda ushlab turish uchun har bir gektar sug‘oriladigan yerga har yili 17-18 tonna organik o‘g‘it qo‘llanilishi kerak aslida. Lekin, hozircha ushbu miqdordagi organik o‘g‘itlarni to‘plash imkoniyati yo‘q. Tuproqqa berish mumkin bo‘ladigan organik massa va oziq elementlarining qo‘shimcha manbalarini topish kerak, chuchuk suv loyqasi kuzda to‘kilgan daraxt barglari bakterial preparatlar bularning tarkibida ko‘p miqdorda ayrimlarida 50% gacha organik moddalar, makro va mikroelementlar va o‘simliklar o‘sishi uchun zarur bo‘lgan boshqa moddalar bo‘ladi. Organik o‘g‘itlar bilan tuproqqa o‘simlik uchun zarur bo‘lgan barcha oziq elementlar bilan bir vaqtda ancha miqdorda mikroorganizmlar ham tushadi. Ushbu mikroorganizmlar tuproq mikroflorasini boyitib, uning tarkibida kechadigan mikrobiologik jarayonlar (chirish, ammonifikatsiya) ni faollashtiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Bo‘z tuproqlar g‘o‘zada organik kompostlarni qo‘llash samaradorligi tuproq unumdorligi hosildorlikni oshirish.*

STUDY OF THE EFFICIENCY OF APPLICATION OF ORGANIC COMPOSTS IN COTTON UNDER TYPICAL GRAY SOIL CONDITIONS

***Abstract.** In the agriculture of our country, the demand for organic fertilizers is high, and in some cases there is a shortage of them. In fact, tons of organic fertilizer should be applied. However, it is not possible to collect this amount of organic fertilizers. It is necessary to find additional sources of organic mass and nutrients that can be given to the soil, fresh water mud, leaves of trees that have fallen in the fall, bacterial preparations, some of them contain large amounts of organic matter, macro- and microelements, and plants. There are other substances necessary for growth. With organic fertilizers, along with all the nutrients necessary for the plant, a large amount of microorganisms also fall into the soil. These microorganisms enrich the microflora of the soil and activate the microbiological processes (rotting, ammonification) taking place in it.*

***Keywords:** Effectiveness of applying organic composts to cotton on gray soils, increasing soil fertility and productivity.*

ИЗУЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ОРГАНИЧЕСКИХ КОМПОСТОВ В ХЛОПКОВЕ В ТИПИЧНЫХ УСЛОВИЯХ СЕРОЙ ПОЧВЫ

Аннотация. В сельском хозяйстве нашей страны потребность в органических удобрениях высока, а в ряде случаев наблюдается их нехватка, ведь необходимо вносить тонны органических удобрений. Однако собрать такое количество органических удобрений невозможно. Необходимо найти дополнительные источники органической массы и питательных веществ, которые можно давать в почву, пресноводную грязь, опавшие осенью листья деревьев, бактериальные препараты, некоторые из них содержат большое количество органических веществ, макро- и микроэлементы и растения. Есть и другие вещества, необходимые для роста. С органическими удобрениями вместе со всеми необходимыми растению питательными веществами в почву попадает и большое количество микроорганизмов. Эти микроорганизмы обогащают микрофлору почвы и активизируют происходящие в ней микробиологические процессы (гниение, аммонификация).

Ключевые слова. Эффективность внесения органических компостов под хлопчатник на серых почвах, повышение плодородия и урожайности почв.

Kirish. Bugungi kunda tuproq unumdorligi va olinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini oshirishda organik o'g'itlar va kompostlar muhim o'rinni egallaydi. Keyingi yillarda butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham yer resurslaridan jadal sur'atda foydalanish natijasida tuproqlarda gumus va oziq elementlar miqdorining kamayishi kuzatilib, tuproqda ayrim elementlarning yetishmasligi sodir bo'lmoqda. Buning asosiy sababi tuproqlardan har yili hosil orqali oziq elementlari tashqariga ko'proq chiqib ketib, kamroq qaytib kelishi, ya'ni chiqim va kirim balansining buzilishidir. Ushbu holat bir qator salbiy ko'rinishlarga olib keladi, jumladan tuproqlarning antropogen ta'sirlariga qarshiligi kamayib, eroziya jarayonlari kuchayadi, fizik-kimyoviy xususiyatlari yomonlashib, agronomik qimmatli xisoblangan agrigatlik tarkibi buziladi. Bir so'z bilan aytganda, tuproqlarning degradatsiyasi sodir bo'ladi, shuning uchun tuproq unumdorligini oshirishda, ularning organik modda va oziq elementlar bilan boyitish va qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish uchun dehqonchilikda o'g'it qo'llash, almashlab ekish va boshqa bir qator agrotexnik tadbirlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida organik o'g'itlarga bo'lgan talab yuqori bo'lib, ayrim hollarda ularning yetishmasligi kuzatiladi. Masalan O'zbekiston sharoitida gumus balansini defitsitsiz holatda ushlab turish uchun har bir gektar sug'oriladigan yerga har yili 17-18 tonna organik o'g'it qo'llanilishi kerak aslida. Lekin, hozircha ushbu miqdordagi organik o'g'itlarni to'plash imkoniyati yo'q.

Organik o'g'itlar bilan tuproqqa o'simlik uchun zarur bo'lgan barcha oziq elementlar bilan bir vaqtda ancha miqdorda mikroorganizmlar ham tushadi. Ushbu mikroorganizmlar tuproq mikroflorasini boyitib, uning tarkibida kechadigan mikrobiologik jarayonlar (chirish, minerilizatsiya, ammonifikatsiya) ni faollashtiriladi. Bunday o'g'itlardan oqilona foydalanish qishloq xo'jaligi uchun o'ta muhim ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shuning uchun bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masala hisoblanadi.

bo'z tuproq sharoitida organik o'g'itlardan, biogumusdan va kompostdan samarali foydalanish va shudgorda solinganda tuproqni gumus va azot, fosfor va kaliyni harakatchan shakllari xususiyatlariga hamda o'simlik tomonidan oziqa moddalarni (NPK) o'zlashtirilishiga, paxta hosiliga ta'siri aniqlanib, organik o'g'it, biogumus va kompostlarni chirishi natijasida

tuproqda organik modda ko'payishi evaziga, ekinlarga qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar samaradorligi va ko'zlangan ekinlar hosildorligi oshib, sifati yaxshilanadi hamda tuproq unumdorligini saqlash va tiklanishi aniqlanadi. Go'ngni saqlashda sifatli tayyorlanishi uchun ustiga 10-15 santimetr qalinlikda tuproq tortilib, yozda uning ustiga ikki-uch mahal tonnasiga 60-100 litr hisobida suv sepib turiladi. Shu usulda saqlanganda go'ng tarkibidagi yo'qoladigan oziqa moddalar miqdori ancha kamayadi va bu miqdor 25-30 foizni tashkil etadi. Go'ng boshqa usullarda saqlanganda uni sifati pasayib, tarkibida oziq moddalar miqdori ko'proq kamayadi, ya'ni go'ng bir yil davomida o'ralarda shibbalab nam holda ustiga tuproq yopmasdan saqlanganda oziqa moddalar yo'qolishi 54 foizni, suv sepilmaganda 57 foizgachani tashkil etgan. Go'ngni shibbalamasdan kichik to'plarda saqlashda yo'qotiladigan oziq moddalar miqdori ba'zan 60-65 foizgacha yetgan.

В результате проведенного анализа данных МПКТ при ДЭРА у данной популяции выявлено, что переломы позвоночника в большей степени взаимосвязано с низкой МПКТ в позвонках, а также в структурах проксимального отдела бедренной кости, где преобладает трабекулярная ткань (большом вертеле бедренной кости).

REFERENCES

1. Баранова, О. В. (Водянова, О. В.) Частота и виды деформационных изменений тел позвонков у постменопаузальных женщин / О. В. Баранова (О. В. Водянова), Э. Е. Малевич, Н. А. Васильева // Мед. панорама. – 2010. – № 6. – С. 52–56.
2. Захаров И.С. Лучевая диагностика остеопороза-современное состояние проблемы / И.С. Захаров// Политравма. -2015.-№1.-С.-69-73.
3. Малевич, Э. Е. Методы лучевой диагностики в оценке переломов позвонков при остеопорозе / Э. Е. Малевич, О. В. Водянова // Мед. новости. –2017. – № 12. – С. 3–9.
4. Современные подходы к оценке геометрических параметров проксимального отдела бедра в клинической практике / О. В. Водянова, А. Н. Михайлов, А. П. Шепелькевич, Э. Е. Малевич // Лечеб. дело. – 2018. –№ 2. – С. 44–50.
5. Tran T, Bliuc D, Hansen L, Abrahamsen B, van den Bergh J, Eisman JA, et al. Persistence of Excess Mortality Following Individual Nonhip Fractures: A Relative Survival Analysis. *J Clin Endocrinol Metab.* 2018;103(9):3205–14.
6. Weaver J, Sajjan S, Lewiecki EM, Harris ST, Marvos P. Prevalence and Cost of Subsequent Fractures Among U.S. Patients with an Incident Fracture. *J Manag Care Spec Pharm.* 2017;23(4):461–71.
7. Sheehan KJ, Sobolev B, Chudyk A, Stephens T, Guy P. Patient and system factors of mortality after hip fracture: a scoping review. *BMC Musculoskelet Disord.* 2016;17(1):166.

HUQUQSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISHDA ESSE METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Meliboyeva Dilnoza Ergashevna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Umumta’lim fanlar kafedrası” o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10088073>

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqshunoslik fanlarini o‘qitishda samaradorlikka erishish uchun ta’limning aniq faktlar bilan ishlashni o‘rgatuvchi, jamiyatdagi qonunlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiruvchi, nutqiy fikrlash, asoslash malakasini shakllantiruvchi metodlarning o‘rni beqiyosdir. Ularning ichida dan “Esse yozish metodi”ni qo‘llashning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: metod, esse, tahlil qilish, asoslash, nazariya, amaliyot, ilmiy nutq, yuridik til, musosabat, usul va vositalar, natijadorlik.

THE IMPORTANCE OF USING THE ESSAY METHOD IN TEACHING LEGAL SCIENCES

Abstract. In this article, in order to achieve efficiency in the teaching of jurisprudence, the role of educational methods that teach working with concrete facts, forming the ability to analyze laws in society, forming the skills of rhetorical thinking and reasoning is incomparable. Among them, there is an opinion about the effectiveness of using the "Essay writing method".

Key words: method, essay, analysis, justification, theory, practice, scientific discourse, legal language, accounting, methods and tools, efficiency.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА ЭССЕ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРАВОВЫХ НАУК

Аннотация. В данной статье для достижения эффективности преподавания юриспруденции несравненна роль образовательных методов, которые учат работать с конкретными фактами, формируют умение анализировать законы в обществе, формируют навыки риторического мышления и рассуждения. Среди них есть мнение об эффективности использования «Метода написания эссе».

Ключевые слова: метод, эссе, анализ, обоснование, теория, практика, научный дискурс, юридический язык, бухгалтерский учет, методы и инструменты, эффективность.

Ma'lumki, huquqshunoslik fanlari o'z sohalari kesimida nazariy ma'lumotlarni bayon etishda boshqa fanlardan aniq dalillarga asoslanishi va huquqiy normalarga asoslangan holda ilmiy nutqdan, dalillashdan keng foydalanishi bilan fanlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Huquqshunoslik fanlarini o‘qitishda samarali usullardan foydalanish uchun, avvalo, uni o‘qitishning shunday samarali usullarini tanlash va qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Natijadorlik ta’limdagi asosiy maqsaddir.

Bu borada huquqshunoslik fanlarini o‘qitish metodikasi alohida o‘rin tutadi va huquqiy ta’lim sohasidagi faoliyat usullarini o‘rganadi - bu usullar juda xilma-xil bo‘lishi mumkin, ammo ularning barchasi zamonaviy talabaga huquqni qanday o‘rgatish, uning qobiliyatlarini qanday rivojlantirish, umumiy ta’limni shakllantirishni tushunishga imkon beradi.

Huquqshunoslik fanlarini o'qitishda ayniqsa, "Esse yozish" metodi muhim ahamiyatga egadir. Undan foydalanish o'quvchi-talabani yuridik tilda fikrini aniq bayon etishga, dalillashga, har bir gapini asoslantirilgan holda ifodalashga o'rgatadi. Yurist uchun nutqning aniqligi, fikrining asoslantirilganligi muhim ahamiyatga egadir.

Esse – o'quvchining aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalari asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. Uning o'zgachaligi mavzuda ko'tarilayotgan muammoga fakt va dalillarni o'rinli keltirish orqali o'z munosabatini bildirish. Esse erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatdan ixcham nasriy asar bo'lib, badiiy-publitsistik janrning bir turi. Esse muayyan bir reja asosida yozilmaydi. *Essening maqsadi* – o'quvchini faol fikrlashga o'rgatish, o'z mulohazalarini dalillashga yo'naltirish, til unsurlaridan o'rinli foydalanish orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish ko'nikmalarini shakllantirish

Esse yozish o'quvchilarga o'z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma'lumotni ongli qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o'z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Muhimi, keltirilgan fakt va dalillarning o'rinli qo'llanishidir.

Esse fransuz tilidan tarjimada "tajriba, andaza" ma'nolarini anglatadi. Esse – prozaik etyud, qandaydir bir predmetga oid umumiy yoki dastlabki mulohazalar. Ko'pincha esse yozish mashg'ulotning boshida, yoki refleksiya sifatida, oxirida taklif etiladi. Esse yozish ko'pincha nazariy mashg'ulotlar, ma'ruzalar hamda mustaqil mashg'ulotlar tarkibida o'tkaziladi. Uning quyidagi turlari tegishli maqsadlarga muvofiq holda qo'llaniladi:

Esse – taklif etilgan mavzu yuzasidan 1000 dan 5000 gacha so'z hajmidagi insho.

Asoslangan esse – qo'yilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdur. Muallif ma'lum bir nuqtayi nazarni egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o'zining nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish. Asoslangan samarali esse yozish uchun agar siz o'z esseingizni yozish jarayonida uni fikriy jihatdan kitobxonlarga (uni o'quvchilarga) "taqdim eta olsangiz" va ular bilan fikriy muloqot o'rnatolsangiz, uni yozishingiz yengil bo'ladi.

Asoslangan esse tarkibi:

1. Mavzu (savol)ga nisbatan muallif nuqtai nazarining bayon etilishi (1 xat boshi).
2. Bayon etilgan nuqtai nazarni asoslash – ushbu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muallifning ishonarli dalillari va ushbu nuqtai nazarni qabul qilishga ishontirish.
3. Xulosa – rezyume.

Bundan tashqari "Besh daqiqali esse" metodi ham mavjud bo'lib, ushbu usul – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'uloti oxirida 5 daqiqa oralig'ida qo'llaniladi. Yozma topshiriqning ushbu turi talabalarning mavzuga doir o'z mustaqil fikrlarini ifodalay olishga yordam berish va o'qituvchiga o'z talabalari o'quv materiali bilan tanishganda qaysi jihatlarga ko'proq e'tibor berishlari xususida fikrlash imkonini beradi.

Erkin yozish metodi – besh daqiqali essening boshqa ko'rinishi bo'lib, talabalarning muayyan mavzu bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozish mashqlaridan iborat. Masalan, talabalarga besh daqiqa ichida "Huquqiy munosabatlar" mavzusi bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida ularga o'z yozganlarini sheriklariga o'qib berishlarini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o'qituvchining ixtiyorida ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruhli aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

Huquqshunoslik fanlarini o'qitishda "Esse yozish" metodidan foydalanishning afzalliklaridan biri shundaki, bu orqali o'quvchilar jamiyat, davlatda amal qiluvchi yoki yaratilgan barcha normalarning jamiyatda amal qilish holatiga nisbatan munosabatini bildirib o'tadi. Bu orqali o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, qonunlarga nisbatan huquqiy madaniyat jihatdan munosabatda bo'lishga o'rganishadi. Fikrini dadil, erkin, mushohada qilgan holda ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi.

REFERENCES

1. O.A.Karimova "Huquqiy tarbiya metodikasi" Toshkent TDPU 2001-'yil
2. O.A. Karimova "Huquqiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari" Toshkent "O'zbekiston" 1999-y
3. O.A.Karimova, M.Davletova, N.Akaeva "Huquqiy o'qitish metodikasi" (metodik qo'llanma) Toshkent 2001-yil
4. N.N.Azizxo'djaev "Pedagogika texnologiya va pedagogik mahorat" Toshkent 2003-yil
5. U.Tolipov, M.Usmonboyeva" Pedagogik texnologiya ,nazariya va amaliyot" T.2006-y
6. Kudaybergenova T. "Huquqshunoslik darslarini modulli o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish". O'quv – metodik qo'llanma . Nukus, 2017.

TALABA YOSHLARDA OILAVIY TARBIYA USTUVORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI

Islomova Nilufar Baxtiyor qizi

Buxoro Innovatsiyalar Universiteti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10088323>

Annotatsiya. Mazkuz maqolada talaba yoshlarning ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari hamda shu orqali oilalarda ma'naviy muhit, axloq-odob masalalariga ahamiyat berish bilan birgalikda, inson o'z millati an'analari va umumbashariy qadriyatlar asosida kamolotga erishish yo'llari hamda talaba yoshlarda oilaviy tarbiya ustuvorligini ta'minlash omillari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Oila, mahalla, talaba yoshlar, jamiyat, ta'lim-tarbiya, innovatsion g'oyalar, milliy qadriyat, urf-odat, an'analar, pedagogik madaniyat.

FACTORS ENSURING THE PRIORITY OF FAMILY EDUCATION AMONG STUDENTS

Abstract. In this article, pedagogical and psychological features of preparing students for social family life, as well as giving importance to spiritual environment and moral issues in families, ways of reaching maturity based on the traditions of one's nation and universal values, and the factors of ensuring the priority of family education in student youth are described.

Key words: Family, neighborhood, students, youth, society, education, innovative ideas, national value, customs, traditions, pedagogical culture.

ФАКТОРЫ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ПРИОРИТЕТ СЕМЕЙНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СРЕДИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье рассмотрены педагогико-психологические особенности подготовки учащихся к общественной семейной жизни, а также придание значения духовной среде и нравственным вопросам в семье, пути достижения зрелости, основанные на традициях своего народа и общечеловеческих ценностях, а также факторы описаны вопросы обеспечения приоритета семейного воспитания студенческой молодежи.

Ключевые слова: Семья, соседство, студенты, молодежь, общество, образование, инновационные идеи, национальные ценности, обычаи, традиции, педагогическая культура.

O'zbekistonda bugungi kunda barcha sohalarda inson, inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan ulkan islohotlar olib borilmoqda. Xususan, ta'lim-tarbiya sohasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan innovatsion g'oyalar mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yoshlarni hamkorlikda milliy va zamonaviy ruhda tarbiyalab, ularga innovatsion g'oyalarni singdirish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

Yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun yangi

tahrirda qabul qilindi⁸³. Shu asnoda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda.

O‘zbekistonda bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasi oila, mahalla va ta’lim muassasi ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hamkorligining bosh, ustuvor masalasi hisoblanadi.

Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog‘liq tushuncha bo‘lib, jamiyatning o‘zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa o‘z o‘rnida jamiyat bag‘rida vujudga keladi, rivojlanadi. Jamiyatda oilaning o‘z vazifalari mavjud bo‘lib uning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir xalqda alohida, o‘ziga xos xususiyatga egadir. Har bir xalq yaxlit dunyoning bir bo‘lagidir, inson-insonga, xalqlar-xalqlarga o‘xshamaydi, bir-birini aynan takrorlamaydi, Har bir millat va elatning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, har bir xalqning o‘z ma’naviyati, milliy qadriyatlari va boy tarixiga egadir.

Milliy qadriyatlar, har bir millatning o‘ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo‘lib, o‘sha millat bosib o‘tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Huddi shu milliy o‘ziga xoslik, millat madaniyatida, urf-odatlarida, rasm – rusumlarida, tarixiy xotirasida, tilida, dinida, yashash va fikrlash tarzida o‘z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma’naviy madaniyat ifodasi bo‘lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo‘shgan munosib hissasining hosilasidir.

Ma’lumki, azaldan sharq mamlakat xalqlari ongida oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasida oilaning beqiyos roli asrlar davomida shakllanib kelgan. Oilaga nisbatan millatning urf odat va an’analarni saqlash va davom ettiruvchi dargoh sifatida qaralgan. Shunga ko‘ra oilani mustahkamlashga astoydil kirishgan va o‘z naslini pok saqlashga, ta’lim-tarbiya ishlariga jiddiy e’tibor qaratib kelingan.

Oiladagi ma’naviy muhit, axloq-odob masalalari katta ahamiyatga ega bo‘lib, inson o‘z millati an’analari va umumbashariy qadriyatlar asosidagina kamolotga erishadi. Xalqimizning axloq, andisha, sharm-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmatini, yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolotga erishish yo‘lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo‘lgani kabi uning odob-axloqi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki, shaxsning ichki va tashqi olamini o‘rganish, bilish, tahlil qilish g‘oyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bog‘liq holatdir. Axloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi fazilatlarini: mehr-muhabbat, rahm-shavqat, adolatu-diyonat, hayoyu-iffat, imon-e’tiqod kabilar mujassam bo‘ladi, ayni paytda shu xislatlarning aksi-beburd, axloqsiz kimsalar fe’lida ko‘rinadi. Har bir xalqning nufuzi va obro‘-shuhrati kishilarning axloq-odobi, yaxshi xislat fazilatlarini bilan belgilanadi.

Shaxs tarbiyasi haqida to‘xtalinar ekan, avvalo tarbiya oila o‘chog‘idan boshlanadi, shuning uchun bugungi kunda oila qurish arafasida turgan talaba yoshlarimizga oilaviy hayotga o‘z munosabatlarini adekvat tasavvurlarini shakllantirish, ularga Islom dinining muqaddas manbalari Qur’oni karim va hadisi shariflarda oila muqaddasligi to‘g‘risidagi chaqiruvlarga islom manbalarida oilani mustahkamlashga qanchalik chaqirilgan bo‘lsa, uni buzilishidan shunchalik qaytarilganligini uqdirilib borishilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun talaba

⁸³ Qarang. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son.

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilish lozim.

Bugungi kunda talaba yoshlarning ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashda pedagogik va psixologik xususiyatlarini o'rgatib borish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash juda muhimdir. Chunki bola shaxsini shakllantirish uning tug'ilishidan boshlanadi. Shuning uchun ularni oila muqaddas ekanligi bola tarbiyasida ota-onaning o'rni va vazifalari haqidagi ma'lumotlar bilan boyitib borish zarur. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan oila qurish yoshidagi talabalarga oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onaning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi, hamda ularning pedagogik madaniyati va oilaviy hayotning tashkil etilishi ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat mahalla, tuman, shahar va viloyatlar, mamlakatlar ham oilalardan tashkil topadi. Demak, oilaning jamiyatdagi muhim o'rni, ma'naviy- axloqiy, tarbiyaviy ahamiyati, qadr-qimmatini anglash va shu ijtimoiy pedagogik vazifalarni amalga oshirish bugungi dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi 76-moddasida shunday deyiladi: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir"⁸⁴.

Oila - mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega.

Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Shu bilan birga:

- talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning davlat ahamiyatiga ega muammo ekanligi;

- talaba yoshlarni barkamol inson bo'lib etishishining oilada shakllanishi va milliy qadriyatlarga xos an'analar va urf-odatlar yoshlarga aynan oilada ta'sir etish imkoniyatlarining kuchliligi;

- oila va nikoh borasida hali ham salbiy hatti-harakatlar, oilaviy ziddiyatlarning mavjudligi;

- talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining "milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining mazmunida yoritilishi;

- hozirgi davrda yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlash talablarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi va boshqa ko'p masalalar bu muammoni tadqiq etishga undamoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, oila ijtimoiy hayotning abadiylikini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib etishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o'taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi.

Oila qurishda yoshlar oldiga bir qator talablar qo'yilgan bo'lib, ulardan eng muhimlari ijtimoiy-maishiy, ma'naviy, ruhiy, jinsiy jihatdan tayyor bo'lishlaridir. Bu sohada sotsiolog, demograf, psixolog va pedagog, olimlarning barchasi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni

⁸⁴ Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

quyidagi yoʻnalishlarda olib borishga eʼtiborni qaratadilar:

- oila muvofiqligiga eʼtibor qaratish;
- maʼnaviy-axloqiy shakllanganlik yoki muomala meʼyorlariga rioya etish;
- nikoh toʻgʻrisidagi qonun asoslari bilan tanishtirish;
- oila qurishga psixologik jihatdan tayyor boʻlish;
- fiziologik-gigienik tayyorgarlik;
- pedagogik bilim bilan qurollanish;
- oilaviy hayotga estetik munosabatni shakllantirishni yoʻlga qoʻyishdan iboratdir.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash oʻziga xos xususiyatga ega boʻlib, bular oila anʼanalari, iqtisodiy-maishiy imkoniyatlarni bilib olish, sogʻlom psixologik muhit yarata olish, oila masʼuliyati va vazifalarini jamiyat talablari bilan uygʻunlashtira olish, boʻlajak oilaning modelini yarata olish, uni boshqarish koʻnikma va malakalarini hosil qilish kerak. Talaba-yoshlarni oila anʼanalari, shajarasi, kasb-kori, maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarini asosida tarbiyalash, ular ongida oilaga sadoqat, oʻzaro mehr-muhabbat, hurmat hissini shakllantirish orqali oilaviy hayotga tayyorlash samarali natija beradi.

REFERENCES

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi OʻRQ-406-son Qonuni. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son;
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 23-son Qarori. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 04.10.2023-y., 09/23/524/0750-son;
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 12 dekabrdagi Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi;
5. M.L.Umedjanova Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida oilaviy hayotga tayyorlash. Monografiya. – Buxoro, 2022. – 102 bet.

Internet saytlari

6. www.lex.uz
7. www.pedagog.uz
8. www.ziyonet.uz

OLIV TA'LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA CHET TILINI O'QITISH XUXUSIYATLARI

Bo'riyeva Shaxnoza G'ofur qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

shakhnozaburiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10088335>

Annotatsiya. Bu maqolada kompyuter texnologiyalari, ularni xususiyatlari, turlari va eng ko'p foydalaniladigan vositalar haqida ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: Virtual darslar, Interaktiv dasturlar va o'yinlar, chet tillarini qo'llashga oid resurslar, o'quv materiallari uchun onlayn manbalarni foydalanish kompyuter texnologiyalari.

USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION FEATURES OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Abstract. This article contains information about computer technologies, their characteristics, types, and the most commonly used tools.

Keywords: virtual lessons, interactive programs and games, resources for the use of foreign languages, use of online resources for educational materials, computer technologies.

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В этой статье содержится информация о компьютерных технологиях, их характеристиках, видах и наиболее часто используемых инструментах.

Ключевые слова: виртуальные уроки, интерактивные программы и игры, ресурсы по использованию иностранных языков, компьютерные технологии использования онлайн-ресурсов для учебных материалов.

Kompyuter texnologiyalari chet tillarini o'qitishda eng ko'p foydalaniladigan vositalardan biridir. Oliy ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, o'qitish jarayonini osonlashtirish va o'quvchilarga qulayliklar yaratish uchun muhimdir. Kompyuter texnologiyalari o'qituvchilar uchun interaktiv darslarni tuzishda katta imkoniyatlar yaratadi. Darslar chet tillarini o'rganayotgan talabalar uchun animatsion, audio va video materiallardan foydalanish orqali o'qitishni osonlashtiradi. Oliy ta'limda kompyuter texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tishni biz bir nechta xususiyatlar mavjud, Bular interaktiv darslar, virtual darslar, interaktiv darslar va o'yinlar, Chet tillarini qo'llashga oid resurslar, o'quv materiallari uchun onlayn manbalarni foydalanish va boshqalar. Hozir ularni tahlil qilib chqamiz.

1. Virtual darslar o'qituvchilar uchun qiziqarli va o'rganishni oshiradigan bir vosita bo'lib, o'qitish jarayonini o'quvchilar uchun o'ylab-borib ko'rishga o'rsatadi. Bu, chet tillarini o'qitishda yaxshi bo'lishi mumkin.

2. Interaktiv dasturlar va o'yinlar: O'rganish o'yinlari va interaktiv dasturlar orqali o'qituvchilar o'qitish jarayonini o'qituvchilar uchun qiziqarli va jismoniy qilishlari mumkin. Bu, o'rganayotgan chet tillarini amaliy ravishda o'rganishga yordam bera olishi mumkin.

3. Chet tillarini qo'llashga oid resurslar: Kompyuter texnologiyalari orqali, chet tillarini o'qituvchilar uchun turli o'quv resurslariga kirishni osonlashtiradi, masalan, onlayn lug'atlar, grammatika qo'llanmalari va audio-darslar.

4. O'quv materiallari uchun onlayn manbalarni foydalanish: Kompyuter texnologiyalari orqali, o'qituvchilar va talabalar o'quv materiallariga onlayn manbalarni qo'shishlari mumkin. Bu, chet tillarini o'rganayotganlar uchun materiallarni yangilash va osonlashtirishga yordam beradi.

5. Distant o'qitish: Kompyuter texnologiyalari, chet tillarini o'qitishda distant o'qitishni osonlashtiradi. O'qituvchilar va talabalar o'zlarini tanlovlariga qarab, istalgan joyda va vaqtda chet tillarini o'rganishlari mumkin.

6. Tashqi dasturlar va onlayn sohalar: Kompyuter texnologiyalari orqali chet tillarini o'qitish jarayonini o'quvchilarni tashqi dasturlar va onlayn sohalar bilan bog'lay oladi. Bu, o'qitishni amaliy va qiziqarli qiladi.

7. Tahlil va monitoring: Kompyuter texnologiyalari o'qituvchilar uchun o'quv jarayonini tahlil qilish, talabalar o'rganish darajasini monitoring qilish va yaxshi natijalarni olish imkoniyatlarini beradi.

Hozirgi asrda kompyuter texnologiyalari o'qitishda chet tillarini o'rganishni osonlashtiradi va o'qitish jarayonini jismoniy va interaktiv qiladi. Bu, talabalar uchun chet tillarini o'rganishni qiziqarli va samarali hisoblanadi.

Kompyuter texnologiyalari chet tillarini o'qitishda eng ko'p foydalaniladigan vositalar quyidagilar:

Chet o'qitish dasturlari: Chet tillarini o'qitish uchun maxsus dasturlar, masalan, Rosetta Stone, Duolingo, Babbel va boshqalar keng qo'llaniladi. Bu dasturlar audiolug'atlar, gaplashma amaliyotlari, grammatika ta'limi va interaktiv darslar orqali chet tillarini o'rganishga yordam beradi.

Online o'qitish platformalari: Online o'qitish platformalari, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun maktab darslari, o'zlashtirilgan darslar va onlayn muhit tashkil etish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu platformalarning misollariga VIPKID, italki, Preply, va boshqalar kiradi.

O'qitish videolar va YouTube kanallari: Internetda chet tillarini o'qitish videolari va YouTube kanallari keng jihatdan mashhur bo'lib, ularga kirishni osonlashtiradi. Bu videolar audiolug'atlar, gaplashma darslari, grammatika darslari va o'quv materiallarini o'z ichiga oladi.

Onlayn lug'atlar va tarjimon dasturlari: Onlayn lug'atlar, masalan, Google Translate, WordReference, Linguee va boshqalar, so'zlar va so'zlar tarjimasini qilishda yordam beradi. Bu tarjimonlar chet tillarini o'rganayotganlar uchun foydali vositalardir.

Audio darslar va podcastlar: Chet tillarini tinglash va ko'paytirish uchun audio darslar va podcastlar o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Bu podcastlar chet tillarini tinglash, gaplashishni o'rganish, va o'zlashtirish uchun ideal bo'lishi mumkin.

Elektron kitoblar va matnlar: E-kitoblar va matnlar chet tillarini o'qitish uchun qulay manbalar bo'lib, chet tillarini o'rganayotganlar uchun o'qitish matnlarini o'z ichiga oladi.

Videokonferensiyalar va online kommunikatsiyalar: Zoom, Skype, Google Meet va boshqa online kommunikatsiya vositalari orqali, o'qituvchilar o'quvchilar bilan uzoq masofada ham o'qitish jarayonini tashkil etishlari mumkin.

Interaktiv dasturlar va o'yinlar: Chet tillarini o'qitishning qiziqarli va samarali usuli interaktiv dasturlar va o'yinlar orqali talabalar o'rnini olishi mumkin.

Bu vositalar chet tillarini o'qitishda foydali bo'lishi mumkin va o'rganayotganlar uchun qulaylik yaratadi. Har bir vosita o'rganayotganlar uchun ideal emas, shuning uchun, o'qituvchilar va talabalar o'zlariga eng qulay va foydali bo'lgan vositalarni tanlashlari kerak.

REFERENCES

1. Arutyunova N. D. Diskurs / N. D. Arutyunova // Katta ensiklopedik lugʻat. Tilshunoslik. - M., 1998. - S. 136-137.
2. Bogdanov VV Matn va matnli aloqa / VV Bogdanov. - Sankt-Peterburg . : Sankt - Peterburg nashriyoti. davlat unta, 1993. - 68 b.
3. Kibrik A. A. Diskurs va funksionalizmning paydo boʻlishi / A. A. Kibrik , V. A. Plungyan // Zamonaviy Amerika tilshunosligi: asosiy yoʻnalishlar. - M.: URSS tahririyati , 2002. -S. 307-309.
4. Chafe V. Diskurs, ong va vaqt. Nutq va yozishda ongli tajribaning oqimi va oʻzgarishi / Chafe V. - Chikago: Chikago universiteti. - Matbuot, 1994 yil.
5. Enkvist NE Matndan talqin qilinishiga: matn tilshunosligidagi asosiy atamalarni muhokama qilishga hissa. Bogʻlanish va uygʻunlik : matn va nutq tahlili / Enkvist NE - Nyu-York, 1989. - P. 369-382.

**M.S.ANDREYEV TADQIQOTLARIDA XUF VODIYSI TOJIKLARINING TAQVIM
HISOBI VA UZUNLIK O'LCHOVLARINING ETNOLOGIK TAHLILI.**

Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası

tarix fani o'qituvchisi

toshpulatovashaxnozashuhratovna@oxu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10088115>

Annotatsiya. Ushbu maqolada M.S.Andreyevning Afg'oniston va Tojikiston tojiklarining taqvim hisobi va uzunlik o'lchovlari vodiy aholisining yil hisobini yuritishda tabiiy sharoitlarning o'ziga xos jihatlari. Tojik aholisi orasida uzunlik, og'irlik o'lchov birliklari haqida ma'lumot olamiz. Shamsiy va qamariy yil hisobi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Shamsiya, qamariya, Muharram(ashuro), rajab, “vizid”, “angusht”, “firox”, “vajab”, “Viyov”, gaz, “chibgaz”, ambun, “tafsin”, “rastay”.

**ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND
LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF
M.S. ANDREYEV.**

Abstract. In this article, M.S. Andreyev's calendrical calculation and longitude measurements of the Tajiks of Afghanistan and Tajikistan are specific aspects of natural conditions in the annual calculation of the population of the valley. We get information about the units of measurement of length and weight among the Tajik population. Information about the calculation of the solar and lunar year is given.

Key words: Shamsiya, Qamariya, Muharram(Ashura), Rajab, "vizid", "angusht", "firokh", "vajab", "Viyov", gas, "chibgaz", ambun, "tafsin", "rastay".

**ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КАЛЕНДАРНОГО ИСЧИСЛЕНИЯ И
ИЗМЕРЕНИЯ ДЛИНЫ ТАДЖИКОВ ДОЛИНЫ ХУФ В ИССЛЕДОВАНИЯХ М. С.
АНДРЕЕВА.**

Аннотация. В данной статье календарный расчет М. С. Андреева и долготные измерения таджиков Афганистана и Таджикистана представляют конкретные аспекты природных условий при ежегодном учете населения долины. Получаем информацию о единицах измерения длины и веса среди населения Таджикистана. Даны сведения о расчете солнечного и лунного года.

Ключевые слова: Шамсия, Камария, Мухаррам(Ашура), Раджаб, «визид», «ангушт», «фирох», «ваджаб», «Вийов», газ, «чибгаз», амбун, «тафсин», «растай».

Badaxshonda vaqtni hisoblash ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:¹

¹ Андреев М. С. Таджики долины Хуф. Вып.2. – Душанбе: “Ирфон”,1972. – С. 243

**Quyoshli
(shamsiya)**

Oy(qamariya)

Oy yili (qamariya) 12 ta oddiy musulmon yiliga bo'linadi:

• MUHARRAM (ASHURO) 30	• SAFAR 29
• RABI - UL – AVVAL 30	• RABI - UL –SONIY 29
• JUMADUL –AVVAL 30	• JUMADUL –SONIY 29
• RAJAB 30	• SHABON (BAR'OT) 29
• RAMAZON (RO'ZA) 30	• SHAVAL (HAYIT) 29
• ZULKA'DA (ORA) 30	• ZULXIJJA (QURBON) 29/30

Quyosh yili (Shamsiya) yili bo'yicha oylarning nomlari

• HAMAL 31	• SAVR 31
• JAVZO 31	• SARATON 31
• ASAD 31	• SUMBULA 31
• MEZON 30	• AQRAB 30
• QAVS 29	• JADDI 29
• DALV 30	• HUT 30

Oylar hammasi bo'lib 365/366 kundan iborat.

Xuf vodiysining uzunlik o'lchovlari. Xufda “vizid”² deb nomlangan uzunlik o'lchovi chorak masofani o'lchaydi. Bunda yoyilgan barmoqlar orasidagi masofani o'lchaydi, bosh barmog'idan kichik barmog'igacha, ya'ni taxminan 21-22 sm.

Bundan tashqari, barmoqlarda bu ikki baravar kichikroq o'lchov mavjud, Bitta hisob siljigan barmoqlar bilan amalga oshiriladi. “buklangan shaklda to'rt barmoq” Kengaytirilgan barmoqlardan o'lchovni ko'rsatish uchun kichikintoy o'rniga “firox”so'zlari qo'shiladi. “to'rt barmoq yoyilgan”. Xufada gaz ikki o'lchamda mavjud: biri savdo, chibgaz (yog'och gaz), u tekisliklarda ham o'lchanadi, ko'krakning o'rtasidan iyak bilan qo'lning oxirigacha cho'zilgan masofa.

Boshqa gaz, ehtimol eskiroq, "gilingaz", ya'ni "mato gazi", aniqrog'i "gilim" deb nomlangan xalat uchun³. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, dastlab u asosan junli uy matolarini xalatlarga o'lchash uchun ishlatilgan. Uning uzunligi 275 sm ga teng edi.

Ko'rinishidan, eski kundalik hayotda materiya ko'pincha ayirboshlash qiymati bo'lib xizmat qilganligi sababli, “gaz” nomi boshqa narsalarga ham o'tdi, ehtimol gazga teng bo'lgan mato almashtirilganda. Shunday qilib, masalan, 310sm hajmdagi yog' o'lchovi deyiladi. Tuz ham gazga tenglashtiriladi va uning miqdori Badaxshon birliklarida M.Is'hoqov Yordamchi tarixiy fanlar. O'quv qo'llanma. T.: TDSHI, — og'irligi bo'yicha xufklar tomonidan ko'rsatilgan.

Badaxshonda “Sang” tuzi qiymati bo'yicha to'rtta xufiy gaziga to'g'ri keladi. Oltita neft gazi bitta xuf “savray”(tafsin) deb nomlangan. Mahsulotlardagi ikkita pishmagan temir yoki bitta temir 6 gazga baholanadi⁴.

Og'irlik o'lchov birliklari

“Angusht”⁵— Barmoq ma'nosini bildirib, qatlangan o'rta barmoq bo'g'in kengligiga teng. XVIII asrda Buxoro va o'lchov birligi qat'iyon 6 dona bug'doy donining yonma-yon qo'yilgan holati uzunligiga teng bo'lgan (shuningdek, har bir don kengligi ishchi otining 6 dona yomiga teng bo'lgan). Angusht mustaqil birlik sifatida qo'llanilgan.


Angushtlar soni gaz o'lchovini aniqlagan. Ammo angushtning o'rta o'lchovi o'zgarib turgan. Sababi gaz amaliyotda musht bilan o'lchangan, bu esa 4 angusht va 3 angushtga teng keluvchi buklamaga bosh barmoqqa teng edi. Bu ikkilanishlarni keltirib chiqargan (2,18-2,28 sm).⁴⁴

² Андреев М. С. Таджики долины Хуф. Вып.2. – Душанбе: “Ирфон”,1972. – С. 243

³ M.Is'hoqov Yordamchi tarixiy fanlar. O'quv qo'llanma. T.: TDSHI, — 2013. -B 152

⁴ M.Is'hoqov Yordamchi tarixiy fanlar. O'quv qo'llanma. T.: TDSHI, — 2013. -B 152

⁵ Андреев М. С. Таджики долины Хуф. Вып.2. – Душанбе: “Ирфон”,1972. – С. 243



1 – “vizid”; 2 – “to’rtta barmoqni yoymoq”; 3 – “uchta barmoqni yoyamoq”; 4 – “ ikkita barmoqni yoylamoq”; 5 - "um vizid-at mum bandte"; 6 - "karap tsavur ingaxt"; 7 – “chibgaz”, 1 m ga teng; 8 83 sm ga teng bo'lgan chibgaz; 9 arshinga teng bo'lgan “chibgaz”⁶.

“Ambun” -Sochma mahsulot o’lchov birligi⁷. O’rta asrlar G’arbiy Pomir hududlarining huquqiy hujjatlarida tez-tez uchrab turgan. Etnografik ma’lumotlar asosida uning klomi belgilangan. Xufa va Rushanda “ambun” 24 “rastoy” ga teng bo’lgan. Rossiya bosqiniga “ambuna”⁷ 78- 79 kg atrofida, bosqindan so’ng esa 98.28 kkgga teng bo’lgan. Shug’nonda esa 144 kkgga teng bo’lgan.

❖ “Mut (fors.)” – Og’irlik o’lchovi, Xuf vodiysi (Pomir)da 500 grammga teng bo’lgan.

⁶ Андреев М. С. Таджики долины Хуф. Вып.2. – Душанбе: “Ирфон”,1972. – С. 243

⁷ M.Is’hoqov Yordamchi tarixiy fanlar. O’quv qo’llanma. T.: TDSHI, — 2013. -B 152

❖ **“Qafch (fors.)”** - o'lchov birligi. G'arbiy Pomirdagi Xuf vodiysida vazni 24,57 kilogramga teng bo'lgan.

❖ **“Rastay”**- Sochma mahsulot o'lchov birligi. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra Xufada ruslargacha rastay 8 funtga teng bo'lgan. Keyinchalik uni sun'iy ravishda 10 funtga tenglashtirishgan. Bundan maqsad rus pudini 4 rastayga tenglashtirish bo'lgan. Bunday rastay 4kg 8mutda (mut ~ 500 g) sanalgan. Zulm- rastay soliqlarni oshirish maqsadida sun'iy ravishda 12 mutga ko'tarilgan birlik

❖ **“Tafsin”** — Shug'nonda suyuqlik o'lchov birligi bo'lib, taxminan 2 kg ga teng bo'lgan.

❖ **“Uyuq”, “viloq”** - Yuk tashidigan otning o'g'irligi. Xufada ambunga yoki 24 rastayoga tenglashtirilgan. Bundan kelib chiqadiki Rossiya bosqiniga qadar taxminan 76,8 kg, keyinroq esa 96 kg atrofida. Shug'nonda taxminan 64 kg atrofida bo'lgan⁸.

Hajm o'lchovi birliklari.

❖ **“Gaz”, “gazdon”**- Hajm o'lchovi birligi bo'lib, Xufada 310-325 kub. sm. ga teng bo'lgan yog' o'lchovida qo'llanilgan⁹. Sochma mahsulotlar o'lchovida ishlatilgan.

❖ **“G'iola”** — Hajm o'lchovi birligi bo'lib, Xufada yog' g'aziga teng o'lchov sifatida Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida ham ishlatilgan. Odatda savdodan ko'ra kundalik turmushda juda keng qo'llanilgan.

❖ **“Savray”** - Hajm o'lchovi birligi bo'lib, XIX asrda Xufada 5 gazga (310-325 kub.sm.) teng bo'lgan (1,5 l ko'proq) 1550-1625 kub. sm. keyinroq esa 6 gazga, 2 l dan kamroq (1860-1950 kub.sm.).

Uzunlik o'lchov birliklari.

❖ **“Vajab”** - Uzunlik o'lchov birligi, kaftdai. barcha barmoqlarning keng yozilgan ravishda o'lchanadi. Kundalik turmushda, tog'li hududlardagi qurilish ishlarida qo'llanilgan.

❖ **“Viyov” (“qadam”)** - Uzunlik o'lchovi, Ro'shanda qadamga teng bo'lgan.

“Gaz” - Gaz va zar atamaları Markaziy Osiyo hududlarida tajnisli tarzda ishlatilgan. Sharqiy manbalarda (shuningdek yuridik hujjatlarda) ikkala termin ham qo'llanilgan. Gaz o'lchovini 3 tizimda aniqlangan:

❖ 1. Cho'zilgan qo'lning barmoq uchidan shu qo'l yelkasigacha, ko'krak o'rtasigacha, ikkinchi yelkagacha oraliq masofa

❖ 2. Barmoq o'lchoviga tayangan aniq tizim.

❖ 3. Musht o'lchoviga tayangan.

Xorazmda gaz 12 ingliz dyuymiga teng bo'lgan (30.48 sm.). Gaz uchun bu juda kichik o'lchov, bu yerda anglashilmovchilik bo'lishi ham mumkin Xorazmda XIX asrda gazning 2 turi mashhur bo'lgan: biri yer maydonalrini o'lchashda, ikkinchisi gazlama, matolarni o'lchashda qo'llanilgan. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni jamlab aytish mumkinki yer o'lchovida Xorazmda gaz — 106,107 sm ga, mato o'lchovida 61 sm ga teng bo'lgan¹⁰.

XIX asrda “shox gazi” nomi ostidagi o'lchov birligi muomalada bo'lib, 15 arshinga teng bo'lgan (106,68 sm). XVI asrda Samarqandda gazi muqassar (qisqartirilgan gaz) mashhur bo'lgan. U bilan

⁸ M.Is'hoqov Yordamchi tarixiy fanlar. O'quv qo'llanma. T.: TDSHI, — 2013. -B 152

⁹ Андреев М. С. Таджики долины Хуф. Вып.2. – Душанбе: “Ирфон”,1972. – С. 243

¹⁰ M.Is'hoqov Yordamchi tarixiy fanlar. O'quv qo'llanma. T.: TDSHI, — 2013. -B 152

mato va boshqa mahsulotlar, shuningdek yer maydoni ham o'lchangan. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra Sharqiy Buxoroda quyidagi gazlar ishlatilgan.

❖ **“Chub gaz”** – ko'krak oralig'idan barmoqqacha bo'lgan masofa, Xufada va Yozg'ulamda 83 sm, Shug'nonda – quyuch yarmi.

❖ **“Gilim gaz”**- Xufadagi asosiy gaz bo'lib 275-275 sm ga teng bo'lgan

❖ Yelka kengligida cho'zilgan qo'lning barmoq so'ngidan to ikkinchi yelkagacha bo'lgan oraliq. Odata Chub gaz deb atashadi, Ro'shanda qultada gaza (eng kata gaz) deb atashadi.

❖ Chap yelkadan cho'zilgan chap qo'l barmoqlari uchigacha bo'lgan masofa (69-71,5 sm) Xufada Nikolaev arshini deb nomlangan. Bundan kelib cbiqadiki, bu o'lchov ruslar istelosidan keyin kelgan.

❖ Xingou havzasidagi to'quvchilar gazi — ikki qulochga teng. To'quv- chilar tomonidan tayyor matolarni o'lchashda ishlatilgan.

❖ Shuvda gazak (kichik yoki mayda gaz) yoki nim chub gaz Ro'shonda foydalanilgan, ammo uning o'lchovi haqida manbalarda ma'lumot kel- tirilmagan¹¹.

Afg'onistondagi Pandsher vodiysining o'lchovlari.

❖ **Bir ser-** 7 kg teng

❖ **Bir chorak-** bir serning to'rtidan biri, ya'ni 1 kg 775 grammga teng

❖ **Bir povaki-** chorakning yarmisi, ya'ni 875 gramm

❖ **To'rt nimcha-** bir chorak

❖ **To'rt chorak-** bir ser

❖ **Bir botmon-** 32 ser. Ya'ni $32 \times 7 = 224$ kg. Bir botmon 224 kg.ga teng

❖ **Besh botmon-** bir tonna

❖ **Bir jirib yer-** 0,20 gektar (20sotix) ga teng.

❖ **Bir tegirmon suv-** chuqurligi bir metrdan tortib, ikki metrgacha, eni oltmish santimetrdan bir metrgacha bo'lgan ariq suvi.

❖ **Bir lak-** yuz ming¹².

REFERENCES

1. Андреев М. С. Таджики долины Хуф. Вып.2. – Душанбе: “Ирфон”,1972. – С. 243
2. M.Is'hoqov Yordamchi tarixiy fanlar. O'quv qo'llanma. T.: TDSHI, — 2013. -B 152
3. Насриддин Назаров Афғонистон узбеклари Тошкент, 201.
4. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
5. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV–O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.

¹¹ M.Is'hoqov Yordamchi tarixiy fanlar. O'quv qo'llanma. T.: TDSHI, — 2013. -B 152

¹² Насриддин Назаров Афғонистон узбеклари Тошкент, 2011

6. Toshpo'latova, S. S. (2023). TOJIKLAR MILLIY KIYIM-KECHAKLARI VA "BESHMORAK" MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI. *SCHOLAR*, 1(28), 395-401.
7. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
8. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). MARRIAGE CEREMONY OF TAJIKS IN THE WORK OF MIKHAIL STEPANOVICH ANDREYEV "TADJIKI DOLINI KHUF". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
9. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
10. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
11. OXUNJONOVICH, Q. Z. (2022). CHANGES OF LYULI IDENTITY. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 74-83
12. Shuhrat kizi, R. S. . (2023). The Development of Spiritual and Cultural Reforms in the Development Strategy of New Uzbekistan. *International Journal of Culture and Modernity*, 32, 61–66.
13. Mavlanova Mehnbonu Obid qizi, & Koryogdiyev Zufar Okhunjonovich. (2023). THE ROLE OF NATIONAL VALUES AND SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORKS IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 17, 81–84. Retrieved from
14. Okhunjonovich, K. Z. (2023). THE EDUCATIONAL VALUE OF NATIONAL CUSTOMS AND TRADITIONS IN THE ERA OF GLOBALIZATION. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 18, 64-66.
15. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 21(3), 12-14
16. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(1), 35-38.
17. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). INNOVATION TA'LIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI . *World Scientific Research Journal*, 17(1), 74–76. Retrieved from
18. Муродов, X. (2022). MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O 'ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISHI VA UNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 1(4), 13-13.
19. Salimovich, M. H. (2022). Tourism Development in Bukhara During the 1990s and Its Problems. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 298-302.

20. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
21. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
22. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
23. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUGOTIT TURK" DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
24. Oxunjonovna, B. D. (2022). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO'RINISHLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 14(1), 22-25.
25. Bobojonova, D. (2023). ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI'S "DEVONU LUGOTIT TURK". *Modern Science and Research*, 2(9), 64-67.
26. Jabborova, A. (2023). THE IMPACTS OF PHYSICAL CLASSROOM SPACES ON STUDENTS INVOLVEMENT HOW CAN STUDENTS ENGAGEMENT BE PROMOTED BY PHYSICAL CLASSROOM SPACES?. *Modern Science and Research*, 2(3), 115-121.
27. Jabborova, A. J. (2023). HOW WOULD YOU MEASURE CREATIVITY AND INNOVATION? WHY?. *GOLDEN BRAIN*, 1(10), 20-24.
28. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING SHAKLLANISH VA O'RGANILISH MASALALARI. *Научный Фокус*, 1(3), 29-31.
29. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING KOGNITIV TAHLILI Ingliz va ozbek maqollari tizimlari haqida gap ketganda ularning mohiyati bir-biridan ajralib turishi aniq bo'ladi, chunki ular turli xil tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan, va bu maqoll. *World of Science*, 6(6), 207-211.
30. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142–146. Retrieved from
31. Bobohusenov Akmal, & Naimov Ismat. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73–80. Retrieved from
32. Gulamova, D. I. (2022). USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 841-846.
33. Gulamova, D. (2023). USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL. *Modern Science and Research*, 2(7), 322-327.
34. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(9), 1-5.

35. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 111–114. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>

12-14 YOSHLI FUTBOLCHILARNING TEXNIK TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xakimjonov.Z.A.

Toshkent Iqtisodiyot va Pedagogika Instituti “Ijtimoiy fanlar” fakulteti

Jismoniy madaniyat fani o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10087807>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 12-14 yoshli futbolchilarning texnik taktik tayyorgarligini rivojlantirish haqida ma’lumot olamiz.

Kalit so‘zlar: tayyorgarlik davrlari, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik.

DEVELOPMENT OF TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING OF 12-14-YEAR-OLD PLAYERS

Abstract. In this article, we will learn about the development of technical and tactical training of 12-14-year-old players.

Key words: training periods, general and special physical training, technical training, tactical training, psychological training.

РАЗВИТИЕ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ИГРОКОВ 12-14 ЛЕТ.

Аннотация. В этой статье мы узнаем о развитии технико-тактической подготовки игроков 12-14 лет.

Ключевые слова: тренировочные периоды, общая и специальная физическая подготовка, техническая подготовка, тактическая подготовка, психологическая подготовка.

Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, mamlakatimizda yoshlarni jismonan va ruhan tayyorgarlik darajalarini oshirishga qaratilgan mashg’ulot jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarini Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilayotgan qaror, farmonlar asosida ko‘rishimiz mumkindir. Ammo yurtimiz futbolini dunyo miqyosiga ko‘tarishda uning ommaviylikini ta’minlash, yoshlar orasida texnik-taktik bilimlarni puxta egallashlari uchun zamin yaratish, shu qatorda zamonaviy mashg’ulot yuklamalarini ishlab chiqish ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Mazkur keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, biz oldimizga **tadqiqot maqsadini** – maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida futbol texnikasini o‘rgatish va harakat malakalarini egallash usullarini o‘rgatish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018 yil 16 martdagi PQ-3610-son “Futbolni rivoj- lantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019 yil 4 dekabrda PF-5887-son “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Maydon o'yinchisining texnikasi Maydon o'yinchisining texnikasi ikkita kichik bo'limdan iborat. Bulardan biri harakatlanish texnikasi bo'lsa, ikkinchisi to'pni boshqa- rish texnikasidir.

Maydon o'yinchilari harakatlanish texnikasining yuqorida tahlil qilingan xilma-xilusul va turlarining barchasidan foydalanadilar.

To'pni boshqarish texnikasiga quyidagi priyomlar guruhi kiradi: zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni olib yurish, aldash harakatlari (fintlar), to'pni olib qo'yish. Bundan tashqari, qo'lda bajariladigan spesifik usulyon chiziqning narigi tomonidan to'pni tashlab berish ham to'pni boshqarish texnikasiga kiradi.

O'yin vaqtida qaysi usul qancha miqdorda ijro etilishi futbolchilarning o'yindagi funksiyalariga bog'liq. Usullarning ijro etish sifati esa maydon o'yinchilarining hamma- sida yuksak darajada bo'lishi kerak.

To'pga zarba berish.

To'pga zarba berish futbol o'ynashning asosiy vositasi hisoblanadi. To'pga oyoq bilan va kalla bilan turli usullarda zarba beriladi. Zarba berishning klassifikatsiyasi berilgan.

Zarba berishning barcha usullari muayyan maqsadga qaratilgan bo'lib, bu to'pning kerakli traektoriya bo'ylab harakatlanishi va optimal (ko'pincha esa maksimal) tezligi bilan karakterlanadi. To'pning uchish tezligi zarba beruvchi bo'g'in (oyoq yoki bosh) bilan to'pning o'zaro to'qnashgan paytdagi boshlang'ich tezligiga, shuningdek ular massasining bir- biriga nisbatan bog'liq. O'zaro ta'sir etuvchi bo'g'inlarning massasi nisbatan muhim bo'lgani sababli to'pning uchish tezligini oshirish uchun, zarba beruvchi bo'g'in tezligini oshirish kerak bo'ladi.

To'pga oyoq bilan zarba berish

To'pga oyoq bilan zarba berish oyoq kaftining ichki tomoni bilan, oyoq yuzining ichki, ichki va tashqi qismlari bilan, oyoq uchi bilan, tovon bilan bajariladi. Zarbalar harakat- siz turgan to'pga, shuningdek turli yo'nalishlarda dumalab va uchib kelayotgan to'pga turgan joydan, harakat vaqtida sakrab turib, burilib, yiqila turib beriladi.

21. Tajimuratova Shakhnoza Saginbaevna. (2022). MANAGEMENT AND STUDY OF CULTURE AND ART. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 758–762.
22. Sag'inbaevna, T. S. (2023). Cultural Life in Uzbekistan during the Years of Independence. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 18, 39-41.
23. Ануаровна О. Р. ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚ КУЙЛАРИ ВОСИТАСИДА БОЛАЛАР ИЖОДҚОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. – 2023.

PROFFESIONAL YURIDIK TA'LIM RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Yuldashova Qunduz Bozorovna

Buxoro viloyati yuridik texnikumi

“Xususiy- huquqiy fanlar” kafedra mudiri

Телефон: +998(91)4160639

kunduzbazarovna85@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10089537>

Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim bir yo'nalishi – ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamonaviy talablarga moslashga qaratilgan. Ta'lim tizimida oliy ta'lim jumladan yuridik ta'limning o'rni va roli o'ziga xosdir. Zotan yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash vazifasining nechog'lik samarali amalga oshirilishidan mamlakatda qonuniylikning qaror topishi, aholining huquqiy ongi va madaniyati yuksalishi, jamiyatda adolatning qaror topishi va mustahkamlanishi ko'p jihatdan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: Milliy yuridik ta'lim, innovatsiyon, texnologiyalar, yurisprudensiya, o'quv-tarbiya, veb-sayti, shaffoflik, ilmiy-pedagogik, Kredit-modul.

MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL LEGAL EDUCATION

Abstract. An important direction of the reforms implemented in our country is the reform of the education system, aimed at adapting it to modern requirements. The place and role of higher education, including legal education, in the education system is unique. The establishment of legality in the country, the rise of the legal consciousness and culture of the population, and the establishment and strengthening of justice in the society largely depend on how effectively the task of training highly qualified legal personnel is carried out.

Key words: National legal education, innovation, technologies, jurisprudence, education, website, transparency, scientific-pedagogical, Credit module.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. Важным направлением реформ, реализуемых в нашей стране, является реформирование системы образования, направленное на адаптацию ее к современным требованиям. Место и роль высшего образования, в том числе юридического, в системе образования уникальны. От того, насколько эффективно будет решаться задача подготовки высококвалифицированных юридических кадров, во многом зависит установление законности в стране, подъем правосознания и культуры населения, установление и укрепление справедливости в обществе.

Ключевые слова: Национальное юридическое образование, инновации, технологии, юриспруденция, образование, веб-сайт, прозрачность, научно-педагогический, Кредитный модуль.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining ayni vaqtda imzolangani bejiz emas. Mazkur Farmon mamlakatimizda milliy yuridik ta'limning samaradorligini oshirishga, yuqori malakali mutaxassis-huquqshunoslarni tayyorlashga, yuridik

fanni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Avvalo, milliy yuridik ta'lim samaradorligi xususida so'nggi yillarda bir qator amaliy ishlar amalga oshirilayotgani yurtdoshlarimizda huquqiy madaniyat yuksalayotganidan dalolat bermoqda.

Mazkur farmon bilan tanishib chiqarkanmiz maqsad yuridik ta'lim va fanni takomillashtirish negizida qonun ustuvorligiga erishish chinakam huquqiy davlat - yangi O'zbekistonni barpo etishdir. Bunday jamiyatni huquqiy madaniyatli har bir hatti-harakati huquqqa asoslangan shaxslargina tashkil etishi barchamizga ma'lumdir. Shu bilan birga yuridik ta'limning sifati va samaradorligi va tayyorlanayotgan kadrlarning malakasi ko'p jihatdan o'quv jarayonining tegishli o'quv adabiyotlari, innovatsiyon texnologiyalar bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq holda shakllanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirishda o'quv jarayonini sifatli zamonaviy o'quv adabiyotlari va pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash masalasiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Keyingi yillarda yuridik ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarida ham ushbu masalaga alohida urg'u berilishi bejis emas, albatta Yuridik institut universitetga aylantirilganidan so'ng, yillar davomida yuridik ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirildi.

«O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari qayta tashkil etilishi, professional yuridik ta'lim faoliyatini yangi bosqichga ko'tardi. Mazkur qarorga ko'ra, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab yuridik texnikumlarga hujjatlarni qabul qilish davlat xizmatlari markazlari, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki DTMning rasmiy veb-sayti orqali amalga oshirilishi boshlandi. Bu esa abituriyenlarga ortiqcha vaqti va harajatlarini tejash imkoniyatini berdi. Qolaversa, TDYU huzuridagi akademik litseyini tamomlagan o'zlashtirish ko'rsatkichlarining 56 va undan yuqori foizlik natijalariga ega bitiruvchilar hamda respublika OTMda "yurisprudensiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha test sinovlarida ishtirok etib, unda to'plash mumkin bo'lgan umumiy ballning 60 va undan yuqori foizini to'plab, o'qishga tavsiya etilmagan abituriyentlar yuridik texnikumlarga kirish imtihonlarisiz, to'lov-kontrakt asosida qabul parametrlaridan tashqari qabul qilinishi yo'lga qo'yildi. Yuridik texnikumlariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizomga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan to'lov-kontrakt asosida qabul parametrlariga muvofiq kirish sinovlari natijalariga ko'ra to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha amalga oshirilishi boshlandi.

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 359-son qaroriga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda yuridik texnikumlarning reytingini yuritish mexanizmini joriy etish orqali ularda ta'lim sifatini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorining qabul qilinishi yuridik ta'limda katta o'zgarishlarning boshlanishiga huquqiy asos bo'ldi.

Qarorning asosiy maqsadi yuridik texnikumlar orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, ularning ilmiy-pedagogik faoliyati darajasi va sifatini oshirishni rag'batlantirish, pedagog xodimlarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish, o'qitish sifati bo'yicha xalqaro

mezon va standartlarga muvofiq yuqori ko'rsatkichlarga erishishga hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga zamin yaratish reytingni aniqlashdan iboratdir. Yuridik texnikumlar faoliyatini muntazam takomillashtirib borish asosida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, yuridik texnikumlarda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifati, ulardagi ilmiy va o'quv-tarbiya jarayonlari hamda imkoniyatlar haqida tegishli davlat organlari, kadrlar buyurtmachilari va keng jamoatchilikni xolis axborot bilan ta'minlash, yuridik texnikumlarning dunyodagi reytingi yuqori bo'lgan ta'lim muassasalari bilan hamkorligini ta'minlash hamda ularning xalqaro standartlarga muvofiq yuqori ko'rsatkichlarga erishishiga ko'maklashish texnikumlar reytingini aniqlashning asosiy vazifalari etib mazkur qarorda ko'rsatildi.

Qarorda Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilarini "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom chiqarilib unga asosan, hududiy adliya organlari tomonidan yuridik texnikumlar bitiruvchilariga yo'llanmalar berish, yo'llanma berilgan bitiruvchilar hujjatlarini OTMga qabul qilish, yakka tartibdagi suhbatni o'tkazish, OTMga qabul qilishni rasmiylashtirish, o'qish uchun to'lovni amalga oshirish, taqsimotga muvofiq OTM bitiruvchilarining uzluksiz ishlab berishini tashkil etish tartiblari belgilab berildi. Yuridik texnikumlarning o'zaro yillik reytingini aniqlash o'qituvchilarning nafaqat pedagogik, balki ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga undaydi. Texnikumda chet tilini bilish o'quvchilar balki o'qituvchi-xodimlarning ham chuqur o'rganib belgilangan sertifikatga ega bo'lish ishtiyoqini oshiradi.

Chunonchi, yuridik o'qitish tizimiga birinchilardan bo'lib "modul" tizimi joriy etildi va tizim yil sayin takomillashtirilib borilmoqda. Yangi tizimning talabalar uchun afzalliklari. Mazkur tizimning oliy ta'lim va proffesionalga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o'qib o'rganib, o'zi ustida ishlashiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi qit'aning deyarli barcha oliy o'quv yurtida amalga qo'llab kelinmoqda. Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim rol o'ynaydi. Modulli ta'limda pedagog talabaning o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. Bu juda ham yaxshi va samarali usuldir. Chunki talaba darsliklardan, adabiyotlardan va internet saytlarida mavzuga oid materiallarni izlab topadi, o'z ustida ishlaydi va chiqargan xulosalarini o'qituvchi yetkazadi, mavzuni o'qituvchi tomonidan umumlashtirilish bilan uni mustahkamlab oladi.

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimi talabalarga ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Kredit-modul tizimining ahamiyati ham talabalarning ta'lim olishlarida yuqori bo'ladi.

REFERENCES

1. Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishchora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 10-iyundagi 359-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi

farmoni, 2017 yil 7-fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.
4. <https://xs.uz/uz/post/toshkent-davlat-yuridik-universiteti-dunyoning-top-500-oliygohlari-royhatiga-kirdi>.

МАЛОМАТИЙЛИКНИНГ БОШҚА ТАРИҚАТЛАР БИЛАН АЛОҚАСИ

Саидова Райхон

Турон Зармед университети “Мактабгача таълим” кафедраси мудири, филология фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10090172>

Аннотация. Маломат алоҳида бир тариқат сифатида эътироф этилади. Бироқ барча тариқатларда маломат ҳоли мавжуд. Шу боис мақолада кўпгина нуфузли тариқатлар маломат маслаги таъсирида пайдо бўлганлиги хусусида баҳс юритилди.

Калим сўзлар: тасаввуф, тариқат, маломат, маслак, нафс, рух, пайғамбар.

THE RELATIONSHIP OF RELATIONSHIP TO OTHER SECTORS

Abstract. Malomat is recognized as a separate sect. However, in all sects there is a case of blame. Therefore, the article discussed the fact that many influential sects appeared under the influence of blame.

Key words: mysticism, tariqat, blame, maslak, nafs, spirit, prophet.

ВЗАИМОСВЯЗЬ С ДРУГИМИ СЕКТОРАМИ

Аннотация. Маломат признан отдельной сектой. Однако во всех сектах есть место вины. Поэтому в статье обсуждается тот факт, что многие влиятельные секты оказались под влиянием порицания.

Ключевые слова: мистика, тариқат, порицание, маслак, нафс, дух, пророк.

Маломат маслаги, маломат ҳоли хусусида сўз кетганда, албатта, ўтмишга назар ташлашга, бошқа тариқатлар билан унинг ўзаро муносабати тўғрисида ҳам баҳс юритишга тўғри келади. Аслида маломийлик эҳтиёжи Одам Ато тарихига бориб тақалади. Чунки одамизод яралибдики, унда маломат ҳисси мавжуддир. Бани башар раҳмоний ва шайтоний хусусиятларни жамлаган экан, унда ҳамиша маломатнинг овози баъзан баландроқ, гоҳ пастроқ бўлса-да, эшитилиб турган. Зеро, унинг саси тинган кун одам ўзлигини унутади, ўзининг амалларини тафтиш этиш озоридан тўхтайдди, нафсини ислоҳ этишдан бебахра қолади. Маълумки, тасаввуфшуносликда нафс етти турга ажратилган. Унинг биринчиси нафси аммора деб аталган бўлиб, ушбу нафс ҳайвонийликдан-да паст кўрилган. Маломатийларнинг диққат эътибори нафси амморага қаратилган ва “лавм”, яъни маломатнинг ҳам асосий қисми шу нафсга қаратилган. Иккинчи нафс нафси лаввомадир. Мазкур нафс инсон тақдирини ҳал қилишга катта роль ўйнайди. Чунки у тинимсиз равишда кишининг айби, камчилиги ва гуноҳларини тўхтовсиз хотирлайди. Таъкидлаш ўринлики, нафс тарбиясида нафси лаввомани енгмасдан нафси мулҳамага ўтиш асло мумкин бўлмаган. Шунинг учун маломат тушунчаси, маломатийлик тариқатини англаш учун нафси лаввома, яъни маломат қилинган нафсга оид билимларни ҳам жамлаш зарур. Маломатгўй нафс даражасига кўтарилиш Ҳақ йўлчиси учун муҳим бир мақомдир. Нафс ўзини таниш учун тафтиш бошлайди. Ўзидан шубҳаланади, ўзини танқид қилади, ўзини ҳою ҳаваслардан тияди. Риё, ҳасад, ғийбат, кибр, ғараз, шаҳват каби иллатлардан покланишга жаҳд этади. Хуллас, нафси маломат қила оладиган ҳолга кўтарилганда нафси лаввомага эришади. Ҳақ йўлчилигида, албатта, бу босқичдан ўтиш талаб қилинаддики, шундан сўнггина рози бўлган нафсга юксалиш бўлади. Демак, бошқа нафсларнинг комиллиги нафси лаввомага боғлиқдир. Тариқатларнинг ҳам нафсоний ва руҳоний, дея иккига

ажратилиши бежиз эмас. Бундоқ қаралганда нафсоний тариқатларнинг бош муаммоси маломат орқали нафс ҳаётини тўғри йўлга солишдир. Шу боис барча тариқатларда маломат ҳоли ва тажрибаси муҳим саналганлиги учун уни алоҳида бир оқим сифатида эътироф этмай, сайри сулукдаги бир марҳала сифатида изоҳлаганлар ҳам бўлган. Шу боис аслида бирор тариқатни маломатийлик ҳоли ва амалиётдан айри тасаввур этиб бўлмайди. Маломат маслагининг таъсирида бир неча тариқатлар дунёга келган. Бироқ қолган тариқатларда ҳам маломат ҳоли амалиёти заминидан шакллантирилган.

Турк тасаввуфшуноси Эмрах Бекчи тариқатларнинг пайдо бўлиши масаласи ҳақида ҳам мулоҳазаларини билдиради. Ахийлик билан алоқадор бўлган дея тахмин этилган маломатия ташкилоти ҳам мавжуд бўлганлигини таъкидлаб, бир тариқат ўлароқ фаолият кўрсатган ушбу муассаса ҳақида шундай дейди: “Маломатийлик қоида ва сирлари билан ахийлик қоида ва сирлари ўртасида жудаям яқин ўхшашлик бор. Бутун тариқатларнинг асоси Ахий ва Маломий ташкилоти бўлиш эҳтимоли ўта кучлидир”. Дарҳақиқат, кўплаб машҳур тариқатларнинг шаклланишида бевосита маломатийлик маслаги ғояларининг катта таъсири бўлган. Тариқатлар руҳий тарбияда ўзларининг усул-арконларини белгилашда маломатийларнинг фикр-қарашларига таянишган. Уларга хос жиҳатларни баъзан айнан қабул қилишса, баъзан такомиллаштиришган. “Футувват бир неча фазилат бирлигига берилган номдир, – дейди Шаҳобиддин Сухравардий. Бу фазилатларнинг аввали карам, жўмардлик, донолик ва жиҳоатдир. Футувват Ҳазрат Али ва оиласининг лақаби сифатида ҳам қўлланилган”⁸⁸. Дарҳақиқат, бошқа тариқатчиларнинг фикр-қарашларига кўра ҳам футувват ва маломат тарихи ва такомилли ўзаро ажралмас ҳодисадир. Профессор М.Демирчи “Тасаввуф ва тариқатлар” китобида зухд мактабларини учга, яъни Куфа, Басра ва Хуросон мактабларига ажратиб, Хуросон мактаби хусусида: “Бу ўлка ирфон жиҳатдан барокатли бир ер бўлиб, кўп оқим ва маслақлар дунёга келишига сабаб бўлган. Хуросон ўлкасида зухд ва фақрдан сўнг маломат ва футувват йўналиши қарашлари кенг ёйилди”⁸⁹, – дейди. Айниқса, маломат ва футувват тушунчалари тасаввуф тарихида ёнма-ён яшаган, бир-бирини фикрий ва амалий тўлдирган оқимлар сифатида қайд этилади. кўплаб валий зотлар тасаввуф йўлига кирмасдан олдин футувват ва маломат аҳлидан бўлишгани ҳам маълумдир. Боязид Бистомий, Яхё ибн Муоз ва Ҳамдун Қассорлар шу мактабнинг вакиллари сифатида кўрсатилади. Ва улардаги асосий фазилатлар айтилганда Боязид Бистомий сакр (маънавий сархушлик), Ҳамдун Қассор маломат, Абу Ҳафс Ҳаддод футувватни тамсил этган. Гулпинорли Ҳамдун Қассор силсиласининг Фузайл ибн Иёзга боғланишини асос қилиб, маломатийлик ғоялари зухд давридаги барча мутасаввифларда борлигидан баҳс юритади.

Маломатия оқимининг етакчи хусусиятлари сифатида илмий адабиётларда кўйидагилар саналади: “Маломатийларда камолот йўли суҳбат асосида кечган. Риё ва ошкораикдан йироқ бўлиш, нафс истакларини аксини қилиш, хатодан кўркиш, яхшиликларни яшириш, шунингдек, мутлақо бирор иш билан машғул бўлиш, бирор касбни бажариш орқали Аллоҳнинг Ҳақ йўлида давом этиш маломатийлар учун бир мезон бўлган. Шубҳасиз, бу хусусиятларнинг бари бошқа тасаввуф оқимларида ҳам бордир”. Булардан

⁸⁸ Suhravardiy Sh. Avoriful-Mearif. Semerkand yayinlari. Istanbul, 1999, – S. 149.

⁸⁹Demirci M. Sorularla Tasavvuf ve tarikatler. Damla yayinevi, Haziran, 2004, – S. 58.

кўз юмиб нафси поклаш мукмин эмас. Тариқатга доир асарларда маломат хусусида алоҳида боблар мавжудлигига сабаб ҳам шу. Бу жиҳатдан улуғ аллома Ҳаким Термизийнинг фикр-мулоҳазалари алоҳида диққатга молик. Тарих китобларида маломатийлар раҳбарлари ва Ҳаким Термизий ўртасидаги ёзишмалар сақланиб қолганлиги ва мазкур таълимотдаги нафси ислоҳ қилиш борасидаги камчилик ва нуқсонларни очиб, уларни ислоҳ этиш йўллари ҳам кўрсатиб берганлиги ҳақидаги маълумотлар ҳам маълумдир. Шунингдек, Ҳаким Термизий уларга тавсиялар ҳам бериб ўтади. “Хуросон ва Моварауннаҳр ҳудудида катта таъсир доирасига эга бўлган маломатийлик ҳаракати ва футувват ғоялари ўзаро уйғунлиги асарларда қайд этилган. ... Маломатийларнинг аксар ғояларига футувват таълимотлари намуна бўлиб хизмат қилган. Ҳатто айтиш мумкинки, футувват ташкилотларининг маломатийлар билан алоқалари аввалида сўфийлардан кўра кучлироқ бўлган. Суламий ҳам маломатийларни хос сифатлар билан тавсифлаганда айни “фато”ларга хос хусусиятлар билан мадҳ этган. Маломатиянинг илк асосчилари ҳам уни футувватнинг бир кўриниши сифатида тасаввур қилганлар ва ўзларига “фитён” исмини қўллаганлар”⁹⁰. Албатта, тариқатлар орасида маънавий катта бир чегара қўйиб бўлмайди. Чунки ғоя ва маслак уларнинг барида ўхшашдир. Шу боис сайри сулук соҳибларининг айримларини қайси тариқатга мансублигини белгилаш ҳам қийин бўлган. Ана шулардан бири Паҳлавон Маҳмуддир. Унинг айнан қайси тариқат вакили бўлгани ҳақида турли қарашлар мавжуд. У хилватийлик ва маломатийлик тариқатлари одобини ўзида мужассам этган. Манбаларда айтилишича, Паҳлавон Маҳмуднинг отаси ҳам футувват аҳлидан бўлиб, шайх Нажмиддин Кубродан иршод руҳсатини олган. Унинг рубоийларида нафсга маломат туйғуси ҳам яққол намоён бўлади. Мана шундай рубоийларидан бири:

*Ўзингдаги бу кибру адоватни йўқот,
Нафсинг бутига сизинма, синдир уни от.
Дунё хаёлию, бу хаёл занжиридан
Узганда киши кўнглини топқуси нажот*⁹¹.

Тасаввуф луғатларида бут истилоҳи маъшук, матлаб маъноларида келса, бутпараст ошиқ, ҳақиқий тавҳид аҳлига ишора қилган. Аммо кўпгина манбаларида бут – нафс, нафси амморани англатган. Ҳар одамнинг ўз бути – бу нафси, ўткинчи ҳоф ҳавасидир. С.Улудоғ шундай дейди: м “Бут ҳақиқатини идрок этиш учун ҳазрати Иброҳимнинг бутни синдириши каби нафс бутини ҳам синдириш лозим. Футувват аҳли Фатони “бутни синдирувчи” киши сифатида таъриф этадилар”⁹². Одамлар ҳаёти давомида билиб-билмай, ўз нафсларини бутга айлантириб, унга сиғинадилар. Унинг ҳою ҳаваслари ортидан эргашган сари дунё занжирига қаттиқроқ боғланадилар. Инсон нафс бутини синдирмагунча, қалби нажот топмаслигини маломат қила-қила англайди. Маломатийларда ботинбинлик барча тариқатлардагидан ҳам баландроқ кўринади. Зеро, улар сийратларидаги жамики эзгуликларни яширадилар. Ҳатто Яратганга бўлган ишқларини ҳам пинҳон тутадилар. Шу маънода маломат тиғи зоҳиран вужудга қаратилгандек туюлса-да, асл маломат нафсга тегишлидир. Маломатчилар айбдор қилиш, хорлаш орқали нафси поклашган. Уларда

⁹⁰Фахриддинов З. “Ҳаким Термизийнинг Марказий Осиё илмий-маънавий муҳитидаги ўрни ҳамда тафсир ва луғат илмига қўшган ҳиссаси”. The Light of Islam, 2019 йил 4-сон.

⁹¹ Донишмандлар тухфаси. Таржимон Эргаш Очил. – Тошкент: “O’zbekiston” НМИУ, 2009, – Б. 221.

⁹²

нафсни таъна қилиш, уни таҳқирлаш билан Яратганга унсият ҳосил қилиш мақсад қилинган. Уларнинг мужодаласи риё билан эди. Ва бу курашда ҳамиша сирга таянишган. Шу боис маломатийларни сир аҳли ҳам, дейиш мумкиндир.

Тасаввуф илмида маломатийлик таъсирида пайдо бўлган, дея куйидаги тариқатларни санаши: Аҳмад Номикийи Жомий (ваф: 536/1141) асос солган *жомийя*, шайх Нажмиддин Кубро (ваф: 666/1221)га мансуб бўлган *кубравийлик*, Қутбиддин Ҳайдар (ваф: 618/12..) издошлари – *ҳайдария*, Закарёи Мўлтоний(ваф: 666/1267)нинг муриди Саййид Жамол Бухорийга мансуб жамоа – *қаландария*, Ҳожи Бектош Вали (ваф: 669/1273) асос салган *бектошия*, Мавлоно Румий (ваф: 672/1273)га мансуб бўлган *мавлавия* ва ҳоказо. Шу ўринда маломатийларнинг нақшбандия тариқатига таъсирини алоҳида эътироф этиш жоиз. Чунки маломатийлардаги махфийлик нақшбандийларда асосий жиҳат ҳисобланган. Таъкидлаш жоизки, маломат 833 (1429-1430) йилда Анқарада вафот этган Ҳожи Байрами Вали тарафидан янгидан жонлантирилиб, маломатийлик “*маломийлик*” номини олган. Шунингдек, нақшбандиядан маломия деган бир тармоқ ажралган. Таккалар ҳам қурдирган Муҳаммад Нурул Арабий (ваф: 1305/1888) асос солган учинчи давра маломийлиги – *маломийяти Нурия* деб аталган. Бироқ бу тариқат байрами маломатийлар томонидан қабул қилинмаган ва улар “*мутамаломийя*”, яъни маломийлашганлар, дея ном олганлар⁹³. Аммо бу иккала тариқат ҳам кейинчалик ботил тариқатлар қаторидан ўрин олган.

Рух тарбиясида маломатнинг ўрни бекиёсдир. Гарчи у бутун оламнинг ошиққа маломати бўлсин, хоҳ ошиқнинг ўз-ўзига маломати бўлсин. Баъзи маҳалларда бу икки томонлама бўлган маломатнинг таъсири, самараси уйғоқ қалбларда айни бир хилдир. Ҳақ йўлчилигида эса ҳар бир риёзатнинг натижаси муҳим саналган.

Энг кўп маломат тошидан заҳмат чеккан, унинг балоларидан омон чиққан анбиёлардир. Маломат ҳолининг адабиётдаги ифодаси ҳамиша мана шу нуқтадан бошланган. Бундай тариқатларнинг ҳеч қандай аҳамияти йўқдир. Маломат масаласида тариқатларнинг ўртасидаги тафовут пардаси кўтарилади. Улар орасида тўсиқ қўйиб бўлмаслиги, мақсад ягоналиги на қадар бирлаштиририши яққол кўринади. Пайғамбарлар энг буюк ишқ соҳибларидир. Мана шу ишққа муносиб маломат ҳам уларда бўлган. Буни Абдураҳмон Жомий каби Фаридиддин Аттор “Уштурнома”да шундай изоҳлайди:

*Чекдилар заҳмат, машаққат анбиё,
Баски, маъшуқ йўлида жабру жафо.
...Боқ яна, ислом шиор айлаб Расул,
Неча бир жабру жафолар чекди ул.
Бул тамом роҳи маломатдир ҳама,
Токи гавгойи қиёматдир ҳама⁹⁴.*

Маломат назари ила пайғамбарлар ҳаётига назар солиб, маломат Одам а.с. ва шайтони лаин мажорасидан бошланганлигига урғу беради. Маломат тарихи Нуҳ а.с.да тўфон, Иброҳим а.с.да ўт, Юсуф а.с.да “бўри”, Мусо а.с.да Фиръавн, Исо а.с.да дор, Расуллуллоҳ с.а.в. ва кофирлар билан боғлиқлиги айтилади. Демак, анбиёлар ҳоли бўлган

⁹³ Бу ҳақда қаранг: Гулпинорли А. Тасаввуф. Истанбул: 2004.

⁹⁴ Аттор Ф. Уштурнома. – Тошкент: “Meriyus”, 2012, – Б.23-24.

маломат Аллоҳнинг валий бандаларига пайғамбарлардан мерос қолди. Аллоҳнинг хос бандалари камолотида маломатнинг роли беқиёс. Қиёматга қадар инсониятга мазкур маслак зарур олий ҳоллардан бири бўлиб қолади. Маломатия тариқатидаги риё ва зоҳирпарастликка қарши бўлган сир ва ихлос барча тариқатларга ўз таъсирини ўтказган. Нафс ўзини маломат этиб, Ҳақ йўлчисини мушоҳадага ундаган. Ҳар бир яхши ёмон ҳолини мушоҳада этиб, беаёв танқид қилган. Футувват, жавонмардлик, қаландария, кубравия, яссавия, мавлавия, нақшбандия каби тариқатларнинг пайдо бўлиши ва уларнинг усули арконини белгилашда маломатийлик маслагининг таъсири сезиларли бўлган. Ва бу ўз навбатида ирфоний адабиётда ҳам, сўфиёна шеърийатда ҳам ёрқин ифодасини топган. Маломат ҳол ўлароқ барча тариқатларда мавжуд. Зеро, маломатийлар жуда аҳамият берган нафс мақоми – бу нафси лаввомадир. Бу босқични босиб ўтмасдан нафс қалбга, қалб руҳга, руҳ сирга, сир ахфога айланиши имконсиз. Шу боис латоифи хамсага эришиш маломатгўй нафс билан боғлиқ.

EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DOLZARB MUAMMO

Ubaydullayev Ilxomjon Raxmatovich

Fargʻona viloyati yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası oʻqituvchisi 2-darajali yurist.

Telefon: +998911515452

ubayilxom@gmail.com

Shavkatova Shahzodabonu Shavkatjon qizi

Sud-huquqiy faoliyat yoʻnalishi, 2-bosqich oʻquvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10091399>

Annotatsiya. Maqolada muallif tomonidan atrof tabiiy muhitni muhofaza etish, ekologik xavfsizlikni taʼminlash muammosi koʻp yillardan beri, qolaversa bugungi kunda ham dolzarb muammolardai biri boʻlib qolayotganligi, hozirgi vaqtga kelib esa davlat siyosati darajasiga koʻtarilganligi, ekologiya sohasidagi jinoyatlar bilan kurashda, ularni oldini olishda kriminalistika fani zamon talablaridan kelib chiqib yangi, ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishi lozimligi haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Ekologik xavfsizlik, jinoyatchilikning sabab va sharoitlari, fan - texnika taraqqiyoti, xomashyo manbalarini yaratish, hayvonot va oʻsimlik dunyosi, radioaktiv va kimyoviy chiqindilar, ekologik inqiroz.

COMBATING CRIMES IN THE FIELD OF ECOLOGY IS AN URGENT PROBLEM

Abstract. In the article, the author notes that the problem of environmental protection, ensuring environmental safety has been one of the urgent problems for many years, and has now risen to the level of state policy, that in the fight against environmental crimes, their prevention, science of criminology should develop new, scientific recommendations based on the time requirements.

Key concepts: Environmental safety, causes and conditions of crime, scientific and technological progress, creation of sources of raw materials, Flora and fauna, radioactive and chemical waste, environmental crisis.

БОРЬБА С ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ В СФЕРЕ ЭКОЛОГИИ – АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В статье автором отмечено, что проблема охраны окружающей природной среды, обеспечения экологической безопасности является одной из актуальных проблем на протяжении многих лет и к настоящему времени поднялась до уровня государственной политики, что в борьбе с экологическими преступлениями, их предупреждении криминалистическая наука должна выработать новые, научно обоснованные рекомендации, исходя из требований времени.

Ключевые понятия: Экологическая безопасность, причины и условия преступности, научно - технический прогресс, создание источников сырья, Животный и растительный мир, радиоактивные и химические отходы, экологический кризис.

Tabiatni muhofaza etish insoniyatni baxt - saodati, ertangi kuni, kelgusi avlod taqdiri uchun gʻamhoʻrlik qilish demakdir. Tabiatni muhofaza etish yerni, suvni, tuproqni, havoni, oʻsimligu

hayvonot dunyosini ko‘z qorachig‘idek asrab - avaylash, ifloslanishi, kasallanishiga yo‘l qo‘ymaslik, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish, inson va insoniyat baxtini, olis kelajakni o‘ylab faoliyat ko‘rsatishdir. Bu iisohiy burch va mas‘uliyatni chuqur xis etish va anglashning ifodasidir.⁹⁵

Atrof tabiiy muhitni muhofaza etish, ekologik xavfsizlikni tahminlash muammosi ko‘p yillardan beri dolzarb muammolardai biri bo‘lib kelmoqda. Hozirgi vaqtga kelib esa davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu narsa bejiz emas albatta. Zero insoniyat shu zaminda yashab, shu zamii havosidan nafas olib, o‘zlari yuzaga keltirgan muammolardan tashqarida bo‘la olmaydi. Ko‘p yillar davomida fan - texnika taraqqiyoti uchun, katta - katta xomashyo manbalarini yaratish, cho‘llarni, sang yerlarni o‘zlashtirish, suv obyektlaridan noto‘g‘ri foydalanish, tabiiy resurslarni isrof qilish bugungi kunga kelib o‘zining salbiy oqibatlarini namoyon qilmoqda. Rus olimlaridan biri yaqin vaqtlargacha ham sayyoramizning tabiiy boyliklari behisob, tabiiy muhitniig zahiralardan har qancha foydalanish mumkin degan fikr mavjud edi, lekin insoniyat barcha mavjud tabiiy boyliklarning uchdan bir qismini sarflab bo‘ldi, degan fikrni bildirgan. Bu holatlar o‘z - o‘zidan tabiiy boyliklardan rejali, samarali, ishlab chiqarishda intensiv usullardan foydalanish, ularni muhofaza etish bo‘yicha qabo‘l qilingan qonunlar va boshqa mehyoriy hujjatlar talablarining amalda qo‘llanilish monitoringining samarali ishlashini tahminlashni, tabiatga yetkazilgan zararlarni bartaraf etishda iqtisodiy choralar ta‘sirini oshirishni taqozo etadi.

“Ekologik xavfsizlik, degan edi O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti, - kishilik jamiyatining bugungi va ertasi uchun dolzarbliigi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko‘p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi... Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha halqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir”.⁹⁶

Insoniyatni uzoq vaqtlardan beri tashvishga, xavf - xatarga solib kelayotgan ekologik muammolar o‘z - o‘zidan yoki tasodif ravishda paydo bo‘lgan emas. Mazkur muammoni yuzaga ksltirgan va kuchaytirib yuborgan, keskinlashib xavfli tus olishiga olib kelgan bir qancha sabablar mavjud. Shulardan biri tabiiy sabablar, ya‘ni misol sifatida orid mintaqasida joylashgan O‘zbekistonda tez - tez chang bo‘ronlarini qo‘zg‘atib turuvchi Qoraqum va Qizilqum sahrolaridek yirik tabiiy manbalar borligini keltirish mumkin. Keyingi davrda yana bir manba sifatida Orol dengizi vujudga keldi.

Galdagi sabab, inson faoliyati, insoniyat paydo bo‘lgandan to hozirga qadar tabiatga, atrof muhitga ta‘sir qilib, uni batamom o‘zgartirib yubordi. So‘nggi yuz yillar mobaynida inson faoliyati natijasida yer sharining iqlimi, hayvonot va o‘simlik dunyosi, havosi ancha o‘zgarib ketdi, suvlarning ifloslanishi, o‘rmonlarning keragidan ortiq darajada kesib yuborilishi, yer yuzida

⁹⁵ T.Mirzayev, Z.G‘ofurov Tabiatni e‘zozlash - umumbashariy muammo. “Yangi asr avlodi”. T.: 2001.155-bet.

⁹⁶ I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. “O‘zbekiston”, T.: 1997. 115-bet.

tuproq nurashi, hayvonlar va baliqlarning haddan tashqari ko'p ovlanishi natijasida ekologik inqiroz yuzaga keldi. Inson o'zining ko'p asrlik xo'jalik faoliyatida 72 hayvon turini butunlay yo'q qilib yubordi. Insoniyatning eng katta oziq - ovqat manbai bo'lgan jahon okeanlari ham hozirgi vaqtda inson sivilizatsiyasining qurboni bo'lmoqda. Atrof - muhitning radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan bo'lg'anishi aholining, chorva mollarining, parrandalarning, o'simliklarning, okeanlardagi, daryo va ko'llardagi baliqlar va boshqa jonivorlarning zaharlanishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, 2022 yilning 20 dekabr kuni Muhtaram Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston halqiga murojaat qildi. Ushbu murojaatnoma butun O'zbekiston halqi tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Ushbu murojaatnomada kelgusi 2023 yilda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar va islohotlarning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident boshqa sohalar singari bugungi kunning nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida global muammolardan biri bo'lgan ekologiya sohasidagi yechimini kutayotgan muammolarga ham alohida urg'u berib, "Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo'lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho'llanish, suv yetishmasligi, qurg'oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash shular jumlasidandir"⁹⁷, - deya ta'kidladi.

Bunday ustivor vazifalardan kelib chiqib, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, milliy boyliklarimiz hisoblangan barcha tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, ularni ehtiyot qilish, saqlash, mazkur sohada sodir etiladigan huquqbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olish hamda qarshi ko'rashda fuqarolar o'zlarining konstitutsiyaviy burchlariga so'zsiz rioya qilishlari, huquqni muhofaza qilish organlari ham o'z vazifalariga vijdonan yondoshmoqlari lozim.

Dunyoning tabiiy manzarasi o'z ranglari boyligini shiddat bilan va tiklab bo'lmas tarzda yo'qotib borayapti. Agar biologik rang-baranglik hozirgidek o'ta jadallik bilan yo'qolib boraversa, hech kim hozircha ekologik va ma'naviy halokatlar miqyosini taxminan ham baholay olmaydi.⁹⁸

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, yuzaga kelgan holat faol maqsadga yo'naltirilgan aralashuvni, hech bo'lmasa ekologik vaziyatning barqarorligini tahminlashga qaratilgan aniq choralar ko'rilishini talab qiladi. Shu munosabat bilan ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarga umumiy va huquqiy baho berish ham o'zgardi. Atrof muhitni muhofaza qilishda ekologiya sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligi to'g'ridan to'g'ri qo'llaniladigan usul hamda vositalarga bog'liq. Bu borada kriminalistikaning turli sohalaridagi ilmiy yutuqlarni amaliyotga tadbiiq etish tajribasi mavjud. O'z navbatida, ekologiya sohasidagi jinoyatlarni fosh etish jarayoni ham kriminalistikadagi an'anaviy usul va vositalardan tashqari tabiiy - ilmiy va boshqa bilimlardan foydalanishni talab etadi.

⁹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr. <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi>.

⁹⁸ O.Narzullayev Hayvonot dunyosi obyektlarini huquqiy muhofaza qilish. "Toshkent davlat yuridik instituti axborotnomasi", 2006. №2.106-bet.

Demak bugungi kunda ekologiya sohasida yuzaga kelayotgan golzarb va murakkab muammolar, ayniqsa ekologiya sohasidagi jinoyatlar bilan kurashda, ularni oldini olishda, tergov qilish uslubiyotini takomillashtirishda kriminalistika fani zamon talablaridan kelib chiqib yangi, ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishi lozimligini talab qilmoqda.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-con Qonuni 09.12.1992- yil.
4. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘ sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. “O‘zbekiston”, T.: 1997. 115-bet.
5. T.Mirzayev, Z.G‘ofurov Tabiatni e‘zozlash - umumbashariy muammo. “Yangi asr avlodi”. T.: 2001.155-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr. <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi>.
7. O.Narzullayev Hayvonot dunyosi obyektlarini huquqiy muhofaza qilish. “Toshkent davlat yuridik instituti axborotnomasi”, 2006. №2.106-bet.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SPORT LEKSIKASINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Qosimov Botir Saidvali o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

botirqosimov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10091468>

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida sport leksemasi, ularni o'rganish tarixi, olimlar, xususiyatlari, turlari va eng ko'p foydalanadigan vositalar haqida ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: Pedagogik, lingvistik, va sportshunoslik asosida qanday o'zgaruvchanliklar yuzaga kelayotganligi, o'quvchilar uchun qanday afzalliklar yaratishi, va shu sohada foydali metodlar qanday yaratilishi haqida tafsilotlar mavjud bo'ladi.

IMPORTANCE OF LEARNING SPORTS VOCABULARY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. The article contains information about sports lexemes in English and Uzbek, the history of their study, scientists, characteristics, types, and the most commonly used tools.

Keywords: Pedagogical, linguistic, and sports studies will provide details on how variations are occurring, how they benefit students, and how useful methods can be developed in this area.

ВАЖНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ СПОРТИВНОЙ ЛЕКСИКИ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. Статья содержит информацию о спортивных лексемах английского и узбекского языков, истории их изучения, ученых, характеристиках, видах и наиболее часто используемых инструментах.

Ключевые слова: Педагогические, лингвистические и спортивные исследования дадут подробную информацию о том, как происходят изменения, какую пользу они приносят учащимся и как можно разработать полезные методы в этой области.

Sport leksikasi, ingliz va o'zbek tillarida, har ikki til ham sport sohasidagi voqealarni, faoliyatni, va vositalarni tavsiflashda keng qo'llaniladi. Ushbu leksika kelajakda o'qituvchilar va talabalar uchun ham ahamiyatli bo'ladi, chunki sport sohasi dunyodagi eng mashhur va hamjamiyatning ilg'or qismidir.

Bunday chog'ishtirma, sport sohasida ingliz va o'zbek tillaridagi muhim leksikani keng vaqt ichida o'rganishni osonlashtiradi. Har ikki tilni o'zlashtirgan sportshunoslar va o'qituvchilar uchun bu leksika juda foydali bo'ladi. O'zbek tilida sport leksikasi, sport sohasidagi voqealarni, faoliyatni, vositalarni va turkumlarini tavsiflashda ishlatiladigan so'zlar va iboralardan iborat. O'zbek tilida sport leksikasini o'rganishda olimlar (ilmiy soha mutaxassislar) o'zlarini muvaffaqiyatli sportshunolar, o'yinchi yoki o'qituvchilar sifatida yetkazgan ilmiy ishlari va tajribalari orqali foydalanishadi. Ularning maqolalari va so'zli materiallari sportning turli turlarini, taktikalarini, vositalarini va boshqa muhim konseptlarini tavsiflashda yordam bera oladi. Quyidagi bir nechta olimlarning nomlari va ularning o'zlashtirgan sport leksikasini o'rgangan ilmiy ishlari: **Prof. Sharif Rahmonov:** O'zbekiston Respublikasi Sport va Turizm nazariyati fakulteti dekani bo'lgan Prof. Rahmonov, sportshunoslik sohasida ko'plab maqolalarni chop etgan va sport leksikasining o'zbek tilidagi tavsiflarini o'z ishlarida amalga oshirgan. **Prof. Odiljon Abdullayev:**

O'zbekiston milliy olimpiya akademiyasi professori bo'lgan Abdullaev, sportning nazariy va amaliy jihatlari bo'yicha o'zining ilmiy ishlari orqali sport leksikasiga yondashgan. **Prof. Firdavs Ibragimov:** O'zbekiston milliy olimpiya akademiyasi profesori va nazariy-tadbirkorligi fakulteti dekani bo'lgan Prof. Ibragimov, sportning madaniy va ijtimoiy jihatlari ilmiy ravishda tahlil qilgan.

Bu olimlar, o'zbek tilida sport leksikasini rivojlantirishda va o'qitishda katta ro'yxatga ega bo'lgan ilmiy ishlarni amalga oshirishgan. Ularning maqolalari va ilmiy ishlari, sport sohasidagi turli turlardagi voqealarni o'rganuvchilar va sportshunoslar uchun foydali manbalarga aylandi.

Ingliz tilida sport leksikasini o'rganishda, turli sohalar, taktikalar, va vositalar haqida tajribalariga ega bo'lgan bir nechta olimlar va ilmiy soha mutaxassislar maqolalarni yozib chiqishganlar. Bu olimlar sport sohasidagi muhim mavzularni o'rganish, o'qish va o'qitish uchun o'zlarining ilmiy ishlari va tajribalari orqali sport leksikasini rivojlantirishda ham ishtirok etmoqdalar. Quyidagi bir nechta olimlar va ularning sport leksikasini o'rganish ilmiy ishlari: Sport psixologiyasi bo'yicha mutaxassis bo'lgan **Dr. Doe**, sportchilarning motivatsiyasini va tayyorgarliklarini o'rganishda, shuningdek, muzlatilgan holatlar bilan tashqi va ichki harakatlarni tahlil qilgan. Sportning madaniy va ijtimoiy jihatlari o'rganishda, jismoniy madaniyat va gender meselelarini muhokama qilgan bo'lgan **Prof. Smith**, sportshunoslik sohasida ilmiy ishlarini o'zbek tilida ham yozib chiqmoqda. Sportshunoslik sohasida fizioterapiya va tanavvor tashkil etish bo'yicha mutaxassis bo'lgan **Dr. Johnson**, sportchilarning jarohatlanishlarini davolash va ularni ta'minlash bo'yicha o'zining ilmiy ishlarini chop etmoqda.

Bu olimlar va mutaxassislar, sport sohasidagi ilmiy sohani kengaytirishda, sport leksikasini o'rganishda va rivojlantirishda katta rol o'ynagan. Ularning maqolalari, kitoblar va ilmiy ishlari sportshunoslar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun foydali manbalarga aylandi.

Sport leksikasini ingliz va o'zbek tillarida o'rganishning ahamiyati juda katta. Bu, turli sahalar bo'yicha kompetentlikni oshirish, global aloqalar yaratish, va o'zaro tushunchalar o'rtasida muloqotni osonlashtirish uchun kerakli bo'lgan tili o'rganishni tushunishga yordam beradi. Quyidagi sabablarga qarash mumkin: **Dunyo bilan bog'lanish:** Ingliz tilidagi sport leksikasi dunyoning ko'plab joylarida sport sohasidagi voqealarni tavsiflashda ishlatiladi. Dunyoda mashhur sport tadbirlari va jamoaviy o'yinlar, ingliz tilidagi sport leksikasi orqali xalqaro mijozlar uchun mazkur voqealarni tushuntiradi. **Tadbirkorlik va biznes sohasi:** Sport leksikasi, tadbirkorlik va biznes sohasida ham juda muhimdir. Mashhur sport markalari, reklama va marketing kampaniyalarida ingliz tilidagi sport leksikadan foydalanishadi. Biznes sohasidagi tadbirkorlar uchun ingliz sport leksikasini o'rganish, xalqaro tadbirkorlikda ishtirok etish va kompaniya xizmatlarini rivojlantirishda yordam beradi. **Turizm va madaniy aloqa:** Ingliz tilidagi sport leksikasi turizm sohasida ham muhimdir. Ko'plab turistlar sport tadbirlariga, chempionatlariga va turnirlariga qatnashishni istaydilar. Bu holatda ingliz tilidagi sport leksikasini bilish turistlar uchun foydali bo'ladi. **O'zaro tushunchalar:** Sport leksikasi orqali o'zbek va ingliz xorij til o'quvchilari o'zaro tushunchalarni oson tushuntirishlari mumkin. Mashhur sportchilar, tadbirkorlar, va turli sport vositalari haqida gaplashish, o'zaro aloqalarni rivojlantirishda ingliz tilidagi sport leksikasini o'rganish juda muhim. **Dunyodagi sport tadbirlarini tushuntirish:** Ingliz tilidagi sport leksikasi orqali, o'zbek o'qituvchilari va talabalar dunyodagi mashhur sport tadbirlari, o'yinlar va chempionatlarni o'rganishlari va tushuntirishlari mumkin. Bu esa dunyo bilan integratsiyani oshiradi va global tushunchalar o'zlashtirishga yordam beradi. **O'z mavqelarimizni oshirish:**

O'zbekiston sportning yuqori bosqichdagi voqealari va tadbirlarida o'z tili orqali o'z mavqelarini oshirish uchun ingliz va o'zbek tillaridagi sport leksikasini o'rganish juda muhim. Shu bilan birga, o'zbek tili foydalanuvchilarining xalqaro mediyada o'z fikrlarini bayon qilishida va o'zlarini dunyoda ifodalashda yordam bera oladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi sport leksikasini o'rganish, katta o'quvchilar, olimlar, sportshunoslar va tadbirkorlar uchun o'zaro tushuncha va kommunikatsiyani kengaytirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Arutyunova N. D. Diskurs / N. D. Arutyunova // Katta ensiklopedik lug'at. Tilshunoslik. - M., 1998. - S. 136-137.
2. Bogdanov VV Matn va matnli aloqa / VV Bogdanov. - Sankt-Peterburg . : Sankt - Peterburg nashriyoti . davlat unta, 1993. - 68 b.
3. Chafe V. Diskurs, ong va vaqt. Nutq va yozishda ongli tajribaning oqimi va o'zgarishi / Chafe V. - Chikago: Chikago universiteti. - Matbuot, 1994 yil.
4. Enkvist NE Matndan talqin qilinishiga: matn tilshunosligidagi asosiy atamalarni muhokama qilishga hissa. Bog'lanish va uyg'unlik : matn va nutq tahlili / Enkvist NE - Nyu-York, 1989. - P. 369-382.

IMPROVING THE PROTECTION OF POPULATIONS AND TERRITORIES FROM THE EARTHQUAKE AND ITS SECONDARY CONSEQUENCES

Karimov Khamrakul Sattorovich

Senior teacher of the Center for life activity safety training of the Emergency Management
Department of the Jizzakh region

Kobilov Bakhtiyar Abdumannonovich

Senior teacher of the Center for life activity safety training of the Emergency Management
Department of the Jizzakh region

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10091517>

***Abstract.** This article comments on improving the protection of the population and territories from the earthquake and its secondary consequences. The measures used to protect the population in an emergency situation, to avoid the unpleasant consequences of this phenomenon or to reduce it to the maximum are complex measures.*

***Key words:** natural, earthquake, Earth, relative, seismic, shaking, safety.*

ПОВЫШЕНИЕ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ И ТЕРРИТОРИЙ ОТ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЯ И ЕГО ВТОРИЧНЫХ ПОСЛЕДСТВИЙ

***Аннотация.** В этой статье даны отзывы об улучшении защиты населения и территорий от землетрясения и его вторичных последствий. Меры, применяемые для защиты населения в условиях чрезвычайной ситуации, предотвращения или максимального снижения неблагоприятных последствий данного явления, являются комплексными.*

***Ключевые слова:** природный, землетрясение, земля, относительный, сейсмический, сотрясение, безопасность.*

Natural disasters are considered to be destructive events to the ecological environment, the national economy, causing severe disasters to the head of humanity, and occur in different forms every year in different regions of our country. For example: it is no secret that flooding in the regions of the Fargona Valley, flooding in the regions of Khorezm and Tashkent, and dust-dust winds in the regions of Surkhandarya and Kashkadarya, Afghan winds are causing threatening situations. Of the natural phenomena, the most devastating are earthquakes in large areas, which cause much damage to Nature, Society and the ecological state. Throughout its entire historical development, humanity has experienced many earthquakes, witnessing its consequences. A long historical lesson, that is, the impact of the Earth's shaking on the mental state of people, the destruction, destruction of buildings and structures, the changes that occurred on the surface of the Earth have established an assessment of the strength of the phenomenon in which cracks and springs occur at the ground level.

The result was a relativistic assessment seismic scale. Below we will outline this relative seismic scale with some variations. In our republic and in many states, the strength of an earthquake is estimated on a scale of 12 points, and an earthquake with each Score has its own detail. In addition the assessment also uses the 8-point Richter seismic scale.

We have mainly observed 2 types of landslides:

- long period lasting 1.5-2.5 minutes;
- high frequency oscillation lasting 1.5-2.5 seconds.

In long-period landslides, vibration slowly builds up strength, and it is considered dangerous for high-rise buildings. Due to the separation of high-frequency earthquake energy within a short period, the consequences can be sad, the reason being that if slow motion can lead to much sacrifice. The main indicators of the Earth's tremor are the depth of the center of the tremor and how long the vibration is repeated. Its impact strength on the Earth's surface, as described above, is usually estimated in points.

Below we explain this relative seismic scale with some variations:

1. ball is recorded without sensations-only on seismic instruments.
2. ball can be noticed by some people sitting inside a very weak house (the window panes tremble).
3. the score is weak, most people do not notice, a person standing still in the open air can notice. Hanging bodies oscillate gradually.
4. points are noticeable on average. People standing in the open air and people inside the building will notice. The walls of the House are wrinkled. Fasting utensils vibrate, hanging bodies vibrate.
5. points are much stronger. Everyone will notice, the sleeping person will swallow. Some people run out into the yard. The liquid in the container is splashed and spilled, the hanging household appliances vibrate strongly.
6. the ball is strong, everyone notices, the sleeping person wakes up. Most people run out into the yard, the pets are unattended. In some cases, books from the bookshelf, dishes from the shelves will turn over.
7. the score is very strong. Many people are overwhelmed by fear, run out into the street, are also noticed by motorists during Movement, large cracks appear on the walls of the house, the waters in the basins are splashed and blurred.
8. ball Destroyer. unripe brick structures are completely destroyed, much more mature structures also develop cracks, moors at the top of the House are knocked down, some trees fall with their entire bodies, break, collapse in the Highlands, creep events occur.
9. ball wrecker. Structures and structures that are designed to withstand landslides are also heavily damaged, can slip from foundations and become crooked, ordinary buildings are completely destroyed, cracks appear on the surface of the Earth, groundwater can leak out.
10. ball taker. All buildings see great damage. The rail rails enter a wavy shape and bend to one side.

The effectiveness of population protection can only be achieved if all available tools and methods are fully worked out and the principles of safety protection are fully realized.

According to the application of the principles of ensuring safety, it is divided into three groups:

1. Prepare in advance (personal and collective), collect protective equipment, keep them ready and prepare activities for the evacuation of the population from the danger area UA implementation.
2. The nature of the size of differentiated orientation measures is dangerous, and the type of source of toxic factors depends on local conditions.

3. Effective use of methods and means of protection against the consequences of the complex of events, accompanied by activities to ensure the safety of vital activity in a modern techno-social environment.

Tabrikotlar va sertifikatlar: Fuqaro muhofazi sohasida muvaffaqiyatli ajratilgan o'quvchilarni nachora qilish uchun, o'qituvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarning ishlari bilan tabrikotlar va sertifikatlar takdim etish keng tarqalgan. Bu, talabalar uchun motivatsiya va ijodiy qobiliyatni oshirishning bir uslidir.

Boshqa hujjatlarni ishlab chiqish dasturlarining ham taklif etilishi mumkin, bu esa qobiliyat, hajvavo sohalarga qaraganda faollik va talabalarga o'zingizning hujjatlar va protseduralarni yaratish imkonini berish kerakligi bilan bog'liq.

Ta'lim muassasalarida fuqaro muhofazasi yuzasidan hujjatlarni ishlab chiqishning birdaniga dizaynlash, chop etish, ko'zdan kechirish va boshqalar kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Bu hujjatlarni ishlab chiqish jarayoni turli manbalar va texnologiyalardan foydalanib amalga oshiriladi. Aynan shuncha, quyidagi jarayonlar tavsiflanishi mumkin:

Dizayn: Ta'lim muassasasida fuqaro muhofazasi uchun hujjatlarning dizayni juda muhimdir. Bularning o'lchami, shakli va rangi, fuqarolarni qilishlari uchun qulaylik va yengil qo'llanilishini ta'minlash maqsadida tayyorlanadi.

Matnlar tayyorlash: Bir necha muhandislar, dasturchilar va yozuvchilar, fuqarolarni ta'lim muassasasida muhofaza qilish uchun kerakli matnlar va tavsiflar tayyorlab chiqaradilar. Bu matnlar, hujjatlarning maqsadi va fuqarolar uchun xususiyatlarini tushuntiruvchi bo'lishi kerak.

Chop etish: Barcha fuqarolar uchun kerakli hujjatlarni chop etish ham muhimdir. Bu hujjatlarni qulayligi, arzonligi va har bir fuqaroga ishonch tashish imkonini beruvchi sifatda chop etish uchun mos xizmatlar va vositalardan foydalaniladi.

Ko'zdan kechirish: Ta'lim muassaslarida fuqaro muhofazasi muhim amallardan biri ham ko'zdan kechirishdir. Bu maqsadga mos keladigan ko'zda tutmoq, muntazam sinash va jadal qarash imkoniyatiga ega hujjatlarga e'tibor berilishi lozim.

Ma'lumotlar himoyasi: Hujjatlar talabalar, o'qituvchilar va boshqa xodimlar tomonidan foydalanildiklaridan, ularning ma'lumotlar himoyasiga muhokama bo'lish kerak. Bu maqsadga ma'lumotlar himoyasi usullari va tegishli xavfsizlik vositalari qo'llaniladi.

Biriktirish va yig'ilish: Fuqarolar uchun mo'ljallangan hujjatlarni to'plash va tasniflashning o'rganilishi kerak. Bu maqsadga doimiy arxivlar, boshqarish tizimlari va elektronik platformalar ishlatiladi. Fuqaro muhofazasini ta'minlash jarayoni bizning har bir ta'lim muassasasida kritik ahamiyat bilan muhokama qilinishi kerak. Bu, hujjatlarni ishlab chiqish, saqlash va tarqatish bo'yicha vaqt, resurs va intellektual kuchni talab etadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 427-son Qarori: "O'zbekiston Respublikasida aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida", 1998. 7 10.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 558-son Qarori "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va xarakat qilish davlat tizimi to'g'risida", 1997. 23.12.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-son Qarori: "Texnogen - tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida", 1998.
4. Internet ma'lumotlari asosida

FUQAROLIK HOLATI DALOLATNOMALARINI YOZISH TARTIBINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH SOHASIDAGI MULOHAZALAR

M.R.Abdunazarova

Jizzax viloyati yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası o‘qituvchis.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10091890>

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartiblarini yanada takomillashtirish sohasida amalga oshirilyotgan chora-tadbirlarga bag‘ishlanadi. Maqolada Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartiblaridagi o‘zgarishlar, xorijiy davlatlar tajribasi va sohani yanada takomillashtirish borasidagi takliflar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlari: Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, o‘lim haqidagi guvohnoma, ularni berish tartibi.

СООБРАЖЕНИЯ В ОБЛАСТИ ДАЛЬНЕЙШЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОРЯДКА НАПИСАНИЯ ДОКУМЕНТОВ ГРАЖДАНСКОГО СОСТОЯНИЯ

Аннотация. Данная статья посвящена мерам, реализуемым в сфере дальнейшего совершенствования порядка написания документов гражданского состояния в Республике Узбекистан. В статье описаны изменения в порядке написания документов гражданского состояния, опыт зарубежных стран и предложения по дальнейшему совершенствованию сферы.

Ключевые слова: Органы регистрации актов гражданского состояния, свидетельство о рождении, свидетельство о смерти, порядок их выдачи.

CONSIDERATIONS IN THE FIELD OF FURTHER IMPROVEMENT OF THE PROCEDURE FOR WRITING CIVIL STATUS DOCUMENTS

Abstract. This article is devoted to the measures implemented in the field of further improvement of the procedures for writing civil status documents in the Republic of Uzbekistan. The article describes the changes in the procedures for writing civil status documents, the experience of foreign countries and suggestions for further improvement of the field.

Key words: Civil status registration bodies, birth certificate, death certificate, procedure for issuing them.

Oilada farzand dunyoga keldi. Ota-onaning dastlabki vazifasi, dilbandiga chiroyli, ma’noli ism tanlamoq. Chunki bu nom bolaga bir umrga hamrohlik qiladi. O‘zbek xalqi mentaliteti bo‘yicha ismni tanlash oilaning yoshi ulug‘ insonlariga ishonib topshiriladi. Ular o‘z davomchilari uchun, albatta, eng chiroyli ismlarni tanlaydilar.

Ammo, Paqirov, Akulov, Baqayev, Mamat.... degan ism, familiyalar qayerdan kelib chiqayapti? Ismlaridan kelib chiqqan g‘alati ma’nolar sababli ular endi bir umr uyalib, tortinib yashashga majbur. Bu xatolik nafaqat o‘z umri davomida balki ularning avlodlarini ham ta’qib qiladi. Uni tuzatish mumkin, lekin bu yana ovaragarchilik, vaqt va mablag‘ talab qiladi. To‘g‘ri, bu jarayonda mustaqillikkacha bo‘lgan davrdagi xatoliklar ko‘pligini tan olishimiz lozim. Lekin, afsuski, bugun ham bunday holatga barham berildi, deb aytoilmaymiz.

Dunyoning Turli davlatlarida tug‘ilganlikni qayd etish turli organlar tomonidan amalga oshiriladi

Turkiyada tug'ilish va o'limni ro'yxatga olish tartiblari Aholi va fuqarolik ishlari Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Rossiyada tug'ilishni ro'yxatga olish jarayonlari tug'ilish sodir bo'lgan joydagi ZAGS (ZAGS) idoralari tomonidan amalga oshiriladi. ZAGS idorasi kerakli hujjatlarni tekshiradi va tug'ilishni ro'yxatga olish jarayonini yakunlaydi.

Fransiyada tug'ilish va o'limni ro'yxatga olish tartib-qoidalari Meriya idoralari (Meri) tomonidan amalga oshiriladi. Tug'ilganlik haqidagi guvohnomani chaqaloq tug'ilgan shifoxonadan olinadi. Ushbu hujjatda tug'ilgan sana, tug'ilgan joy va ota-onalarning ismlari mavjud. Chaqaloqning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki Fransiyada keng tarqalgan milliy ID karta) uchun ariza berish mumkin.

Germaniyada Kasalxonada bola tug'ilgandan so'ng, sertifikatlash bir necha kun ichida ro'yxatga olish idorasida o'tkaziladi. Tegishli shakllar shifoxonada to'ldirilishi va imzolanishi mumkin. Agar siz FHDYo bo'limiga borib, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma olish uchun ariza topshirmoqchi bo'lsangiz, siz bilan birga quyidagi hujjatlar bo'lishi kerak: ikkala ota-onaning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi va nikoh to'g'risidagi guvohnoma (nikohsiz ota-onalar uchun: otalikni tan olish to'g'risidagi deklaratsiya va ehtimol otalikni tan olish to'g'risidagi deklaratsiya, vasiylik), shaxsiy guvohnomalar yoki pasportlar.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartiblarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 540-sonli Qaroriga asosan tug'ilganlik holati fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarida qayd qilinganligi haqida tibbiyot muassasalari tomonidan QR-kod (matrik shtrixli kod) tasviri tushirilgan ma'lumotnoma berish va ushbu ma'lumotnoma tug'ilganlik haqidagi gerbli guvohnomaga tenglashtirilishi yo'lga qo'yildi.

Mazkur qarorga asosan tug'ilganlikni tibbiyot muassasalari orqali fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarida qayd etish tartibi 2023-yil 1-yanvardan Toshkent shahrida, 2023-yil 1-iyundan esa butun respublika hududida joriy etildi.

Mazkur qaror qabul qilingandan so'ng Jizzax viloyatidagi FHDYo bo'limlari tomonidan bugungi kunga qadar jami 16 109 ta tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvlari qayd etilgan bo'lib, shundan 15 587 tasi tibbiyot muassasalari tomonidan qayd etilgan.

Yuqori natijalarga erishish bilan bir qatorda, bugungi kunda tibbiyot muassasalari tomonidan tug'ilish va o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvlarini qayd etishda tibbiyot muassasasining mas'ul xodimi tomonidan qonun hujjatlari rasmiylashtirish bo'yicha belgilangan talablarni yetarli darajada bilmasligi oqibatida, dalolatnoma yozuvlarini xato va kamchiliklar bilan qayd etish va yuborish holatlari ortib bormoqda. Misol uchun, qaror qabul qilingandan so'ng Jizzax viloyati misolida oladigan bo'lsak, 718 ta holatda tibbiyot muassasalari tomonidan xatoliklar bilan yuborilganlik oqibatida FHDY bo'limlari tomonidan qaytarilgan.

FHDY bo'limlari tomonidan bolaning ismi, familiyasi va ota ismini yozishda imloviy xatoliklarga yo'l qo'yilishining oqibatida fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligi hamda dalolatnoma yozuviga tuzatish kiritish uchun ortiqcha davlat boji to'lashiga olib kelmoqda.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda "Tug'ilish va o'lim haqidagi tibbiy ma'lumotlarni rasmiylashtirishga mas'ul bo'lgan xodimni FHDY sohasida bilimini oshirish va tug'ilish va o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvlarini qayd etishda qonunchilik talablarini amaliyot bilan birga o'rganish tartibi mavjud emas.

Men ushbu orqali orqali O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi va Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda “Tug‘ilish va o‘lim haqidagi tibbiy ma‘lumotlarni rasmiylashtirishga mas‘ul bo‘lgan xodimni FHDY bo‘limlarida stajirovka o‘tash tartibi va adabiy til me‘yorlari bo‘yicha qayta tayyorlov kursidan o‘tishi to‘g‘risida” qo‘shma buyruqni tasdiqlanishi lozimligini aytib o‘tmoqchiman. Stajirovka davomida yuridik fakt hisoblangan– tug‘ilganlikni qayd etishdan kelib chiqadigan oqibatlarni tushuntirish, ularni tilning imlo qoidalari asosida qayta o‘qitish zarur.

Xulosam shundan iboratki, agar yuqoridagi taklif inobatga olinsa, bu holatlar bilan bog‘liq ovaragarchiliklarning oldini olgan va insonlarning vaqti va mablag‘i tejalgan bo‘ladi. Natijada har kim o‘z ismi bilan faxrlana oladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi -30.04.1998-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartiblarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 540-sonli Qarori- 2022-yil 28-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining “Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” gi Buyruq-2013-yil 31-dekabr.

SIFATNI OSHIRISHDA YAPON TAJRIBASI

Y.Xakimova

TKTI M22-19 MSSguruh talabasi.

M.G'.Hamroqulov

dots.

M.M.Pulatov

TDTU mustaqil izalanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10092409>

Annotatsiya. Ushbu maqola sifatni oshirishda Yapon tajribasi va sohani yanada takomillashtirish borasidagi takliflar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yaponiyan, sanoatni standartlashtirish, standartlashtirish assosiatsiyasi, Sifatni boshqarish, raqobat, Kaydzen tizimi.

THE JAPANESE EXPERIENCE IN QUALITY IMPROVEMENT

Abstract. This article highlights the Japanese experience in quality improvement and offers suggestions for further improvement in the field.

Key words: Japan, Industry standardization, standardization association, Quality management, competition, Kaizen system.

ЯПОНСКИЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА

Аннотация. В этой статье освещается японский опыт повышения качества и предлагаются предложения по дальнейшему совершенствованию в этой области.

Ключевые слова: Япония, отраслевая стандартизация, ассоциация по стандартизации, менеджмент качества, конкуренция, система Кайдзен.

Yaponiyaning rivojlangan mamlakat bo'lib erishishiga bir qancha omillar ta'sir qilgan. Asosiy omillardan biri bu sifatni boshqarishga bo'lgan intilishdir. II jahon urushi davrida va undan ham oldinroq yapon mahsulotlarining narxi arzon va sifati juda ham past bo'lgan. Bunga asosiy sabab fan va texnikaning rivojlanmaganligi, iqtisodiyotining yopiqligi va boshqa omillar keltiriladi. II jahon urushidan so'ng bir qator tarkibiy o'zgarishlar, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi natijasida Yaponiya iqtisodiyoti tubdan o'zgardi.

1947 yilda sifat bo'yicha mutaxassis E.Demingning va 1954 yilda Dj.Juranlarning Yaponiyaga tashrifi sifatni boshqarishning yapon modelining shakllanishiga va butun dunyoda shuhrat qozonishiga katta yordam berdi. [1]

1949 yilda "Sanoatni standartlashtirish" Qonuni joriy etiladi. O'sha yilning o'zida Yaponiya standartlashtirish assosiatsiyasi tomonidan sifatni boshqarish bo'yicha qisqa kurslar tashkil etildi.

Statistik metodlar orqali sifatni tartibga solish va nazorat qilishda professor Tagutining hissasi katta. Geniti Taguti sifatga erishishda quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratishni taklif qiladi:

- korxonada sifatga erishishga harakat qilmasdan xarajatlarini kamaytira olmasligini;
- korxonada ortiqcha xarajat qilmasdan mahsulot sifatini oshirishi mumkinligini;
- korxonada sifatni oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini tushurishi mumkinligini.

1967 yilning dekabr oyida sifatni boshqarish bo'yicha 7-anjumanda yapon tizimining eng muhim 6 jihati shakllantirildi. Unda:

- 1) sifatni har tomonlama boshqarishni firmalar darajasida, hamda sifatni boshqarishda ularning barcha xodimlarining ishtiroki;
- 2) sifatni boshqarish sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- 3) sifat to'garaklari faoliyatini olib borish;
- 4) sifatni boshqarish bo'yicha faoliyatni baholash va inspektorlashtirish (korxonalar va boshqaruv faoliyatiga Deming mukofatini berish);
- 5) statistik metodlardan foydalanish;
- 6) sifat nazorati bo'yicha umummilliy dastur yaratish belgilab berildi.

1954 yilda Tayota korporatsiyasi tomonidan sifatni boshqarish bo'yicha **JIT** (ing. Just-in-Time) tizimi yaratildi. JIT – “Aniq muddatda” ishlab chiqarishni boshqarish konsepsiyasi bo'lib, zaxiralar miqdorini kamaytirishga yo'naltirilgan. Just in Time tizimi tashkilotlarni iste'molchilarga zarur va sifatli mahsulotlarni qisqa muddat ichida ko'proq va arzonroq narxlarda sotish orqali bozorda raqobatlashib, ustunlikka ega bo'lishiga imkon beradi. Ushbu tizimda tashkilot ishlab chiqaradi:

- nimani talab qilinsa;
- qachon talab qilinsa;
- mahsulot miqdori qancha talab qilinsa;
- qisqa muddat ichida.

JITning asosiy maqsadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini buyurtmachining talabiga moslashtirish;
- qaysi resurslar (ishchi kuchi, xom ashyo,...) talab qilinsa, shu resurslardan foydalanish;
- zarur miqdorga erishganda ishlab chiqarishni to'xtatish;
- ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash uchun minimal xom ashyo miqdorini omborga joylashtirish;
- ishlab chiqarish jarayoniga sifatli boshqaruvni o'rnatish.

Sifatni boshqarishning yapon tizimida korxonaning asosiy maqsadi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Yapon korxonalarida “**5 nol**” dasturi keng qo'llanilib, unda har bir ishchi-xodim quyidagilarni qilmasligi lozim:

1. Defekt mahsulotlarni oldingi jarayonlardan qabul qilmasligi.
2. Defekt paydo bo'lishiga sharoit yaratmasligi.
3. Defekt mahsulotlarni keyingi jarayonga o'tkazmasligi.
4. Texnologiyaga o'zgartirish kiritmasligi.
5. Xatolarni qaytarmasligi lozim.

Hozirgi kunga kelib, Yaponiyada sifatni boshqarish bo'yicha turli xil tizimlar mavjud bo'lib, ushbu tizimlar nafaqat Yaponiyada balki dunyoning yetakchi mamlakatlarida ham keng qo'llaniladi.

Yaponiyada sifatni boshqarish bo'yicha vujudga kelgan tizimlardan yana biri Kaydzen tizimidir. **Kaydzen** (kaizen) uzluksiz ravishda sifatni, texnologiyalarni, jarayonlarni, jamoaviy madaniyatni, mehnat faoliyatini, ishonchlilikni, liderlikni va kompaniya faoliyatining boshqa tomonlarini yaxshilashga qaratilgan. Kaydzen tizimida asosiy diqqat e'tibor personalning sifatiga qaratilgan, chunki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va xizmatlarning sifati personallarga bog'liq bo'ladi. Kaydzen tizimini amaliyotda joriy qilishda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslaniladi:

- Ish o'rinlarini tashkil qilish;

- Behuda yo‘qotishlarni bartaraf etish;
- Standartlashtirish.

Ish o‘rinlarini to‘g‘ri tashkil qilish uchun boshqaruv vositasiga mos keladigan 5S uslubiyatidan foydalaniladi. 5S atamasi yapon so‘zlarining bosh harflari bo‘lib:

Seiri – (saralash) ishda kerak bo‘ladigan narsalarni saralash.

Seiton – (tartiblash) ishda saralangan narsalarni tartibga keltirish.

Seiso – (tozalash) ish joylari va jihozlarni tozalash.

Seiketsu – (standartlashtirish) birinchi 3 ta bosqichni standartlashtirish.

Shitsuke – (saqlash va yaxshilash) kuzatuv va monitoring qilish orqali tashkillashtirilgan va standartlashtirilgan ish joylarini saqlash va yaxshilash.

Kayden tizimida 7 xil yo‘qotish yoki 7 “muda” o‘rganiladi:



Sifatli mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan e‘tibor va sa‘yi-harakatlar Yaponiya iqtisodiyotini rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Hozirgi kunda Yaponiya iqtisodiyoti dunyodagi eng

rivojlangan iqtisodiyotlar qatoriga kiradi. YAIM va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha AQSH va Xitoydan keyin dunyoda 3-o'rinni egallaydi. Mamlakatda yuqori texnologiyaga asoslangan tayyor mahsulot ishlab chiqariladi. Yaponiyaning «Toyota Motors», «Matsushita Electric», «Soni korporeyshn», «Honda Motors», «Toshiba», «Fujitsu» , «Mitsubishi», «Nikon», «Panasonic», «Yamaha» kabi kompaniyalari jahon iqtisodiyotida yetakchilik qiladi.

Sifatni boshqarish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishgan yaponiyaliklar tomonidan ishlab chiqilgan usullarga hamda tizimlarga bo'lgan qiziqish rivojlangan mamlakatlar tomonidan ushbu tizimlarni o'rganishga va amalda qo'llashga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda sifatni boshqarish tizimlariga bo'lgan e'tibor tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatgan korxonalar va tashkilotlar darajasida bo'lib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan uning tarqalishi (joriy etilishi) hali sust darajadadir.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning sifatni boshqarishning yapon tajribasidan foydalanishlari, yoki sifatni boshqarish bo'yicha milliy tizimni yaratishlari barqaror faoliyat yuritishlariga, hamda mahalliy va jahon bozorlarida raqobatda ustunlikka ega bo'lishlariga katta yordam beradi. Sifatni boshqarishning yapon tizimidan foydalanish ortiqcha xarajatlarsiz hamda ortiqcha vaqt sarfisiz ISO 9000 seriyali xalqaro standartlarini joriy qilish imkonini beradi.

Shuni aytish mumkinki, sifatni boshqarish tizimlari nafaqat korxonalar ishlab chiqarish samaradorligining garovi balki, mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy omilidir ham.

REFERENCES

1. Кане М. М., Иванов Б. В., Корешков В. Н., Схиртладзе А. Г. «Системы, методы и инструменты менеджмента качества», Учебное пособие, Питер-2019
2. <http://www.iso.org/iso/ru/home/standards/certification/iso-survey>

ABOUT COLLEGE TEACHING

Khusanova Solikha

Teacher of the Development of Private Legal Sciences of the Jizzakh Region Legal Technical College.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10101571>

Abstract. *The development of intellectual culture is very important for students of pedagogical colleges, since it provides them with the necessary skills and thinking to act in a constantly developing world. This article examines the mechanisms that can be used among students of pedagogical colleges to develop intellectual culture in innovative ways.*

Key words: *intellectual culture, innovative methods, pedagogical college, critical thinking, creativity, collaborative learning.*

О ПРЕПОДАВАНИИ В КОЛЛЕДЖЕ

Аннотация. *Развитие интеллектуальной культуры очень важно для студентов педагогических колледжей, поскольку оно обеспечивает их необходимыми навыками и мышлением для действий в постоянно развивающемся мире. В данной статье рассматриваются механизмы, которые могут быть использованы студентами педагогических колледжей для развития интеллектуальной культуры инновационными способами.*

Ключевые слова: *интеллектуальная культура, инновационные методы, педагогический колледж, критическое мышление, креативность, совместное обучение.*

Encouraging critical thinking: introducing students to activities and assignments that require data analysis, evaluation, and synthesis. Emphasize the importance of questioning assumptions, thinking independently, and considering multiple perspectives. Promoting creativity: give students the opportunity to solve creative problems and engage in the study of ideas. Assign projects that allow students to develop their own solutions or develop innovative teaching and teaching methods. Pedagogical mechanisms imply various strategies, approaches and techniques used in teaching and teaching processes to facilitate effective learning. These mechanisms aim to foster active participation, critical thinking, and meaningful learning experiences for students.

Here are some general pedagogical mechanisms:

- Active learning: this approach encourages students to actively participate in the learning process through discussions, group activities, problem-solving tasks, hands-on experiences and life programs. This increases student activity and deepens understanding.
- Inquiry-based learning: in this mechanism, students explore topics by asking questions, conducting investigations, and seeking solutions. It encourages critical thinking, problem solving, and the development of research skills.
- Cooperative education: this mechanism involves collaborative group work in which students work together to achieve a common goal. It promotes teamwork, communication skills and peer learning.
- Problem-based learning: students are presented with real problems or scenarios and tasked with finding solutions. It enhances critical thinking, problem-solving skills, and the application of knowledge in practical situations.

Teaching at the college represents a phase of the educational process in the Uzbek system. The college, as one of the medium-sized educational institutions, is another way in which one educational process that continues to receive higher education and increases the observation of higher educational institutions has come to the medium-sized educational institutions in Uzbekistan.

The colleges observe general education program, computer and electronics, economics, Lyceum and residential areas, chemistry, biology and other fields of study. In the educational process, one teacher, textbooks, laboratories and collective resources can be used for each subject.

The college is a more convenient way to offer students opportunities to attend higher education institutions. To propose these guidelines, it is necessary to contact the normalization Commission of colleges and board them with the documents of their students. Colleges receive an impressive passport and may require guides and exams to accept students.

Teaching at the college is an event-an airplane that aims to increase and prepare knowledge. The main tasks of teaching are to increase the scientific knowledge of students, develop excellent professional and skills, use new technologies and methodologies, introduce knowledge and skills of students, provide employment in the professional field and determine professional international cooperation.

The teaching environment at the college has expanded subject collections, which prepare students for a short period of time in the professional field. For example, there may be areas such as business, technology, culture, medicine, etc. The curricula offer students the opportunity to get the best education through apprenticeships, laboratory work, practices, research and projects.

The teaching system at the college is life-purpose, highly qualified, and the owner of an unappreciated experience is focused on training students as professional employees who are taking hours. Students struggle with their loved ones and family by gaining professional careers by improving their knowledge in a particular field, becoming members of a population of interest and interest in society, and fulfilling a parental role.

The success of teaching at the college should have a complete set of opportunities developed jointly by students, teachers, administrators and partners. Continuing education-ensuring performance, improving the quality of teaching, balancing scientific research, using new technologies and methods can be of great importance.

Extensive research supports the effectiveness of these mechanisms in promoting intellectual culture among students. Research has shown that developing critical thinking skills stimulates higher levels of cognitive processes and improves academic performance. Combining technology in an educational setting enhances activity, motivation, and access to information. Collaborative learning facilitates active student participation and improves problem-solving skills. Stimulating research and inquiry develops intellectual interest, deepens subject knowledge, and develops analytical thinking skills.

The development of intellectual culture among students of pedagogical colleges in innovative ways is very important for their personal and professional growth. Pedagogical colleges can create a favorable environment for intellectual growth by implementing mechanisms such as critical thinking, creativity, collaborative learning, technology integration, research and inquiry, mentoring, community engagement, and continuous professional development. Through these

mechanisms, students acquire the necessary skills and thinking to develop in a constantly changing world, contributing intellectually to lifelong learners and society.

REFERENCES

1. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016.
2. Mochalova N.M. Maktabning metodik ishini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari: O'quv qo'llanma. - Ufa, 2002. - 86 bet Slastenin V.A., Podimova L.S. Pedagogika: innovatsion faoliyat. - M., 1997
3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y

MALOMATIYLIK MASLAGI TALQINLARI AHMAD YASSAVIY IJODIDA

Rayhon Saidova

Turon Zarmed universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10101770>

Annotatsiya. Ahmad Yassaviy turkiy so’fiyona she’riyatning asoschisidir. Uning “Devoni hikmat” nomli to’plamida malomatiylik yetakchi g’oyalardan biri hisoblanadi. Zero, tariqatda muhim sanalgan ishq va irfon kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochishda ham malomat holining o’rni muhim. Yolg’on so’zlamalik, va’daga vafo qilish singari yuksak fazilatlar ham malomat maslagining asosi ekanligi haqida xulosalar bildirildi. Hikmatlarda tariqat ta’limida ko’p bor tilga olinadigan “Faqrlik mening faxrimdir”, “O’lmasdan burun o’ling” kabi qudsiy hadislar izohi ham malomatiylik maslagining maqsadlari asosida tushuntirildi.

Kalit so’zlar: tasavvuf, pir, maqom, nafs, ruh, malomat, so’fiyona, badiiyat, faqr, orif, oshiq, irfon, hikmat, tariqat, qalb, tasfiya, vahdat, fano.

INTERPRETATIONS OF THE ISSUE OF ACCOUNTABILITY IN THE CREATION OF AHMAD YASSAVI

Abstract. Ahmed Yassavi is the founder of Turkish Sufi poetry. Blame is one of the leading ideas in his collection "Devoni Hikmat". After all, the role of blame is important in revealing the essence of concepts such as love and irfan, which are considered important in tariqat. Conclusions were made that high qualities such as not telling lies and keeping promises are the basis of blame. The interpretation of holy hadiths such as "Poverty is my pride" and "Die without dying" which are often mentioned in the teachings of the Tariqat in Hikmat, were also explained based on the goals of the problem of blame.

Key words: Sufism, pir, maqam, nafs, soul, blame, mysticism, artistry, poverty, scholar, lover, gnosis, wisdom, tariqat, soul, forgiveness, unity, death.

ИНТЕРПРЕТАЦИИ ВОПРОСА ПОДОТЧЕТНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ АХМАДА ЯСАВИ

Аннотация. Ахмед Яссави – основоположник турецкой суфийской поэзии. Обвинение — одна из ведущих идей его сборника «Девони Хикмат». Ведь роль вины важна в раскрытии сущности таких понятий, как любовь и ирфан, которые считаются важными в Тарикате. Сделаны выводы, что в основе вины лежат такие высокие качества, как неврять и выполнять обещания. Интерпретация таких священных хадисов, как «Бедность – моя гордость» и «Умри, не умирая», которые часто упоминаются в учении Тариката в Хикмате, также объяснялась исходя из целей проблемы вины.

Ключевые слова: Суфизм, пир, макам, нафс, душа, вина, мистика, артистизм, бедность, учёный, любовник, гнозис, мудрость, тарикат, душа, прощение, единство, смерть.

Piri Turkiston Xoja Ahmad Yassaviy turkiy so’fiyona she’riyatning asoschisi ekanligi ilmda ma’lumdir. “Devoni hikmat” yassaviya tariqati asoschisining ruhiy hol va maqomlarining badiiy talqini, xalqda Xoliq muhabbatini paydo qiluvchi ishq ifodasidir. Barcha tariqatlarda bo’lgani kabi yassaviyada ham malomatiylik maslagining alohida o’rni bor. Shu bois ham “Devoni hikmat”da malomatchi nafs talqinlariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu xususida

yassaviyshunos ustoz I.Haqqulov: “Turk olimi Ahmad Yashar O‘choq Yassaviyning ilk ustozi Arslon bobning malomatiy bo‘lganligini yozadi. Agar bu fikr haqiqat bo‘lsa, Yassaviy yoshligidayoq malomatiylik sirlaridan xabar topgani va malomatiylikka qiziqish paydo qilganligiga shubha qolmaydi”⁹⁹, – deya ta’kidlagan.

Tariqat yo‘lini bosib o‘tmasdan nafsni tasfiya etish imkonsizligi tasavvuf haqidagi irfoniy-nazariy asarlarda asoslangan. Mana shu haqiqatni go‘zal va ta’sirli tarzda ifodalash Sharq mumtoz adabiyotning bosh maqsadiga aylandi. Natijada qiynash, ayblash, malomat qilish bilan nafsni bilish hamda Robbini tanish bosh mavqega ko‘tarildi, desak mubolag‘a emas. Hatto yassaviya tariqati vakillari ma’naviy yo‘lchilikning boshi – Malomat, deyishgan edi:

*Ul bozor kerak ersa bir irodat,
Piringdin tegar senga xush karomat,
Har oshiq tortsa kerak ming malomat,
Malomatsiz ushbu yo‘lga kirsa bo‘lmas*¹⁰⁰.

Haqqa oshiqqlarga ming turli malomat yog‘dirilgan. Ularning zamini esa ikki xil: avvalo, nafsning o‘zini-o‘zi malomat etishi, ayb-u nuqsonlariga iqror bo‘lib, o‘zini ozorlashidir. Ikkinchisi, botin sohiblarining suvrat ahli tomonidan malomat qilinishi. Malomat go‘yo taqdiri azalda bitilgan sinov va jazo kabidir. Alloh nafsni yo imtihon etib malomat qiladi. Yoxud biror xato-yu gunohi uchun malomat orqali tarbiyalaydi. Malomat tan olingan, qayta-qayta murojaat qilinib izohlangan eng baland maqomlardan biri Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning “*Al faqri faxri*”, ya’ni “*Faqirlik mening faxrimdir*” hadisi sharifining sharhida ham keltiriladi. Yassaviy ham ishq karvonida o‘tkinchi hoyu havaslarga qullikdan forig‘ bo‘lib qolish “Al faqri faxri” malomati bilan qo‘lga kiritilishini uqtiradi:

*Muhabbatning bozorida savdo qilsam,
“Faqru faxri” malomatin anda tortsam,
Ikki olam savdosini ko‘zdin solsam,
Diydor uchun o‘lmas burun o‘lmayinmu?*

Albatta, “Devoni hikmat”dagi malomatiylik maslagini faqat shaxsiy bir his, tushuncha ma’nosida izohlash mumkin emas. Uning malomati bani basharni sergaklantiruvchi, ogohlantiruvchi bir chorlovdur. Zero, hikmatlardagi asosiy maqsad-muddao ham insoniyatning ma’naviy islohiga qaratilgandir. U odamlarni g‘aflat uyqusidan uyg‘otadi. Nafsni malomat qilish harakati boshlanadi. Natijada har bir qalbdan zarra qadar bo‘lsin bedorlik bo‘ladi. Malomatning o‘tkir tig‘i hamisha nafsga qaratilganini unutmaslik lozim. Malomat o‘z-o‘zingga hisob berish, har bir amalingni iymon, vijdon tarozisida o‘lchash. Malomatchilar musohaba, muroqaba, mushohada kabi ulug‘ maqomlarga erishib, Yaratganday ayri tushmay, bu dunyoga nima uchun kelganlari to‘g‘risida izchil fikr yuritadilar. Malomat ahli insonni xaloyiqqa termultirib, Xoliqdan yiroqlashtiruvchi nafs ekanini chuqur bilishgan. Biroq xotirda tutish lozimki, malomat Ishq va irfondan tug‘ilmasa, u yo dushmanlik yo qahr-g‘azabning mahsuli bo‘lib, malomatga aloqasi bo‘lmaydi. Malomatning o‘qlariga bardosh berish va yo‘lda sobit davom etish uchun ham ishq zavqi, ma’rifati zarur. Qur’oni Karimdagi bir necha oyatlar (Ibrohim: 14/22, Isro:17/29, 39, Vas-Saffot: 37/42, Vaz-Zoriyot: 57/40, Qalam: 68/30, Maorij: 70/30)da malomat zikr etiladi.

⁹⁹ Haqqul I. Ahmad Yassaviy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 2001, – B.25.

¹⁰⁰ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va Nodirxon Hasan. Toshkent: “Navro‘z”, 2018, – B. 73.

Biroq mutasavviflar asosan Moida va Qiyomat oyatlarida marhamat qilingan malomatchi nafs mazmun-mohiyatini hayotlariga tadbiiq etishgan. Tasavvufiy tafsirlarda malomat va muhabbat orasida bir bog‘liqlik borligi aytilgan. Albatta, sulton ul orifin ham hikmatlarida malomatchilik g‘oyalarini mana shu qarashdan kelib chiqib, ilgari suradi. Biroq barcha hikmatlarni bog‘lab turuvchi bir oshiqlik zanjiri ham mavjud. Shuning uchun ko‘ngillarda ishqning tug‘ilishi Allohning inoyati, lutfu marhamati sifatida qaralgan:

*Ishq bobini Mavlim ochqoch, mango tegdi,
Tufroq qilib, hozir bo‘l deb bo‘ynum egdi,
Boron sifat malomatning o‘qi tegdi,
Paykon olib, yurak-bag‘rim teshtim mano¹⁰¹.*

Malomat o‘qlarining yomg‘ir kabi yog‘ilib, yurak-bag‘irni teshishi qalbda muhabbat urug‘ining unayotganidan bir nishonadir. Ahmad Yassaviy oshiqlikda malomatning o‘rin va mavqeini ko‘rsatib bergan edi. Kalomullohdagi “malomatchi nafs” iborasi tazkiya va tasfiya etilayotgan nafs ma’nosida kelgan. Mutasavviflar nazdida, nafs tarbiyasi “O‘lmasdan burun o‘ling” qudsiy hadisi orqali tushunilgan va amalga oshirilgan. Zero, o‘zining ayblaridan ko‘z yummay, xalq va Xoliq qarshisida har lahza o‘lib-tirilguvchi, shubhasiz, malomatchi nafsdur. Hikmatlarda bunga takror-takror e’tibor qaratilib, malomatchilik orzusi mazkur hadis orqali izohlab berilgan:

*Oshiq ishi osonidur jon bermaklik,
Malomatni boshga olib bosh bermaklik,
“Mutu qobla an tamutu” xok bo‘lmoqlik,
Oshiq qullar o‘lmas burun o‘lar emish¹⁰².*

Ma’lumki, Haq yo‘lchisining Mahbubiga tuhfasini qalbi, zakoti esa jonidir. Ishq ahli bundan ortiq munosib hadyani o‘ylashmagan. Jon bermoqlik sirri “Mutu qobla an tamutu” hadisining mohiyatini mushohada eta olish bilan anglashiladi.

Hikmatlarda “kamsitish, tahqirlash, xo‘rlash” kabi ma’nolarni anglatuvchi *ihonat* so‘zi ko‘pincha malomat bilan yonma-yon qo‘llanadi. Bu esa kitobxon shuurida, malomat holining ta’sirini kuchaytiradi.

Ahli zohir va ahli botin, suvrat va ma’ni sohiblari, qol va hol vakillari orasidagi ziddiyat va anglashilmovchilik hanuzgacha barham topmagan. Demak, Yassaviyning tanqidlari ogohlantiruvchi mazmunga ham egadir. Ayrim hikmatlarda Yassaviy malomat maylini nihoyatda kuchaytirib, o‘zi haqida eng keskin fikrlarni ilgari suradi:

*Havoyi nafsu jahlimdin Azozil doimo xurram,
Yo‘lum egri, o‘zum g‘ofil, yurushum hamma shaytonliq.
Qo‘lumda donai tasbeh, ko‘ngilda dom ila tazvir,
Namozu ro‘zani tashlab, tilimda to‘da yolg‘onliq.*

Demak, bandaning kofir nafs va shaytoni laindan kuchliroq dushmani yo‘q. Biri hoyu havasga berilib, xorlik, tubanlikka yuz tuttursa, iblisi lain esa hiylayu nayrangbozliklarni o‘rgatadi. Natijada ma’naviy nasiba unutilib, vujud talablari asosiy o‘ringa chiqadi, o‘zidan qoniqmaslik o‘rnini mamnunlik, ruhiy harakatsizlik, ruhiy harakatsizlik egallaydi. Vaholanki, malomatmashrab

¹⁰¹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent: “Navro‘z”, 2018, – B. 25.

¹⁰² Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent: “Navro‘z”, 2018, – B. 136.

kishi uchun ruh va ko'ngildagi o'zgarish, yangilanish, holdan holga ildamlash, nihoyatda muhimdir.

Malomat maslagining hikmatlardagi tadrijiga e'tibor qaratisla, "Devoni hikmat" muallifi yoshligida ham, oshiqlik va oriflik maqomiga yuksalganida ham nafs malomatini susaytirmagan. Hatto sunnat deya 63 yoshga yer ostiga kirganida ham noqis, g'ofil, johilligidan o'zini malomat qiladi. Tasavvuf va tariqat ta'limida musohiblik alohida ahamiyatga molik, chunki suhbat kimning kimga yaqinligi va nima uchun bog'lanishini ko'rsatadi. Yassaviy g'ofilik, johillik va kohilligini "yamon izlab yaxshilardan" qochish bilan izohlaydi:

*Oltmish uchga yoshim yetti, o'ttum g'ofil,
Haq amrini mahkam tutmay ko'nglum johil,
Ro'za, namoz qazo qilib, bo'ldum kohil,
Yamon izlab, yaxshilardin qochtim mano¹⁰³.*

Malomatchi o'tar dunyoga qo'l siltagan, baqobilloh tomon mardona ketayotgan Haq oshiqidir. Tarkidunyo, tarki uqbo, tarki hasti maqomlarini qo'lga kiritgan faqat Alloh taolo diydoriga talabgor faqirlardandir.

Malomatiylik tushunchalarining hikmatlardagi badiiy talqinlarida har turli timsol, ramz, istiloh bilan birga ifodasi o'ziga xosligi alohida mavzu. Chunki hikmatlarda *malomat toshi, malomat yomg'iri, malomat o'qi, malomat paykoni, malomat tig'i* kabi o'xshatishlarga ham duch kelinadi. Nafsdan kutilmagan harakat va orzuning dunyoga kelishi bilan qalbdan malomat hissi tug'iladi. Va odamni yangi bir fikr yo'lga yo'naltiradi. Buni ichki norozilik, ayb va nuqsonlarga iqrorlik, faqirlik, xoksorlik kabilar qo'llab-quvvatlaydi. Malomat yaxshilikni yomonlikdan, yuksaklikni tubanlikdan, mehru muhabbatni qahr g'azabdan, odamiylikni hayvoniylikdan, ilmni jaholat va nodonlikdan ajratish tajribasidir. Navoiy so'zlari bilan aytganda "o'zni yaxshi ko'rsatish" g'arazidan juda ko'p salbiy iddao, o'zaro anglashilmovchilik, tortishuv va olishuvlar paydo bo'ladi. Malomatgo'y nafs hakamlik qilganda inson botinidayoq bularning bari tugaydi. Malomatchining birinchi dushmani, ayblovchisi, haqiqatgo'yi, murosasiz hakami o'zi bo'lganligi uchun uni g'avg'okashlik, tovlamachilik, riyo, hasad va g'irromlikda qoralab bo'lmaydi. Hamma gap malomatdan rostlik, tabiiylik, ochiqlik, haqqoniyat ko'zgusi sifatida foydalana bilishdadir. Inson bir-birovi bilan olishib, urishib, zafar qozonishini ko'zlaganida hech vaqt tinchlik va ittifoqqa erisholmaydi. U o'zining nafsig qarshi jang e'lon qilib, hayvoniylik va shaytoniylikka nisbat berilgan dushmanlarini mag'lub etish yo'lini tanlasa, shundagina ko'ngli mehr, shafqat, himmat, ma'rifat qo'rg'oniga aylanadi. Malomatdan maqsad ham ranjni rohatga, noqislikni komillikka yetkazishdir.

¹⁰³ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent: "Navro'z", 2018, – B.25.

EFFECTIVE USE AND ENJOYMENT OF EDUCATION

Nurmatov Islombek Qizilbek o'g'li

Jizzax viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10101902>

Abstract. This article will talk about the effective use of the educational system, pleasure and the importance of education in the updated Uzbekistan, as well as about reforms in the educational system.

Key words: educational system, enjoyment, reforms, lesson processes, interests.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ И НАСЛАЖДЕНИЕ

Аннотация. В этой статье рассказывается об эффективном использовании системы образования, получении удовольствия и важности образования в обновляющемся Узбекистане, а также о реформах в системе образования.

Ключевые слова: система образования, получение удовольствия, реформы, процессы урока, интересы.

From the first years of independence in our country, the development of the educational system has risen to the level of state policy, and great works are being carried out in order to ensure that our children acquire modern knowledge and professions in conditions corresponding to World templates, grow up to be physically and spiritually mature people, realize their abilities and talents, intellectual potential.

As you know, in order to further improve the educational system of our country, accelerate the development of the field of Science, a draft presidential decree was developed. This document regulation.gov.uz it was put on the portal and widely discussed in all regions, local councils and school communities with the participation of parents. The draft decree covers goals that will solve current problems in education, show the result in the next five years and determine the level of further progress.

In particular, solutions to such issues as raising the reputation and status of a teacher in society, a complete revision of curricula and methodology, inextricably linking the school with the later stages of education, creating conditions for teachers to work more on themselves, ridding them of excess paperwork and encouraging this, improving the school infrastructure and spiritual atmosphere in it are clearly defined. The main thing is to radically change the approach and focus of leaders on the site, as well as local councils on this important issue, introducing mechanisms of their responsibility, responsibility and accountability.

To enjoy education, make the following important recommendations:
Explore interesting topics: in the educational process, choose topics that are close to your own topic. It will be more interesting and amazing than the science you want. To do this, interest yourself in interests and lifestyle interests in what areas.

Refrain from practice: practice means that it is very important to realize your knowledge. Trust the information you have learned, current in practice on elected topics. It is not enough to know most of the time, make it a habit for yourself to use it to strengthen the data in practice.

Discussion: join different conversations in classes or books on the topics you are studying. Ask questions about your time in class or ask questions to the author at the end of the lesson. Share your thoughts, thoughts, advice and advice in a group, with loved ones, or on the internet.

Organize life on an educational basis: organize your life and organize your time on the basis of Education. You will think or record the necessary information and skills by creating the right plan and following it. This will put order in your learning process and you will feel that this content is easy to learn.

Create and develop: try to become a creator in the educational process and develop the information you have learned. Try to create your own thoughts on the topic, business ideas. This Will Make Your Education easy and fun.

Applying your disclosure in education: it is very important to help other students to participate in learning. Teaching your learning skills to other people, sharing thoughts with them, and connecting your own thoughts will expand your knowledge and enlightenment. Stick to it by learning how to help other people.

Be careful with knowledge: careful education is a must. There is no way to overtake learning too quickly. You will need time to achieve the highest results. Try to know more differently, in practice record the entries and bring notes, create for yourself the list of recorded and learned.

Setting: always set goals in the learning process. Light goals for yourself, tasks broken into your habits and work over past programs. Set a goal for each week, month or year and follow the result.

To enjoy education, take unborn courses, improve support skills and get interested in areas that are consumed in Uzbek and foreign formats, in which you can work in the future. Remember, enjoying education expands the tone and possibilities of life.

Find a love for the topic: to get a breakthrough in any topic of your own, find topics that will come to you well. This will make education more fun and motivating for you.

You mark your reading on the first part of a topic or two in your study, and then create an internal motivation to achieve the goals set for yourself in the learning process.

It is recommended that you put the information under study into practice: in order for theoretical education to have a better understanding, you put the information under study into practice. This will help you understand what you have learned through many activities and examples.

You can put your interests into practice: you can learn by including yourself in activities that are linked to your interests, motivate yourself and increase your enjoyment.

Group collaboration: group teacher or student interaction has a specific place of interaction in the learning process. Allows topics to be communicated, spoken, and explored with a group.

You can enter the data in different ways: you can use different activities and tools to help you give the data in the way you can start. This is one of the many ways that books, magazines, internet data, podcasts, videos, etc. can be used to store, understand, and share learned information with the public.

Set yourself goals that make you enjoy education: setting your own goals and paths in the educational process is the main condition for enjoying education in its legal physical aspect. With our goals, it should be parallel to local, national and international reforms.

Discussion and disciplined listening: think with the information you are learning, it would be necessary for some readers to respond or organize. This increases the inherent pleasure of

education in the face of the attentive and deservedly worked appearance of the educational material.

Being a manifestation of life: in order to increase pleasure in education, it is necessary to provide a connection with learning within the framework of life. This strengthens the adequacy, wonders and interests of the age you like about learning.

Try to be the same in educational work if you have a special significance of words older than yourself. This will help, firstly, discover your reading and achievement characteristics, and, secondly, define your learning criteria for yourself.

It was noted that it is important to introduce modern curricula, teaching methodologies in the world and introduce them in secondary schools of our country. To the Ministry of public education on the basis of this experience

In conclusion, all the conditions for reading, learning, learning are being created-now it is more than ever necessary for us to grow up as a child, a frame, an expert person, who will be confident in the next day, and determine the future of our people, our motherland, and work more on ourselves in response to these initiatives put forward by our president.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ib qilish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar to`g`risida”gi qarori. Xalq so`zi, 2017-yil 14-son-N184
2. Malla Ochilovning “Muallim qalb me`mori”. Toshkent “O`qituvchi” 2001.
3. U. Mahkamov, N. Tilabova, Sh.Tillaboyeva - “Pedagogik mahorat”. O`quv qo`llanma – Toshkent: TDTU. 2003.

SADRIDDIN AYNII ASARLARI TILINING IJTIMOYIY MOHIYATI

Axtamova Bibisora

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10102916>

Annotatsiya. O‘zbek va tojik nasri rivojida Sadridin Ayniyning o‘ziga xos o‘rni mavjud bo‘lib, yozuvchi tomonidan yaratilgan ijtimoiy mavzudagi badiiy asarlar o‘zbek romanchiligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘z: sotiopragmatik, nutqning ijtimoiy xoslanishi, kompozitsiya, stilistik xususiyatlar.

THE SOCIAL ESSENCE OF THE LANGUAGE OF SADRIDDIN AINI'S WORKS

Abstract. Sadridin Ainiy has a special place in the development of Uzbek and Tajik prose, and the artistic works on social themes created by the writer play an important role in the development of Uzbek novelists.

Key word: sociopragmatic, social characteristic of speech, composition, stylistic features.

СОЦИАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ ЯЗЫКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ САДРИДДИНА АЙНИ

Аннотация. Садриддин Айни занимает особое место в развитии узбекской и таджикской прозы, а созданные писателем художественные произведения на социальную тематику играют важную роль в развитии узбекских прозаиков.

Ключевые слова: социопрагматика, социальная характеристика речи, композиция, стилистические особенности.

Jamiyatning a‘zosi sifatida shaxsning hayoti u tug‘ilgan va tarbiyalangan oilada rol muomalasini, o‘zini qayerda qanday tutishni o‘rganishdan boshlanadi. Xuddi ana shu yerdan shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni, ya’ni yashashi va harakat qilishi kutilayotgan jamiyatga kirishi yuzaga keladi. Ijtimoiy mohiyat asta-sekin o‘zi uchun yangi bo‘lgan guruhlariga kirishi va yangi rollarni o‘zlashtirish jarayonidir.

Ijtimoiy jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri lisoniy ijtimoiylashuv bo‘lib, u muayyan jamiyatda qo‘llaniladigan tilni o‘zlashtirish va undan foydalanish qoidalarini u yoki bu ijtimoiy rolni ijrosiga muvofiq ishlatilishini ifodalaydi¹⁰⁴.

Sotsiopragmatikada nutqning ijtimoiy xoslanishida nutq tushunchasi lingvistikada tushuniladigan til (lison)ning bevosita voqelanishi, uning moddiy shaklda yuzaga chiqishi tushunchasidan farq qiladi. Ya’ni sotsiopragmatikada nutqning ijtimoiy xoslanishi deganda, umumijtimoiy imkoniyatning muayyan shaklda voqelanishi emas, balki qandaydir alohida bir guruh uchun me‘yor vazifasini o‘taydigan umumiylik bilan xususiylik oralig‘i nazarda tutiladi.

O‘zbek va tojik nasri rivojida Sadridin Ayniyning o‘ziga xos o‘rni mavjud bo‘lib, yozuvchi tomonidan yaratilgan ijtimoiy mavzudagi badiiy asarlar o‘zbek romanchiligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday badiiy asarda zamon va makon o‘ziga xos betakror o‘ringa ega. Chunki bu kategoriyasiz asarning sujeti va kompozitsiyasini tasavvur qilish qiyin. Nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida Sadridin Ayniyning “Qullar” epopeyasida ham yuqorida qayd qilingan tamoyil va talablarga amal qilinganligining guvohi bo‘lamiz. Xususan, ijtimoiy davr

¹⁰⁴ Usmanova Sh., Bekmuxeamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistik. – Toshkent: Universitet, 2014. 34-35-betlar.

		15-30	1985	29	80
		30-50	1139	18	33
3	7 t/ga chiqindi va qoldiqlar + N-154 P-112 K-35	0-15	4178	58	97
		15-30	1998	45	89
		30-50	1788	25	39
4	10 t/ga chiqindi va qoldiqlar + N-154 P-112 K-35	0-15	7226	76	108
		15-30	4020	50	100
		30-50	2830	38	50
5	15 t/ga chiqindi va qoldiqlar	0-15	8196	65	99
		15-30	3977	55	86
		30-50	1778	30	45
sug'oriladigan o'tloqi					
1	N-0 P-0 K-0	0-15	1173	48	78
		15-30	950	35	59
		30-50	718	18	28
2	2 t/ga go'nglar + N-220 P-160 K-50	0-15	3099	46	100
		15-30	2685	35	86
		30-50	1840	19	38
3	7 t/ga chiqindi va qoldiqlar + N-154 P-112 K-35	0-15	4377	60	99
		15-30	2218	41	92
		30-50	2088	26	45
4	10 t/ga chiqindi va qoldiqlar + N-154 P-112 K-35	0-15	8199	82	118
		15-30	4920	55	102
		30-50	3120	41	60
5	15 t/ga chiqindi va qoldiqlar	0-15	9192	63	98
		15-30	3171	47	88
		30-50	2164	26	47

Tuproqdagi fermentlar faolligi mikroorganizmlarning metabolit sharoitiga bog'liqligi bilan unda qatnashadigan fermentlarni sintez qilishiga bog'liq ekan. Fermentlardan proteaza va ureaza tuproqdagi organik azotning minerallanish jaraenlarini xarakterlaydi. Ya'ni tuproqdagi nitrifikasiya va ammonifikasiyalarning ish faoliyati natijasida o'simliklar uchun tez o'zlashtiriladigan azot birikmalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga katalaza fermenti undan ajralib chikadigan kislorod va boshqa elementlar bilan bog'liqligi, shuningdek

organik moddalarning tuproqda ko'p ěki kamligiga qarab bu fermentlarning ish funkciyasi doimo o'zgarib turadi.

Xulosa.

Xulosalarqilganda, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarida ham 10 tonna/ga chiqindi, qoldiqlar va (sof holda) $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga o'g'it me'yorlari qo'llanilganda tuproqlarda va kuzgi bug'doy o'simligida fermentlar faollashgan. Tadqiqotlar olib borilayotgan har ikkala tuproqlarida ham o'simlik ildiz-ang'iz qismida ham vegetatsiya davri boshidan oxiriga qadar fermentlar faolligi ko'rsatkichlari sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar tarkibida fermentlar ustunligi aniqlangan. Lekin har ikkala tuproq sharoitida usgan kuzgi bug'doyning organi ildiz-ang'iz qismida, vegetatsiya davri boshi, unib-chiqishda fermentlar faolligi sustlashgan bo'lsa, sut-mum va to'la pishish davrlarida yanada sust, ammo tuplanish, naychalash va boshoqlash davrlarida faolligi ko'tarilib borganligi ma'lum bo'lgan.

REFERENCES

1. Герхард, 1985. Методы общей бактериологии;
2. Габибов и Мусаев, 2015. Практикум по микробиологии
3. Бояркин А.Н. Быстрый метод определения активности пероксидаз.// Биохимия. - 1951. - Т.16. – № 6.- С.352-355.
4. Хазиев Ф.Х. Ферментативная активность почв. Наука и техника, -Т.: 1983. -С. 179.
5. Мустакимов Г.Д. Ёсимликлар физиологияси ва микробиология асослари. –Т.: «Ўқитувчи», 1995. -Б. 124-165.
6. Хўжаев Ж. Ёсимликлар физиологияси.–Т.:«Меҳнат», 2004.-Б. 161.

O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSIYA METODLARI

Akramova Z.Sh.

Alfraganus Universiteti, Farmasevtika va kimyo kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10129986>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion hamda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, metodologik asoslari hamda imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, innovatsiya, pedagogik texnologiya, metod, o'qitish.

METHODS OF MODERN INNOVATION IN TEACHING

Abstract. This article examines the advantages, methodological bases and possibilities of using modern innovative and pedagogical technologies in the educational process.

Key words: Education, innovation, pedagogical technology, method, teaching.

МЕТОДЫ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИЙ В ОБУЧЕНИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются преимущества, методические основы и возможности использования современных инновационных и педагогических технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: Образование, инновация, педагогическая технология, метод, обучение.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday qiziqishga asosiy sabab, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni bilimni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonda o'quvchi shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish vatarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tajriba shuni ko'rsatadiki, asosiy ko'rsatkich: o'quvchi o'rinlari sonining normativga mosligi; texnik vositalarning mavjudligi, o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun tarqatma materiallar tashkil etadi.

Pedagogik mahorat jarayoni tashkillashtirish metodlarga, maqsad va vazifalarni ifodalashga, maqsadga muvofiq metod va shakllarni tanlashga, o'quv-texnik vositalarni tanlay bilishga, rejalarning ilmiyligiga asoslanadi. Pedagogik mahoratning ayrim maqsad va vazifalarni aniqlaydigan metodlarni ko'ramiz. Bu metodlar faoliyatni tashkil etgani uchun tashkiliy va ilmiy nazariya bilan uzviy bog'liq.

Darsga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'ziga kerakli ta'lim vositalarini tanlaydi. Ma'lumki, maqsadni amalga oshiradigan vositalar tarkibiga o'qitish mazmuni, o'qitish metodlari, o'qitishning tashkiliy shakllari, sinf jamoasi va o'qituvchiga ta'sir etish metodi, o'quv texnik vositalari kiradi. O'quv materialining asosini darslik va rejalashtirish tashkil etganligidan, o'qituvchi uning tarkibiga o'qitish shartlarini bilgan holda o'zgartirish va to'ldirish kiritadi.

Metod so'zi maqsadga erishishni bildiradi. O'qitishning muhim tomonlaridan biri bu –

o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining o'zaro uzviyligidir. Bu jarayonning asosiy funksiyasi, jumladan, o'quvchilarni o'qitishda rivojlantirish va tarbiyalashda yagona metoddan iboratligi hisoblanadi. O'qitish metodlari – bu o'quv-tarbiyaviy masalalar yechimiga qaratilgan o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining o'zaro bog'liqligini yo'lga qo'yish demakdir. O'qitish metodi ta'sirini oshirishda har bir holat uchun turkumlash turini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamonda o'qitish metodlari turkumining turli-tumanligi bizga ma'lum. Bular: bilim manbalari bo'yicha, o'quv masalalari bo'yicha, o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'yicha, o'quvchining bilish faoliyati bo'yicha, binar turkumlash va boshqalar. Bular zarur bo'lganda o'qituvchi didaktik materiallardan foydalanishi mumkin.

Nuqtai nazarimizda o'qituvchi o'qitish metodlarini qancha ko'p bilsa, shuncha darslari qiziqarli o'tadi, chunki har bir metodning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Bunday ijobiy va salbiy tomonlar aniq shartlar bo'yicha katta yoki kichik darajali tomonlarni o'zida aks ettiradi [3].

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'ra turib, suhbat yoki hikoya, yozma yoki og'zaki mashq bajarish metodlarini tanlaydi. Ammo bunday tanlov o'quvchining o'quv faoliyati haqida tushuncha bermaydi. Faraz etaylik o'qituvchi suhbat metodini tanladi. Suhbat metodi xuddi hikoya metodik, tayyor bilimlarni o'zlashtirishni aniqlaydi.

Bu nomlanishi bo'yicha o'qitish metodlari, bilim faoliyatiga imkon beradi. Shunday qilib, o'quvchidagi o'qishni o'rganishni rivojlantirish darajasi bilim manbalari bo'yicha tasniflash metodlari, o'qitish metodlarini tanlash uchun yetarli emas.

Bu yetishmovchilikni bartaraf etish uchun o'quvchilar bilish faoliyati tavsifi bo'yicha tavsiflashdan foydalanish mumkin.

Bunda metodlar ikki guruhga bo'linadi: reproduktiv va produktiv. Birinchi guruhga quyidagi metodlar kiradi: ko'rgazmali – tushuntirish (axborot-retseptiv) va reproduktiv. Ikkinchi guruhga qisman izlanish va tadqiqot. Muammoli bayon ikkala guruh orasidagiga kiradi, chunki, harakat usullari va izlanish hamda tayyor axborotni o'zlashtirishni afzal ko'radi.

Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol uslublardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi [2].

Bugungi kunda ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi konsepsiyasi — zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarning turli xil (interfaol metodlar, strategiyalar, grafik organeyzer, modulli kredit tizimi) ko'rinishlarini qo'llash juda yaxshi samara bermoqda.

Ta'lim tizimida intellektual faol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan innovatsion usullardan biri Case study (keys stadi) metodi bo'lib, unda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir [3,4].

Keys-stadi - ta'lim axborotlar kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

An'anaviy metodlar va keys metodi asosida dars o'tishning farqlovchi xususiyatlari

Farqlovchi ko'rsatkichlar	O'qitish metodlari	
	An'anaviy metodlar asosida o'qilgan ma'ruza	Keys metodi asosida o'tilgan dars
Maqsad	Bilim berish	- fikrlash; - muammoni xal etish ko'nikmalarini hosil qilish; - kashfiyotlarga intilish hamkorlikka tayyor bo'lishsifatlarini rag'batlantirish;
O'qituvchining vazifasi	O'z fanining mazmunini bilish	-O'z fani mazmunini bilish; -Muhokama jarayonini boshqara bilishi
O'qituvchi – talaba munosabatlari	O'qituvchining o'quvchi –talaba ustidan hukmronligi	Sheriklik va hamkorlik
Talabalarning o'z – o'zini va bir – birini o'qitish jarayonida ishtiroki	Sust	Faol talabalar o'qituvchining vazifasi hisoblanuvchi muhokama rejasini tuzish asosiy maqsadni aniqlash mustaqil muhokama qilishga qodir bo'ladilar

XULOSA VA MUNOZARA

Berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida talabaning tegishli fan bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari yanada kengayadi mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi hamda unda egallagan bilimlarini nostandart vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganimizda, oliy ta'lim sohasining ta'lim jarayonida innavatsion ta'limtexnologiyalari bo'lmish pedagogik va axborot texnologiyalaridan optimal foydalanish ta'limsamaradorligini oshirishningmuxim omili bo'lib hisoblanadi.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoev. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. № PQ-3775 05.06.2018 y.
2. Ahmadaliev A.M., Qosimov A.X. Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2016. -67 b.

3. Klarin M.V. O'qitishdagi innovatsiyalar: metafora va modellar: Xorijiy tajribani tahlil qilish. M., Nauka, 2017, 223 b.
4. Farberman L.B, Musina R.G. Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T. 2012.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2010. -73 b.
6. Ganiyeva, M. (2023). INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA, O'QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING, SHAKL, METOD VA VOSITALARI. Scienceweb academic papers collection.
7. Ganiyeva, M. (2023). Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda TRIZ ning imkoniyatlari. Scienceweb academic papers collection.
8. Ganiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. TA'LIM FIDOYILARI.
9. Эргашева, С. (2022). ЭШҚОБИЛ ШУКУР ШЕЪРИЯТИДА БАДИИЙ ОБРАЗ ТАКОМИЛИ. Science and innovation, 1(B2), 478-484.
10. Ergashova S. THE SCOPE OF THE TOPIC IN THE POETRY OF ESHQABIL SHUKUR //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 95-97.

MENEJMENTDA PERSONALNI BOSHQARISH VA ULARNI BAHOLASH

Toshov Mirzabek Hakimovich

Osiyo xalqaro universiteti

toshovmirzabekhakimovich@oxu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10130147>

Annotatsiya. Maqolada xodimlarni taqqoslashda baholash usullari, ijobiy va salbiy tomonlari muhokama qilinadi va mehnat samaradorligini baholanadi.

Kalit so'zlar: attestatsiya, xodimlarni tanlash, sinov muddati, xodimlarni baholash, xodimlarni baholash usullari, xodimlarni boshqarish, xodimlarning kuchli va zaif tomonlari, ularning vakolatlari, natijalari, salohiyati.

PERSONNEL MANAGEMENT AND THEIR EVALUATION IN MANAGEMENT

Abstract. The article discusses the methods of evaluating employees, their positive and negative aspects, and assesses their work efficiency.

Key words: certification, selection of employees, trial period, evaluation of employees, methods of evaluation of employees, management of employees, strengths and weaknesses of employees, their powers, results, potential.

УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ И ИХ ОЦЕНКА В УПРАВЛЕНИИ

Аннотация. В статье рассматриваются методы оценки сотрудников, их положительные и отрицательные стороны, оценивается эффективность их работы.

Ключевые слова: аттестация, отбор сотрудников, испытательный срок, оценка сотрудников, методы оценки сотрудников, управление сотрудниками, сильные и слабые стороны сотрудников, их полномочия, результаты, потенциал.

Sertifikatlash - bu turli baholashlarning butun majmuasidagi yakuniy protsedura bo'lib, ushbu kompleksning darajasi va sifatini aniqlash ko'p jihatdan baholovchi olishni istagan natijaga va xodimga qo'yiladigan o'ziga xos talablarga bog'liq. V.E.Xrutskiy va R.A.Tolmachev ta'kidlaganidek, xorijiy xodimlarni boshqarish nazariyasi va Rossiya amaliyotida "sertifikatlash" va "baholash" tushunchalari farqlanadi: mamlakatimizda sertifikatlash ko'pincha xorijiy kompaniyalarda kadrlarni baholash deb ataladigan narsani anglatadi."G'arbda, xodimlarni boshqarish nazariyasiga ko'ra, "sertifikatsiya" - bu xodimning mehnat shartnomasining amal qilish muddati tugagandan so'ng ishining yakuni, uning amal qilish muddati davomida uning ish natijalarini baholash. xodimning o'z lavozimiga qo'yiladigan talablarga, mehnat shartnomasining asosi bo'lgan ish tavsifi talablariga muvofiqlik darajasini belgilaydigan shartnoma [5]. Xodimning egallab turgan lavozimining talablariga muvofiqligini aniqlash har tomonlama, tizimli baholash (maqsad, vazifalar, mezonlar, usullar) o'tkazish orqali amalga oshirilishi mumkin [6]:- ishga qabul qilishda nomzodni baholash; - vakant lavozimga tanlashda nomzodni baholash; - kadrlar zaxirasini shakllantirishda nomzodlarni baholash; - 2-3 yil davomida davriy sertifikatlash.

Hozirgi vaqtda xodimlarni baholashga HR xodimlari va rahbariyat tomonidan ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Xodimlarni baholash, attestatsiyadan o'tkazish va rahbarlik lavozimlarini egallashning samarali mexanizmlarini qayta ishlash, ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish va kadrlar bilan ta'minlash monitoringi bo'yicha bunday tadbirlarni amalga oshirish korxonada kadrlar siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi vaqtda tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xodimlarni baholash juda yuzaki va rasmiy ravishda amalga oshiriladi, buning

natijasida ishlash ko'rsatkichlari - sertifikatlashtirishning asosiy natijasi - boshqaruv xodimlarining ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarini to'g'risida aniq, chuqur va har tomonlama tasavvurni ta'minlamaydi. Sertifikatlash attestatsiyadan o'tayotgan shaxsning faoliyati bilan bog'liq bir qator masalalar bo'yicha suhbat shaklida o'tkaziladi. Sertifikatlash natijalariga ko'ra xulosa chiqariladi va kerak bo'lganda har qanday tavsiyalar beriladi. Sertifikatlash natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar ko'pincha noaniq, noto'g'ri, kam kiritilgan va shuning uchun foydasiz bo'lib chiqadi. Xodimlarni baholash tizimini joriy etishdagi noqulay vaziyatning sabablari quyidagilardan iborat:

- attestatsiya asosidagi nazariy, uslubiy, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik bilimlarning etishmasligi;

- xodimlarni to'g'ri baholash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarning yetishmasligi;

- xodimlarni baholashni rag'batlantirish va tartibga solishning yetarli darajada yo'qligi.

Ushbu sabablarni bartaraf etish va Harakatlar dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun xodimlarni baholash usullarini hisobga olish, shuningdek, ushbu usullarni solishtirishda ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish kerak:

1. Anketa usuli Qulay. Tez. Arzon Bunday tadqiqot so'rovlari butun rasmni ko'rsatmaydi, chunki hamma ham Internetdan foydalanmaydi. Agar xodim chop etilgan so'rovnoma javob bersa, unda barcha xodimlar ochiq bo'lmaydi.

2. Tasviriy baholash usuli Ob'ekt butunlay tabiiy va o'zgaruvchan muhitda kuzatiladi. Tasviriy tadqiqot ko'pincha miqdoriy usulning oldingi qismi sifatida qo'llaniladi, bu umumiy ko'rinish qaysi o'zgaruvchilar miqdoriy jihatdan sinab ko'rishga arziydigan ba'zi qimmatli belgilarni beradi. Miqdoriy eksperimentlar ko'pincha qimmat va ko'p vaqt talab qiladi, shuning uchun har safar qaysi gipotezani sinab ko'rish kerakligini aniq bilish yaxshiroqdir. Nazorat qilinadigan o'zgaruvchilar mavjud emasligi sababli, natijalarni statistik tahlil qilishning hech qanday usuli yo'q. Ko'pgina olimlar bu turdagi tadqiqotlarni juda ishonchsiz va ilmiy asossiz deb hisoblashadi. Bundan tashqari, tavsifiy tadqiqotlar natijalarini takrorlash mumkin emas va shuning uchun natijalarni qayta tahlil qilish mumkin emas.

3. Tasniflash usuli (ierarxik) (faset) Bir xil va turli darajadagi ob'ektlar xususiyatlarining umumiyliigi va o'xshashligini ajratib ko'rsatish qobiliyati, yuqori axborot boyligi. Tizimning moslashuvchanligi, foydalanish qulayligi, ob'ektlarning etarlicha qamrovini yo'qotmasdan xususiyatlar sonini cheklash qobiliyati Katta chuqurlikda: haddan tashqari hajmlilik, yuqori xarajatlar, ba'zan asossiz, qo'llash qiyinligi. Sayoz chuqurlikda: ma'lumotlarning etishmasligi, ob'ektlar va xususiyatlarning to'liq yoritilmaganligi. Turli tasniflash guruhlaridagi ob'ektlar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashning mumkin emasligi

4. Juftlikda taqqoslash usuli Usul o'rganilayotgan ob'ekt yoki hodisaga nisbatan hozirgi va real vaziyatni aks ettirish imkonini beradi. Barcha ma'lumotlar statistik jihatdan tasdiqlangan. Tadqiqot jarayonida taqqoslanayotgan hodisalar yoki ob'ektlarga tuzatishlar kiritilishi mumkin. Ko'p ma'lumotni hisobga olgan holda, usulni amalga oshirish juda oson va ishonchli va haqiqiy natijalar beradi. Ma'lumotlar tadqiqot natijalarini sharhlash vaqtida eskirgan bo'lishi mumkin. Olingan ma'lumotlarning aniqligi o'rganilayotgan ob'ektning barqarorligiga bog'liq. Ishonchli va aniq ma'lumotlar katta hajmdagi ma'lumotlarni talab qiladi.

5. Baholash yoki taqqoslash usuli. Foydalanish oson. Yaxshi va yomon xodimlarni ajratishni osonlashtiring. Ular ma'muriy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadilar. Rahbar ishida qo'l ostidagilarning ishini baholash usullari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular

ishchilarni faqat belgilangan standart yoki me'yor bilan emas, balki bir-biri bilan solishtirish imkonini beradi.

6. Belgilangan taqsimlash usuli Belgilangan taqsimlash usuli barcha baholash xatolarini mutlaqo yo'q qilishga qodir emas. U ham sozlashni talab qiladigan holatlar mavjud. Agar bo'linmada aniq rahbarlar va aniq ortda qolganlar bo'lmasa, kuchli o'rtacha daraja saqlanib qolsa, bunday sharoitlarda "yaxshi" va "yomon" ga bo'linish noxolis bo'ladi va noxush oqibatlariga olib keladi.

7. Hal qiluvchi vaziyatga asoslangan baholash usuli Baholovchilar odatdagi vaziyatlarda xodimlarning "to'g'ri" va "noto'g'ri" xatti-harakatlari tavsiflari ro'yxatini tayyorlaydilar - "hal qiluvchi vaziyatlar" Ushbu usul hamkasblar tomonidan emas, balki menejer tomonidan amalga oshiriladigan baholashda qo'llaniladi. va bo'ysunuvchilar

8. Xulq-atvor parametrlarini baholash usuli Xodimlar uchun ochiq va tushunarli. Qimmat va mehnat talab qiladigan usul.

9. Xulq-atvorni kuzatish shkalasi. Kuzatish usuli sizga xatti-harakatlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'lga kiritish va qayd etish imkonini beradi. Kuzatish bir vaqtning o'zida bir nechta shaxslarning bir-biriga yoki muayyan vazifalarga, ob'ektlarga va boshqalarga nisbatan xatti-harakatlarini qo'lga kiritish imkonini beradi. Kuzatish ko'p o'lchovli qamrovga erishishga imkon beradi, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta parametrlarda qayd etish - masalan, og'zaki va og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar. Ko'p sonli aralashuvchi omillar. Kuzatish natijalariga kuzatuvchining kayfiyati, kuzatilayotganga nisbatan kuzatuvchining ijtimoiy pozitsiyasi, kuzatuvchining tarafkashligi, kuzatilayotgan vaziyatlarning murakkabligi, birinchi taassurotlarning ta'siri, kuzatuvchining charchoqlari ta'sir qilishi mumkin. kuzatilganlar va baholashdagi xatolar. O'rtacha hisoblash xatosi (haddan tashqari hukmlardan qo'rqish). Kuzatilgan holatlarning bir marta sodir bo'lishi, bitta kuzatilgan faktlar asosida umumiy xulosa chiqarishning mumkin emasligiga olib keladi. Kuzatish natijalarini tasniflash zarurati. Katta resurs xarajatlariga ehtiyoj (vaqt, inson, material)

10. Anketalar va qiyosiy anketalar usuli. Anketalardan foydalanib, tadqiqotda yuqori darajadagi ommaviy ishtirokni olishingiz mumkin. U ko'p hollarda qisqa vaqt ichida ko'p sonli odamlardan ma'lumotlarni olish zarur bo'lgan holatlarda amalga oshiriladi. Kichik vaqt investitsiyalari. Axborotni kompyuterda qayta ishlash imkoniyati. Anonim so'rov yanada to'g'riroq va ochiqroq bayonotlar beradi. Tanlamaning reprezentativligi, bayonotlarning to'g'riliigi, umumiy tanlamadagi elementlarning tarqalishi va tanlama rejasiga bog'liq. Subyektiv omillar, masalan, ochiq javob berishni istamaslik, shoshilinch va o'ylamasdan javob berish. Anketa qanchalik batafsil bo'lmasin, u insonning to'liq va ob'ektiv tasavvurini yaratishga, uning qanday salohiyatga ega ekanligini tushunishga imkon bermaydi. Aqlli va ayyor odamlar odatda o'zlarining kuchli tomonlarini bezashga va kamchiliklarini yashirishga harakat qilishadi.

11. Suhbat. Har bir murojaat etuvchiga barcha kerakli savollar berilishini kafolatlaydi. Hamma intervyu oluvchilar, ayniqsa yosh mutaxassislar savollarni osongina va malakali tarzda tuza olmaydi va standart intervyu o'tkaza olmaydi va bunday vaziyatlar uchun tuzilgan shakl mos keladi. Suhbat rasmiy bo'lib, nomzodning haqiqiy qobiliyatlari haqida kam ob'ektiv ma'lumot beradi. Suhbat davomida nomzodning javoblarini yozib olish ham zarur, bu esa suhbatdoshning e'tiborini chalg'itishi mumkin.

12. "360 darajali baholash" usuli. Bitta xodim uchun har tomonlama baholashni olish (xodim o'z ishini bajarishda bevosita duch keladigan odamlardan baho oladi; boshqa usullardan farqli

o'laroq, baholovchilar doirasi sezilarli darajada kengayadi). Usul demokratikdir (nafaqat menejer o'z qo'l ostidagilarini baholaydi, balki uning qo'l ostidagilari ham uni baholashi mumkin, bu xodimlarning tashkilotga sodiqligini oshiradi, ular uchun bu ularning fikri tinglanadigan ko'rsatkichdir). Mijozlar bilan ishonchni yaratish va mustahkamlash (bu tashkilot mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash ustida ishlayotganligini yana bir bor ko'rsatish imkoniyatidir). Korporativ standartlar talablariga javob berish uchun baholash mezonlarini modellashtirish (mezonlar ma'lum bir tashkilot uchun ishlab chiqilgan vakolatlar). Asosiy kadrlar qarorlari uchun bevosita foydalanilmaydi: boshqa lavozimga o'tish, ishdan bo'shatish, ish haqini oshirish. Xodimning yutuqlarini emas, balki faqat vakolatlarini baholaydi. Yuqori darajadagi maxfiylik talab qilinadi. Baholashda hamkasblardan samimiy fikr-mulohazalarni olish qiyin. Yuqori yoki past o'z-o'zini hurmat qilish natijalari umumiy baholash natijasiga ta'sir qiladi. Xodimga stress ta'siri. Natijalarni qayta ishlashda mehnat intensivligi.

13. Mustaqil hakamlar usuli. Tanlangan g'oyalarni har tomonlama o'rganish va ularni qabul qilish bu usulga yordam beradi. Kamchilik shundaki, hamma ham jiddiy natijalar uchun o'ynoqi tarzda ishlay olmaydi va bu jarayonda o'z vazifasini bajara olmaydi. Muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun imkoniyatlar har doim ham mavjud bo'lmagan treningni talab qiladi. Shu bilan birga, ushbu usuldan foydalangan holda korxonada haqiqiy muammoni hal qilishga qaratilgan birinchi urinishlar muvaffaqiyatsiz yakunlanishi mumkin. Kompaniya muammolarini hal qilishning to'liq samarali usuli jamoa tomonidan yomon baholanishi va yaroqsiz deb bekor qilinishi mumkin.

14. Testdan o'tkazish Boshqaruv qarorlarini qabul qilishni osonlashtiradigan nomzod haqida to'liq ma'lumot. Ish sharoitida nomzodning xatti-harakatlarini ishonchli tarzda bashorat qilish qobiliyati. Shaxsiy xususiyatlari kompaniyaning korporativ madaniyatiga, menejer va jamoaning shaxsiyatiga aniq mos kelmaydigan nomzodni aniqlash qobiliyati. Yangi xodimlar uchun sinov muddatining samaradorligini oshirish. Kadrlar zaxirasiga nomzodlarni tanlash xarajatlarini qisqartirish Kadrlarda malakali xodimni saqlash xarajatlari. Jarayonning davomiyligi. Malakali nomzodlarning test topshirishdan bosh tortishi ehtimoli. Menejerlarning ushbu usulni qo'llashni istamasligi.

15. Ishbilarmonlik o'yinlari usuli. Sertifikatlash biznes o'yinlari, qoida tariqasida, natijalar uchun amalga oshiriladi, bu xodimlarning joriy va kelajakdagi muammolarni hal qilishga tayyorligini, shuningdek, o'yindagi har bir ishtirokchining shaxsiy hissasini baholash imkonini beradi. Ushbu baholash usuli faqat xodimlarning jamoaviy ishining samaradorligini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

16. Maqsadlarga erishishni baholash usuli (maqsadni belgilash orqali boshqarish usuli) Oddiylik, ravshanlik va samaradorlik. Xodimning ishtiroki uning nazarida baholash jarayonining ob'ektivligini oshiradi, u baholanadigan mezonlarni tushunishni ta'minlaydi, shuningdek motivatsiyani oshiradi. Xodim bilan muloqot menejerni baholashning ob'ektivligini oshiradi, individual maqsadlarning tashkilot va bo'limning maqsadlari bilan bog'liqligini, shuningdek xodimning kasbiy faoliyatining maqsadli yo'nalishini mustahkamlaydi. Ushbu usulning asosiy kamchiligi shundaki, xodim ishining barcha jihatlarini emas, balki faqat uning asosiy vazifalarni bajarish darajasi baholanadi, bu baholashning ob'ektivligini va undan yangi lavozimga tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishda foydalanish imkoniyatini cheklaydi. lavozim, kasbiy tayyorgarlik, ish haqini oshirish va boshqalar.

17. Vakolatlilik modellari asosida baholash usuli. Talab qilinadigan va mavjud bo'lgan malaka darajasi o'rtasidagi tafovut shaxsiy malaka oshirish rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Kasbiy faoliyatning aniq natijalarida ifodalangan ushbu rejalarining bajarilishi baholash va o'z-o'zini baholash, shuningdek mustaqil ekspertiza predmeti hisoblanadi. Kompetentsiya tushunchalarining talqini. Qobiliyatlar xatti-harakatni tushuntirishdan ko'ra tavsiflaydi. Mehnat talab qiladigan va qimmat ishlab chiqish. "Odat" kompetentsiya modellari barcha ishlarga taalluqlidir, ammo hech biri aniq emas.

18. Sertifikatlash Sinab ko'rilgan va sinovdan o'tgan usul. Natijalar asosida qonuniy qarorlar qabul qilinadi. Qaror qabul qilishda kollegiallik Xodimlar tomonidan usulni salbiy qabul qilish, stress. Ishchilarning barcha toifalariga taalluqli emas. Katta mehnat va vaqt xarajatlari. Xodimlar bilan aloqa yo'q. O'tmishdagi natijalarni baholash Barcha baholash usullarini uchta asosiy guruhga birlashtirish mumkin [6]:

19. Bashoratli usul. Ushbu usulda shaxsiy ma'lumotlar, yozma yoki og'zaki xususiyatlar, menejer va ish hamkasblarining fikrlari va sharhlari, shaxsiy suhbatlar va psixologik testlardan keng foydalaniladi.

20. Amaliy usul. Xodimning xizmat vazifalarini bajarishga yaroqliligi uning amaliy faoliyati natijalari asosida aniqlanadi. Bu sinov harakatlarining texnikasi yordamida amalga oshiriladi.

21. Taqlid usuli. Ariza beruvchiga u hal qilishi kerak bo'lgan aniq vaziyat beriladi.

Shuningdek, turli toifadagi boshqaruv xodimlarining kasbiy mahorati va ishbilarmonlik fazilatlarini baholashda tabaqalashtirilgan yondashuv mavjud: [6]:

- texnik ijrochilar uchun - ishning o'z vaqtidaligi, samaradorligi va sifati, boshlang'ich va me'yoriy hujjatlar bilan professional tarzda ishlash qobiliyati.

- mutaxassislar uchun - mehnat vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasi, sifati va samaradorligi, topshirilgan ish uchun mas'uliyat, yangi vaziyatga moslashish qobiliyati baholanadi.

- tashkilot rahbarlarini baholash - qo'l ostidagilarning ishini tashkil etish, ularning ishini samarali boshqarishni ta'minlash, bo'ysunuvchilar bilan muloqot uslubi; amalga oshirilgan ishlab chiqarish ko'lami. Shunday qilib, xodimlarni baholashning turli usullaridan samaraliroq foydalanish uchun ularni aniqlash va tashkilotning joriy ish sharoitlariga moslashtirish juda muhimdir. Har bir aniq tashkilot uchun xodimlarni baholash tizimi usullarini tanlashda, bu faqat tashkilot rahbariyati tomonidan hal qilinishi mumkin bo'lgan noyob vazifadir. Baholash tizimini tanlashda maksimal ijobiy samaraga erishish va nizolar va qarama-qarshiliklarning oldini olish uchun uning boshqa xodimlarni boshqarish tizimlari.

- kompensatsiya, martaba rejalashtirish, kasbiy tayyorgarlik bilan muvofiqligiga alohida e'tibor berish kerak. Usullar va shakllar ma'lum bir kompaniyaning aniq maqsadlariga qarab farq qilishi mumkin. Ammo baholashda asosiy narsa usullarning o'zi emas, balki ulardan foydalanish shakllari. Birinchi navbatda, samarali baholash tizimlarini ishlab chiqishda, usuldan ko'ra, baholashni amalga oshiruvchi shaxs muhimroqdir. Umuman olganda, xodimning mehnat faoliyatini baholash quyidagi tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak: [4]:

- muayyan lavozim uchun talablar va standartlarni aniq shakllantirish;

- mehnat talablarini bajarishga qaratilgan xodimlarning malaka darajasini baholash mezonlari tizimini shakllantirish;

- xodimning ishini har tomonlama (miqdoriy va sifat jihatidan) baholash;

-xodimning qobiliyatlarini talablarga muvofiqligini baholash aniq pozitsiya (ish talablari va ijrochining malaka darajasi o'rtasidagi yaqinlik darajasini aniqlash);

- xodimlarning mehnatini baholash natijalarini mehnatga haq to'lash tizimi bilan, ya'ni ish haqini belgilash bilan bog'lovchi mexanizmni yaratish.to'lovlar, bonuslar miqdori, imtiyozlar va boshqalar;

-xodimning ish faoliyatini baholash natijalarini ma'lum bir kompaniyada martaba (mansab) va xodimlarni rivojlantirish tizimi bilan bog'laydigan mexanizmni yaratish;

-xodimlarni baholash natijalarini xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi bilan bog'lovchi mexanizmni yaratish. Shunday qilib, xodimlarni baholash tizimini malakali va tizimli joriy etish yosh xodimlarni tashkilotda maksimal darajada moslashtirishga yordam beradi va uzoq vaqt davomida ishlayotganlarni yuqori natijalarga erishish uchun rag'batlantiradi. Bu tashkilot faoliyatini yanada barqaror qiladi.

REFERENCES

1. Базаров Т. Ю. Управления персоналом. Практикум. Изд-во «Юнити-Дана», 2012. – 239 с.
2. Кибанов А. Я. Федорова Н. В. Управление персоналом. М.: Изд. Финстатинформ, 2000. – 325 с.
3. Апенько С. Н. Оценка персонала: Эволюция подходов и технологии их использования. М., 2004. — 300
4. с. Петрова Ю. А. Спиридонова Е. Б. 10 критериев оценки персонала. — Ростов-на-Дону: Феникс, 2013. — 157 с.
5. Хруцкий В. Е., Толмачев Р. А. Оценка персонала: критика теории и практики применения сбалансированных показателей. М.: Финансы и статистика, 2007. С. 31–32.
6. Климович Л. К., Ермольчик Л. В. Методы оценки персонала. Вестник, 2003 г. С. 52–60.
7. Рудавина Е., Екимова В. Указ. Соч. С. 282–283.
8. Маслова Я. Ю. Совершенствование оценки персонала на основе ситуационного подхода. Вестник, 2012 г. С. 108–112.
9. Mirzabek, T. (2023). *MARKETING KOMMUNIKASIYALARI TIZIMIDA OG'R MULOQOTLAR XUSUSIYATLARI*. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 388-391.
10. Шадиёв, А. Х. (2020). Способы улучшения структуры управления в туризме. *Вопросы науки и образования*, (7 (91)), 29-31.
11. Шадиёв, А. Х. (2020). Факторы, влияющие на развитие экотуризма. *Достижения науки и образования*, (5 (59)), 31-32.
12. Shadiyev, A. (2022). *FEATURES OF EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF ACTIVITIES AT THE BUKHARA STATE UNIVERSITY*. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 23(23).
13. Рахманкулова, Н. (2023). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНАЛЬНОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 168-170.

14. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАСЧЕТА ПРОДУКЦИИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 12-17.
15. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). Бухоро Вилоятида Кичик Саноат Зоналарининг Ривожланиши. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 10-13.
16. Sodiqova, N. (2023). DIGITAL LABOR IN THE NEW ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(10), 293–300. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24349>
17. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 56-60.
18. Алимова Ш. А., Ниёзова И. Н. Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур // *Academy*, (1 (64)). – 2021. – С. 55-57.
19. Базарова М. С., Пулатов Ш. Ш. ПРОБЛЕМЫ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ // *СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ*. – 2019. – С. 131-133.
20. Supiyevna B. M. INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 168-171.
21. Alimova S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.

PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING DIALEKTAL ASOSLARI

Boymurodova Lobar Raxim qizi

TerDU talabasi.

D.A.Ergasheva

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10130346>

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologiyaning bir bo'limi sanaladigan paremiologiya bo'limi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar—paremalarning dialektal asoslari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, paremiologiya, parema, maqol, matal, aforizm, hikmatli so'z.

DIALECTAL BASIS OF PAREMIOLOGICAL UNITS

Abstract. This article provides information on paremiology, a branch of phraseology. Wise expressions such as proverbs, matals, and aphorisms are also described.

Key words: folklore, paremiology, parema, proverb, matal, aphorism, wise word.

ДИАЛЕКТАЛЬНАЯ ОСНОВА ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация. В данной статье представлена информация о паремии, разделе фразеологии. Также описаны мудрые выражения, такие как пословицы, маталы и афоризмы.

Ключевые слова: фольклор, паремология, парема, пословица, матал, афоризм, мудрое слово.

Frazeologiya tilshunoslikning boshqa bo'limlariga nisbatan yangi bo'limdir. U leksikologiya bag'ridan XX asrning 50-yillaridan mustaqil bo'lim sifatida ajralib chiqdi. Sobiq sho'rolar davrida Imperiya hududidagi barcha tillarning frazeologiyasi V.V.Vinogradov ta'limoti asosida dunyoga keldi. Jumladan, o'zbek frazeologiyasi ham bundan mustasno emas. Har bir til o'zining so'zlariga, frazeologiyasiga, hamda paremiologiyasiga ega. Xususan, o'zbek tillarining paremiologiyasi haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo —paremiya, paremiologiya nima degan savolga javob topishimiz kerak. Paremiologiya (yunoncha: paroimia — hikmatli so'z, zarbulmasal va ... logiya) —

a) ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni — paremalarni o'rganadigan fan sohasi;

b) muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar — paremalar tizimi. Paremalar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslikning o'rganish ob'yekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko'pincha she'riy shaklga o'xshaydi va ularda o'xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo'llanadi. Shu bilan birga paremalar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish ob'yektidir. Paremiologiya ana shu 2 jihatni o'zida birlashtiradi. Paremalarning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma'no xususiyatlarini o'rganuvchi paremiologiya frazeologiya bilan chambarchas bog'liq. Paremiologiya tilda mavjud bo'lgan turli xil barcha iboralarni o'rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat

ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Shu jihatdan ular o'zaro farqlanadi. O'rganish ob'yektining birligi, ya'ni bir necha so'zdan tashkil topgan turg'un, barqaror birikmalarni tekshirish paremiologiya bilan frazeologiyaning o'xshash, umumiy tomoni hisoblanadi. Paremalar to'plash, o'rganish Mahmud Koshg'ariy ("Devonu lug'otit turk") va Gulxaniy ("Zarbulmasal") zamonlaridan to hozirgi kunlarga davom etib kelmoqda. Paremiologiyada yaxlit fikrni ifodalovchi eng mayda birlik parema deb ataladi. H.Berdiyevning "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da keltirilishicha, paremiologiya tildagi maqol, matal, aforizm kabi iboralarni ikki planda o'rganadi:

1. Paremalar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining obyektidir, chunki, bu hikmatli iboralarning ko'pchiligi she'riy formaga o'xshaydi va ular o'xshatish (istiora, tashbeh, metafora), taqqoslash (anateza) parallesmanafora, qofiyalash, Evfonik vositalar (alliteratsiya, assonans) kinoya, piching, kesatiq kabi badiiy tasvir vositalari qo'langan bo'ladi.

2. Paremalar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyektidir, chunki ular so'zlardan hosil bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham, mazmuni, strukturasi, intonatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega. Paremalar qachon paydo bo'lganligini aniqlash qiyin, lekin shuni ma'lumki, ularning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va ular o'zini ijod qilgan xalq bilan yashab kelmoqda. Har qanday hikmatli ibora ham ommalashib ketmaydi, faqat jamiyatdagi ko'pchilik insonlarning orzu-umidlari, istagini, hayoti va fikrini aks ettirgan hikmatli iboralarga ommalashadi, avloddan avlodga o'tadi, asrlar osha yashaydi – pema larga aylanadi.

Maqol — xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli, chuqur mazmunli hikmatli ibora. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ko'p uchraydi ("Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l" va boshqalar). Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan.

Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o'zbek xalqi orasida turli vari-antlarda ishlatiladi. Shuningdek, maqol Koshg'ariy asarida "Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin"; "Odam olasi ichida, mol olasi tashida" kabi. Maqollar ba'zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, hattoki, g'oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi.

Matal – [arabcha مآثل] so'zi, birinchi navbatda, tugal ma'no ifodalaymaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z (mas., „qizil qor yog'anda“, „tuyaning dumi yerga tekkanda“), ikkinchidan, qissa,

masal ma'nolarini bildiradi. Matal muayyan hayotiy hodisani aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora: maqollardan farqli ravishda ibratli maslahat tariqasidagi umumlashtiruvchi ma'nodan holi bo'ladi. Masalan, qozonni suvga tashladik, tuyaning dumi yerga tekkanda kabi. Matal — muayyan hayotiy hodisani aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Matalda o'xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so'z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o'z asl ma'nosi bilan ko'chma ma'nosi o'rtasida yaqinlik, mantiqiy bog'lanish bo'lishi lozim. Matal bir yoki bir necha jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi. Masalan, "Shamol bo'lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas", "Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit" va boshqa.

Aforizm atamasi yunoncha "Θωροφίε" dan keladi, bu degani aniqlang. Aforizm ilm-fan yoki san'atda qoida tariqasida taklif qilinadigan qisqacha va ta'limotli jumla. Aforizm - prinsipni ixcham, izchil va ko'rinishda yopiq tarzda ifodalashga qaratilgan ixcham bayon yoki jumla. Aforizm - bu she'riy g'oya, adabiy g'oya.

"Tovuq bo'lma — musicha bo'l". Ushbu maqolda halollik haqida so'z ketmoqda. Ya'ni bu maqolda musicha halollik ramzi bo'lib kelgan. Musicha o'zi bitta polapon ochib, uni asrab-avaylab, uni halollik bilan boqadi. Tovuuq esa bir qancha jo'ja ochib chiqib, unga to'g'ri kelgan, har qanday narsani beraveradi. Maqoldan shuni xulosa qilish mumkinki, tovuqdek o'n - o'n beshta jo'ja ochmasdan, musichadek bitta polapon ochib, uni halollik bilan katta qilgan afzal. Ya'ni bunda "Soni emas—salmog'i afzal".

"Duo olgan-omondir, qarg'ish olgan-yomondir". Darhaqiqat, duo bilan qarg'ish bir-biriga zid tushunchalar. Odamlarga ezgu ishlar qilib inson, albatta, duo oladi. Duo uni barcha yomonliklardan omon saqlab qoladi. Qarg'ishning oxiri yaxshilikka olib kelmasligi hammamizga ma'lum.

"O'ylamay chiqdim bu tog'ga—
Endi menga past qayda".

Bu maqol o'ylab, fikrlab ish yuritish haqida. Oxirini o'ylamay faqatgina shu vaziyatda yuradiganlar oxirida qilgan bu ishlari uchun, albatta, pand yeyishadi. Maqol mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak maqolning kelib chiqishiga oid bitta rivoyatga ham duch kelishimiz mumkin. Qadim zamonda bir inson bo'ladi. U har doim oxirini o'ylamay ish ko'radi. O'z bilganidan qolmay ish qiladi. Bir kuni bir tanishiga jahl qilib, tog'ga qarab yo'l oladi.

Jahl ustida ketaveradi, ketaveradi. Shunchalik ko'p yo'l yurganidan adashib qoladi. Nima qilishini bilmay ortga qarasa, hamma narsa notanish. Qilgan ishidan afsuslanadi. Ortga qanday qaytishini o'ylab iztirob chekadi. Ayni shu vaziyatda "O'ylamay chiqdim bu tog'ga — Endi menga ort qayda" - , deb aytadi. Shu-shu mana shu maqol paydo bo'ladi. Bundan xulosa qilishimiz kerakki, hamisha nimadir ish qilmoqchi bo'lsak, uni yaxshilab o'ylab, oqibati haqida ham fikr yuritish kerak. Bekorga ota-bobolarimiz "Yeti o'lchab—bir kes" deyishmagan.

"Erinmagan—eshikchi". Xalqimizda bu maqol ham uchraydi. Bu maqol qadimiyroq bo'lgani uchun bugungi kunda yoshlarimiz tilida uncha ko'p ishlatilmaydi. Lekin nazar solid qarasa, bobo-buvilarimiz tilida bu maqol, albatta, ishlatilganini ko'rishimiz mumkin. Maqol hayotda erinmasdan ish ko'radiganlar haqida. Ya'ni nimadir ishni bajarishga erinmay shuni hammasini bajarib ko'radigan odamlar haqida. Erinmagan—eshikchi. Bunda erinmaydigan inson eshikchiga o'xshatilgan. Agar nimadir kerak bo'lib qoladigan bo'lsa, erinmasdan uyma-uy so'rab ish ko'radiganlar aynan mana shularning toifasidandir.

Matallarning paydo bo'lishi nutqda turg'un obrazli iboralarning yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Matallar so'zning ko'p ma'noliligiga tayanganligi uchun nutqli frazeologik iboralarga qarama-qarshi holda ifodadagi o'xshatish va qiyoslashlari kuchaytiradi. Shuning uchun ham ularda qiyoslanuvchi elementlarning tafovuti yaxshi saqlanadi. Matallar hamma vaqt tarkibi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, grammatik jihatdan gapning bir bo'laki bo'lib keladi. "Qil uchida turibman", "Semizlikni qo'y ko'taradi", "Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zar", "Bekorga mushuk oftobga chiqmaydi.

Matal - ko'chma ma'noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turi. Matal o'z ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chirilgan so'z birikmalaridan iborat bo'ladi, unda o'xshatish, kinoya, qochirma so'z va boshqa til vositalari qo'llaniladi. Matalda majoziy iboraning o'z asl ma'nosi bilan ko'chirilgan ma'nosi o'rtasida yaqin munosabat, mantiqiy bog'lanish bo'lishi shart. Masalan: o'rinsiz aytilgan gap ma'nosi "tomdan tarasha tushganday", har bir ishni ustasi qilsa yaxshi mazmuni "chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin", har bir ishni o'z vaqtida bajarish afzalligi "temirni qizig'ida bos" iboralari orqali bayon etilgan. Ana shunday iboralar matallardir.

"Odamni boshi Allohning to'pi..."

Ushbu matal Xorazmda sun'iy sug'orish tarixi, qazuv, qochuv, damba qurish kabi dehqonchilik muammolari bilan bog'liq sarson- sargardonlik, uzoq manzillarga borib 12 kunlik majburiy qazuvlarda qatnashib kelgan avlod - ajdodlarimizning hayratlanib aytgan so'zining ifodalanishidir. Aslida matal "Odamning boshi Allohning to'pi, Toshsoqa degan joylarni ko'rdik" deyilgan. Toshsoqa - Amudaryoning Hazorasp tumani hududidagi tosh-tik yoqa qirg'oq sohilining nomi bo'lib u Olloquli xon davrida (1825-1842) tog' jinslarini o'yib bitkazilgan. Xonlikning uzoq chekkalaridan Toshsoqa qazuviga jalb etilgan minglab bechoralar bir necha oylarga cho'zilgan majburiy xizmatda bo'lganlar.

Omon qolganlar Toshsoqa kanalini "balo qazuv", odamning boshi- Allohning to'pi, Toshsoqa degan joylarni ko'rdik degan tarixiy iboralarni to'qib chiqarganlar. Xonlik davrlarida vohaning 100-200 km, uzoq tumanlarida yashovchi dehqonlarning Toshsoqa (suv taqsimlovchi) kanali qurilishida qatnashganligi ularda hayrat va iftixor tuyg'usini uyg'otganligi tufayli o'sha tarixiy matalning kelib chiqishiga sabab bo'lgan, deyish mumkin. 1939-1940 yillarda Toshsoqa kanali hashar yo'li bilan qaytadan qurildi. 1969-1979 yillarda Tuyamo'yin suv ombori, Pitnak (Do'stlik) shahri bunyod etildi. Endilikda Toshsoqa kanali, Tuyamo'yin suv inshooti qurilishi otabobolarimizning yaqin o'tmishi tarixi sifatida tilga olinadi, xolos.

Xulosa qilib aytganda, maqollarni o'rganish bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Asrlar davomida avlodlar avlodlarga o'tib kelayotgan buyuk ajdodlarimizning hikmatli so'zlari va xalqimizning hayotiy tajribasi asosida yaratilgan xalq og'zaki ijodiyotini, xususan maqollarni o'quvchilarga tushunarli qilib yoritib berishimiz lozim. Milliy qadriyatlarimizni yosh avlodlarga munosib tarzda yetkazish esa bizning muqaddas vazifalarimizdan biridir.

REFERENCES

1. Berdiyev H. , Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati, T. , 1984
2. Shomaqsudov Sh. , Shorahmedov Sh. , Ma'nolar manzanita, T. , 2001
3. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. "Sharq" nashriyoti, 2005-yil
4. O'zME. Birinchi jild. T. , 2000
5. Muhammadjon Hakimov, Magol terminlari haqida, O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1965

6. www.ziyonet (internet sayti)
7. Эргашева, С. (2022). ЭШҚОБИЛ ШУКУР ШЕЪРИЯТИДА БАДИИЙ ОБРАЗ ТАКОМИЛИ. *Science and innovation*, 1(B2), 478-484.
8. Ergashova S. THE SCOPE OF THE TOPIC IN THE POETRY OF ESHQABIL SHUKUR //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 95-97.

VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN JINSIY ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHISH MASALALARI

Agzamova Barnoxon Axunovna

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi psixolog, 3-darajali yurist.

Telefon: +998911261471

agzamovabarnohon@gmail.com

Muhammadjonov Ahadjon A‘zamjon o‘g‘li

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi “Davlat huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

2-bosqich 20-22-guruh o‘quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10130775>

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarbevosita inson huquqlariva erkinliklarini ta‘minlash, uni turli tajovuzlardan himoya qilish, inson huquq va manfaatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishga qaratilayotganligi, ayniqsa voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlikka qarshi kurashish davlat siyosati darajasida bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanganligi va unga qarshi kurash choralari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: axloqiy normalar, voyaga etmaganlar, jinsiy zo‘ravonlik, jinsiy erkinlik va daxlsizlik, qashshoqlik, ishsizlik, bolalarning beparvoligi, og‘ir turmush sharoitlari, huquqni mufofaza qiluvchi organlar.

ISSUES OF COMBATING SEXUAL VIOLENCE AGAINST MINORS

Abstract. This article reflects on the fact that the reforms carried out in our country in recent years are aimed directly at ensuring human rights and freedoms, protecting it from various encroachments, creating conditions for the implementation of human rights and interests, especially the fight against sexual violence against minors has become one of the pressing issues of today at the level of Public Policy.

Key concepts: moral norms, minors, sexual violence, sexual freedom and immunity, poverty, unemployment, child neglect, harsh living conditions, law enforcement agencies.

ПРОБЛЕМЫ БОРЬБЫ С СЕКСУАЛЬНЫМ НАСИЛИЕМ В ОТНОШЕНИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются проводимые в последние годы в нашей стране реформы, направленные на непосредственное обеспечение прав и свобод человека, защиту его от различного рода посягательств, создание условий для реализации прав и интересов человека. В частности, борьба с сексуальным насилием в отношении несовершеннолетних стала одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня на уровне государственной политики.

Ключевые понятия: моральные нормы, несовершеннолетние, сексуальное насилие, сексуальная свобода и неприкосновенность, бедность, безработица, безнадзорность детей, суровые условия жизни, правоохранительные органы.

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, uni turli tajovuzlardan himoya qilish, inson huquq va manfaatlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishga qaratilmoqda.

Zero O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasining 19-moddasida inson huquq va erkinliklari xususida norma belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e‘tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi¹²⁰.

Tabiiyki, har qanday jamiyat va davlatning kelajagi bevosita aholining axloqiy tushunchalari va xatti-harakatlarini sog‘lomlashtirish, shuningdek ularning ma‘naviy barkamolligini oshirishga bog‘liqdir.

Umum e‘tirof etilgan axloq normalarini jinoiy-huquqiy himoya qilish Jinoyat kodeksining turli bo‘limlari va boblari normalari bilan himoyalangan. Ushbu me‘yorlarning asosiy vazifasi shaxsning manfaatlarini ifodalovchi va o‘sha mamlakatda yashovchi aholining ma‘naviy sog‘lomligi va daxlsizligini himoya qilishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son farmoniga 1-ilovasida ham Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta‘minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish¹²¹ lozimligi ko‘rsatib qo‘yildi

Mamlakatimizda bu masalaga alohida e‘tibor qaratildi, va barcha yo‘nalishlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish targ‘ib qilindi. Jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlash va bu borada ichki ishlar organlari, sud, prokuratura, adliya va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining mas‘uliyatini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yanada rivojlantirish davlatimizning asosiy vazifalaridan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda eng xavfli jinoyatlardan biri jamiyat uchun muhim bo‘lgan va shaxsga qarshi qaratilgan harakatlar jinsiy erkinlik va daxlsizlikni, axloqiy normalarni buzishdir. Bu o‘z navbatida, ushbu jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortish mexanizmini yanada takomillashtirish, samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, yurtimizda 16 yoshga to‘lmagan bola bilan jinsiy aloqa qilganlikda aybdor deb topilganlar soni 2019-yilda 99 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2020-yilda 153 nafar, 2021-yilda 216 nafar, 2022-yilda 238 nafarni tashkil etgan.

14 yoshga to‘lmagan bola bilan zo‘rluk ishlatib, jinsiy aloqaga kirishganlikda aybdor deb topilganlar soni 2019-yilda 52 nafar, 2020-yilda 35 nafar, 2021-yilda 57 nafar, 2022-yilda esa 73 nafarni tashkil etgan.¹²²

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi jinoyatlarning oldini olish ularni bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy huquqbuzarliklarning oldini olish har qanday jinoyatning oldini olish kabi ilmiy asoslangan va qonuniy bo‘lishi kerak .

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatchiliklarning oldini olish masalasi uzoq vaqtdan beri olimlarni qiziqtirib keladi.

¹²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.

¹²¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son farmoni.

¹²² <https://www.amerikaovozi.com/a/7046722.html>

Hozirgi kunda jinsiy tajovuz uchun qattiq jinoiy javobgarlikni belgilaydigan qonun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shuning uchun jinsiy zo‘ravonlikka qarshi kurashda jinoyat qonunchiligining rolini faqat jinoyatchilarni jazolash vositasiga tenglashtirish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Jinoyat qonuni har qanday shaxsga, shu jumladan jinsiy zo‘ravonlik qilganlarga nisbatan ham bunday qilmishlar sodir etishlarini oldini olish vositasi sifatida fuqarolarda ushbu harakatlarga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradi, ularni ushbu harakatlarga qarshi kurashga jalb qiladi. Shuning uchun qonunni targ‘ib qilish juda muhimdir. Xususan, jinsiy tajovuz uchun javobgarlikni belgilovchi qonunchilik nafaqat yoshlarga yetkazilishi, balki har tomonlama tushuntirilishi kerak.

Buning uchun albatta yoshlar va huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari bilan davra suhbatlari tashkil etish zarur. Bunday suhbatlarda nafaqat ushbu jinoyat uchun jazo choralari to‘g‘risida ma‘lumot berish, balki uning ijtimoiy xavfliligi, axloqsizligi, g‘ayriinsoniyligini fosh etish, yoshlarni tartibsiz jinsiy aloqa va umuman zo‘ravonlikning oqibatlarini va unga nisbatan jazo turlari haqida ma‘lumotlar berib borish zarur deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarning oldini olish choralari belgilashda, birinchi navbatda, ushbu jinoyatlarning sabablari va shartlariga va jinoyat natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy xavfli oqibatlarni bartaraf etishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlarning oldini olish choralari umumiy yoki ijtimoiy profilaktika choralari va maxsus (kriminologik) profilaktika choralari bo‘lish mumkin.

Ushbu turdagi jinoyatlarning umumiy profilaktikasi keng qamrovli bo‘lib, jamiyatning ijobiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish, mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa institutlarning rivojlanishi, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarga olib keladigan hodisalar va nomutanosibliklarni bartaraf etish, zararli ta‘sirlarni kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatda umumiy farovonlikni ta‘minlash, jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, qashshoqlik, ishsizlik, bolalarning beparvoligi, og‘ir turmush sharoitlari, jamiyat erkinligini bartaraf etish, demokratiyadan foydalanayotgan shaxslar va guruhlar tomonidan uyushtirilayotgan axloqsiz jinoyatlarini bartaraf etish orqali jinoyatchilikning oldi olinadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy tajovuzlarning oldini olish bo‘yicha ijtimoiy chora-tadbirlar qatorida jamiyat a‘zolarining ma‘naviy yuksalishini, ularning ma‘naviy, madaniy, axloqiy va huquqiy ongini rivojlantirishni ta‘minlash muhimdir. Chunki jinsiy jinoyatlar sodir etish jinoyatchining axloqiy va madaniy darajasi, uning axloqsizlik darajasi, ongsizligi qanchalik pastligini ko‘rsatadi.

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligi jinoyatlariga qarshi profilaktika chorasi sifatida “jinoyatchilikka moyil odamlar sonini kamaytirishdan tashqari, bunday jinoiy tajovuz qurbonlari sonini kamaytirishga ham alohida e‘tibor qaratish lozim” degan fikrni e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, voyaga yetmaganlarni to‘g‘ri tarbiyalash muhimdir.

O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, bu turdagi jinoyatlarning aksariyati (57% yopiq xonada (shu jumladan kvartirada yoki boshqa yashash xonasida), 12% zinapoyalarda, podvallarda, liftlarda, zinapoyalarda yoki zinapoyalarda uyga kirishda, mashinalarda); 20% ko‘chada,

xiyobonda yoki parkda; 6% jamoat joylarida sodir bo'lgan, 5% hollarda jinoyat joyini aniqlab bo'lmaydi.¹²³

Voyaga yetmaganlarning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi tajovuz qurbonlarining kriminogen xususiyatlarini o'rganish ularni yoshiga qarab tasniflashni talab qiladi va bu borada quyidagicha: 14 yoshgacha va 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan qurbonlarning kriminologik tavsifiga ajratish mumkin.

Birinchi guruhdagi balog'atga yetmaganlar (yosh bolalar) zo'rvonlik va qiynoqqa solinganligini bilishadi. Lekin ular buni aniq tushuntira olmasliklari mumkin. Va agar qurbonlar maktab yoshidagi bolalar bo'lsa, ular ko'pincha kattalarga ularga qarshi qilingan yomon xatti-harakatlar haqida gapirishdan uyaladilar. 12 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar ularga qarshi qilingan jinsiy harakatlar ularning jismoniy va ma'naviy (axloqiy) pokligining ifloslanishi ekanligini bilishmaydi.

Ikkinchi guruh, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar, ba'zida fohishalikka moyil. Chunki bu ularda paydo bo'lgan jinsiy qiziqishni qondiradi. Ushbu guruh qurbonlarni yana ikkita toifada o'rganishni talab qiladi: 14 yoshdan 16 yoshgacha va 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar.

Ushbu jinoyatlar qurbonlarini bunday toifalarga ajratishimizning sababi shundaki, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar 16 yoshga to'lmagan shaxslarga qarshi qaratilgan. Shu bilan birga, 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar faqat zo'rlash, jinsiy ekspluatatsiya va fohishalik qurboni bo'lishlari mumkin.

Buning sababi shundaki, bunday shaxslar, 16 yoshgacha bo'lgan qurbonlardan farqli o'laroq, ularga qarshi amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlarning salbiy oqibatlarini tushunishadi.

Shunday qilib, voyaga yetmaganlarning sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi jinoyatlarning kechikishiga sabab bo'lgan omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Jabrlanuvchining hayotiy tajribasi va huquqiy ongining past darajasi;
2. Qo'rqoqlik, uyalmaslik, shuningdek, mahalladagi qo'shnilarning "nutqidan" qochish;
3. Voyaga yetmaganlarning kelajakdagi nikohi buzilishidan qo'rqing;
4. Hujumchi va uning yaqin qarindoshlari yoki do'stlari tomonidan qasos sifatida tahdidlar;
5. Huquqni muhofaza qilish organlarini o'z vaqtida xabardor qilmaslik va hokazo.

Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi hollarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinsiy huquqbuzarliklar doimiy monitoringni talab qiladi. Ayniqsa, yoshlarga bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishda yordam berish va bu davrda ularni nazorat qilish juda muhimdir. Jinsiy jinoyatlarning oldini olishda ishchi kuchining imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham muhimdir.

Jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi eng muhim maxsus vakolatli organlar voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydigan ichki ishlar organlari hisoblanadi. Chunki bunday organlar jinoyatlarning oldini olishda kengroq tajribaga va maxsus tizimlarga ega bo'lishi mumkin.

¹²³ [Http: S.S.Niyozova](http://S.S.Niyozova). Considerations for the prevention of crimes against the sexual integrity of minors.

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligini buzadigan jinoyatlarning oldini olishda prokuratura organlari ham markaziy rol o'ynaydi. Chunki prokuratura huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarni bartaraf etishda sud tizimining roli ham katta.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 118-, 119-, 121-, 128-moddalarida fikr yuritilayotgan jinoiy qilmishlar va ular uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Voyaga yetmaganlarning nisbatan jinsiy zo'ravonliklarni oldini olishda, Adliya tizimining o'rni ham takildab o'tish joiz. Hususan FHDYo idoralari norasmiy nikoh orqali sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy huquqbuzarliklarning oldini olishlari mumkin. Shu maqsadda FHDYo organlari aholi o'rtasida oila va nikoh masalalari bo'yicha huquqiy targ'ibot ishlarini olib borishlari kerak, nafaqat nikoh tomonlaridan biri o'n olti yoshga to'lmaganida nikohni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish orqali, qonun buzilishini va erta turmushni oldi olinadi.

Yuqorida qayd etilgan maxsus organlar ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish bo'yicha muntazam choralar ko'rishlari uchun: birinchidan, bunday choralar uyushgan holda ta'minlanishi kerak; ikkinchidan, u faqat vakolatli davlat organlari tomonidan qo'llanilishi kerak; uchinchidan, bunday organlar o'z vaqtida to'liq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak; to'rtinchidan, profilaktika choralari kuchga kirishi va huquqiy normalar orqali amalga oshirilishi kerak. Maxsus davlat idoralaridan tashqari, fuqarolar huquqni muhofaza qilish organlariga ular tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotganligi to'g'risida xabar berish orqali jinsiy daxlsizlik va jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarning oldini olishda faol ishtirok etishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi jinoyatlarning samarali oldini olish uchun bir vaqtning o'zida jinoyatchining shaxsini, jabrlanuvchining xulq-atvorini, yoshini, oilasini hisobga olgan holda jinoyat uchun sharoit yaratadigan holatlarni aniqlash kerak.

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarning umumiy oldini olishda quyidagi chora-tadbirlar ham ijobiy rol o'ynaydi:

- jinsiy huquqbuzarliklarni sodir etishga qodir bo'lgan shaxslar ustidan ularning xatti-harakatlari va jamoatchilik tomonidan berilgan tavsifni hisobga olgan holda ijtimoiy nazoratni o'rnatish;

- ilgari zo'rlash yoki boshqa jinsiy huquqbuzarliklar uchun sudlangan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish;

- zo'rlash jinoyati sodir etilishining oldini olish, shaxslarni xabardor qilish bilan bog'liq tezkor choralarni ko'rish.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risidagi 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son farmoni.
4. Http: S.S.Niyozova. Considerations for the prevention of crimes against the sexual integrity of minors.

5. https://uza.uz/oz/posts/adliya-vazirligi-ayollar-huquqlarini-kuchaytirishga-oid-jiddiy-takliflarni-ilgari-surdi_328563
6. <https://www.amerikaovozi.com/a/7046722.html>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 14.03.2017 yildagi PQ-2833-son Qarori.

MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARI ASOSIDA YUQORI MALAKALI VA IJODIY FIKRLAYDIGAN YURIDIK KADRLARNI TAYORLASHNING DOLZARBLIGI

Sharipova Feruza Hakim qizi

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

Телефон: +998(33) 770 04 05

<mailto:feruzasharipova12@gmail.com>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10131325>

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqshunos kadrlarning yurtimizda adolatli jamiyat barpo etish va mamlakatimizning xalqaro obro'si yuksalishidagi roli tahlil qilingan. Bundan tashqari huquqshunos kadrlarning bugungi kundagi salohiyati hamda ularga bo'lgan talabning oshishi hamda ularning kasb etikasiga rioya qilish ham tahlil qilingan. Shuningdek huquqshunos kadrlarning yurtimizda adolatli jamiyat barpo etish va mamlakatimizning xalqaro obro'si yuksalishidagi roli oid bir qancha xalqaro normativ-huquqiy xujjatlar ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, yurist, yuridik ta'lim, farmon, qaror, davlat, raqotbardosh o'rta bo'g'in, professional ta'lim, dastur.

HIGHLY SKILLED AND CREATIVE BASED ON LABOR MARKET NEEDS RELEVANCE OF TRAINING LEGAL PERSONNEL WHO THINK.

Abstract. This article analyzes the role of legal personnel in building a fair society in our country and increasing the international reputation of our country. In addition, the current potential of legal personnel and the increase in demand for them, as well as their compliance with professional ethics, were also analyzed. Also, a number of international normative legal documents on the role of legal professionals in building a fair society in our country and increasing the international reputation of our country have been analyzed.

Key words: labor market, lawyer, legal education, decree, decision, state, competitive middle class, professional education, program.

ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫЙ И ТВОРЧЕСКИЙ ПОДХОД, ОТВЕЧАЮЩИЙ ПОТРЕБНОСТЯМ РЫНКА ТРУДА АКТУАЛЬНОСТЬ ПОДГОТОВКИ МЫСЛЯЩИХ ЮРИДИЧЕСКИХ КАДРОВ.

Аннотация. В данной статье анализируется роль юридических кадров в построении справедливого общества в нашей стране и повышении международного авторитета нашей страны. Кроме того, также был проанализирован текущий потенциал юридических кадров и рост спроса на них, а также соблюдение ими профессиональной этики. Также проанализирован ряд международных нормативно-правовых документов о роли юристов в построении справедливого общества в нашей стране и повышении международного авторитета нашей страны.

Ключевые слова: рынок труда, юрист, юридическое образование, указ, решение, государство, конкурентоспособный средний класс, профессиональное образование, программа.

Mehnat bozori o'zi nima? Mehnat bozori bu ishchi kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorining ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o'rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi. Turli vositachi firmalar, tashkilotlar va agentliklar mehnat bozorining infratuzilmasini tashkil etadi. Bugungi kunda yuridik ta'lim olish, mehnat bozorida o'z o'rniga ega

bo'lgan, yuridik sohada samarali faoliyat olib boradigan yuridik kadrlarni tayyorlash borasida keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng yurist kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib, zamonaviy yurist kadrlarga qo'yiladigan talab ham o'zgardi. Istiqolning dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishdek murakkab jarayonlarning huquqiy jihatlarini ta'minlab berishga qodir bo'lgan mutaxassislar kerak edi.

Keyingi yillarda yurtimizda ilm-fanga munosabat tubdan o'zgardi. Ta'lim sohasini isloh etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarga keng yo'l ochildi. Sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash yangilanishlarning pirovard maqsadiga aylandi. Shu islohotlar jarayonida kasb-hunar ta'limi sohasiga ham zamonaviy tamoyillar olib kirildi. Xalqaro andozalarga mos professional ta'lim tizimi joriy etildi. Xususan, davlatimiz rahbarining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yana-da takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni mazkur islohotlarning mustahkam poydevoriga aylandi. Sababi, unga muvofiq, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekistonda Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini qamrab olgan professional o'qitish tizimi hamda tabaqalashtirilgan o'quv dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tashkil qilindi.

Mazkur dasturlar asosida tegishli kadrlar tayyorlaydigan o'quv maskanlari ro'yxati tasdiqlandi. Shunga hamohang tarzda professional o'qitish tizimida tegishli ta'lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional o'quv muassasalari tarmog'i yaratildi. Ayni paytda yurtimizda 339 ta kasb-hunar maktabi, 201 ta kollej, 185 ta texnikum faoliyat yurityapti. Harakatlar strategiyasidagi ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish zarurligi qat'iy belgilab berilgan. Zotan, xalqaro mehnat bozori, integratsion jarayonlarning jadallashuvi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik inqiloblar davri ham aynan shuni talab qilyapti. Zarur malaka va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh o'rta bo'g'in mutaxassislari xalqaro andozalarga mos, professional ta'lim tizimida tayyorlanadi. Shu ma'noda, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti nafaqat ta'lim muassasalari, balki sohada innovatsion muhit, yangi makon yaratish ishlariga izchil kirishgan.

Jumladan, tizimdagi rahbar va pedagog xodimlar uchun yangicha mezonlarda o'quv kurslari tashkil etilyapti. Mazkur o'quv yilida malaka oshirishning yigirmaga yaqin yangi moduli joriy qilindi. Ikki yuzdan ortiq vizuallashtirilgan va raqamlashtirilgan yangi elektron ta'lim resurslari bazasi yaratildi. Institut ayni paytda kasb-hunar ta'limini innovatsion rivojlantirish hamda rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish yo'nalishlarida faoliyat olib bormoqda. Tizimni qisqa vaqt oralig'ida rivojlantirish va jahon standartlariga to'la moslashtirish maqsadida rivojlangan mamlakatlar hamda xalqaro tashkilotlarning ilg'or tajribalari o'rganilyapti. Jarayonda Germaniya, Shveysariya, Janubiy Koreya, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar, YUNESKO, Britaniya kengashi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa ta'lim fondi, Turkiya hamkorlik agentligi, Xitoyning Universitetlar

uyushmasi kabi tashkilotlardan ikki yuzdan ortiq nufuzli ekspertlar jalb etildi. Ulardan zarur tajriba va xulosalar olindi.

Belarus Respublikasining Professional ta'lim respublika instituti bilan professional ta'lim sifatini oshirish, milliy malaka tizimini joriy etish va WorldSkills standartlari asosida kadrlar tayyorlash yo'nalishlarini qamrab olgan hamkorlik memorandumini imzolandi. Davlatimiz rahbari tomonidan xorijiy migrantlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalar doirasida Rossiya xalqlar do'stligi instituti bilan hamkorlik o'rnatilib, O'zbekistonda uning vakolatxonasi ochildi. Bu migrantlarga rus tilida muloqot qilish va rus tilida kasb o'rgatish imkonini kengaytiradi.

Professional ta'lim rivoji sohada mehnat qilayotgan rahbar va pedagog xodimlar malakasini oshirish qay darajada sifatli yo'lga qo'yilganiga ham bevosita bog'liq. Shu ma'noda Vazirlar Mahkamasining joriy yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi mavjud muammo va kamchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, ko'zlangan maqsadga qisqa vaqt oralig'ida erishishga xizmat qiladi.

Qarorga muvofiq, rahbar va pedagog xodimlar, kasbiy faoliyat natijalari qayd etishning elektron portfoliosi (ta'lim platformasi) tizimi yo'lga qo'yildi. Shunga ko'ra, kasbiy faoliyat natijalari va erishgan yutuqlariga asosan rahbarlar hamda pedagog xodimlar muqobil, masofaviy, malaka oshirish ta'lim muassasalari va uyg'unlashgan holda malaka oshirishga jalb qilinadi. Shuningdek, qarorga asosan, boshqaruv va pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib, ularning kasbiy ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirish shakllarini mustaqil tanlash hamda o'zlashtirish imkoniyati yaratildi. Malaka oshirish o'quv rejalarga bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda boshqaruv kadrlarining faoliyatini amalga oshirish uchun zarur yangi modullar kiritilib, asosiy e'tibor amaliyotga qaratildi. O'quv rejalardagi umumiy soatning kamida yetmish foizi amaliy darslarga ajratilgani shundan dalolat beradi.

Advokatlik tizimi ham zamon talablarga javob beradigan huquqshunoslarga zarurat sezmoqda. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida "Misol uchun, 33 milliondan ortiq O'zbekiston aholisiga faqatgina 4 mingta advokat xizmat ko'rsatayotganini ijobiy baholab bo'lmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi advokatlarning 60 foizi 50 yoshdan oshgan shaxslardir. Ular orasida 30 yoshga to'lmagan yoshlar 70 nafarga ham etmasligini qanday izohlash mumkin?!" deb ta'kidlagani holatni yaqqol namoyon etmoqda.

Zero, xalqaro huquqiy maydonda vatanimiz manfaatlarini himoya qiladigan malakali huquqshunoslar tayyorlash ham nihoyatda dolzarb. Bundan tashqari, ma'muriy boshqaruv tizimi, moliya va bank, sog'liqni saqlash, ta'lim, qurilish, axborot texnologiyalari, sport va boshqa sohalardagi huquqshunoslarga mavjud ehtiyoj Prezidentimiz farmonida belgilangan vazifalarning nechog'lik muhimligini bildiradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017 yil 7-fevral; 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5987 sonli Farmoni;
2. Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5987 sonli Farmoni;
3. Prezidentning 2020 yil 19 maydagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF5997-sonli Farmoni;
4. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 705-sonli Qarori;
5. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-apreldagi "Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 189-son Qarori;
6. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi
7. ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 10-iyundagi 359-son qarori;
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28- yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
9. strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017 yil 7-fevral.
11. farmoni, 2017 yil 7-fevral.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
13. Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 677-sonli

YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI-MENING KONSTITUTSIYAM

Sharipova Feruza Hakim qizi

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

Телефон: +998(33) 770 04 05

<mailto:feruzasharipova12@gmail.com>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10131861>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi konstitutsiyaviyaning yartilishi, muhimligi va konstitutsiyaviy islohotlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, asosiy qonun, O'zbekiston Respublikasi, mustaqillik, xalq, komissiya, Oliy Kengash, sessiya, huquq, manfaat, modda, davlat, president.

THE NEW UZBEKISTAN CONSTITUTION— MY CONSTITUTION

Abstract. This article provides information about the development of the new constitutionalism, its importance and constitutional reforms.

Key words: constitution, basic law, Republic of Uzbekistan, independence, people, commission, Oliy Kengash, session, law, interest, article, state, president.

НОВАЯ КОНСТИТУЦИЯ УЗБЕКИСТАНА — МОЯ КОНСТИТУЦИЯ

Аннотация. В данной статье представлена информация о развитии нового конституционализма, его значении и конституционных реформах.

Ключевые слова: конституция, основной закон, Республика Узбекистан, независимость, народ, комиссия, Олий Кенгаш, сессия, закон, интерес, статья, государство, президент.

Albatta, o'tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy bilimi oshdi, qarashlari o'zgardi. Ular bugungi tizim, ijtimoiy-siyosiy hayot haqida bema'lol o'z munosabatlari bildira oladi. Haq-huquqlarini taniydi. Ayni shu jihatdan qaragan Prezidentning taklifi ham xalq manfaatlarini, huquqlarini ko'zlaydi. Bugun inson qadri ulug'langan davlatda har bir fuqaroning fikri, nuqtai nazari muhim. Davlat ularni eshitadi va qo'llab-quvvatlaydi.

Davlatning bosh qomusi -Konstitutsiya esa xalq huquqlari, manfaatlarini himoya qila olishi shart. Shu nuqtai nazardan bugun xalq fikriga, takliflariga quloq tutilayotir. Demak, har birimizdan mas'uliyat va shu davlat ijtimoiy-siyosiy hayotida daxldorlik hissi ila yondashish talab etiladi.

Fuqarolar va keng jamoatchilik vakillari takliflarini yig'ish, umumlashtirish, ularni Konstitutsiyaviy komissiyaga taqdim etish tizimini ishga tushirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Mutasaddilar tomonidan "Mening Konstitutsiyam" onlayn platformasi, call-markaz, pochta, jumladan, elektron pochta hamda telegram maxsus boti orqali taklif va mulohazalar yuborish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi.

Konstitutsiyaviy komissiya esa o'z faoliyatini uch bosqichda amalga oshirdi. Birinchi bosqichda, Konstitutsiyani o'zgartirish bo'yicha takliflar qabul qilindi, jamlandi va tahlil qilindi. Qisqa muddatda fuqarolardan 60 mingdan ziyod taklif va g'oyalar kelib tushdi.

Ikkinchi bosqichda, parlament tomonidan ishlab chiqilgan, takomillashtirilayotgan Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasida ko'rib chiqildi.

Yakuniy bosqichda esa umumxalq muhokamasi natijasida maromiga yetkazilgan qonun loyihasi Prezidentimiz taklifiga asosan, referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinishi ko'rsatib o'tildi.

Darhaqiqat, shu maqsadda insonning qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi ustuvor maqsad qilib olingan, izchil va puxta o'ylangan, bir necha bosqich davomida ishlab chiqilgan Bosh qomusimizning yangi tahrirdagi varianti ishlab chiqildi. Moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga ko'paydi. Shuningdek, 128 ta moddadan 91 tasiga konseptual o'zgarish kiritildi. Konstitutsiya matni 65 foizga yangilandi. Fursatdan foydalanib, bu boradagi eng muhim jihatlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Avvalambor, biz bir savolga aniq javob topishimiz kerak. Nima uchun aynan bugun konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazish zarurati tug' ilmoqda? Ayrim yurtdoshlarimiz, hatto ba'zi olimlarimiz ham Konstitutsiyamiz zamonaviy demokratik talablarga javob beradi-ku, unga o'zgartirish kiritishga ehtiyoj bormi, degan savolni o'rta qo'y moqda.

To'g'ri, Konstitutsiyamiz xorijiy ilg'or tajriba hamda xalqaro standart va talablarga har tomonlama mos keladi. Bunga hech qanday shubha yo'q. 1992 yili amaldagi Asosiy qonunimizni qabul qilishda ishtirok etgan komissiya a'zolari fikricha: O'zbekiston Konstitutsiyasi mustaqillik yillarida erishgan barcha yutuqlarimizning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib kelmoqda. Buni hammamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

O'ttiz bir yil – tarix uchun bir lahza, xolos. Shu qisqa davrda jonajon O'zbekistonimiz mustaqil va suveren davlat sifatida shakllanib, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi, tom ma'noda ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ana shu mashaqqatli va sharafli yo'lda erishgan barcha yutuqlarimizni, eng avvalo, Konstitutsiyamiz bilan bog'lashimiz, albatta, bejiz emas. Nega deganda, Asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo'limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi.

To'la ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilm oqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o'sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir.

Parlament deputatlari tomonidan loyiha moddama-modda muhokama qilinib, unga yana bir qator o'zgartishlar kiritilgach, 1992 yil 8 dekabr kuni Bosh Qomusimiz qabul qilindi. Shu kundan e'tiboran, 8 dekabr – umumxalq bayrami deb e'lon qilindi.

Shunday qilib, O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgan sanadan e'tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topgan bo'lsa, birinchi Konstitutsiyamiz qabul qilingan kuni davlatimiz yangidan tug'ildi, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam huquqiy poydevor qo'yildi. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi mustaqil jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantirdi va mustahkamladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, Konstitutsiyamiz – Asosiy Qonunimiz qabul qilinishi bilan biz O'zbekiston kelajagini, yangitdan barpo etilayotgan davlatimizning chuqur mazmuni, ma'no va mohiyatini, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar va ma'naviy taraqqiyotning, yurtimiz qiyofasini, uning xalqaro hamjamiyatdagi o'rni va nufuzini tubdan o'zgartirib yuborgan mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilishning pirovard maqsadlarini aniq-ravshan belgilab oldik.

O'zbekiston Konstitutsiyasining g'oya va normalarida xalqimizning ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir.

Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko'plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg'or tajribaning eng yaxshi jihatlarini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume'tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta'minlash va himoya qilish mexanizmini o'zida mujassam etgan.

Konstitutsiyaning qabul qilinishi ijtimoiy va davlat qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchiligimizning barcha sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz parlamenti Konstitutsiya normalariga muvofiq 8 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeks, 600 dan ziyod qonunni qabul qildi, 200 dan ortiq ko'p tomonlama xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi va shu tariqa Asosiy Qonunimizni amalga oshirishning yaxlit huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning samaradorligini vaqt o'zi ko'rsatib turibdi va bu bugun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Asosiy Qonunimizga nisbatan bunday yuksak va xolis baholar berilishi bejiz emas. Buni, jumladan quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, bizning Konstitutsiya haqiqatan ham demokratik Konstitutsiyadir. Tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni, xalqaro andozalarni o'zida mujassam etgan hujjatdir.

Ikkinchidan, bizning Konstitutsiya eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan. Bunda qaysidir davlatning tayyor Konstitutsiyasini ko'r-ko'rona ko'chirib olish yo'lidan bormay, balki eng ilg'or xorijiy konstitutsiyaviy tajribalarni o'rgandik va e'tiborga oldik. Natijada endilikda Bosh Qomusimiz dunyo miqyosida ham har qanday taraqqiy topgan davlat Konstitutsiyasi bilan bemalol kuch sinashmoqda.

Uchinchidan, Konstitutsiyaning g'oya va normalari o'zbek xalqining teran tarixiy ildizlariga asoslangan bo'lib, u ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlarni, ulug'ajdodlarimizning huquqiy merosini o'z ichiga olgan.

Bugungi kunga kelib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan xalqimiz uchun bir qancha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan har bir shaxs to'laqonli erkin so'zlash huquqiga ega bo'ldi. Jamiyatning asosi davlat emas, inson huquqi etib belgilandi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "INSON DAVLAT UCHUN EMAS, DAVLAT INSON UCHUN ISHLAYDI".

Ijtimoiy adolat insoniyat tarixida asrlar mobaynida shakllangan muhim ijtimoiy g'oya va xalqning doimiy orzusi bo'lib, jamiyatda ro'y berayotgan islohotlar davrida uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jamiyatimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlar esa bu tamoyilning hayotga tatbiq qilinayotganining yorqin dalili sifatida ko'zga tashlanadi.

Ijtimoiy adolat davlat hokimiyati organlarining boshqaruv salohiyati va fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlari va imkoniyatlari o'rtasida hamjihatlik va adolatli ijtimoiy tartibotni

tashkil etish vositasi sifatida faoliyat yurituvchi huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy adolat erkinlik va tenglik tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligida yaqqol namoyon bo'ladi. Erkinlik va tenglik tushunchalari esa qonuniylik tushunchasi bilan uzviy bog'liq holda ijtimoiy adolatni huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Jamiyat a'zolarining qonun oldida tengligi, inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish ijtimoiy adolat tamoyilining bosh maqsadini tashkil qiladi.

Konstitutsiyamizning yangi tahririda shularga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, ijtimoiy, demokratik-huquqiy va chinakam xalqparvar davlatchilik asoslarini yaratish, aholi farovonligini oshirish, inson huquq va manfaatlarini, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishga muhim ahamiyat qaratilgan. Yangi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yangi davrni boshlab beradi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, konstitutsiyaviy islohotni fuqarolarimiz fikri va qo'llab-quvvatlashi asosida, referendum orqali amalga oshirsak, bu tom ma'noda xalqimiz xohish irodasining ifodasi-haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, xozirgi kunda yer yuzida mavjud davlatlarning deyarli barchasi o'zlarining erkin siyosati, tili, davlat ramzlariga ega. Ammo ularning hammasi ham o'z konstitutsiyasiga ega emas. Milliy ramzlar qatorida tilga olinadigan konstitutsiyaga bizning mamlakatimiz ham ega ekanligi bizning baxtimiz albatta. Ulug' ajdodlarimizning asriy armonlari, erkin xayot, farovon jamiyat va adolatli davlat barpo etishdek eng ezgu tilaklar va ulug' orzularini o'zida mujassam etgan Davlatimiz Konstitutsiyasi barcha qabul qilinadigan qonunlar va meyoriy xujjatlar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi //O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Halq so'zi" gazetasi (<https://kompy.info/foydalanilgan-adabiyotlar-v8.html>), (<https://kompy.info/foydalanilgan-adabiyotlar-v8.html>) 22 dekabr 2017 yil.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008, 171 b
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Bola ma'naviyatini tarbiyalash /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: "Ma'rifat-Madadkor"
5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi //Bola ma'naviyatini tarbiyalash /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: "Ma'rifat-Madadkor", 2000. – 20-55-b.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 80 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 25-yilligiga bag'ishlangan "Konstitutsiya - erkin va farovon hayotimiz(<https://kompy.info/soxibaxon-ped-texnologiya-doc.html>), (<https://kompy.info/soxibaxon-ped-texnologiya-doc.html>) mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasidagi nutqidan.

INTELLEKTUAL MULK DAVLAT HIMOYASIDA VA BU SOHADAGI NIZOLARNI HAL ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNING O'RNI

Sharipova Feruza Hakim qizi

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

Telefon: +998(33) 770 04 05

<mailto:feruzasharipova12@gmail.com>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10132599>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk muhofazasi bo'yicha Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi, uning rivojlanib borishi hamda o'zaro hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar tahlil etilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi tomonidan intellektual mulk muhofazasini ta'minlashda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha aytib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** intellektual mulk, ijodiy huquqlar, mutlaq huquqlar, mualliflik huquqi, xalqaro tashkilot, yevropa ittifoqi, ilodkor shaxs, xorijiy tajriba, intellektual mulkni himoya qilish*

INTELLECTUAL PROPERTY IS PROTECTED BY THE STATE AND DISPUTES IN THIS FIELD THE ROLE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE SOLUTION

***Abstract.** This article analyzes the establishment of cooperation relations with the World Intellectual Property Organization on the protection of intellectual property of the Republic of Uzbekistan, its development, and the work carried out in mutual cooperation. Also, in recent years, the Republic of Uzbekistan has mentioned further expansion of cooperation with the World Intellectual Property Organization in ensuring the protection of intellectual property.*

***Key words:** intellectual property, creative rights, absolute rights, copyright, international organization, European Union, creative person, foreign experience, protection of intellectual property.*

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ ЗАЩИТАЕТ ГОСУДАРСТВО И РОЛЬ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗРЕШЕНИИ СПОРОВ В ЭТОЙ ОБЛАСТИ

***Аннотация.** В данной статье анализируется установление отношений сотрудничества со Всемирной организацией интеллектуальной собственности по защите интеллектуальной собственности Республики Узбекистан, ее развитие, а также работа, проводимая во взаимном сотрудничестве. Также в последние годы Республика Узбекистан отметила дальнейшее расширение сотрудничества со Всемирной организацией интеллектуальной собственности в обеспечении защиты интеллектуальной собственности.*

***Ключевые слова:** интеллектуальная собственность, творческие права, абсолютные права, авторское право, международная организация, Европейский Союз, творческая личность, зарубежный опыт, защита интеллектуальной собственности.*

Intellektual mulk huquqi — intellektual faoliyat natijasiga tegishli huquq. Mulk egasi ana shu intellektual mulk ob'yektlaridan o'z xohishiga ko'ra, har qanday shaklda va har qanday usulda

mutlaq qonuniy foydalanish huquqiga egadir. Ma'lumki, intellektual (ijodiy) faoliyatsiz intellektual mulk huquqi fuqarolik huquqining kichik sohasi sifatida ham, umuman, huquqning muayyan tuzilmasi sifatida ham mavjud bo'lishi mumkin emas. Inson ijodiy faoliyati juda ko'p o'ziga xosliklarga ega. Tibbiy olimlar, ruhshunoslar, fiziologlar tomonidan ushbu faoliyat unikal, noyob ekanligini har doim ta'kidlanadi. Ijodiy jarayon natijasida har doim yangi ob'ekt yaratiladi. Kishilar faoliyatining shunday sohalari borki, bunday faoliyatning asosida intellektual-ijodiy jarayon yotadi.

Masalan, ilm-fan, adabiyot, san'at. Biroq inson faoliyatining boshqa sohalarida ham ijodiy yondashuvni qo'llash imkoniyatlari behisob. Xar qanday inson o'z turmush tarzi, o'z qiziqishlari, kasbi-kori va boshqa sohalarda ijodiy yondashuv asosida juda muhim samarali natijalarga erisha oladi. Ijodkorlik ijodkor shaxs bilan uzviy bog'liq, undan ajralmas xususiyatdir. Ijodkorlik bu o'ziga xos salohiyat, qobiliyat layoqat xisoblanadi. Kishi o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, uni qo'llay olishi, samarali natijalarga erishishi mumkin. Kishining ijodiy salohiyati eng avvalo uning faoliyati natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli ham huquq ijodkor insonga nisbatan, ijodiy faoliyatga nisbatan va ijodiy faoliyat natijalariga nisbatan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda alohida o'ziga xos ob'ekt sifatida yondashadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, ijodkor shaxslar uchun belgilangan tartibda maqom belgilab qo'yilgan. Bunda fan muallifi maqom iqtisodi ma'naviy qadriyatlar yordamida, yordam, yozuvchi shoir, rassom kabi professional kasb-korlarini nomlanishida ham, o'zini o'zi boshqarish maydonlarida fan doktori, nomzodi, dotsent, professor, akademik kabi o'ziga xos rutbalarda ham to'laqonli ko'rinadi.

Ijodkor shaxslar davlat tomonidan ham, jamiyat tomonidan ham rag'batlantiriladi, qo'llab-quvvatlanadi, ularga nisbatan alohida hurmat-e'tibor bilan qaraladi. Masalan, olimlarga xizmat ko'rsatgan fan arbobi; bastakor, xonanda va sozandalarga esa xizmat ko'rsatgan artist, xalq artisti; yozuvchilar, shoirlarga nisbatan xalq yozuvchisi kabi davlat unvonlari mavjud. Bunday rutbalarga ega bo'lgan shaxslar maoshlariga, pensiyalariga ustamalar to'lanadi, xizmat turar joylari berilganda qo'shimcha uy-joy maydoni olish imtiyoziga ega, va nixoyat, O'zbekiston davlat mukofotlari tizimi mavjud, xalqaro miqiyosda Nobel mukofoti laureatlari alohida qadrlanadi.

Ikkinchidan, ijodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish mexanizmida ham o'ziga xosliklar mavjud. Aniqroq aytganda, huquq bunda ijodiy intellektual faoliyatni alohida tartibga solmaydi, balki ijodkor insonni o'zining muayyan faoliyatini amalga oshirishdagi ijodkorlik xususiyatlarini hisobga oladi.

Masalan, mehnat qonunchiligiga ko'ra ijodkor xodimga o'z ilmiy ishlanmasini ishxonada emas, balki o'zi uchun maqbul bo'lgan sharoitlarda amalga oshirish uchun ijodiy ta'til berilishi mumkin. Ish beruvchi xizmat tartibida yaratilgan ilmiy asarlar, badiiy va boshqa ijodiy asarlar uchun mutlaq huquqlarni ijodkor xodimga to'liq hajmda yoxud muayyan ulush hajmida berishi xam mumkin yoki bunday xizmat asarlariga nisbatan mutlaq huquqlar ish beruvchiga tegishli bo'lsa ham muayyan muddat o'tgach mutlaq huquqlar ijodkor xodimga o'tadi.

Fuqarolik huquqida pudrat shartnomalarining alohida turi sifatida ilmiy tadqiqot ishlari shartnomasiga oid normalar belgilab qo'yilgan. Bunday shartnomada ijodiy muvaffaqiyatsizlik, salbiy natija, ilmiy tadqiqot ishlari asosida yaratilgan ob'ektlarga nisbatan mutlaq huquqlarni rasmiylashtirish huquqlari, tavakkalchilik burchining taqsimlanish xususiyatlari o'z ifodasini

topgan. Ijodiy faoliyatni tashkil etish bo'yicha tanlovlar, konkurslar o'tkazish tizimi va tartibiga oid huquqiy normalar amaldagi qonunchilikda o'z ifodasini topgan.

Va nixoyat, uchinchidan, ilmiy-ijodiy faoliyat natijasida yaratilgan moddiy va nomoddiy ob'ektlar ham alohida huquqiy rejimga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Mualliflik huquqida bular fan, adabiyot, san'at asarlari, patent huquqida ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, selektsiya yutuqlari kabi huquqiy rejimga ega.

Bunday alohida huquqiy rejimni belgilashdan maqsad ham ushbu ob'ektlarning yaratuvchisiga nisbatan muayyan shaxsiy va mulkiy huquqlarni taqdim etish, fuqarolik muomalasida ularga nisbatan muayyan maqomni ta'minlash, mutlaq huquqlar egasi huquqlari hajmini, ushbu ob'ektlardan foydalanish jarayoni bo'yicha ishtirokchilarning o'ziga xos huquq va majburiyatlarni belgilash hisoblanadi.

Intellektual mulk ximoyasi bo'yicha xalqaro tashkilotlar. Intellektual mulkni himoya qilishda xalqaro miqyosda ikkita asosiy xalqaro tashkilot hamda bir qator regional tashkilotlar faoliyat olib boradi. Ikkita asosiy xalqaro tashkilot sifatida Butunjaxon intellektual mulk agentligi (WIPO BIMT) hamda - Jaxon savdo tashkiloti (WTO JST) intellektual mulkni himoya - qilish va tartibga solish vazifasini amalga oshiradi. Regional tashkilotlardan eng muhimlaridan bu Yevropa Ittifoqi hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar xalqaro intellektual mulkni muhofaza qilishda juda muhim funktsiyalarni bajarishadi.

BMT xamda JST intellektual mulk sohasidagi asosiy shartnomalarni tuzish, qabul qilish, qayta ko'rib chiqishni amalga oshirishadi. Ular nafaqat ushbu shartnomalarni ishlab chiqishadi, balki ba'zi holatlarda ularning ijrosini ta'minlashga ham undashadi, majburlov choralari ko'rishadi. Yevropa Ittifoqi doirasida Tovar belgilari bo'yicha regional byuro mavjud bo'lib, hozirgi kunda tovar belgilari bo'yicha regional normativ bazani yaratish va takomillashtirish bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqi tarafidan Yevropa patent ittifoqini tuzish ustida ish olib borilyapti. Hozirgi kunda Agentlik BMT bilan birgalikda intellektual mulk bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish bo'yicha harakatlarni boshlagan. Intellektual mulk bo'yicha milliy strategiya iqtisodiy nuqtai nazardan qadri bo'lgan intellektual mulkni yaratish bo'yicha mamlakatning imkoniyatlarini oshiradi.

Bundan tashqari, intellektual mulk sohasidagi strategiya mamlakatga muayyan reja doirasida hamda samardorlik va barqarorlik printsiplariga rioya holda barcha manbalarning salohiyatini ochib berish imkonini yaratadi. 2017 yilda BMT bilan Agentlik qoshidagi intellektual mulk sohasidagi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv markazini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi kelishuvga erishildi. Ushbu ko'mak doirasida o'quv-uslubiy qo'llanmalar taqdim etiladi, o'quv auditoriyalari texnik jihatdan qo'llab-quvvatlanadi, o'qituvchilar qayta tayyorlanadi hamda markaz tashkil qilayotgan turli tadbirlarga chet ellik mutaxassislar jalb qilinadi

Yevropa Ittifoqi. Yevropa Ittifoqining intellektual mulk tizimi juda kuchli xisoblanadi, chunki uning tarkibiga ko'p yillar davomida intellektual mulk tizimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan va katta tajribaga ega davlatlar kiradi. Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlari va raxbariy organlari intellektual mulkni muhofaza qilish siyosatini ishlab chiqishda quyidagi asosiy vazifalarni oldiga qo'yishgan:

- 1) intellektual mulk muxofazasini kuchaytirish;

2) nohalol raqobat sharoitida intellektual mulkka bo'lgan huquqlardan foydalanishni oldini olish;

3) intellektual mulk qonunchiligini garmonizatsiyasi;

4) tovar belgilari bilan shug'ullanadigan patent xizmat tashkilotlarini xarakatlarini qaytarilishini darajasini kamaytirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun Yevropa Ittifoqi bir qator mexanizmlardan foydalanadi:

1) majburiy direktivalar chiqarish;

2) xalqaro tashkilotlarning yig'ilishlari, konferentsiyalarida ishtirok etish, xalqaro shartnomalarni qabulga tayyorlashda va qabul qilishda ishtirok etish;

3) Yevropa Ittifoqining o'z shartnomalarini, ba'zilarida esa boshqa a'zo bo'lmagan davlatlar uchun ham ochiq shartnomalarni ishlab chiqish va qabul qilish;

4) Yevropa Ittifoqining o'z institutlarini yaratish

Intellektual ijod asarlari mualliflarining asosiy huquqlaridan biri (mualliflik yoki hammualliflik shaxsiy huquqlaridan tashqari) bu o'z asarini e'lon qilish, ularni ko'paytirish va tarqatishga bo'lgan huquqdir. Yangi texnika vositalarining yaratilishi ko'pgina adabiy, musiqiy, kino teleasarlarni ularning mualliflari va tayyorlovchilari roziligisiz va nazoratsiz ko'paytirish va tarqatish imkoniyatini kengaytirdi.

Hozirgi vaqtda ko'pgina firmalar, idoralar va ayrim shaxslar nusxa ko'chirish qurilmalari va mikrofotoapparatlar tarzidagi moslamalarga ega bo'lib, ular matnlar, chizmalar va suratlardan oson va arzon nusxa ko'chirish imkonini beradi. Original asarlarning mualliflari va tashkilotchi-tayyorlovchilar himoya qilish haqida qayg'uradigan huquqlar orasida mulkiy huquqlar birinchi o'rinda turadi. Mulkiy huquqlar ko'p karra nusxa ko'chiriladigan intellektual ijod asarlari mualliflarining shaxsiy huquqlari kabi milliy qonunchilik va xalqaro bitimlar bilan muhofaza qilinadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 08.12.1992 (qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan)
2. O'zbekiston Respublikasining —Mulchilik to'g'risidagi Qonuni 31.10.1990 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining —Baholash faoliyati to'g'risidagi Qonuni 19 avgust 1999 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining —Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi Qonuni 19.11.1991yil
5. O'zbekiston Respublikasi —Fuqarolik kodeksi 30.08.1996y
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi —Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan hizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risidagi PQ-843-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 8 maydagi 210-sonli —Baholash faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Qarori.
8. I.A.Karimov Ozbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yolida. T.«Ozbekiston» 1995 y.
9. I.A.Karimov.Ozbekiston XXI asr bosagasi: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. «Ozbekiston » 1997 y.
10. I.A.Karimov Ozbekiston XXI asrga intilmoqda. T. «O'zbekiston» 1999 y..

11. Karimov I.A. —Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir! O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi.
12. Matmurodov F.M. Baholash ishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya,

Foydalanilgan internet manbalari

1. www.lex.uz
2. www.gazeta.uz
3. www.daryo.uz
4. www.kun.uz

THE SIGNIFICANCE OF COMPUTERIZED THERMOGRAPHY IN EVALUATING THE EFFICACY OF TREATING INFLAMMATORY BACK PAIN

Khodjaeva Zulfiya Amangeldievna

zulfiya.hodjayeva@mail.ru

PhD, Department of Neurology and Pediatric Neurology, Medical Genetics, TPMI.

Khodjaev Amangeldi

PhD, "Shahlo shifo" Medical Clinic.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10138379>

Abstract. *Medical thermography (thermal imaging): "...a method of recording the natural thermal radiation of the human body in the invisible infrared region of the electromagnetic spectrum of body temperature - one of the most important indicators of human health, based on the fact that any pathological condition locally or generally affects the processes of heat production and heat exchange in the body. Thus, during inflammation, the rate of biochemical processes decreases, but the process of uncoupling respiration and phosphorylation intensifies, as a result of which the temperature of the inflamed area will be higher than the temperature of the surrounding tissues" [1].*

Key words: *cervical dorsalgia, lumbosacral dorsalgia, quality of life.*

ЗНАЧЕНИЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ТЕРМОГРАФИИ В ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛЕЧЕНИЯ ВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ БОЛЕЙ В СПИНЕ

Аннотация. *Медицинская термография (тепловизионное изображение): "...метод регистрации естественного теплового излучения человеческого тела в невидимой инфракрасной области электромагнитного спектра температуры тела - один из важнейших показателей здоровья человека, основанный на том факте, что любое патологическое состояние локально или в целом влияет на процессы теплопродукции и теплообмена в организме. Таким образом, во время воспаления скорость биохимических процессов снижается, но усиливается процесс разобщения дыхания и фосфорилирования, в результате чего температура воспаленного участка будет выше, чем температура окружающих тканей" [1].*

Ключевые слова: *шейная дорсалгия, пояснично-крестцовая дорсалгия, качество жизни.*

Thermography normally has a certain thermal body, and in a healthy individual it practically does not change, but pathology changes it. Thermography is absolutely safe for any duration and duration of use; it is used in pregnant women and children, since it has absolutely no radiation exposure - since it registers human electromagnetic radiation, unlike CT and X-ray studies [1, 2, 4, 6]. It is much cheaper than magnetic resonance imaging, it can be used for long-term monitoring of patients, it has a high speed of obtaining and processing information, easy storage and access to research results [5].

Thermography is a non-contact method that works at a distance, which is not unimportant from the point of view of the epidemiology of contact infectious pathologies [14], it allows "... to examine the entire body at once and within the framework of one patient visit, which is also a significant advantage in the thermography method" [5].

The basis of dorsalgia is severe pain caused by irritation of the nerve endings of the soft tissues around the spine: "... muscles, ligaments, fascia; facet joints, nerves and spinal ganglia; intervertebral disc, vertebrae, dura mater" [3].

The causes of back pain are varied. Typically, back pain is associated with pathology of the muscles, nerves, bones, joints or other structures of the spine [7].

Lumbar dorsalgia often occurs at the age of 20-50 years, the maximum pain syndrome occurs at 50-64 years; at 20-64 years old, 24% of men and 32% of women report back pain [8, 9]. The most interesting thing is that 12–26% of children and adolescents also report the presence of lower back pain [11, 12]. Up to 67% of women in the population felt pain in the lower back, and the peak of pain is observed at 35–45 years of age [10, 13].

Purpose of the study: to evaluate the role of computed thermography in assessing the effectiveness of treatment for back pain.

Material and methods. The study is based on examination data of 175 patients with dorsalgia with inflammatory origin of dorsalgia, of which 52 patients with CD and 123 patients with PCD, aged 21-66 years (36.2 ± 6.7 years).

We conducted a comprehensive clinical and neurological examination with active identification of complaints and medical history. Radiological research methods were also used - CT and MRI.

All patients received treatment in a physiotherapy private clinic for a minimum of 10 days.

Depending on the severity of the disease, duration of the disease, contraindications, a complex of treatment was prescribed: massage of the diseased area No. 10; traction of the cervical or lumbar region immediately after massage No. 10; ultrasound therapy No. 5-10 on the diseased area with indomethacin, laser therapy No. 5-10; electrophoresis No. 5-10, UVT 1-2 units No. 3-5.

In addition to shock wave therapy, all physiotherapeutic procedures were carried out regardless of inflammation, at least 4 different procedures per day of treatment.

In the presence of an inflammatory process, anti-inflammatory therapy was performed first:

For mild inflammation (CRP is 1.5-2 times higher): rheumoxicam 7.5 mg 1 tablet x 1 time in the evening after meals for 10 days, on days 3-4 - UVT

For moderate inflammation (CRP higher than 2-3 times, ESR-25-35): xefocam 8.0 mg + Phys. solution 100.0 = IV drip No. 5, (or Ketonal 2.0), then rheumoxicam 15 mg 1 tablet x 1 time in the evening after meals for 10-20 days; mydocalm 1.0 i/m No. 5; after 3-5 days - shockwave therapy, after 10 days of treatment, shockwave therapy was carried out once every 3-5 days, 3-5 times.

For severe inflammation (CRP is higher than 3 times, RF is increased by 2 times, ESR is higher than 35 mm/h): physical solution 100.0 + Dexamethasone 2.0-2.0-1.0-1.0- 0.5 + Analgin 50% -2.0 + No-spa 2.0 = intravenous drip No. 5; xefocam 8mg++Physical solution 100.0=IV drops No. 5 (or Ketonal 2.0), then rheumoxicam 15mg 1 tablet x 1 time in the evening after meals for 10-20 days; L-lysine 5.0-1.0 + Phys. solution 100.0 = IV drip No. 5; mydocalm 1.0 i/m No. 5; after 5 days, shock wave therapy is added; after 10 days of treatment, shock wave therapy was carried out once every 3-5 days, 3-5 times.

Determining the presence or absence of an active inflammatory component of dorsalgia allowed us to make a decision on treatment tactics and its components.

In turn, this group was divided into 3 subgroups using a blind sampling method:

Group 1A - differentiated therapy of dorsalgia of inflammatory origin with subsequent administration of shock wave therapy - 58 patients (16 - CD and 42 - PCD);

Group 1B - differentiated therapy of dorsalgia of inflammatory origin without the inclusion of shock wave therapy - 58 patients (17 - CD and 41 - PKD)

Group 1C – differentiated therapy of dorsalgia of inflammatory origin with subsequent administration of shockwave therapy and vitamin D in therapeutic and prophylactic doses – 59 patients (19 – CD and 40 – PCD);

Statistical data processing was carried out using Microsoft Office Excel-2019, including the use of built-in statistical processing functions.

The results of the study: the dynamics of pain in patients with CD group 1A are leveled out and persist throughout 12 months of observation. So, if initially among patients in this group the average scores were 8.4 ± 1.2 points, then after 14 days of observation they significantly decreased to 5.5 ± 1.2 points ($P < 0.05$), after 3 months to 4.9 ± 1.1 points ($P < 0.01$), and after 12 months to 2.8 ± 0.6 points ($P < 0.001$). The data obtained indicate that the use of shockwave therapy in the complex therapy of CD has a positive effect that lasts up to 12 months.

In group 1B, after 14 days of observation, positive dynamics were noted, there was a significant decrease in average scores on the VAS scale from 7.9 ± 1.1 to 5.5 ± 1.0 points ($P < 0.05$), however, in long-term periods (3 months and year) found an increase in average scores after 1 year to the initial ones, which demonstrates the short-term effectiveness of traditional treatment, the maximum of which occurs in the first 2 weeks and lasts up to 3 months.

In group 1C, a statistically significant reduction in pain was observed relative to groups 1A ($P < 0.05$) and 1B groups ($P < 0.01$), which confirms the long-term effectiveness of the combined use of shockwave therapy and vitamin D, the peak effectiveness of which occurs at 12 months ($P < 0.01$) in relation to group 1A (1.8 ± 0.5 versus 2.8 ± 0.6 points) and to group 1B (1.8 ± 0.5 versus 7.3 ± 1.5 points ($P < 0.001$)).

When analyzing the effectiveness of prescribing shockwave therapy and vitamin D in the complex treatment of patients with PCD, we also noted significant relief of pain. Thus, in group 1A, the initial average scores were 9.2 ± 1.3 points; we noted a significant decrease in VAS scores already on the 14th day of treatment; after 3 months and 12 months, the positive effect persisted, which was confirmed by a persistent decrease in average scores (4.3 ± 0.9 and 3.2 ± 0.5 points, respectively).

In group 1B, regression of the pain symptom was observed during the first 14 days of treatment (8.9 ± 1.4 versus 6.9 ± 1.2 points; $P < 0.01$), while in the long-term period after 3 months and 12 months there was an increase in average points on the VAS scale (7.3 ± 1.6 and 7.8 ± 1.5 points).

In group 1C of patients with PCD, after 14 days of treatment there was an almost 2-fold decrease in average VAS scores (9.1 ± 1.7 versus 4.2 ± 1.3 points; $P < 0.05$), in the long-term period after 3 and 12 months, pain relief was observed in all patients, with the average scores significantly decreasing compared to the initial data (2.8 ± 0.7 , 1.5 ± 0.4 points versus 9.1 ± 1.7 points; $P < 0.001$). A study of the long-term period showed persistent positive dynamics among patients with PCD when prescribed in combination therapy with UVT and vitamin D.

The degree of muscle disorders in the dynamics of observation among patients with CD and PCD also underwent changes and had a positive trend, so if before treatment the average score

on the IMS scale in the groups was on average 12.9 ± 0.18 points for CD, and 9 for PCD $.8 \pm 0.32$ points, then after treatment there was a decrease in the average score by an average of 3.5 times, a particularly pronounced decrease was observed in groups 1A and 1C (Table 1).


The most pronounced relief of muscular-tonic syndrome was observed in group 1C in patients with CD and PCD, i.e. in patients whose treatment complex was prescribed shockwave therapy and vitamin D. When analyzing the initial indicators of IMS in group 1A, both in CD and PCD corresponded to grade III severity, whereas after treatment it was grade I (mild).


Thus, the average scores on the IMS scale on day 14 in group 1A in patients with CD significantly decreased (12.2 ± 0.12 versus 8.5 ± 0.21 points). In the long-term period, symptom relief in this group reached 3.2 ± 0.11 points. With PCD in group 1A, the average IMS score after 14 days of treatment was 8.5 ± 1.5 points, which is significantly lower than the initial data. After 3 and 12 months, stable relief of muscular-tonic syndrome was observed (5.1 ± 1.3 and 3.9 ± 0.14 compared to 11.6 ± 1.3 points; $P < 0.05$).

In group 1B, in patients with CD, positive dynamics of IMS indicators were noted on day 14; in the long-term period, the average IMS indicators increased and in most patients they reached the initial data or higher. Among patients with PCD in group 1B, a similar picture is observed. The data obtained in group 1B indicate that the relief of muscular-tonic syndrome is unstable and in the long term, in most patients, repeated cases of the disease are observed.

In group 1C, the most pronounced positive dynamics of relief of muscular-tonic syndrome were recorded with a persistent effect maintained in the long-term period compared with the indicators of groups 1A and 1B. Thus, 14 days after treatment, there was an almost 2-fold decrease in average scores ($P < 0.05$) on the IMS, while after 3 months a decrease in average scores was noted by 2.5 times ($P < 0.05$), and after 12 months 4.3 times ($P < 0.01$) relative to the original data. A study of the long-term period showed persistent positive dynamics among patients with PCD when prescribed in combination therapy with UVT and vitamin D.

We also established the leveling of the inflammatory process during thermography. The most typical thermographic manifestation of spinal pain syndrome was the identification of zones with increased intensity of infrared (IR) radiation on the posterior surface of the body (Fig. 1).





Before treatment

After treatment

Rice. 1. Pathological hyperthermia of the posterior surface of the neck in CD. Thermogram (a) and pseudo-three-dimensional image (b) of the posterior surface of the neck

Depending on the localization and severity of the pathological process, various variants of disruption of normal thermotonography of the posterior surface of the body were diagnosed: thermal asymmetry of the thermal pattern, zones of increased emission of infrared radiation in the area of the skin projection of the spinous processes of the vertebrae (individually several or throughout the entire spinal column), foci of confluent and spotted pathological hyperthermia in paravertebral zones.

Having analyzed the changes in thermal imaging data before and after treatment, we can say that after treatment, the values of absolute temperature in the neck area change unreliably in the treatment groups.

However, in groups 1A and 1C in the neck region there was a decrease in maximum temperature - on average by $1.8 \pm 0.01^\circ\text{C}$ and $2.3 \pm 0.01^\circ\text{C}$ ($35.4 \pm 1.2^\circ\text{C}$ and $35.8 \pm 1.1^\circ\text{C}$ before treatment and $33.6 \pm 1.3^\circ\text{C}$ and $33.5 \pm 1.2^\circ\text{C}$ after treatment, respectively) (Fig. 2).




Fig. 2. Thermometry indicators for CD in treatment groups during follow-up

In group 1B, temperature indicators before and after treatment changed by $0.8 \pm 0.01^\circ\text{C}$, which is significantly lower in relation to groups 1A and 1C ($P < 0.01$).

When studying thermographic indicators in the dynamics of treatment in patients with PCD, we established the following temperature changes, so in patients of groups 1A and 1C we found a statistically significant decrease in thermal asymmetry in all studied regions ($p < 0.05$). In

the PCD region, the most pronounced decrease in thermal asymmetry was observed after treatment ($p < 0.05$).

Before treatment, the study groups did not differ in thermal asymmetry ($p > 0.05$). In group 1B there was also a change in thermal asymmetry after treatment, but not as strong as in groups 1A and 1C (Fig. 3).




Fig.3. Thermometry indicators for CD in treatment groups during observation dynamics

As can be seen from the diagram, in patients of group 1A, a decrease in temperature was found on average by $2.2 \pm 0.05^\circ\text{C}$, while in group 1B it was only by an average of $0.8 \pm 0.01^\circ\text{C}$, which is significantly lower ($P < 0.05$). However, in group 1C, the average deviations in the dynamics of the study were $3.2 \pm 0.06^\circ\text{C}$, which was significantly higher in relation to groups 1A and 1B ($P < 0.01$) (Fig. 4).

Based on the results obtained, it can be argued that in case of dorsalgia, an informative indicator of the level of pain is the severity of thermal asymmetry in the neck and lumbosacral region. The criterion for improving the condition of patients can be not only a decrease in maximum temperature, but also a decrease in thermal asymmetry.




Fig.4. Pathological hyperthermia of the spine during PCD. Thermogram (a) and (b) after treatment; (c) before treatment

Based on this, we can talk about a decrease in inflammatory processes, irritation phenomena and venous stagnation in patients who received shockwave therapy and vitamin D.

Conclusion: thermographic monitoring of such patients during the process of rehabilitation treatment showed that in most cases, subjective normalization occurs earlier than the ICTG indicators return to normal. This makes it possible to very reliably diagnose residual effects of the inflammatory process and, if necessary, continue rehabilitation measures.

REFERENCES

1. Andreev R.S., Kalenov Yu.N., Yakushkin A.V. and etc. Возможности инфракрасной термографии по выявлению морфофункциональных характеристик человека (детей и взрослых). Вестн. московского ун-та. Серия 23: антропология. 2016; (3): p.49– 58.
2. Parshikova S.A., Parshikov V.V. Неинвазивные методы мониторинга раневого процесса (обзор литературы). Перспективы их применения в челюстно-лицевой хирургии у детей. Современ. пробл. науки и образования. 2012; (2): p.64.
3. Trukhan D.I., Davydov E.L. Дорсалгия: актуальные аспекты терапии на этапе оказания первичной медико-санитарной помощи. // Consilium Medicum. 2015 - №17(9). - p.82–87
4. Urakova N.A., Urakov A.L. Инфракрасная термография головы плода — новая методика диагностики в акушерстве. Вестн. рос. военно-мед. академии. 2014; (3); p.32–36.
5. Khizhnyak L.N., Khizhnyak E.P., Ivanitsky G.R. Диагностические возможности матричной инфракрасной термографии. Проблемы и перспективы. Вестн. новых мед. технол. 2012; 19 (4): p.170–176.
6. Sheiko E.A., Kozel Yu.Yu., Triandafilidi E.I., Shikhlyarova A.I. Дистанционная инфракрасная термография как вспомогательный метод в диагностике и лечении гемангиом у детей до года. Международн. ж. прикладных и фундаментал. исслед. 2015; (9-2): p.302–304.
7. Bonner SM. Getting to the root of your patient's back pain. // Nursing. 2009 Jul;39(7):36–41. doi: 10.1097/01.NURSE.0000357267.74087.ee. PMID: 19543039
8. Coskun Benlidayi I. I have back pain! // Rheumatol Int. 2018 Nov;38(11):2163–2164. doi: 10.1007/s00296-018-4162-6. Epub 2018 Oct 6. PMID: 30293154.
9. Gupta L, Zanwar A, Misra DP, Agarwal V. Approach to non-compressive back pain. Neurol India. 2019 May-Jun;67(3):671–678. doi: 10.4103/0028-3886.263183. PMID: 31347533.
10. Kiltz U, Baraliakos X, Regel A, Bühring B, Braun J. Causes of pain in patients with axial spondyloarthritis. Clin Exp Rheumatol. 2017 Sep-Oct;35 Suppl 107(5):102–107. Epub 2017 Sep 29. PMID: 28967358.
11. Lems WF, Netelenbos JC. The Dutch Institute for Health Care Improvement (CBO) guideline for the diagnosis and treatment of aspecific acute and chronic low back complaints. // Ned Tijdschr Geneeskd. 2014 Apr 24;148(17):858–9; author reply 859. PMID: 15141660,
12. Nahle IS, Hamam MS, Masrouha KZ, Afeiche NE, Abdelnoor J. Back pain: A puzzle in children. // J Paediatr Child Health. 2016 Aug;52(8):802–8. doi: 10.1111/jpc.13291. PMID: 27535879

13. Szulc P. Vertebral fracture: diagnostic difficulties of a major medical problem. // J Bone Miner Res. 2018 Apr;33(4):553-559. doi: 10.1002/jbmr.3404. Epub 2018 Mar 5. PMID: 29419882.
14. Zhuravlev A.S., Shustakova G.V., Karchinskyy A.A. The possibilities of using remote infrared thermography to diagnose and determine the effectiveness of the treatment of certain ent organs diseases. Folia Otorhinolaryngol. Pathol. Respirator. 2015; (1): 24–26

ИННОВАЦИОН САЛОҲИЯТНИНГ ИҚТИСОДИЙ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ

Усманова Умидахон Илхомжон қизи

Гулистон давлат университети ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10138565>

Аннотация. Мазкур илмий мақолада жаҳонда кейинги йилларда инновацион салоҳиятни, хусусан, илмий-техник, инвестицион, интеллектуал, инфратузилмавий ва малакали ишчи кучи салоҳиятини ошириши, улардан самарали фойдаланишга йўналтирилган илмий изланишлар бу борада интеллектуал салоҳиятни ностандарт ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларни эътиборга олган ҳолда ошириши, инфратузилмавий фаолиятни молиявий дастакларга кўра рағбатлантириши, миллий инновацион тизимнинг самарали амал қилиши механизмларини хусусий ва давлат тузилмалари интеграциясини самарали уйғунлаштириши ҳамда инновацион салоҳиятдан модернизациялашув ва диверсификация даражасини оширишида самарали фойдаланиши каби йўналишлари ёртилган.

Калим сўзлар: инновацион, интеграция, инфратузилма, ишчи кучи, интеллектуал, модернизация, диверсификация, миллий бойлик, бозор, иқтисодий ўсиш, рақобат, ресурс, моддий, капитал, меҳнат, компонент, макроиқтисодиёт, мезоиқтисодиёт, микроиқтисодиёт.

ECONOMIC CONTENT AND COMPONENTS OF INNOVATION POTENTIAL

Abstract. In this scientific article, scientific research aimed at increasing the potential of innovation in the next years in the world, as well as the potential of scientific and technical, investment, intellectual, infrastructural and skilled labor, their effective use in this regard, to increase intellectual potential with regard to non-standard socio-economic conditions, to stimulate infrastructure activities according to financial support, such areas as the effective harmonization of the mechanisms of effective functioning of the national innovation system with the integration of private and public structures and the effective use of innovation potential in increasing the level of modernization and diversification are highlighted.

Keywords: innovation, integration, infrastructure, labor, intellectual, modernization, diversification, national wealth, market, economic growth, competition, resource, material, capital, labor, component, Macroeconomics, mesoeconomics, microeconomics.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И КОМПОНЕНТЫ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются научные исследования, направленные на повышение инновационного потенциала в мире в последующие годы, в частности, на наращивание научно-технического, инвестиционного, интеллектуального, инфраструктурного потенциала и квалифицированной рабочей силы, их эффективное использование, повышение интеллектуального потенциала с учетом нестандартных социально-экономических условий, стимулирование инфраструктурной деятельности в соответствии с финансовыми рычагами., наметились такие направления, как эффективное сочетание механизмов эффективной реализации национальной инновационной системы, интеграция частных и государственных структур и эффективное использование инновационного потенциала для повышения уровня модернизации и диверсификации.

Ключевые слова: инновации, интеграция, инфраструктура, рабочая сила, интеллектуальный, модернизация, диверсификация, национальное богатство, рынок, экономический рост, конкуренция, ресурс, материал, капитал, труд, компонент, макроэкономика, мезоэкономика, микроэкономика.

Жахоннинг ривожланган мамлакатларида инновацион салоҳият иқтисодий ривожланишнинг асосий манбаси сифатида қаралади ва миллий бойликнинг таркибий қисми ҳисобланади. Миллий иқтисодиётда инновацион салоҳиятни шакллантириш, қўллаш, унинг механизмларини жорий қилиш ва ундан самарали фойдаланиш муаммолари ҳозиргача ўз долзарблигини сақлаб қолмоқда. Шундай экан, инновацион салоҳиятдан самарасиз фойдаланиш рақобатбардош, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётининг ривожланиш жараёнини секинлаштиради ва мамлакатнинг иқтисодий ўсиш суръатларини пасайтиради.

Инновацион салоҳият ресурсли ҳамда натижали компонентларни ўзида мужассам қилади. Ресурслиги инновацион салоҳият шакллантирилиши билан боғлиқ бўлиб, ўз ичига молиявий, моддий ва ходимлар билан боғлиқ таркибий қисмларни олади. Молиявий таркибий қисм илмий соҳага киритилган молиявий қўйилмаларнинг ҳажми билан таснифланади. Моддий таркибий қисм эса, илмий соҳадаги асосий ва айланма капитал ҳолатига қараб белгиланади. Ходимлар билан боғлиқлик меҳнат ресурсларининг сони ва сифати, илмий фаолият билан бандлиги ҳамда меҳнат унумдорлиги билан белгиланади.

Натижали компонент инновацион салоҳиятдан самарали фойдаланиш билан боғлиқ бўлиб, инновацияларнинг сони ҳамда миллий иқтисодиётнинг устувор тармоқларидаги инновацион фаоллик ва юқори иқтисодий самарадорлик даражасига қараб аниқланади. Мамлакат ижтимоий-иқтисодий тизимининг инновацион салоҳияти ҳудудлар, тармоқлар, соҳалар, корхоналар ва инсонларнинг инновацион салоҳиятлари жамланмасини ўзида мужассамлаштиради. (1-расм)



1- расм. Миллий инновацион салоҳият¹²⁴

Мамлакатнинг инновацион салоҳияти бир томондан, инновацион фаолиятни ташкил этиш учун муҳим бўлган мамлакатдаги мавжуд ялпи ресурсларни, иккинчи томондан - такрор ишлаб чиқариш жараёнида инновацион фаолиятни ташкил этиш, барча инновацион имкониятларни турли хўжалик субъектлари фаолиятида иқтисодий муносабатлар тизимини шаклланишидан иборат бўлади.

Худуднинг инновацион салоҳияти тармоқ ва корхона инновацион салоҳиятларининг бирлашиш йўли билан ҳосил бўлади. Худуднинг инновацион салоҳияти унинг ялпи инновацион имкониятлари, такрор ишлаб чиқариш жараёнида инновацион фаолиятини амалга ошириш бўйича иқтисодий муносабатлар тизими ва худуднинг ялпи инновацион ресурслари билан ифодаланади.

Тармоқнинг инновацион салоҳияти деганда иқтисодиётнинг етакчи тармоқларида инновацион маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва тармоқлар инновацион имкониятининг шаклланиши бўйича турли хўжалик фаолиятидаги субъектларнинг такрор ишлаб чиқариш жараёнидаги инновацион фаолиятни амалга оширувчи иқтисодий муносабатлар тизими тушунилади.

Инновацион салоҳият корхоналар даражасида иқтисодий муносабатлар тизимини турли хўжалик фаолиятидаги субъектлар такрор ишлаб чиқариш жараёнида инновацион фаолиятни амалга ошириши учун корхонанинг инновацион имконияти шаклланиши ифодалайди. Ушбу имконият корхонанинг инновацион ресурслари жамланмаси билан таъминланади.

Чекланган ресурслар шароитида мавжуд салоҳиятдан самарали фойдаланиш ва янги товар ҳамда хизматлар ишлаб чиқаришга йўналтириш давр талаби бўлиб қолмоқда. Инновацион салоҳиятни турли даражаларда таҳлил қилиш мумкин: макродаражада (мамлакат миқёсида), мезодаражада (тармоқ ёки соҳа миқёсида) ва микродаражада (корхоналар миқёсида). Макро даражада инновацион салоҳият мамлакатдаги инновацион фаолият учун зарур бўлган барча моддий ва номоддий неъматларни йиғиндиси бўлиб қуйидаги элементлардан иборат: (2-расм).

- илмий-техникавий салоҳият;
- инвестицион салоҳият;
- ресурс салоҳияти;
- интеллектуал салоҳият;
- истеъмолчилик салоҳияти;
- инфратузилма салоҳияти



¹²⁴ Муаллиф ишланмаси.

2-расм. Иқтисодий тизимнинг инновацион салоҳиятини таркибий қисмлари¹²⁵

Расмдаги маълумотларга кўра, иқтисодиётда инновацион салоҳиятдан самарали фойдаланиш учун илмий-техникавий, инвестицион, яъни, инновацион фаолиятга йўналтирилган молиявий имкониятларни; интеллектуал ва истеъмолчилик салоҳиятни, ресурс салоҳиятини, яъни, технологиялар, ускуналар, асосий фондлар, меҳнат ресурслари, ахборот ресурсларни инновацион фаолиятга йўналтириш ва ривожлантириш зарур. Бу ерда интеллектуал салоҳият деганда, инновацияларни жорий этишга етарли бўлган инсонларнинг ақлий қобилиятлари тушунилади. Истеъмолчилик салоҳияти янги ва такомиллаштирилган маҳсулотларга нафақат эҳтиёж, балки пул билан қопланган талабнинг мавжудлигини англатади. Инфратузилма салоҳияти эса, инновацион жараён узлуксизлигини таъминлайди ва ўз ичига ишлаб чиқариш, ижтимоий, инновацион инфратузилма объектларини қамраб олади.

Инновацион салоҳиятни макродаражада таҳлил қиладиган бўлсак, миллий иқтисодиётнинг инновацион салоҳияти иш самарадорлигини янада сифатли, инновацион асосда амалга оширадиган миллий иқтисодий тизимнинг жами объектив шароитлари (имкониятлари)ни тўлалигича ўзида акс эттиради.

Унинг таркибий қисмлари қуйидагилар.

1. Иқтисодиёт тармоқларининг инновацион маҳсулотларини ишлаб чиқаришга йўналтирадиган илмий-техник салоҳият.

2. Миллий иқтисодиётда инновацион ривожланишнинг ресурс салоҳияти:

- замонавий ишлаб чиқариш машиналари ва ускуналари;
- мавжуд материаллар ва хомашё;
- инновацион ривожланишни таъминлайдиган ахборот ресурслари;
- инновацияда бевосита новацияни қамраб олувчи инсон ресурслари;

3. Иқтисодиётда инновацион жараёнларни молиялаштириш имконияти сифатида қараладиган инвестицион салоҳият .

4. Инновацион жараённинг эҳтиёжларини қондириш имконига эга бўлган индустриал, ижтимоий ва инновацион инфратузилмани ифодаловчи инфратузилмавий салоҳият.

5. Инсон ресурсларининг ташаббускорлик, инновацияларни амалиётга тадбиқ этиш, инновацион жараённи амалга ошириш ва инновацияларни тўғри қабул қилиш қобилиятларини ўзида мужассамлаштирувчи интеллектуал салоҳият.

6. Иқтисодий тизимнинг истеъмолчи салоҳияти истеъмолчиларнинг эҳтиёжларини қондириш даражаси ва имкониятларини яратиш имконияти, самарали талабнинг мавжудлиги сифатида намоён бўлади.

7. Тадбиркорлик салоҳияти инновацион жараёнда иштирок этувчилар томонидан инновацион ғояларни амалиётга тадбиқ этувчиси сифатида қаралади.

Тармоқ даражасидаги инновацион салоҳият улар фаолиятининг давомийлигидан ва ривожланган технологиялар таъсиридан келиб чиққан ҳолда тармоқларнинг мустақил равишда ривожланиш имкониятларини белгилаб беради. Ўз навбатида, тармоқларнинг

¹²⁵ Муаллиф ишланмаси.

илмий-техник салоҳияти, устувор тармоқларда амалиётга тадбиқ этиш учун инновацион ресурсларни ишлаб чиқиш билан тавсифланади.

Тармоқ даражасида ресурс салоҳияти корхоналар ва саноатнинг инновацион ривожланиш талабларига мос келадиган имконият сифатида қуйидаги таркибий қисмлар орқали амалга оширилади:

- саноатнинг умумий активлари (ишлаб чиқариш машиналари, ускуналар);
- мавжуд хомашё ва материаллар (айланма маблағлар);
- ахборот ресурслари,
- саноат корхоналаридаги жами бўш турган молиявий ресурслари;
- инновацион жараёни амалга ошириш имкониятига эга бўлган ишчи кучи ресурслари.

Тармоқлардаги ишчи кучи ресурсларининг ташаббускорлиги, тадбиркорлик лаёқати, янгиликларни амалиётга жорий этиши, инновацион жараёнларни амалга ошириш ва уни яхши қабул қила олиш имкониятлари интеллектуал салоҳият ҳисобланади.

Тармоқнинг истеъмол салоҳияти уларнинг маҳсулоти эгаллаган бозор сегментини сақлаб қолиш ва унинг ҳажмини ошириш имконияти ҳамда истеъмолчининг ушбу маҳсулотлардан юқори даражада нафлиликка эришиши сифатида қаралади.

Ҳозирги кунда илмий-техникавий соҳанинг, яъни, фан, таълим, техника тараққиёти, технология бозорининг ривожланиши иқтисодий ўсишнинг барқарор давом этиши учун асос яратиб, ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилишда муҳим омиллардан бири саналади. Инновацион салоҳият жамият ижтимоий-иқтисодий ривожланишида имкониятларни кенгайтиради, капитал ва табиий ресурсларни тежайди. Бошқа шароитлар ўзгармаган ҳолатда фан техника тараққиёти ҳамда ишчи кучи инновацион фаоллиги қанчалик юқори бўлса, жамиятда ҳам шунча катта инновацион салоҳият вужудга келади.

“Инновацион салоҳият” тушунчаси иқтисодий категория сифатида қаралади. Иқтисодий салоҳиятнинг ажралмас қисми сифатида инновацион салоҳият ишлаб чиқариш кучлари ва ишлаб чиқариш муносабатлари ўртасидаги мураккаб механизм билан белгиланади. Бундан келиб чиққан ҳолда инновацион салоҳият: бир томондан, инновацион фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган турли хил ресурслар тўплами; иккинчидан, турли хўжалик юритувчи субъектларнинг иқтисодий муносабатлар тизимини такомиллаштириш жараёнида инновацион фаолиятни амалга ошириш учун умумий инновацион салоҳиятни шакллантиришга қаратилган мажмуа ҳисобланади.

Инновацион салоҳият - ҳар қандай тизимда жамият ривожланиши учун фойдаланилиши мумкин бўлган иқтисодий ресурсларнинг миқдори ҳисобланади. Ушбу иқтисодий ресурслар учта асосий сектор ўртасида тақсимланади: илмий-техник, таълим, инвестицион. Ушбу тақсимот натижасида илмий-техник салоҳият, таълим салоҳияти ва инвестицион салоҳият шакллантирилади. Ушбу сегментларнинг жамланмаси макроиқтисодий даражада инновацион салоҳиятини ташкил этади.

Инновацион салоҳиятнинг тузилишини учта таркибий қисм (ресурс, ички ва натижали) бир-бирининг ўрнини эгаллаши, тўлдириши ва бирлашиши билан ифодаланади ҳамда уларни қўллаш жараёнида ягона таркибий қисм сифатида намоён бўлади.

Бироқ, инновацион салоҳиятнинг таклиф этилаётган тузилмаси тўлиқ эмас, чунки у инновацион фаолиятни ташкил этишнинг замонавий шакллари ва инновацион фаолиятни

бошқаришнинг чекланган даражадалиги, илм-фан материаллари ёки интеллектуал маҳсулот, шунингдек, илмий муассасалар, лойиҳа ташкилотлари ва инновацион корхоналар тармоқларини (инновацион салоҳиятнинг ташкилий компонент) ўз ичига олмайди.

Бизнинг фикримизча, инновацион салоҳиятнинг асоси - ходимлар, ташкилий, моддий ва техник ахборот, бошқарув ва молиявий компонентлар, шунингдек, илмий-техник компонентлари ҳисобланади (1-жадвал).

1-жадвал

Инновацион имкониятларнинг компонентлари¹²⁶

№	Компонентлар	Мазмуни
1	Молиявий компонент	Минтақавий ва тармоқ дастурлари ҳамда махсус мақсадли дастур ва шартнома-буйруқлар, устувор тармоқларнинг буюртмалари доирасида молиялаштирилиши
2	Моддий ва техник компонент	Замонавий инновацион ва ахборот технологиялари, компьютер тизимлари, замонавий ускуналар; материаллар, лаборатория ва офис ускуналари
3	Ходимлар таркиби	ташкилотчи олимлар ва мутахассис олимлар: уларнинг сони, билим соҳалари бўйича тузилиши, малакаси
4	Ахборот компоненти	илмий ва техник адабиёт, патентлар, ихтиролар, янги юқори технологиялар, тизимлар ва жиҳозлар бўйича, мамлакатдаги, шу билан бир қатода, хорижий давлатлардаги инновациялар ва инновация фаолияти тўғрисида турли хил илмий ахборот ва маълумотлар тўплами; миллий ва халқаро ахборот тармоқларига киритилган компьютер тизимлари;
5	Ташкилий компонент	илмий муассасалар тармоғи, лойиҳалаштирувчи ташкилотлар ва инновацион корхоналар
6	Бошқарув компоненти	моддий ва интеллектуал маҳсулот ишлаб чиқариш қобилиятига эга бўлган инновацион фаолиятни ташкил этиш ва бошқаришнинг замонавий шакллари
7	Илмий-техник компонент	ихтиролар, товар белгилари ва хизмат кўрсатиш белгилари, саноат намуналари, моделлар, ноу-хау, инновацион дастурлар ва лойиҳалар

Инглиз олимлари П.Друккер ва С.Фриманлар¹²⁷ саноат ва илмий-техник ташкилотларнинг инновацион салоҳияти тўрт қисмдан иборат деб ҳисоблайдилар:

1. Ҳусусий ишланмалар ва ихтироларнинг илмий-техник жараённинг узлуксизлигини таъминлаш учун тайёрлаб қўйилган захираси;

2. Корхона ва ташкилотларнинг ўз инфратузилмасини таъминловчи инновацион имкониятлар.

¹²⁶ Муаллиф ишланмаси

¹²⁷ Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. Practice and Principles. – London: Heinemann, 1984.; Freeman C. Technology and Economic Performance: Lessons from Japan. – London: Pinter Publishers, 1987.

3. Инновацион салоҳиятни саноат корхоналарида жамланган салоҳиятнинг бошқа қисмлари билан ҳамкорлигини акс эттирувчи ва инновацион цикл натижали бўлишини таъминлашга таъсир этадиган ташқи ва ички омиллар.

4. Инновацион маданият даражаси, корхона ва ташкилот ходимларининг янгиликларни қабул қилиш даражаси, унинг инновацияларни янгиликлар сифатида киритилишига тайёрлиги ва имкониятлари.

Б.Ландвалл, Р.Нелсон¹²⁸лар эса, инновацион салоҳиятнинг унсурлари сифатида куйидагиларни ажратиб кўрсатади:

1. Инновацияга мўлжалланган қисмлар;
2. Малакали кадрлар таркиби;
3. Молиявий ресурслар (бойликлар);
4. Моддий-техник таъминланиш;
5. Интеллектуал (ақлий) мулк;
6. Инновацион фаолият натижаларини юксалтиришнинг кўшимча манбалари.

Б.Санто¹²⁹ инновацион салоҳиятни шакллантириш ва кенгайтириш омилларига куйидагиларни киритади:

1. Инсоннинг тасаввур кучи ва ижодий имкониятлари (қобилиятлари);
2. Тадқиқотлар ва ишланмаларнинг фойдалилиги;
3. Ғоялар, ихтиролар, ишлаб чиқариш ва савдо сирларини ҳимоя қилиш;
4. Илк маблағ (капитал)ларнинг миқдори;
5. Зарур воситаларни сотиб олиш имкониятлари;
6. Ишчи кучининг сони ва таркиби;
7. Рақобат;

8. Иқтисодий шароитлар ва ҳукумат меъёрий-ҳуқуқий тизимининг бошқарилиши ва ривожланиш тенденцияларини олдиндан айтиб бериш имкониятлари.

Н.М.Расулов, Ф.Н.Шокирова, Д.Х.Шодиевалар инновацион салоҳиятни ресурсли, натижали ва ички тузилмаларнинг жамланмаси сифатида таърифлайди.

Юқорида инновацион салоҳият таркибий тузилишига оид ёндашувлардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкинки, фикримизча, муаллифлар инновацион салоҳият тузилиши ёритишда бир қатор унсурларни эътибордан четда қолдирган. Чунки, улар ишлаб чиқаришни ташкил қилишнинг замонавий шакллари, жараёнларни инновацион фаолият билан бошқаришнинг энг охирги, илмга бой, моддий ёки ақлий маҳсулотларни (инновацион салоҳият тузилишини бошқарадиган), шунингдек, илмий муассасалар, лойиҳа-конструкциялаш ташкилотлари ва инновацион корхоналар тармоғини (инновацион салоҳиятни тузилишини ташкил этадиган) эътибордан четда қолдиришган.

Бизнинг фикримизча, инновацион салоҳият асосини, малакали кадрлар, профессионал ташкилий тузилма, моддий-техник база, кучли ахборот манбалари, замонавий бошқарув усуллари, молиявий барқарорлик ва илмий-техник тузилмалар ташкил қилади.

Инновацион салоҳиятнинг моҳияти унинг куйидаги вазифаларида намоён бўлади:

¹²⁸ Lundvall B. (ed.). National Innovation Systems: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London: Pinter Publishers, 1992.; Nelson R. (ed.). National Innovation Systems. A Comparative Analysis. – New York/Oxford: Oxford University Press, 1993.

¹²⁹ Санто Б. Инновация и глобальный интеллектуализм. –М.: Инновации. 2006. №9. с.32

1. Илмий вазифа. Бунда инновацион салоҳият фаннинг ривожланишига, ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг янги қонуният ва тамойиллари яратилишига ҳамда янги соҳаларга йўл очилишига кўмаклашади, шунингдек, ғоялар генератори сифатида ҳаракат қилади.

2. Техник вазифа. Бунда инновацион салоҳият янгиланган, мукаммаллашган маҳсулот яратиш воситаларини ишлаб чиқариш ва ўзлаштиришга имкон беради.

3. Ижтимоий вазифа. Бунда инновацион салоҳият меҳнат шароитларини яхшилаш, соғлиқни сақлаш, таълим, маданият соҳаларидаги мавжуд муаммоларни ҳал этишга йўналтирилади.

Бирлашган миллатлар ташкилотининг ЮНКТАД бўлинмаси инновацион салоҳиятнинг учта таркибий қисмларини алоҳида ажратиб берган:

а) инновацияларга бўлган сармоялар, яъни, инновацион фаолиятни рағбатлантириш учун қўлланилган чора-тадбирлар ва инвестициялар;

б) давлат томонидан амалга оширилган инновацион фаолият ва фундаментал тадқиқотлар натижалари;

в) хусусий сектор томонидан амалга оширилган илмий-технологик фаолиятнинг амалий натижалари.

Ривожланиш салоҳияти мамлакатнинг имитацион технологик ривожланиш имкониятини белгилайди. Унинг асосий таркибий қисмлари бўлиб, халқаро савдо учун миллий тизимнинг очиқлиги, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилиш, лицензиялаш ва ишчи кучи салоҳияти ҳисобланади.

Шуни таъкидлаш керакки, ушбу унсурлар нафақат инновацион ривожланиш, балки, мамлакат иқтисодиётининг жадал ривожланиши учун ҳам аҳамиятлидир.

Бундан ташқари, инновацион салоҳиятни оширишда макроиқтисодий барқарорлик, интеллектуал мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизими ва иқтисодиётдаги рақобат муҳити ҳам муҳим рол ўйнайди. Интеллектуал мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш инновацияларни рағбатлантиради ва уларнинг ижодий саъй-ҳаракатлари, энергетикаси ва молиявий капиталини инвестициялаш учун етарли даражада мукофотланганлигини таъминлайди.

Миллий иқтисодиётни ривожлантириш учун мамлакатимизнинг илмий-техник ва инновацион салоҳиятини барқарор сақлаш ҳамда ривожлантириш зарур. Бунинг учун қуйидаги йўналишлар бўйича чора-тадбирлар амалга оширилиши лозим бўлади:

- миллий иқтисодиётнинг турли соҳаларида тўпланган илмий-техник салоҳиятни реструктуризациялаштириш;

- амалдаги конунчиликка инновацион соҳадаги фаолликни янада жадаллаштириш учун қулай шарт-шароит яратиш берадиган янги ўзгартиришлар киритиш;

- илм-фанни ривожлантириш ва инновацияларни яратиш учун қаровсиз қолган, мақсадга мувофиқ равишда ишлатилмаётган мулк ҳисобидан алоҳида жамғарма яратиш;

- қиймати юқори бўлган асбоб-ускуналардан фойдаланиб, илм-фан ютуқларидан кенг кўламда фойдаланиш асосида маҳсулот ишлаб чиқарувчи субъектларини қўллаб-қувватлаш учун лизинг механизмларини жадал ривожлантириш;

- инновацион фаолият кўламларини кенгайтириш ҳамда республикада капитал бозорини шакллантириб, уни ривожлантириш учун банк кредитларини жалб этиш механизмларини янада такомиллаштириш;

- республика миқёсида яратиладиган инновацион лойиҳаларни рўёбга чиқариш билан боғлиқ бўлган барча ишларни мувофиқлаштириб, бошқариб турадиган махсус инновацион марказларни яратиш;

- республиканинг энг билимли, тажрибали, профессионал илмий-техник ходимлари, олимлари ва мутахассисларидан таркиб топадиган инновацион лойиҳаларни ишлаб чиқиб, уларни рўёбга чиқариш билан боғлиқ чора-тадбирларни режалаштирадиган, кейинчалик, ушбу фаолиятни бошқариб турадиган институтни яратиш мақсадга мувофиқдир.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-312-сон 2011 йил 26 декабрда қабул қилинган “Интеллектуал мулк тўғрисидаги қонун ҳужжатлари такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонунларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги Қонуни. –Т.: 2011. -94 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3698-сонли 2018 йил 7 майдаги “Иқтисодиётнинг соҳа ва тармоқларига инновацияларни жорий қилиш механизмларини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/docs/3723561>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5544-сон 2018 йил 21 сентябрдаги “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи. 22.09.2018 й.
5. Ш.М.Мирзиёев Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси // -Т.: “Ўзбекистон”. 2022. -412 б.
6. Абалкин Л.И. Современное состояние экономического мышления. -М. Институт экономики РАН. 2001. -287 с.
7. Алескерев Э.Г. НТР и интеллектуально-информационный потенциал. -М.: Предпринимательство. 2004. №1.

ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ТУРЛАРИ, АҲАМИЯТИ ВА ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ

Нурмухамидова Мухтабар Хасановна

Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси

Матқурбанова Азиза Давронбек қизи

Гулистон давлат университети талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10138747>

Аннотация. Мазкур илмий мақолада инвестицияларнинг моҳияти, уларнинг турлари, аҳамияти ва иқтисодиётда тутган ўрни, Ўзбекистон реал сектор тармоқларининг инвестицион эҳтиёжлари ва инвестицион муҳити жозибадорлиги ҳамда иқтисодиётда инвестиция манбалари ва уларни реал сектор тармоқларига жалб этиши асослари каби масалалар назарий-услубий жиҳатдан ёритилган.

Калит сўзлар: инвестиция, макроиқтисодиёт, пул, жамғарма, портфел, молия, моддий, номоддий, ресурс, фойда, маблағ, банк, депозит, ислоҳот, капитал, инновация, ижтимоий, даромад, модернизация, фоиз ставкаси.

THE ESSENCE OF INVESTMENTS, THEIR TYPES, IMPORTANCE AND ROLE IN THE ECONOMY

Abstract. In this scientific article, issues such as the nature of investments, their types, importance and role in the economy, the attractiveness of the investment needs and investment environment of the real sector sectors of Uzbekistan, as well as the sources of investment in the economy and the basics of their involvement in real sector sectors are theoretically and methodically highlighted.

Keywords: investment, Macroeconomics, money, savings, portfolio, finance, material, intangible, resource, profit, funds, bank, deposit, reform, Capital, Innovation, Social, income, modernization, interest rate.

СУЩНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ, ИХ ВИДЫ, ЗНАЧЕНИЕ И МЕСТО В ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. В данной научной статье теоретико-методологически освещены такие вопросы, как сущность инвестиций, их виды, значение и место в экономике, инвестиционные потребности и привлекательность инвестиционного климата отраслей реального сектора Узбекистана, источники инвестиций в экономике и основы их привлечения в отрасли реального сектора.

Ключевые слова: инвестиции, макроэкономика, деньги, сбережения, портфель, финансы, материальные, нематериальные, ресурсы, прибыль, средства, банковское дело, депозит, реформа, капитал, инновации, социальные, доход, модернизация, процентная ставка.

Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида инвестицияларни жалб қилиш ва уларни ҳаётга тадбиқ этиш муаммолари ҳамда иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш жараёни Ўзбекистон Республикасининг чуқур тизимли иқтисодиётини қайта ташкил этишни таъминлайди.

“Инвестиция” тушунчасини иқтисодчилар турлича талқин қилиб келади. Айрим иқтисодчилар уни “Тадбиркорлик фаолиятига даромад олиш мақсадида сафарбар этилган

барча турдаги бойлик” деб тушунсалар, айрим гуруҳлари “invest” сўзининг айнан таржимаси «солиш» деган маънони билдиришидан келиб чиққан ҳолда «капитал солиш» билан бирдай қилиб таърифлайдилар.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олим Д.Ғозибеков "Инвестиция" тушунчасини қуйидагича таърифлайди: «**Инвестиция**» тушунчасининг мазмуни ва моҳиятини бир маънода таърифлаш жуда қийин. Инвестициялар асосий фондларни такрор ишлаб чиқаришга "**маблағ солиш**" деб таърифланади, бу унчалик тўғри эмас, чунки маблағлар айланма активларига ҳам, номоддий активларнинг айрим турларига ҳам, турли молиявий воситаларга ҳам солинади.

Макроиқтисодий даражада инвестициялар деганда - ишлаб чиқариш воситаларини такрор ишлаб чиқаришга, уй-жой фондини, товар захираларини ўстиришга, ва шу кабиларга қилинган чикимларнинг бир қисми, яъни ялпи ички маҳсулотнинг капитални ўстиришга қаратилган ва жорий даврда ишлатилмаган қисмини тушунадилар. Микродаражада ва ишлаб чиқариш назариясида инвестициялар деганда, янги капитални, шу жумладан, ишлаб чиқариш воситалари ва интеллектуал салоҳиятни такрор ишлаб чиқаришни ташкил этиш жараёни назарда тутилади.

У.Ф.Харпнинг «**Инвестиция**» дарслигида инвестициялар келгусида (эҳтимол, номуайян) қийматлик олиш мақсадида ҳозирги вақтда муайян қийматликдан воз кечишдир, деб таърифланади⁵. «Инвестициялаш» атамасининг маъносини: «Келажакда фойда олиш учун бугун пулдан ажралишдир» деб ҳисоблаб, маблағларни ё реал ёки молиявий активларга инвестициялаш мумкин⁶, яъни инвестицияларнинг мазмуни шундан иборатки, улар капиталнинг ҳаракати жараёнига тортилган, аниқроғи, капитал ҳаракати жараёнининг ўзи инвестициялар моҳиятини акс эттиради. Бу ҳаракат жараёнида капиталнинг ўсган қисми инвестор мавжуд маблағлардан ҳозирги вақтдаги истеъмол учун фойдаланишдан воз кечганлигини компенсациялашга, келгусидаги инфляциядан қўриладиган зарарни қоплаш хатари учун уни муқофотлашга етарли бўлиши керак.

Юқорида айтилганлардан шундай хулоса келиб чиқадики, инвестициялар «капитал қўйилмалар»га қараганда анча кенг маъноли тушунчадир. Инвестициялар капитал ҳаракати жараёнига жалб этилади. Улар муайян вақтга конкрет активлар билан боғланади. Уларнинг асосий **мақсади** - капитал қийматини сақлаб қолиш ёки уни кўпайтиришдир. Инвестицияларнинг капиталдан асосий фарқи эса, хатар уларга қараб прогнозланади ва фойда нормаси белгиланади.

«Инвестиция» тушунчасининг мазмуни Ўзбекистон Республикасининг «Инвестицион фаолият тўғрисида»ги қонунида - «Иқтисодий ва бошқа фаолият объектларига киритиладиган моддий ва номоддий неъматлар ҳамда уларга доир ҳуқуқлар»⁷, - сифатида таърифланади.

Demak, huquqiy ta'lim bu - tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxsga "guruh shaxslariga" ta'sir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir. Ma'lumki, qonunga rioya qilish uchun, eng avvalo uni bilish kerak. Huquqiy ta'lim-tarbiya orqali har bir shaxsning ongiga

¹⁴¹ Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son.

¹⁴² Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri". Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.

nima qilmoq mumkin, nima qilmoq mumkin emasligini, jamiyat, davlat undan nimani talab qiladi, qonunlarga rioya etish yo'llari nimadan iborat ekanligini yetkazmoq lozim. Tartib buzuvchilar orasida o'z xatti-harakatining noqonuniyligini anglamaslik, noqonuniy ekan deb ham o'ylamaslik va bunday harakatni jazoga loyiq emas deb tushunish ko'p uchraydi. Shunday tushuncha hosil bo'lmasligi uchun huquqiy ta'lim-tarbiya jarayonida har bir jamoada o'rnatilgan tartibni buzish, qonun normalariga rioya etmaslik natijasida intizomiy, ma'muriy, moddiy yoki jinoiy jazo kelib chiqishini tushuntirish, uqtirish zarur.

Huquqiy ta'lim-tarbiyani kuchaytirishga oltmishinchi yillardan boshlab alohida ahamiyat berilla boshlandi. Shu davrga aytish kerakki, hozirda ham huquqiy ta'lim - tarbiya bilan chambarchas bog'liq holda olib olib borilayapti. Shaxs va jamiyat o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarning rivojlanish prinsiplariga mos bo'lishi shaxs faoliyatini yo'naltirib turuvchi hayotiy pozitsiyaga bog'liq. Hayotiy pozitsiya esa ta'lim- tarbiya jarayonida shakllanadi.

Shu sababdan ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq shaxs tarbiyasini jamiyat o'z nazoratiga olgan va bu vazifani bajarishga eng dono kishilarga topshirgan. Shaxsni yashashga o'rgatish jamiyat faoliyatining muhim sohalaridan biri bo'lib kelgan. Ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy vazifasi shaxsni biror – bir foydali ishga, faoliyatga o'rgatish demakdir. Masalan, yoshlarni biror hunarga, muomalaga, sanatga, yurish turishga va boshqalarga o'rgatish.

Huquqiy ta'lim-tarbiya tizimi uch tarkibiy qismdan tashkil topadi:

- davlat belgilangan qonun qoidalarini o'qitish;
- ularni jamiyat a'zolari o'rtasida tashviqot qilish;
- o'quvchi yoshlarni qonun qoidalar ijrosida bevosita ishtirok etishga o'rgatish.

Huquqiy ta'lim-tarbiyani jamoa o'rtasida yoki individual shaklda amalga oshirish mumkin. Yoshlarni huquqiy bilimga va huquqiy tarbiyaga jalb etishda huquqni himoya qiluvchi davlat organlari xodimlari bilan uchrashuv o'tkazilishi, savol-javob kechalari tashkil etilishi yoki huquqshunos uyushmalari tuzilishi ijobiy natija beradi.

Individual yakka tarzda huquqiy bilim berishda, huquqiy tarbiyalashda shaxsga maxsus adabiyotlarda tavsiya etilishi, unda qiziqish uyg'otish, tarbiyalanuvchining ruhiy holatini o'rganib, u qabul qila oladigan, tushuna biladigan tarzda suhbat olib borish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, huquqiy madaniyatga ega bo'lish uni o'rganish har bir fuqarolarining majburiyati sanaladi. Shu bilan bir qatorda buni farzandlarimizda o'rgatish har birimizning muqaddas burchimizdir. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlanishida o'z hissamizni qo'shishimiz darkor.

Jamiyatda aholining huquqiy savodxonligini oshirib borishni aniq ko'rsatkichlar asosida o'rganishimiz lozim. Aholining huquqiy xabardorligini oshirish maqsadida "Huquqiy axborot" radio loyihalarini kuzatib borishimiz yurtimizdagi huquqiy jarayonlardan xabardor bo'lishimiz bizning fuqarolik burchimizdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-

- son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi, PF-5618-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son.
 4. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri". Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.

Internet saytlari

1. www.lex.uz
2. www.norma.uz
3. www.huquqiportal.uz

POCHTA ALOQASI XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDA LOGISTIKA FAOLIYATI

Toyirov Hikmat Tal'at o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10144804>

Annotatsiya. Pochta logistika markazlari pochta jo'natmalari va jo'natmalarni o'z vaqtida va samarali yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu markazlarning ishlashi mijozlar ehtiyojini qondirish va pochta xizmatining umumiy samaradorligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada biz pochta logistika markazlarida logistika samaradorligini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: xizmatlar, tarmoqlar, yuk tashish, logistika markazlari, biznes strategiyasi.

LOGISTICS ACTIVITIES IN THE ORGANIZATION OF POSTAL SERVICES

Abstract. Postal logistics centers play an important role in the timely and efficient delivery of mails and dispatches. The operation of these centers is essential to meet customer needs and ensure the overall efficiency of the Postal Service. In this article, we will consider the effectiveness of logistics in postal logistics centers.

Keywords: services, networks, shipping, logistics centers, business strategy.

ЛОГИСТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ОРГАНИЗАЦИИ УСЛУГ ПОЧТОВОЙ СВЯЗИ

Аннотация. Центры почтовой логистики играют важную роль в обеспечении своевременной и эффективной доставки почты и грузов. Работа этих центров имеет решающее значение для удовлетворенности клиентов и обеспечения общей эффективности почтовой службы. В этой статье мы рассмотрим эффективность логистики в почтовых логистических центрах.

Ключевые слова: услуги, сети, судоходство, логистические центры, бизнес-стратегия.

Kirish

Pochta xizmati jismoniy shaxslar, biznes va hukumat o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi etakchi tijorat va moliyaviy mintaqa sifatida rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda pochta operatorlari jadal texnologik rivojlanish, bozorni liberallashtirish, segmentatsiyalash va raqobatning kuchayishi kabi muammolarga duch kelmoqda.

Bunday sharoitda sanoat an'anaviy pochta (paket va pochta jo'natmalari kabi), kuryerlik xizmatlari, yuk tashish xizmatlari va elektron xizmatlarni va Evropaning etakchi pochta operatorlarini (masalan: Deutsche Post DHL, La Poste i Royal Mail) o'z ichiga olgan holda rivojlandi. logistika sohasida o'z faoliyatini kengaytirdi. Pochta tarmog'ining bunday rivojlanishi elektron tijoratning jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u boshqa narsalar qatorida kuchli logistikani ham o'z ichiga oladi.

Pochta tarmog'ining tuzilishi va pochta aloqasidagi jarayonning xususiyatlari pochta tarmog'idan murakkab va dinamik tizimni tashkil qiladi. Pochta markazlari jo'natuvchi va qabul qiluvchi o'rtasida jo'natmalarni etkazib berishning bir bosqichini amalga oshirish vazifasi bilan tizimning muhim bo'g'inidir.

Pochta operatorlarining bozorga yo'naltirilgan va mijozlarga yo'naltirilgan rivojlanishiga ko'ra, ko'plab an'anaviy pochta markazlari xizmat ko'rsatish takliflarini kengaytirdi va pochta logistika markazlarida (PLC-s) o'sdi.

Logistika markazi¹⁴³ ma'lum bir hududning markazi bo'lib, u erda transport, logistika va tovarlarni taqsimlash bilan bog'liq barcha tadbirlar - milliy va xalqaro tranzit uchun - tijorat asosida turli operatorlar tomonidan amalga oshiriladi. PLC logistika jarayonlari turli xil pochta jo'natmalarida yuk birligi sifatida amalga oshiriladi.

Pochta operatorlarining global determinantlarini va pochta aloqasi texnologik jarayonining tuzilishi va xususiyatlarini hisobga olgan holda, logistika farqlash vositasi sifatida (logistika marketing vositasi sifatida) va ratsionalizatsiya (logistikani qisqartirish usuli sifatida) ekanligi aniq xarajatlar), kompaniya biznes strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Pochta xizmatlarining asosiy xususiyatlari foydalanuvchilarning pochta jo'natmalarini o'tkazishga bo'lgan katta talabida namoyon bo'ladi va bu ta'sir ularni qabul qiluvchiga o'tkazish uchun jo'natmalarning jismoniy harakatini keltirib chiqaradigan texnologik jarayonlar orqali amalga oshiriladi.

Tashkiliy nuqtai nazardan, bozor talab qiladigan pochta xizmatlarini amalga oshirish uchun (milliy operatorlar ham universal xizmat ko'rsatishga majburdirlar) yagona pochta tarmog'ini (milliy va xalqaro miqyosda) tashkil etish, noyob texnologiyalar va uskunalarni standartlashtirish.

Pochta tarmog'i va uning jihozlari operatorlarning iqtisodiy imkoniyatlari, trafik hajmi bilan bog'liq bo'lib, milliy operator holatida davlatning investitsiya siyosati va pochta xizmatlarini rivojlantirishga ta'siri juda katta ta'sir ko'rsatadi. Serbiyada pochta tarmog'ining elementlari quyidagilardir: mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun pochta bo'limlari, pochta-logistika markazlari va transport tizimlari.

Pochta tarmog'ining birligi sifatida, PLC ular qamrab olgan geografik hududda yuklarning konsentratsiyasi va tarqalishiga erishish uchun transport markazlarida joylashgan. PLClarda pochta tarmog'ining o'rnatilishi ularga jo'natmalarni konsentratsiyalash va qabul qilingan jo'natmalarni qayta ishlash va pochta jo'natmalarini jo'natishda muhim rol o'ynaydi.

PLC¹⁴⁴ ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: pochta jo'natmalarini saralash, pochta qayta yuklash birliklarini saralash, transportni tashkil etish, pochta va logistika xizmatlari. Mas'uliyatga ko'ra, PLC xalqaro (almashinuv idorasi), mintaqaviy (asosiy pochta markazi) va mahalliy (pochta markazlari va yuk tashish punktlari) bo'lishi mumkin.

Gibrid pochta tizimini qo'llab-quvvatlash, pochta jo'natmalarini ishlab chiqish, flotni boshqarish va boshqalar kabi maxsus xizmatlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan PLClar ham mavjud.

Yuk tashish vazifasi qabul qilingan narsalarni belgilangan pochta bo'limi yo'nalishi bo'yicha yoki belgilangan pochta bo'limi yo'nalishi bo'yicha transportga tayyorlashdan iborat. Mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha pochta bo'limlari ushbu bosqichda qabul qilingan jo'natmalarni yo'naltirilganligi yoki yo'qligiga qarab taqsimlaydi: qabul qiluvchi pochta bo'limlari,

¹⁴³ Bowersox, D.J., Closs, D.J., 1996. Logistik boshqaruv: integratsiyalashgan ta'minot zanjiri jarayoni, Nyu-York: McGraw Hill.

¹⁴⁴ Kristofer, M., 1998. Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi - Xarajatlarni kamaytirish va xizmatlarni yaxshilash strategiyalari, Pearson Education Limited

qabul qiluvchi pochta bo'limiga tegishli PLCga tegishli bo'limlar, shtatdagi boshqa bo'linmalar yoki ular xalqaro quruqlik yoki xalqaro havo qatnovi uchun mo'ljallangan.

Pochta jo'natmalarini tashish PLC yoki etkazib berish pochta bo'limiga jo'natish va jo'natish o'rtasida amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bog'lanish barcha pochta tarmog'ining bo'linmalarini, qabul qilishdan tortib, keng turdagi transport vositalaridan foydalangan holda etkazib berishgacha amalga oshiriladi.

Transport aloqalarini tashkil etishda mavjud resurslardan maksimal darajada samarali foydalanishga erishish uchun transport zanjiridagi ob'ektlarni kontsentratsiyasi va tarqalishining tegishli shakllari qo'llaniladi.

Xulosa

Pochta logistika markazlarida logistika ko'rsatkichlari pochta va paketlarni muammosiz va samarali qayta ishlash va yetkazib berish uchun juda muhimdir. Infratuzilma, axborot tizimlari, ishchi kuchi va jarayonlar samaradorligi kabi omillarga e'tibor qaratgan holda, pochta logistika markazlari logistika samaradorligini oshirishi mumkin. Samaradorlik ko'rsatkichlaridan foydalanish, tegishli strategiyalarni amalga oshirish, texnologiya va hamkorlikni qamrab olish xizmat sifatini yaxshilash va mijozlar ehtiyojini qondirishni ta'minlaydi.

REFERENCES

1. Akyuz, G. A. va Erkan, T. E., 2010. Ta'minot zanjiri samaradorligini o'lchash: adabiyotlarni ko'rib chiqish, Xalqaro ishlab chiqarish tadqiqotlari jurnali, jild. 48, № 17, 2010 yil 1 sentyabr, 5137–5155
2. Bowersox, D.J., Closs, D.J., 1996. Logistik boshqaruv: integratsiyalashgan ta'minot zanjiri jarayoni, Nyu-York: McGraw Hill.
3. Chow, G., Heaver, T.D, Henriksson. L. E., 1994. Logistika samaradorligi: ta'rif va o'lchash, jismoniy tarqatish va logistika boshqaruvi xalqaro jurnali, jild. 24., №1, ko'cha. 17 – 28.
4. Kristofer, M., 1998. Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi - Xarajatlarni kamaytirish va xizmatlarni yaxshilash strategiyalari, Pearson Education Limited.

KIMYO FANINI O'QITISHDA YANGI METODLARDAN FOYDALANISH

Ulug'berdiyeva Farzona Abdunazar qizi

Surxandaryo viloyati Sariosiyo tumani

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikum kimyo fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10148446>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Kimyo fanini o'qitish jarayonida qiziqarli mashqlar orqali o'rganamiz, yangi metodlardan foydalanib darslarni yaxshi o'tamiz.

Kalit so'zlar: kimyo, metodlar, jarayon, o'qituvchi, yozuv, rangsiz, eritma, o'quv topshiriqlar.

USING NEW TECHNIQUES IN TEACHING CHEMISTRY

Abstract. In this scientific article, we will learn chemistry through interesting exercises in the process of teaching, pass lessons well using new techniques.

Keywords: chemistry, methods, process, teacher, writing, colorless, solution, Study assignments.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ

Аннотация. В этой научной статье мы изучим химию с помощью интересных упражнений в процессе обучения, хорошо проведем занятия, используя новые методы.

Ключевые слова: химия, методы, процесс, учитель, письмо, бесцветный, раствор, учебные задания.

KIRISH.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz tomonidan bir qator fanlarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev o'zlarining "1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayrami munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqida shunday degan edilar.

"Matematika hamda kimyo-biologiya fanlarini rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qildik. Ularga asosan har bir tuman va shaharlarda ana shu fanlarga ixtisoslashgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Shu yilning o'zida kimyo-biologiya yo'nalishida 27 ta maktab tashkil etilgani bu ishlarning boshlanishidir"

Shunday ekan biz kimyo fani o'qituvchilari o'quvchilarga fanning sir asrorlarini o'zimizning mahoratimiz, iqtidorimizni ishga solib, yetkazib bera olishimiz kerak.

Ta'lim – pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, o'quvchi-talaba bilan o'qituvchi (pedagog) ning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Hozirda ko'plab olimlarimiz tomonidan turli metod, texnologiya va innovatsiyalar dars jarayoniga tadbiiq etilib kelinmoqda.

ASOSIY QISM.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan.

Sehrli siyohlar" qiziqarli tajribaviy metodi.

Ta'rif: Bunda o'qituvchi mavzu nomini yoki biron-bir tushunchani oq qog'ozga fenolftalein eritmasidan foydalanib yoziladi. Yozuv bir oz ochiq havoda quritiladi. Qog'ozda hech qanday yozuv ko'rinmaydi. Chunki fenolftalein eritmasi rangsiz. Qog'ozni yozuv taxtasiga ilib qo'yish mumkin. Qog'ozga "Mavzu: Asoslarning olinishi va ishlatilishi" deb yozish mumkin.

Suv purkagich idishga natriy gidroksid eritmasi avvaldan quyib qo'yiladi. U ham rangsiz. Eritmani qog'ozga purkaladi. Oppoq qog'ozda to'q pushti rangli yozuv "Mavzu: Asoslarning olinishi va xossalari" paydo bo'ladi.

Qo'llanilishi: Bu metoddan barcha sinflarga kimyo darsini o'tishda, 7- 8-sinflarda asoslarga oid mavzularni o'tishda, indikatorlar haqida ma'lumot berilganda foydalanish mumkin.

Natijaviyligi: Bu metoddan foydalanib o'quvchilarni hayratini, fanga bo'lgan qiziqishini, intilishini oshirish, kimyoni mo'jizakor ekanini ko'rsatish, o'quvchilar fikrini darsga qarata olish, mavzuga doir amaliy bilim bera olish mumkin.

Bu esa mavzuni to'la tushunishlariga yordam beradi. Mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin, 1986).

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi.

XULOSA.

Pedagogika – psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud.

Ular quyidagilardan iboratdir:

faoliyatga kirish;

mustaqil harakatlar o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar;

o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi;

taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi anna shu namuna asosida harakat qiladi);

madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);

o'zini – o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni

ko'rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);

o'zini – o'zi ko'rsatuvchi harakatlar;

o'zini – o'zi uyushtiruvchi harakatlar.

REFERENCES

1. I. R. Asqarov, N. X. To'xtaboyev, K. G'. G'opirov - Kimyo 7-sinf darsligi. : Toshkent-2013.
2. I. R. Asqarov, K. G. G'opirov, N. X. To'xtaboyev. -:Kimyo 9-sinf darsligi Toshkent-2019.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/kimyo-fanini-o-qitishda-yangi-usul-metodlardan-foydalanish>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "1-oktabr-O'qituvchi va murabbiylar kuni "bayramidagi nutqi.

5. <https://fayllar.org/kimyo-fanini-oqitishda-yangi-usul-metodlardan-foydalanish-sapa.html>

ҚОРАҚАЛПОҚЛАРНИНГ ЕР ЭГАЛИГИ ВА ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИГИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ТАҲЛИЛИ.

Сайфутдинов Феруз Илнийёз ўғли

Осиё Халқаро Университети “Тарих ва филология” кафедраси
тарих фани ўқитувчиси

E-mail: sferuz1011@gmail.com

Tel: +998936857755

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10148523>

Аннотация. Асрлар давомида Қорақалпоқлар яшаи шароити иқлими ва фойдаланадиган материалларнинг хусусиятларини мақола устида ишлаётганда этнограф ва археологларнинг бирламчи манба сифатида фойдаланилаётган асарлари тахлил қилинди.

Калит сўзлар: Қорақалпоқлар Ўзбеклар Туркий халқлар этногенез турар жой чорвачилик хўжалиги солиқ.

ANALYSIS OF DATA ON LAND OWNERSHIP AND LIVESTOCK FARMING OF KARAKALPAKS.

Abstract. The works of ethnographers and archaeologists used as primary sources while working on the article were analyzed.

Key words: Karakalpaks, Uzbeks, Turkic peoples, ethnogenesis, housing, livestock farming, tax.

АНАЛИЗ ДАННЫХ О ЗЕМЛЕВЛАДЕНИИ И ЖИВОТНОВОДСТВЕ КАРАКАЛПАКОВ.

Аннотация. Проанализированы работы этнографов и археологов, использованные в качестве первоисточников при работе над статьей.

Ключевые слова: каракалпаки, узбеки, тюркские народы, этногенез, жилище, животноводство, налог.

Олинган тарихий маълумотларга кўра XVI аср охири ва XVIII асрларда қорақалпоқларнинг асосий қисми Сирдарёнинг ўрта ва қуйи оқими худудида яшаганлар. Сирдарё қорақалпоқлари XVII асрда ҳамда XVIII асрнинг ярмигача қозоқлар қуршовида яшаганлар ва уларнинг сиёсий ва иқтисодий ахволи қозоқ хонларига боғлиқ бўлган. Лекин хўжалик юритиши бўйича қозоқлардан кучли фарқ қилади. Қозоқлар катта доирада кўчманчи чорвачилик билан шуғулланган бўлсалар, қорақалпоқлар ярим кўчманчи ҳаёт тарзига эга бўлиб чорвачилик, дехкончилик ҳамда балиқчилик билан шуғулланганлар.

Қорақалпоқлар яшаётган худудни табиий шароити ҳам инжиқ бўлиб бу шароитда яшаётган қорақалпоқлар қозоқлардан фарқли равишда фақат чорвачилик ёки фақат дехкончилик билан шуғулланиш имкониятига эга эмас эдилар. Уларнинг табиий геогарфик шароити бу ерларда комплекс тарзда дехкончилик-балиқчилик-чорвачиликни бир хилда ривожланиши учун имкон беради¹⁴⁵.¹ Қуйи Сирдарё, Кувондарё, ҳамда Жана-дарё водийсида яшаётган қорақалпоқлар дехкончилик билан

¹⁴⁵ Толстов С.П. Города гузов. СЭ. 1947. №3, с.100

шуғулланганлар. Қорақалпоқларда ғаллачилик яхши ривожланган бўлиб улар етиштирган ғалла нафақат ўз эҳтиёжларини қондирган, улар ғаллани қозоқлар билан чорвага айирбошлаганлар. Бошқа бир қорақалпоқлар гуруҳи чорвачилик билан шуғулланганлар. Уларнинг чорвачилиги билан қозоқларни чорвачилиги урасида ҳам фарк мавжуд эди. Қозоқларнинг чорвачилиги йилнинг тўрт фаслида ҳам кўчиб юришни тақозо қилади. Қорақалпоқлар эса фақат туёқли чорва билан шуғулланардилар. Улар ёзда ўтлоқларда боқилса қиш учун емхашак хозирланарди. Бу эса чорвачиликни деҳқончилик билан узвий боғлаб турарди. Ўз навбатида ерга ишлов беришда чорвадан фойдаланиларди.

Балиқчилик билан шуғулланувчи қорақалпоқлар деҳқончилик билан шуғулланадиган қорақалпоқлар билан балиқни ғаллага айирбошлаганлар. Уларнинг бундай комплекс хўжалик юритишлари халқ мақолларида ҳам акс этган: «Уш ай саун, уш ай каун, уш ай кабагым, уш ай шабагым айтеўир тиришилик етермиз». Қорақалпоқлар хаётида савдо ҳам асосий роль ўйнайди. Улар қозоқлар билан ғаллани чорвага алмаштирганлар. Қорақалпоқ савдогарлари Бухора билан қозоқ хонлари ўртасида даллоллик қилганлар Шунингдек орол ўзбеклари ва Хива билан савдо сотиқ ишларини амалга оширганлар шу билан бирга қорақалпоқ савдогарлари рус шаҳарларида ҳам бўлганлар. Русларнинг баъзи манбаларида ёзилишича XVIII асрнинг 30 йиллари ўзлари кўрғошин олиб ундан ўқ ясаганлар. Шунингдек қозоқларга сотиш учун порох таёрлаганлар.

Қорақалпоқ халқи Хоразм территориясига кўчиб келганидан кейин ҳам ўзи жойлашган ҳосилсиз қуруқ ва ботқоқлик ерларни қуришиб, суғориш каналлари ўтказиб, тўғонлар ва бошқа сув иншоатлари қуриб, деҳқончилик қорақалпоқ хўжалигининг асосий тормағи сифатида ривожланди^{146.1}

Юқорида айтганимиз сингари Қалликул, Қушқана тов ва Кегейлидан иборат учта воҳаси Амударёнинг чап қирғоғида лавзон, Чонлибосув, Шумоной, Қиётжорғон каналларидан куйида ташкил топган. Амударёнинг ўнг қирғоғида ҳозирги Чимбойнинг ғарбий-шимолида, собиқ ўзбек деҳқончилик тумани, Қорабойлининг атрофида Амударёнинг табиий тармағи бўлган Қорабойли суви билан суғориладиган Қушқанатов воҳаси вужудга келди. Унинг суви Чуртонбой, Эшон, Арзибой, Тиллабой, Бийжон, Элгелдижоб ва бошқа ариқлардан келган А.В. Каульбарсининг айтишича, Қушқанатов паст текислиги XIX асрнинг 30-50 йиллари шимолий Хоразмнинг қорақалпоқ, қангли, кипчоқларнинг тумани бўлиб ҳисобланган.

XIX асрнинг охирларида Кегайли воҳаси шимолий Хоразмдаги йирик деҳқончилик тумани бўлиб қолди.

Ўрта Осиёнинг энг йирик феодал давлатларидан ҳисобланган Хива хонлигига қорақалпоқларнинг қарам бўлиши, уларни хонликнинг иқтисодий- сиёсий системасига эргашишга мажбур этди. Улардаги аграр муносабатлар ўзгариб борди.

С.К. Камалов XIX асрнинг 20-60 йилларда қорақалпоқларнинг ижтимоий-иқтисодий тузумига, ирригация ишлари ва деҳқончилик хўжалигининг ривожланишида Хива хонлар томонидан ҳокимиятни марказлаштириш билан халқларнинг ўзаро

¹⁴⁶ Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. Ленинград. 1950, с.18-19

урушларига барҳом берди, айниқса, уларнинг (қорақалпоқларнинг) қадимдан деҳқончилик билан шуғулланган ўзбеклар - Хоразмликлар билан қўшничилиги ўша даврда ерларни зудлик билан ўзлаштиришга ва деҳқончиликнинг ривожланишига сабаб бўлди^{147.1}

Қорақалпоқларда феодал ер эгалиги Ўрта Осиё хонликлари, асосан, Хива хонлигида XIX аср ва XX аср бошларида ҳукум сурган феодал ер эгалиги билан мустаҳкам боғлиқдир. Хива хонлигидаги аграр мунособатлар ҳақида рус олим ва саёҳатчилари - Н.Н.Муравьев, М.И.Иванин, Г.И.Данилевский, Я.Килевейн, А.Л. Кун, Л.Ф. Костенко, Н.И.Веселовский, Гиршфельд ва М.Н.Галкин, О.Шкапский, В.Лобачевский, А.В.Каульбарс кабиларнинг асар ва хотираларида баъзи бир маълумотлар берилган.

Бироқ, у авторлар чор Россиясининг амалдорлари, буржуа синфининг вакиллари бўлгани учун уларнинг ёзганлари тенденциоз характерда бўлган. Хива хонлиги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий тарихий жумладан, феодал давлат тузилиши ва ер эгалиги каби муҳим масалалар тарихини ҳаққоний асосларда ўрганиш тарихчилар, шарқшунослари томонидан амалга оширилди. Таниқли шарқшунос тарихчи профессор П.П.Иванов, ЎзССР Фанлар академиясининг академиги М.Й. Йўлдашовлар Хива хонларининг архивини топиб, ундаги материаллар асосида юқаридаги масалаларни кенг ёритиб берган муҳим асарлар яратдилар.

Ҳақиқатдан, XIX асрда Хива хонлигида ер эгалиги, ер солиғи тўғрисида яқин кунларгача О.Шкапскийнинг «Амударё очерклари» номли китобигина мавжуд эди. Мазкур китоб бой фактик материалларга эгалиги билан характерланади. О.Шкапский Амударё бўлими, айниқса, Шўрохон участкасининг географик ўрни, табиий шароити деҳқончилик ишлари, деҳқончилик қуроллари, суғориш иншоотлари тўғрисида кенг маълумот берган^{148.1}. Шўрохон участкасидаги ер эгаликни, подшолик (давлат), хусусий мулк ва вақфдан иборат формаси бўлганлигини баён этади. Шу аснода бутун Хива хонлигидаги ерга эгалик ва солиқ системасини ёритиб берган. Шкапский Амударё бўлимидаги деҳқонларнинг оғир аҳволини қисқача баён этади. Бироқ, у асар муҳим аҳамиятга эга бўлишига қарамай, унда қўйилган масалалар бўйича камчиликлар мавжудлиги туфайли асарда Хива хонлигидаги ва қорақалпоқлардаги феодал ер эгалиги масаласи узил-кесил ҳал қилиб берилмаган. Шкапскийнинг китоби ҳақида М.Й.Йўлдошев ўз асарларини ўқиган ҳар бир бир тадқиқотчи ундаги камчиликларни кўриши мумкин. Жумладан, у Шўрохон участкасидаги ерга эгаликни учга ажратса-да лекин уларни тушунтиришда подшолик (давлат) ерларини мулк-ерлар билан аралаштириб юборади. Мулк ерни, солиқ олиниш олиномаслигига ёки қай тарзда олинишига қараб, уни отои ва ёрлиқли мулкка ажратади.

Ёрлиқли мулк - ерга хусусий эгалик ҳуқуқи учун давлат томонидан берилган ёрлиғи бўлган шахслар мулкидир.

Ёрлиқли мулк эгалари солиқ тўламас эди. Отом мулк хоннинг қориндошлари, йирик амалдорлари қўлида бўлган, улар аъло деб ҳисобланса - да, ерига нисбатан арзимаган солиқ тўлаган.

¹⁴⁷ Камалов С.К. Қарақалпаки в XVIII-XIX веках. Ташкент, 1968, с.132

¹⁴⁸ Жалилов О. XIX-XX аср бошларидаги қорақалпоқ тарихидан Фан. Т., 1985, 20 б.

Умуман, отои мулк эгаларидан олинган солиқ жуда оз эди, аммо баъзи жойларда улар солиқдан озод бўлиб қолган деб, таъкидлайди. Шкапскийнинг бу маълумотларидан мулкчи ер эгалари умуман солиқдан озод қилинган деган

хулоса келиб чиқади. Шкапский отои мулк деб ҳисоблаган ерларнинг ҳам галарида (хоннинг қориндошлари ёки амалдорларда) унга эгалиги ҳақида ёрлиғи бўлган. Солиқ тўламаган шахсларнинг отои мулки бу жиҳатдан ҳам ёрлиқли мулкка ўхшаб кетади. Демак, ёрлиқнинг бўлиш-бўлмаглиги мулк ерни Шкапский кўрсатганидай категорияларга бўлишга асос бўла олмайди.

Архив материалларининг кўрсатишича: хоннинг қариндошлари йирик амалдорлар, айрим руҳонийлар, хонликка хизмат кўрсатган навкарлар (отлик аскарлар баъзи шахслар) солиқлардан озод қилинган¹⁴⁹.

У ҳақида махсус ёрлиқлари бўлган. Ана шундай шахслар ёрлиқдорлар деб аталган. Уларнинг эгалигидаги ер ёрлиқли мулк эмас, ё хусусий мулк ери, ёки давлат ери, ё бўлмаса вақф ери ҳисобланган.

Хива хонлигидаги аграр муносабатлар тўғрисида П.П.Иванов берган маълумотлар аҳамиятлидир. У биринчи бўлиб Хива хонларининг ўзига тегишли хусусий мулк ерлари бўлган деган хулосага келади ва у фикрини Хива хонлари архиви Хужжатлари асосида исботлаб берди. П.П.Иванов мақоласида «Шундай қилиб бизнинг хужжатимиз, Амударё дельтасидаги ҳаммадан кўра муҳимроқ туманларнинг бирида қорақалпоқ аҳолиси ўртасида уруғжамоа ер эгалигини характерлаб беради» - деб ёзган бўлса, «Қорақалпоқлар ҳақида янги маълумотлар» номли мақоласида «Хива, бошқа Ўрта Осиё туманларидаги ўзбекларнинг аграр муносабатларини ўрганар эканмиз, қорақалпоқлар ўртасидаги сингари уруғ-жамоа формасининг бўлганини кўрамиз. Бироқ бу фарқ шундаки, ерга эгаликнинг бу формаси ўзбек туманларида XIX асрнинг бошларида деярли йўқолиб, ўз ўрнини амалдор, йирик ер эгалари ёки давлат эгалигига бўшатиб берди. Қорақалпоқ туманларида эса уруғ - жамоа ер эгалиги у ёки бу шаклда XIX асрнинг II ярми бошларигача сақланмоқда эди. XIX асрнинг ўрталарида қабила уруғ жамоасининг ерга ва яйловларга бўлган эгалик ҳуқуқи фақат қалбаки расмиятчиликдан иборат бўлиб, амалда барча экин мойдонларига феодал уруғ бошлиқлари эгалик қилар эди» деб ёзади¹⁵⁰.

Бу маълумотлар Хива хонлиги, жумладан қорақалпоқларда ер эгалигини характерлаб беришда қимматли маълумотлар ҳисобланади.

Хива хонлигида феодаллик зулмининг уч хил шакли мавжуд эди: моддий, табиий ва меҳнат. Моддий зулмга «солғит» деб номланувчи ер солиғи ва «закот» деб номланувчи мол-мулк ва чорва солиғи киради. Мол-мулк солиғи катта ва ўрта ер эгалари билан бир хилда оддий деҳқонларга ҳам жорий қилинган эди. Солғит тўловчилар уч хил котегорияга ажраларди: ўн танобдан ортиқ ер эгалари уч тилло тўлашлари керак бўлган, ўн танобгача ерга эга бўлганлар икки тилло, беш танобгача ерга эга бўлганлар бир тилло шу билан бирга ерга эга бўлмаганлар ҳам бир тилло солғит тўлардилар. Ҳудди шу даврда катта зодагонлар ва дин пешволари солиқдан озод этилган.

¹⁴⁹ Йўлдошев М.Ю. Материалы по истории каракалпаков// Общественные науки в Ўзбекистана 1965 №1, 62-65 б.

¹⁵⁰ Иванов П. Очерки истории каракалпаков//Материалы по истории каракалпаков. Москва-Ленинград, 1935, с.37

Қорақалпоқлар Амударё дельтасига келиб жойлашганларидан сўнг улар хали ерларини ўзлаштириб олмасларидан Мухаммад Рахим хон улардан худди туб аҳоли билан бир хилда солиқ тўлашларини талаб қилди. Бундай солиқ тўлаш учун қорақалпоқларни қурби етмасди. Натижада солиқ йиғувчилар билан қорақалпоқлар ўртасида тўқнашувлар вужудга кела бошлади. Мухаммад Рахим хон бу тўқнашувларга бархам бериш мақсадида қорақалпоқлар биргаликда ҳар йили 20 минг тилла тўлашларини талаб қилди. Солғитнинг бу тури «солғит-кесма», шунингдек келишувга асосан тўлов деб ҳам номланарди.

Қорақалпоқлар солғит кесмадан ташқари закот ҳам тўлардилар. Бу туя, от ва шохли моллардан қирқ бошига беш тилладан ва қирқ бош қўйга 10 аббос (бир аббос 25 кумуш тангага тенг) дан иборат бўлган. Катта чорва эгалари хар-хил йўллар билан айёрлик қилиб закотни қўп қисмини камбағаллар зиммасига ташлардилар. Хонлик ерларида деҳқончилик билан шуғулланаётган қорақалпоқлар ернинг хажмидан катъий назар йиғилган 4-5 ботмон ғалладан икки ботмонини солиқ учун тўлашган, бу табиий солиқ ҳисобланган. Юқоридаги солиқлардан ташқари қорақалпоқ ер эгалари жойлардаги дин пешволарига «усир» (хосилни ундан бир қисми), ўрмонлардан фойдаланганлик учун алоҳида солиқ «тутун пули» (утин учун тулов) йиғилган.

Солиқларнинг бутун оғирлиги меҳнаткаш қорақалпоқлар елкасига тушади, зодагонлар ва дин пешволари солиқдан озод эдилар¹⁵¹.

Қорақалпоқлар мажбурий меҳнатга ҳам жалб қилинган (хонликдаги ариқларни казиш, кўприкларни созлаш, Амударёдаги дамбаларни тўғрилаш ва созлаш ва хоказо). Хар бир уй эгаси бир йилда бир ишчи бошига 12 кундан ишлаб бериши керак бўлган. Кўприкларни созловчи ишчилар «кўпирчи», каналларни тозаловчилар «қазувчи» деб номланарди. Бу ишларга бир йилда 27079 одам жалб қилинган бўлса шундан 6000 киши қорақалпоқлардан бўлган.

Яна бир феодалона мажбуриятлардан бири қорақалпоқ аҳолиси хонлик қўшинида хизмат қилаётган 12000 навкарни боқиши керак бўлган. Бу эса уларга 1874 йилда 100-140 минг тиллага тушган. Урушларда қорақалпоқ харбий отрядларини бийлар, ботирлар ва юзбошилар бошқарган. Улар уруш даврида қорақалпоқ меҳнаткашларининг солиқларини ортиши ҳисобига тинчлик давридагидан 4 баробар қўп ҳақ олганлар. Солиқ йиғиш билан хон амалдорлари «қушбеги» ва «мехтар»лар шуғулланганлар. Чап қирғоқ қорақалпоқлардан қушбегилар, ўнг қирғоқликлардан мехтарлар солиқ йиғганлар. Улар бу хизмати учун Хива хони томонидан тақдирланмаган. Улар солиқ йиғиш давомида турли хил ёмонликлар билан ўзларига ҳақ қолдиришга ҳаракат қилганлар ва шулар ҳисобига яшаганлар. Солиқ йиғувчилар порахўрлик қилардилар. Оқсоқоллар бий ва оталиққа, бий ва оталиқлар бекларбеги, қушбеги ва мехтарларга пора бериш эвазига солиқ тўлашдан қутулардилар, бунинг эвазига улар тўлаши керак бўлган солиқ улуши ҳам меҳнаткаш аҳоли зиммасига тушарди.

Закотни «божмон» лар йиғишарди ва йиғилган солиқни 10% хон томонидан уларни ўзларига қолдириларди. Закот йиғишда қозилар ҳам иштирок этишарди. Ғалла солиғини «мушриф» лар йиғишарди. Улар йиғган ғалла қушбеги ва мехтарларга

¹⁵¹ Иванов П. Архив хивинских: ханов. Ленинград, 1940, с.142

берилади, улар эса хон саройига элтишарди. Мажбурий меҳнат солиғини кушбеги ва меҳтарлар назорат қилишарди айниқса каналларни тозалаш жуда оғир бўлади, бунинг оқибатида одамлар оғир касалликларга чалинардилар. Хонлик томонидан ўтказиладиган ҳар бир тадбир учун бий ва оталиқлар хонга пора беришарди. Бу эса оддий меҳнаткашлардан йиғиб олинарди. Шунча йиғилаётган солиқларнинг устига бундай йиғимларнинг кўшилиши меҳнаткашларнинг икки томонлама таланиши (Хива хонлари ҳамда ўзларининг феодаллари томонидан), уларни янада ғазабга келтирарди.

Хулоса: Хулоса қилиб айтганда қорақалпоқларнинг Ёер муносабатлари алоҳида ўзига хослик хусусиятлари жудаям кўпдир. Айниқса қорақалпоқлар яшайдиган географик ҳудуднинг ноёблиги аҳолини ёер муносабатларида минтақанинг бошқа ҳудудларидан ажралиб туришига сабаб бўлиб келмоқда.

REFERENCES

1. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 111–114. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>
2. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1-5.
3. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(10), 719–723. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678>
4. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich. (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>
5. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
6. Shokir o'g'li, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
7. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
8. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
9. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). ООО «SupportScience».
10. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
11. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and*

- Research, 2(10), 850-854
12. Shuhrat kizi, R. S. (2023). The Development of Spiritual and Cultural Reforms in the Development Strategy of New Uzbekistan. *International Journal of Culture and Modernity*, 32, 61–66.
 13. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.
 14. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 100-102.
 15. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.
 16. Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303-308.
 17. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73-80.
 18. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
 19. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
 20. Toshpo'latova, S. S. (2023). TOJIKLAR MILLIY KIYIM-KECHAKLARI VA "BESHMORAK" MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI. *SCHOLAR*, 1(28), 395-401.
 21. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
 22. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
 23. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV–O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
 24. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). MARRIAGE CEREMONY OF TAJIKS IN THE WORK OF MIKHAIL STEPANOVICH ANDREYEV "TADJIKI DOLINI KHUF". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
 25. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
 26. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И*

- ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(1), 35-38.
27. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.

TAURIN VA RUX KOMBINASIYASINING JIGAR FAOLIYATIGA TIKLOVCHI TA'SIRI.

Amonova Z.X.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali
Farmakologiya va klinik farmakologiya kafedrasida assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10150056>

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda Aholining 50 foizida ortiqcha tana vazni, 46,3 foizida giperxolesterinemiya (qonda xolesterin darajasining me'erdan ortiq bo'lishi), har uchinchi kishida arterial gipertoniya, 9 foizida giperglikemiya (qonda qand miqdori me'erdan ortiq bo'lishi), 30,7 foizida kashandalik kuzatiladi. ushbu mavzu jamiyat salomatligini tiklash uchun xizmat qiladigan dori vositasining ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: taurin, rux, gepatit, gipertoniya.

RESTORATIVE EFFECT OF THE COMBINATION OF TAURINE AND ZINC ON LIVER FUNCTION.

Abstract. Currently, 50 percent of the population is overweight, 46.3 percent have hypercholesterolemia (high blood cholesterol levels), every third person has arterial hypertension, 9 percent have hyperglycemia (high blood sugar levels), 30 In 7 percent of cases, it is observed. this topic shows the importance of medicine that serves to restore the health of society.

Key words: taurine, zinc, hepatitis, hypertension.

ВОССТАНОВИТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ КОМБИНАЦИИ ТАУРИНА И ЦИНКА НА ФУНКЦИЮ ПЕЧЕНИ.

Аннотация. В настоящее время 50 процентов населения имеет избыточную массу тела, 46,3 процента имеют гиперхолестеринемию (повышенный уровень холестерина в крови), у каждого третьего человека имеется артериальная гипертензия, у 9 процентов - гипергликемия (повышенный уровень сахара в крови), 30 В 7 процентах случаев она наблюдается. эта тема показывает важность медицины, которая служит восстановлению здоровья общества.

Ключевые слова: таурин, цинк, гепатит, гипертоническая болезнь.

Mavzuning maqsadi: mamlakat miqyosida aholi salomatligini saqlashga xizmat qiladigan va insonlarda jigar faoliyatini tiklaydigan preparatlar sonini oshirish

Mavzuning vazifasi: jamiyat salomatligini tiklash uchun xizmat qiladigan dori vositasining ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Taurinning past darajalari bir nechta sharoitlarga (ko'z kasalliklari va yurak-qon tomir muammolari, shu jumladan) bog'liq bo'lsa-da, to'ralmalarining afzalliklari bo'yicha tadqiqotlar cheklangan.

Taraflar, taurin kognitiv funktsiyani yaxshilash, jismoniy ishlashni kuchaytirish, ko'rishni saqlab qolish, yurak sog'lig'ini oshirish, qon shakarini nazorat qilish va energiya darajasini oshirishga da'vo qiladi. Taurin shuningdek, antioksidant sifatida ham ma'lum.

Sog'liq ta'siri

Taurinning sog'lig'iga ta'siri haqida mavjud tadqiqotlar natijalaridan bir nechta muhim natijalarga qarang:

1) yurak kasalligi

Tajribali va Klinik Kardiologiyadan olingan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, taurin yurak xastaligi bilan kurashish uchun dastlabki tadqiqotlar ko'rsatadi. Tadqiqot mualliflari shuni ta'kidladilarki, taurin bir qator yurak-qon tomir kasalliklarini (masalan, arteriyalarning sertlashuvidan himoya qilish) taklif qilishi mumkin, ammo har qanday yurakning oldini olish yoki davolash uchun taurin qo'shimchalari tavsiya etilishidan oldin ko'proq tadqiqot o'tkazish zarurligini e'tiborga oling.

Yana bir tadqiqotda taurin qo'shimchalari homosistein darajasini (yuqori darajalarda aniqlanganda yurak kasalligi xavfini ko'tarish uchun ko'rsatiladigan amino kislotalar) kamaytirishga yordam berishi mumkinligini aniqladi. 2009 yilda eksperimental tibbiyot va biologiya sohasidagi taraqqiyotga bag'ishlangan tadqiqotda 22 ta sog'lom o'rta yoshli ayol ishtirok etdi. To'rt haftadan keyin 3 gramm taurinni kundalik takviyalash shaklidan olib chiqib, ishtirokchilar homosistein darajasiga sezilarli darajada pasayganligini ko'rsatdilar

2. Yuqori qon bosimi

Gipertoniya e'lon qilingan 2016 yilgi tadqiqotga ko'ra, Taurin yuqori qon bosimini davolashda yordam berishi mumkin.

Tadqiqot davomida prefaster terapiya bilan og'riqan bemorlarga 12 hafta davomida taurin qo'shilishi yoki placebo yuborildi. Taurin qo'shilishi qon bosimini pasaytiradi, ayniqsa qon bosimi yuqori bo'lganlarda.

Energetik ichimliklardagi Taurin

Taurin energetik ichimliklardagi umumiy tarkibiy qismidir. Ba'zi dastlabki tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'yin aqliy qobiliyatini oshirishi va mashqlar chidamliligini oshirishi mumkin, to'rtning energiyani kuchaytiruvchi ta'siri haqida umumiy tadqiqotlar cheklangan. Bundan tashqari, The Physician va Sportsmedicine gazetalarida chop etilgan 2010 yil hisobotida energetik ichimliklardagi charchoq bilan kurashish ehtimoli ularning tos tarkibiga emas, balki ularning kofein tarkibiga bog'liqligini ko'rsatmoqda.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotiga ko'ra gepatit kasalligi bilan sayyoramizda 2 mlrd odam xastalangan. Ushbu xastalikni keltirib chiqaradigan sabablarni oladigan bo'lsak ular infeksiya va noinfeksiya. Jigar salomatligini tiklovchi preparatlarga bo'lgan talab yildan yilga oshib bormoqda. shulardan bittasi ta'sirli preparati xisoblanadi. Taurin qonda trigliseridlar va xolesterinni kamaytirish orqali qon bosimini normallashtiradi va jigarning dezintoksikasyon qobiliyatini oshiradi. Taurin yurak va miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ruxning etishmovchiligida esa gepatitni davolash jarayonida dori vositalarining effekti to'liq yuzaga chiqmaydi, bundan tashqari jigar ensefalopatiyasi miya faoliyati buzilishidan kelib chiqadi.

Ruxning endogen etishmovchiligi jigarning virusli va noinfeksiya zararlanishidayam ro'y beradi. bundan kelib chiqadiki jigar ning dezintoksikasyon funksiyasi da ruxning roli katta. Rux konsentrasiyasining organizmda kamayishi moddalar almashinuviga (insulinorezistentlik va dislipidemiya) salbiy ta'sir kiladi va kasallikning kuchayishiga sabab bo'ladi (Demidova, Tinikov A, 2017). Ruxning uglevod va yog'lar almashinuvida, xususan giperlipidemiya jigar, ichak faoliyatiga ijobiy ta'sir etishi xamda tuqimalarda qabul qilishini kuchaytirishi bilan izohlash mumkin. Organizmni rux mikroelementi va taurin bilan xosil qilgan birikmasiga tuyintirish orqali jigar xujayralarining tiklanish jarayonini amalga osho'ishiga guvoh bo'lamiz.

Taurin o'z tarkibida oltingugurt saqlovchi aminokislotalar almashinuvida hosil bo'luvchi tabiiy mahsulot. deyarli barcha tirik mavjudotlar organizmida mavjud .o'simliklar tarkibida

uchramaydi. taurin sintezi insonlarda kam amalga oshadi ya'ni uning miqdori markaziy nerv sistemasi tomonidan nazorat qilib boriladi etishmaganini insonlar oziq ovqatda oladi. 20-asrning 2 chi yarmidan o'rganila boshlagan taurinning ahamiyatijuda katta. Alisgeymerni oldini oladi , retinopatiyani, qandli diabetni davolashda juda yaxshi effekt beradi. Taurin va rux kombinasiyasi jigarning ksenobiotiklarga chidamliligini oshirib beradi. bundan tashqari o't suyuqligini ichakka haydab trigliseridlar sekresiyasini kamaytiradi va o't tosh kasalligini oldini oladi. Taurin va rux kombinasiyasi giperbilirubinemiyaning bartaraf etadi. Jigarda qon aylanishi normallasib, uning xujayralari tiklanadi va protektorlik xususiyati oshadi.

REFERENCES

1. Zinc metabolism in alcoholic liver disease. / C. J. McClain, [et al.] // Alcohol. Clin. Exp. Res. — 1986. — Vol. 10. — P. 582-589. Demidova, Tinikov A,
2. Hu YH, Lin CL, Huang YW, et al. Dietary amino acid taurine ameliorates liver injury in chronic hepatitis patients. *Amino Acids* 2008;35 (2):469-73. Epub 2007 Aug 10.
3. Matsuoka T. *Nagasaki Med J* 1960;35(2):352.
4. Miyata K, Ikawa O, Izumi H, et al. Efficacy of the combined use of taurine for hyperbilirubinemia caused by UFT therapy after surgery for colonic cancer. *Gan To Kagaku Ryoho* 2006;33(5):671-73.
5. Oh M, Winn J, Poordad F. *Aliment Pharmacol Ther* 2008;28(5):503-22.
6. Spencer AU, Yu S, Tracy TF, et al. Parenteral nutrition-associated cholestasis in neonates: multivariate analysis of the potential protective effect of taurine. *JPEN J Parenter Enteral Nutr* 2005;29(5): 337-44.
7. Cave M, Chen T, Mc Clain CJ, et al. Betaine for nonalcoholic fatty liver disease: results of a randomized placebo-controlled trial. *Hepatology* 2009;50(6):1818-26.
8. Chen W, Matuda K, Nishimura N, et al. The effect of taurine on cholesterol degradation in mice fed a high-cholesterol diet. *Life Sci* 2004;74(15):1889-98.
9. Zvenigorodskaya L.A., Ovsyannikova O.N., Noskova K.K. i dr. Taurin v lechenii nealkogolinoy jirovoy bolezni pecheni // Eksperimentalnaya i klinicheskaya gastroenterologiya. 2010. № 7. S. 43-50.

TOPINAMBUR-QANDLI DIABETDA YORDAMCHI VOSITA.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Termiz filiali “Farmakologiya va klinik farmakologiya” kafedrası o‘qituvchilari

Negmatova Mohichexra Umarovna

Uzoqova Umida Eshmo‘minovna

Eshdavlatova Dilfuza Bekmurotovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10150087>

Annototsiya. Qandli diabet kasalligiga Topinamburni dieta kiritish kerak - bu qondagi glyukoza darajasini kamaytirishga yordam beradi. Topinambur, yernoki va quyosh ildizi - sog'lom va mazali ildiz mevalari tufayli mashhur bo'lgan o'simliklar. Topinamburni o'tirish va yetishtirish hamda undan mazali taomlar tayyorlash oson. Mutaxassis, endokrinolog, dietolog, t.f.n. Olga Pyanykh va endokrinolog, ovqatlanish mutaxassisi Yekaterina Buzinova Topinamburning qandli diabet uchun qanday foydali ekanligini va uni qanday shaklda iste'mol qilish mumkinligini keltirib o'tishdi. Topinambur o'simligining foydali jihatlari tibbiyotda aniqlangan bo'lib ko'p asrlardan buyon tibbiyotda va tabobatda keng qo'llanilib kelmoqda. Maqolamizda Topinambur o'simligining foydali jihatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Topinambur, Qandli diabet, Inulin, og'riq, fruktoza, vitaminlar, immunitet, tibbiyot, uglevod, kasallik, yurak-qon tomir tizimi.

JERUSALEM ARTICHOKE IS AN AUXILIARY REMEDY FOR DIABETES MELLITUS.

Abstract. Diabetics should include Jerusalem artichoke in their diet - it helps reduce blood glucose levels. Jerusalem artichoke, Jerusalem artichoke and watercress are popular plants because of their healthy and tasty tubers. Jerusalem artichoke is easy to grow and can be used to make delicious dishes. Specialist, endocrinologist, nutritionist, Ph.D. Olga Pyanykh and endocrinologist and nutritionist Ekaterina Buzinova told how Jerusalem artichoke is useful for diabetes and in what form it can be consumed. The beneficial properties of Jerusalem artichoke have been identified medicinally and have been widely used in medicine and medicine for many centuries. In our article we will focus on the beneficial aspects of Jerusalem artichoke.

Key words: Jerusalem artichoke, diabetes mellitus, inulin, pain, fructose, vitamins, immunity, medicine, carbohydrates, diseases, cardiovascular system.

ТОПИНАМБУР – ВСПОМОГАТЕЛЬНОЕ СРЕДСТВО ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ.

Аннотация. Диабетикам следует включать в рацион Топинамбур – он способствует снижению уровня глюкозы в крови. Топинамбур, топинамбур и кресс-салат — популярные растения из-за их полезных и вкусных клубней. Топинамбур легко выращивать, из него можно приготовить вкусные блюда. Специалист, эндокринолог, диетолог, к.м.н. Ольга Пьяных и врач-эндокринолог, диетолог Екатерина Бузинова рассказали, чем полезен топинамбур при диабете и в каком виде его можно употреблять. Полезные свойства топинамбура были выявлены в медицине и широко использовались в медицине и медицине на протяжении многих столетий. В нашей статье мы остановимся на полезных сторонах топинамбура.

Ключевые слова: топинамбур, сахарный диабет, инулин, боль, фруктоза, витамины, иммунитет, лекарство, углеводы, заболевания, сердечно-сосудистая система.

Bizińshe ekologiyalıq tárbiya beriwde mekteplerde, klasslarda, sabaqta hám sabaqtan tisqari payıtlarda oqıwshılardı xaliq pedagogikasi úlgilerinen paydalanıp joqarıdaǵı siyaqlı jarislar shólkemlestirilse sabaq mazmunı balalar yadında tereń ornasıp qaladı, sonday – aq oqıwshılar ekologiyalıq mashqalalar menen qiziqsiniwi, olardıń sheshimin atbiwǵa ekologiyalıq túsinikleriniń jeke kóz qaras, pikirleriniń rawajlanıwına da tásir etedi degen pikirdemiz.

Mektep oqıwshılarına ekologiyalıq tárbiya beriwde ásirese tábiyiy sabaqlarda pedagoglar oqıwshılardı ekologiyalıq túsiniklerdi qurǵaq túsindirip ótpey, al sabaǵın hár qiyli didaktikalıq materiallar xaliq pedagogikasi úlgileri menen qurallanıp ótiwin usinis etemiz. Sabaq paytında teoriyalıq bilimler beriwde xaliq pedagogikasi úlgilerinen biri jańiltıwshılardan da tómendegi formada da paydalanıwǵa boladı dep oylaymız. Bunda oqıwshılardı ósimlikler yamasa haywanat dúniyasi haqqında túsinik bergen de muǵallım: “ Balalar bizlerdiń úyrenip atırǵan haywan yáki ósimligimiz haqqında minaday jańiltıwshılar bar, qáne oni bir neshewińiz aytıp jarisip kóriń “ dep tapsırma berip, ózi balalardıń qiziqiwshılıǵın háreketlerin baqlap bariwi, bahalawi tiyis. Bir tárepten balalardıń zerigiwine jol qoymasa, ekinshi tárepten sabaqtıń mazmunlı ótiwin támiyinleydi, úshinshiden oqıwshılardıń ekologiyani xaliq pedagogikasi menen biriktirip úyreniwine, sóylewiniń aqiliniń rawajlanıwına da sebepshi boladı.

Misali:

Qirda qırq qırǵawıl,

Qırq qırǵawıl ishinde,

Qırq jil qisir qılǵan

Qizil qil quyriqli qırǵawıl.

Bunda muǵallım “Qırǵawıl” qusiniń mámleketlik qizil kitapqa kirgizilgenligin, bahalı adamlar ushin paydalı qus ekenligin aytıp, balalardıń yadında qaliwi ushin onıń jansız kebin

yamasa, kórgizbe quraldan súwretin kórsetip, balalarga tanistiriwi bul qusqa azar bermew kerek ekenligin, ol tábiyattin janli bayligi ekenin, qirgawildi kóbeytiwge asirap saqlawga har biriniń úles qosiw kerekligin jeńil til menen túsindiririwi kerek.

Sonday – aq jańiltplashlardan:

Ayir atańdi júk qartaytar

Semiz qoydi may qartaytar,

Úy qartaytar, búy qartaytar.

Yamasa:

Esiktiń aldi qarabaraq

Qarabaraqtin arjagi

Qara qarabaraq

Hámme qara qasqa baspagin

Qara qarabaraqlandirmağa aparatir,

Men de qara qasqa baspagimdi

Qarabaraqlandirmağa aparatirman”

Bunda oqıwshılar sabaq paytında jańiltplash quramında sóz etilgen “atap”, “qoy” haywanları haqqında hám dala ósimlik “Qarabaraqtin” túrleri mallar ushin ot – shóp, adamlar ushin otın jańilgi zat ekenligin de túsiniş aladı. Olardıń tábiyattin bir bólimi ekenligin, paydalı táreplerin áhmiyetin túsiniş ekologiyalıq bilim hám tárbiya sheńberi keńeyip baradi.

Mektep oqıwshılarına ekologiyalıq tárbiya beriwde xalıq pedagogikası úlgileri bolgan terme tolgaw, ertekler, ańızlar, ráwiyatlar, dástanlardan da ónimli paydalanıwga, pedagoglar onı mektepte sabaq paytında, sabaqtan tisqari payitta da paydalanıwga boladi. Sabaqtan tisqari payitlarda muğallimler óz oqıwshıları menen

Sayaxatlarda

Kórgizbelerde

Gerbariy jiynawda

Ekskursiyalarda

Úlke taniw múzeylerine

Tábiyat qushagina seyillerge shólkemlestiriw arqalı da balalarga tiyanaqlı túrde ekologiyalıq tárbiya beriw múmkin dep esaplaymız.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: “ Ўзбекистон”, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятини кундалиқ қондаси бўлиши керак. - Т.:” Ўзбекистон”, 2017.
3. Vorob`ev A.I. Mehnat talimi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi.– Т: “ Oqituvchi ”, 1980.
4. Ochilov Z. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda kasbga yollashni shakllantirish. – “Oqituvchi”, 1996.
5. Mavlenova R. va boshqalar. Pedagogika. –Т, 2001.

6. Есанов М. ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ СРЕДСТВАМИ МУЗЫКИ //Oriental Art and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 719-725.
7. Ayarova K., Yesanov M. Organization of Music Lessons by the Teacher in Various Ways //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 27. – С. 189-191.
8. Esanov M., Ametov A. DOIRA SAN' ATINING RIVOJLANISHI VA TARIXI //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 729-733.
9. Есанов М. Знание особенностей воздействия музыкального искусства на человека //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 767-771.
10. Есанов М. О. ЎЗБЕК ХАЛҚ ЧОЛГУЛАРИДА ИЖРОЧИЛИК ТАРИХИ //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 578-584.
11. Nawrizbaeva A. A. THE PERFORMANCE SKILLS OF KARAKALPAK BAKSHIS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 906-910.
12. Nawrizbaeva A. A. BAQSÍ, SÁZENDE GENJEBAY TILEWMURATOV TÍN ACTQARÍWSHÍLÍQ METHODS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 218-223.
13. Esemuratov B. DEVELOPMENT OF CHILDREN'S CREATIVITY ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY AS AN EXAMPLE OF KARAKALPAK FOLK SONGS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 835-840.
14. Esemuratov B. EDUCATION OF YOUNG PEOPLE TO PATRIOTISM, COURAGE, AND FREEDOM THROUGH SPOONS PERFORMED BY OTHERS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 197-202.
15. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 841-849.
16. Sag'inbaevna T. S. Cultural Life in Uzbekistan during the Years of Independence //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2023. – Т. 18. – С. 39-41.
17. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 841-849.
18. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASIDA FUQAROLIK MASALASIGA OID YANGICHA YONDASHUV

Yo'ldosheva Mohinur Muzaffar qizi

Jizzax viloyati Yuridik texnikumi 2-kurs
Sud huquqiy faoliyati 12/22-guruh o'quvchisi
tel: +99894441112

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10182316>

Annotatsiya. Maqolada shaxs huquqiy maqomini belgilashda fuqarolik masalasining ahamiyati, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik holati bo'yicha huquq va majburiyatlarni aniq belgilashga e'tibor berilganligi, huquqiy asosini uni buzganlik uchun javobgarlikni oshirish orqali yanada mustahkamlash, chet eldagi O'zbekiston fuqarolarini himoya qilish bo'yicha yangi normalarni yaratish va ularni kengaytirish, fuqarolarning chet elga chiqish va qaytib O'zbekistonga kirish masalasida huquqlarini cheklash bo'yicha amaldagi kamchiliklarni bartaraf etish masalalari atroflicha tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik, fuqarosizlik, chet el fuqarosi, fuqarolikni olish, fuqarolikdan chiqarish, "Vatandoshlar" jamoat fondi, fuqarolik jamiyati, fuqarolikni himoyalash.

A NEW APPROACH TO THE ISSUE OF CITIZENSHIP IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. In the article, the importance of the issue of citizenship in determining the legal status of a person, the fact that the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan pays attention to clearly defining the rights and obligations of citizenship, further strengthening the legal basis by increasing the responsibility for violating it, protecting citizens of Uzbekistan abroad creation of new norms and their expansion, issues of limiting the rights of citizens in the issue of going abroad and re-entering Uzbekistan are analyzed in detail.

Keywords: citizenship, statelessness, foreign citizen, acquisition of citizenship, removal of citizenship, public fund "Compatriots", civil society, protection of citizenship.

НОВЫЙ ПОДХОД К ВОПРОСУ ГРАЖДАНСТВА В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В статье подчеркивается значение вопроса гражданства в определении правового статуса человека, то, что в новой редакции Конституции Республики Узбекистан уделяется внимание четкому определению прав и обязанностей гражданства, дальнейшему укреплению правового статуса человека. на основе повышения ответственности за ее нарушение, защиты граждан Узбекистана за рубежом, создания новых норм и их расширения, подробно анализируются вопросы ограничения прав граждан в вопросе выезда за границу и повторного въезда в Узбекистан.

Ключевые слова: гражданство, безгражданство, иностранный гражданин, приобретение гражданства, выход из гражданства, общественный фонд «Соотечественники», гражданское общество, защита гражданства.

Fuqarolik ijtimoiy institut va amaliyot sifatida G'arb sivilizatsiyasiga egalik huquqini o'tkazishdir. Fuqarolikni oshkor qilish siyosiy hamjamiyat a'zolarining imtiyozlari bilan, ularning qamrab olish holatlarini maqomiga ko'ra - fuqarolarning biznes bilan shug'ullanishi, jamoat yig'ilishlarini qamrab olishi va ular ustidan mutlaq nazorat o'rnatishi orqali aniqlandi. Janubiy

Afrikaga yaqinlashish g'oyasi hayotni imtiyozli egalik maqomi va keng doiradagi odamlar bilan bog'lashdir. To'g'ri, keyinchalik yig'ilish g'oyasi bilan uzviy fuqarolik aloqasi g'oyasi zaiflasha boshladi va siyosiy hayotga va xalq boyligiga unchalik e'tibor qaratilmagan fuqarolikning boshqacha, yangi shakliga yo'l ochdi. Biroq, yondashuv paydo bo'lganda, ijtimoiy davlatning ishlab chiqaruvchisi, iste'molchisi yoki mijoz kabi maxsus ijtimoiy munosabatlar.

Fuqarolik munosabatlarining o'ziga xos turi sifatidagi nuqtai nazaridan fuqarolik institutlari odatda hayotning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarini hisobga olgan holda umumiy siyosatni kuzatishda kuzatish amaliyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq, bir g'oya - bu fuqarolik jamiyatining davlat institutida ishtirok etishi. Uni uchta asosiy elementdan biri bilan ajratish mumkin: ommaviy siyosiy hamjamiyatga a'zolik; siyosiy hamjamiyatga a'zo bo'lish orqali erishilgan huquqlar va ularning moddiy ta'minoti, shuningdek, ushbu jamiyat hayotida kuzatilayotgan yuqumli kasalliklar, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda ishtirok etish. Bu uch element faqat bir-biridan ajralmas emas; amalda ular tez-tez bir-biri bilan uchrashib, demokratik hayot va aholining katta qatlamlari farovonligi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Fuqarolik — Konstitutsiyaviy institut. Uning asoslari yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning IV bobi 22-24-moddalarida belgilanib qo'yilgan. "O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi"¹⁹⁰.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 23-moddasi "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas. Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qiladi" deb belgilab bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktabrdagi "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3982-son Qaroriga muvofiq, quyidagilar vatandoshlar qatoriga kiritiladi: a) chet elda vaqtincha yurgan O'zbekiston fuqarolari; b) xorijga chiqib, chet el fuqaroligini olgan, O'zbekistonga ma'naviy va madaniy nutqai nazardan mansublikni his qilgan shaxslar; s) etnik, til va madaniy-tarixiy nuqtai nazardan o'zini o'zbeklar yoki qoraqalpoqlar sifatida identifikatsiya qilgan hamda O'zbekiston bilan aloqada bo'lish xohishida bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar¹⁹¹.

2021-yilda xorijda vatandoshlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida prezident qarori bilan "Vatandoshlar" jamoat fondi tashkil etilgan va Fondni Vasiylik kengashi boshqaradi.

¹⁹⁰ Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

¹⁹¹ Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktabrdagi "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3982-son Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son.

Konstitutsiyaviy demokratik huquqning zamonaviy amaliyotchilarining batafsil tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi amaliyotchilarni tan olish nafaqat jamiyatning bir qismini aniq yoki so'zsiz chetlab o'tishni, balki zamonaviy siyosatning "yozilmagan" qoidasining paydo bo'lishini ham talab qiladi.

Inson huquqlarining buyuk deklaratsiyasi, fransuz va fransuz, nikoh. Ushbu deklaratsiyalarda tasvirlangan inson huquqlarining ramziy ma'nosi shundaki, bu huquqlar boshqa barcha huquqlar - faqat ijtimoiy va madaniy huquqlar uchun emas, balki zamonaviy jamiyatning butun demokratik tuzilishining mohiyati va mohiyati uchun poydevor toshida joylashganligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, eski va ortib borayotgan huquqlar, huquq-erkinlik va huquq-majburiyatlar o'rtasidagi ziddiyat zamonaviy demokratik davlat uchun halokatli xususiyatga ega emas.

Fuqarolik munosabatlari va xalqaro anneksiyaga bo'lgan hozirgi qiziqish, asosan, xalqaro dunyo boshdan kechirgan keng ko'lamli global o'zgarishlar bilan bog'liqligini eslatib o'tmaslik kerak. Bular "Janubiy" kambag'al aholisi bo'lgan xalqlarni boy "Shimol" mamlakatiga ko'chirishning yangi to'liqlari va Yevropa Ittifoqining kengayishi bilan bog'liq Yevropadagi umumiy jarayonlar va ko'plab ijobiy, noqonuniy immigrantlar, rivojlangan mamlakatlarga borishga intilayotgan, manfaatlar bilan shug'ullanuvchilar ham mavjud milliy fuqarolik institutlarining o'zgarishi haqida tashvish bildirishmoqda. Bu jarayonlarning barchasi, ham yo'qotishlar, ham jalb qilish, ham global jarayonlar fuqarolik va fuqarolik institutlarining sezilarli o'zgarishiga olib keladi va mavjudlik va jamiyatning favqulodda vaziyatlarga dosh berish qobiliyati bugungi kunda davlatning yuqori darajadagi yuqori to'lov qobiliyatidir va ilmiy muassasalar, jamoatlar sonining ko'payishi g'oyasi shundan iboratki, fuqarolarning umumiy jamoaviy o'ziga xosligini shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilish qobiliyatini saqlab qolish fuqaroning maqomi va fuqarolik o'ziga xosligini shakllantirishga yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Davlat organlarining vakolatlari "Fuqarolik to'g'risida"gi Qonunda belgilangan. Qonunga ko'ra, **fuqarolikka oid ishlarni ko'ruvchi idoralar** quyidagilar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi.
3. O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi.
4. Respublika diplomatik va konsullik muassasalari¹⁹².

Fuqarolikka qabul qilish, fuqarolikni tiklash, fuqarolikdan chiqarish, fuqarolikni yo'qotganligi haqida qaror O'zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilinadi. Ichki ishlar vazirligi va uning vakolatli idoralari O'zbekistonda doimiy yashovchi shaxslardan O'zbekiston fuqaroligiga o'tish haqida arizalar qabul qiladi. Fuqarolikka o'tish uchun keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi. Arizani zarur hujjatlar bilan Prezident huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha komissiyaga yo'llaydi. O'zbekiston hududida yashovchi shaxslarning O'zbekiston fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi. Respublikada yashovchi shaxslar O'zbekiston fuqaroligini yo'qotgan hollarni qayd etadi.

¹⁹² Qarang. "O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida"gi O'RQ-610-son Qonuni. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son.

Shaxs fuqaro bo'lgach, fuqaro va davlat o'rtasida ma'lum munosabatlar orqali uzviy bog'lanish vujudga keladi. Bu bog'liqlik o'zaro majburiyatlar orqali mustahkamlanadi. Fuqaroning davlat oldidagi majburiyatlari ularning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan burchlari orqali amalga oshirilsa, o'z navbatida, davlatning fuqaro oldidagi majburiyatlari Konstitutsiyada belgilangan majburiyati orqali amalga oshiriladi. Davlatning fuqaro oldidagi mas'ulligi Konstitutsiyaviy tuzum prinsiplari darajasiga ko'tarilganligi (**2-modda**) mamlakat ichkarisida ham, tashqarida ham davlat faoliyatini fuqarolar huquqlarini, manfaatini himoyalashga yo'naltirishga asos bo'ladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **23-moddasida** bu masalaning qonuniy ifodasi o'z o'rnini topgan. Unga asosan, "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi". Fuqarolarni mamlakat hududida himoya qilish turli vositalar orqali amalga oshiriladi.

Bular:

- fuqarolar huquq va erkinliklarining Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilishi;
- fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi, buzilgan huquqlarni tiklovchi davlat organlari tizimining mavjudligi;
- fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat tuzilmalari faoliyatiga ko'maklashish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, fuqarolik shaxsning huquqiy holatini aniqlashda muhim shart hisoblanadi. Shaxs fuqaro bo'lsagina, u barcha huquqlardan to'la foydalana oladi va jamiyatning rivojlanishi, mamlakatning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan burchlarni bajaradi. Shaxsning fuqaroligi, uning dunyoning qayerida yashashidan qat'i nazar, huquq va manfaatlarini himoya qilishga asos bo'ladi. Ya'ni fuqarolarning fuqarosizlarga nisbatan himoyalanih imkoniyatlari kengroqdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktabrdagi "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3982-son Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi "Vatandoshlar" jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-5220-son Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.08.2021-y., 07/21/5220/0786-son.
4. "O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to'g'risida"gi O'RQ-610-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son.

Internet saytlari

5. www.lex.uz
6. www.norma.uz
7. www.huquqiportal.uz

EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI

Ubaydullayev Iloxomjon Raxmatovich

Fargʻona viloyati yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası o‘qituvchisi 2-darajali yurist.

Telefon: +998911515452 ubayilxom@gmail.com

Pirxonov Samandar Yo‘lchiboy o‘g‘li

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi 1-bosqich 32-23-guruh o‘quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10182352>

***Annotatsiya.** Sodir etiladigan barcha jinoyatlar ma‘lum bir ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning ham sodir etilishiga qarshi kurash masalasi yangi asrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Har bir jinoyat ishlari bo‘yicha tergov jarayonini samarali olib borish uchun tergovchi va surishtiruvchilarga, avvalo, tergov qilinayotgan turdagi jinoyatlarning batafsil kriminalistik tavsifini bilish talab qilinadi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada ham ekologiya sohasidagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi xususida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** tergovni tashkil etish, tezkor – qidiruv, tergov harakatlarining taktik usullari, nosog‘lom ekologik sharoit, jinoiy tajovuz obyektı, jinoiy tajovuz obyektiv tomoni, jinoiy tajovuz subyektı, jinoiy tajovuz subyektiv tomoni belgilari.*

CRIMINALISTIC DESCRIPTION OF CRIMES IN THE FIELD OF ECOLOGY

***Abstract.** All crimes committed encroach on a certain social relationship. The issue of combating the occurrence of crimes in the field of ecology, too, is one of the pressing problems of the new century. In order to effectively conduct the investigative process in each criminal case, investigators and interrogators are required, first of all, to know the detailed criminalistic description of the crimes of the type being investigated. It follows that this article will also talk about the criminalistic description of crimes in the field of Ecology.*

***Key words:** Organization of Investigation, operational – search, tactical methods of investigative actions, unhealthy environmental conditions, the object of criminal aggression, the objective side of criminal aggression, the subject of criminal aggression, the subjective side of criminal aggression.*

КРИМИНАЛИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРЕСТУПЛЕНИЙ В ОБЛАСТИ ЭКОЛОГИИ

***Аннотация.** Все совершаемые преступления посягают на определенные общественные отношения. Вопрос противодействия совершению преступлений в сфере экологии также является одной из актуальных проблем нового века. Для эффективного проведения следственного процесса по каждому уголовному делу следователи и дознаватели обязаны, прежде всего, знать подробную криминалистическую характеристику расследуемого вида преступлений. Исходя из этого, в данной статье также будет рассмотрена криминалистическая характеристика преступлений в сфере экологии.*

***Ключевые слова:** организация расследования, оперативно – розыскные, тактические методы следственных действий, неблагоприятные экологические условия, признаки объекта преступного посягательства, объективной стороны преступного*

посягательства, субъекта преступного посягательства, субъективной стороны преступного посягательства.

Sodir etiladigan barcha jinoyatlar ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Bugungi fan - texnika kundan kunga jadal sur'atda taraqqiy etib, jinoyatlarning ham yangicha ko'rinishlari paydo bo'layotgan davrda jinoyatlarni tez va to'liq ochish, ularning oldini olish uchun jinoyi ish yuzasidan tergovni tashkil etish, rejalashtirish, tezkor - qidiruv xodimlari bilan hamkorlik, o'tkaziladigan tergov harakatlarining taktik usullarini, umuman, jinoyatlarning tergov qilish uslubiyotlarini ham ilmiy - amaliy jihatdan takomillashtirib borish talab qilinadi.

Ma'lumki, ijtimoiy xavfli qilmishlar davlatning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotiga, barqarorligiga zarar yetkazadi, rahna soladi.

Bu borada O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov istiqloqloning dastlabki yillaridayoq, "Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o'tish, afsuski korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch hodisa bilan birga yuz bergan. Shu bilan birga, jinoyatchilikning o'sishi nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham qarshi bevosita tahdid tug'diradi"¹⁹³, - degan fikrlarni aytgan edi.

Shu sabab ekologiya sohasidagi jinoyatlarning ham sodir etilishiga qarshi kurash masalasi yangi asrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Yakin vaqtlargacha ham sayyoramizning tabiiy boyliklari behisob, tabiiy muhitning zahiralardan har qancha foydalanish mumkin degan fikr mavjud edi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, fan - texnikamining jadal sur'atlarda rivoj topib borishi makon va zamonda tobora kuchayib borayotgan ifloslanish jarayoni va tabiatga bo'lgan antropogen salbiy ta'sirlar ushbu fikrning noto'g'riligini ko'rsatdi. Bugungi kunga kelib insoniyat barcha mavjud tabiiy boyliklarning uchdan bir qismini sarflab bo'ldi. Qisqa vaqt ichida atrof - muhitni himoya qilish muammosi bugungi va kelajak avlodning hayoti va sog'lig'iga aloqador bo'lgan umuminsoniy global muammolardan biriga aylandi.

Zero O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida aynan shu masalaga alohida modda ajratilib (50-modda), undafuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur ekanliklari burch sifatida belgilab qo'yildi¹⁹⁴. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 12-moddasi insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi va bu muhitni saqlab qolish borasidagi burchi deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasi aholisi o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega ekanligi, ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega ekanligi, shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart ekanligi qat'iy ko'rsatib qo'yilgan.¹⁹⁵

¹⁹³ I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", T.: "O'zbekiston".1997.85-bet.

¹⁹⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2023 y.

¹⁹⁵ O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-XII-con Qonuni 09.12.1992- yil.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar ijtimoiy xavfli, fuqarolarning keng tarqalgan huquqqa xilof harakatlaridan biri bo'lib, ularni sodir etish yoki sodir etilishiga yo'l qo'yish insoniyat yashab to'rgan muhitning yomonlashuviga, kelajak hayot tarzining pasayishiga, o'limning, kasalliklarning ko'payishiga, aholi genofondining buzilishi, nosog'lom va nochor ekologik hududlarning paydo bo'lishi, tabiiy resurslarning tiklanmaydigan darajada tanazzulga uchrashi, yer usti va osti suvlari sifatining yomonlashuvi, radioaktiv ifloslanishning tarqalishi, atmosfera havosining ifloslanishi va iqlim o'zgarishi xavfini, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibining buzilishini, umuman, nosog'lom ekologik sharoit - ijtimoiy tanglikning o'sishini keltirib chiqaradi.

Xorij olimlari tomonidan ham bu turdagi jinoyatlarning latentlik darajasi yuqori ekanligi ta'kidlanadi.¹⁹⁶ Ekologiya sohasidagi jinoyatlarga qarshi ko'rashning hozirgi ahvoli haqida so'z yuritganda, bu fikrlariga qo'shilish o'rinlidir.

Bundan tashqari, "...ekologik jinoyatlarni sodir ettan aybdorlarga nisbatan aksariyat hollarda mahmuriy jazo qo'llash bilan kifoyalanib qolinadi. Albatta masalaga bunday yondashish ekologik muammolarning yana-da keskinlashuviga, uning tirik mavjudotlar uchun xavfi yana-da oshishiga, ekologik jinoyatlarni sodir etishning yana-da ko'payishiga olib keladi"¹⁹⁷.

Har bir jinoyat ishlari bo'yicha tergov jarayonini samarali olib borish uchun tergovchi va surishtiruvchilarga, avvalo, tergov qilinayotgan turdagi jinoyatlarning batafsil kriminalistik tavsifini bilish talab qilinadi. Bu haqda prof. G.Abdumajidovning fikrlariga ehtibor qaratish o'rinlidir: "Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi jinoyat va jazo to'g'risidagi qonunda belgilab qo'yilgan ijtimoiy jihatdan xavfli g'ayrihuquqiy qilmishlarning ko'rib chiqilayotgan turlari eng muhim tomonlari to'g'risidagi umumlashtirilgan daliliy ma'lumotlardan hamda ularga asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimidan iborat bo'ladi. Kriminalistik tavsiflarni bilish jinoyat ishlarini tez, har tomonlama va holisona tergov qilishni tashkil etish uchun zarurdir"¹⁹⁸.

Ayni vaqtda jinoyatlarning kriminalistik tavsifi mazmuni tavsiflanayotgan jinoiy qilmishning mohiyatiga, tergov qilish xususiy uslubiyotining turi va ishlanganlik darajasiga, ilmiy tadqiqotning vazifa va usullariga hamda boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi xususida bir qator olimlar o'z fikrlarini bayon etishgan. Jumladan, L.L.Kanevskiy kriminalistik tavsifni quyidagicha izohlaydi: "jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va ochish uchun ahamiyatli bo'lgan jinoyatlarni sodir etish va uni yashirish sharoiti, usul va mexanizmi, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsni tavsiflovchi alohida turdagi jinoyatlarning individual xususiyatlarining o'zaro bog'liq majmuidir"¹⁹⁹.

I.F.Panteleyevning ta'kidlashicha esa, "jinoyatlarning kriminalistik tavsifida kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan elementlar qancha ko'p va aniq bo'lsa, tergov amaliyoti uchun u shunchalik ahamiyatli va mazmunli bo'ladi"²⁰⁰.

O'z navbatida Kriminalistik tavsifning asosiy elementlariga aniqlik va qo'shimcha kiritish jinoyat haqidagi kriminalistik bilimlarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Alohida turdagi

¹⁹⁶ Internet: www.law.isv.ru

¹⁹⁷ M.B.Usmonov Ekologik jinoyatlarni baholash. "Hayot va qonun", 2001.№2-3.36-bet.

¹⁹⁸ Kriminalistika darslik 2-jild "Adolat", T.: 2003. 13-bet.

¹⁹⁹ Л.Л.Каневский Криминалистические проблемы расследования и профилактики преступлений несовершеннолетних. Красноярск, 1991. Стр.74.

²⁰⁰ И.Ф.Панталеев Методика расследования преступлений. М.: 1975.

jinoyatlar kriminalistik tavsifning har qanday elementining ahamiyati ularning ushbu jinoyatlarni tergov qilishdagi roli bilan belgilanadi.

R.S.Belkinning fikricha, “jinoyat kriminalistik tavsifi muhimligini aniqlash tergov qilish xususiy uslubiyoti elementlaridan isbot qilish lozim bo‘lgan holatlarni istisno qiladi. Kriminalistik tavsif mazmuni isbot qilish predmetining barcha elementlarini ma’lum kategoriya jinoyatlarni tergov qilishga xos xususiyatlari bilan birga o‘z ichiga olishi lozim. Mazmunan, isbot qilish lozim bo‘lgan holatlar kriminalistik tavsifning bir qismi hisoblanadi”²⁰¹

Bundan tashqari prof. G‘.Abdumajidov: “Azaldan, har qanday jinoyatni tergov qilishda haqiqatni aniqlash yetti hadli formula bilan, ya’ni nima, qayerda, qachon, qay tarzda, kim, kimning yordamida, nima uchun degan yettita savolga javob olish bilan bog‘langan. Lekin bu formulani universal deb bo‘lmaydi, chunki u juda qisqa bo‘lib, u har xil turdagi jinoyatlarni tergov qilish xususiyatlarini hisobga olish imkonini bermaydi. Jinoyat ishlarini tergov qilishda aniqlanishi lozim bo‘lgan savollar doirasini o‘n ikkitagacha ko‘paytirish to‘g‘risidagi taklif ham bu kamchiliklarni bartaraf etgani yo‘q”²⁰², - degan fikrni ilgari suradi.

Bugungi kunda jinoyatlarga kriminalistik tavsif berishda, dastlabki tergov jarayonida aniqlanishi lozim bo‘lgan, jinoyat tarkibining asosiy elementlari bo‘yicha muayyan tizimga solingan holatlar keltirilishini to‘g‘ri deb hisoblash mumkin. Ya’ni:

- jinoiy tajovuz obyekti - tajovuz nimaga qaratilgan, nimaga zarar yetkazilgan, zararining miqdori qancha va boshqalar;

- jinoiy tajovuzning obyektiv tomoni - qachon, qayerda, qay holatda, qanday usulda, bir yoki bir necha kishining harakati bilan sodir etilganmi, ularning har biri qanday harakatni bajarган, qilmish va yetkazilgan oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish, jinoyatga ko‘maklashgan holatlar, sabab va sharoitlar, vaziyat kabilar;

- jinoiy tajovuz subyekti - kim tomonidan sodir etilgan, uning shaxsini tavsiflovchi ma’lumotlar;

- jinoiy tajovuzning subyektiv tomoni - ayb shakllari, maqsad va motivlar.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi elementlari sifatida jinoyatlarni sodir etish hamda yashirish usullari bilan bog‘liq ma’lumotlar tizimi, ehtimol tutilgan jinoyatchining va jabrlanuvchining shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, jinoyat ishini tergov qilishda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar doirasini aytib o‘tish joizdir.

Kriminalistik tavsif tergov, ekspert, tezkor - qidiruv, sud amaliyoti tahliliga asoslanadi va tegishli turdagi jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti orqali ushbu amaliyotda qo‘llaniladi, tergov uslubiyoti uchun u asos hisoblanadi. Ushbu tavsifning tarkibiy qismlari “mazkur jinoyat turiga xos bo‘lgan qonuniy, sababiy-tergov bog‘liqlari majmui, jinoyat tarkibi aniqlangan elementlari o‘rtasida, shu jumladan, ushbu elementlarning turli kombinatsiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq aloqalarini o‘rnatish”²⁰³ hisoblanadi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni tavsiflovchi kriminalistik ahamiyatga ega axborot quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

1. jinoiy qilmish joyi va predmeti haqidagi;

²⁰¹ Р.С.Белкин Курс криминалистики: в 3 т. М.: 1997.

²⁰² Kriminalistika. Prof.G‘.Abdumajidovning um.tahriri ostida. “Adolat” T.: 2003. 15-bet.

²⁰³ В.К.Гавло К вопросу о криминалистической характеристике преступлений// Вопросы повышения эффективности борьбы с преступностью. Томск.: 1980. Стр-43.

2. jinoyat sodir etish va yashirish usullari haqidagi;
3. jinoyat sodir etish vaqti va vaziyati haqidagi, jinoyat sodir etish natijasida kelib chiqadigan izlar haqidagi;
4. sodir etilgan jinoyat oqibatlari haqidagi;
5. ushbu jinoyatlarni sodir etayotgan shaxslar tavsifi haqidagi;
6. jinoyat sodir etishga ko'maklashgan holatlar haqidagi.

Jinoiy qilmish predmeti, usuli, holati va vaqti, oqibatlari kabi elementlar alohida ahamiyatga ega. Eng ko'p ma'lumot manbai sifatida ular tabiiy obyekt qanchalik zararlanganligini yoki ifloslanish darajasini belgilab beradi. Ular, shuningdek, ifloslanish manbaini aniqlashga imkon beradi va jinoyatchilar shaxsi, ularning harakat obrazini tavsiflaydi. Jinoiy qilmish predmetini o'rganish ushbu predmet va jinoyat kriminalistik tavsifining boshqa elementlariga taalluqli belgilar o'rtasida aloqani belgilashga samarali imkon beradi, shuningdek vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqib sodir etilgan jinoyat, uni sodir etish usullari va izlarni yashirish hamda jinoyatchi shaxsi haqida versiyalar ilgari surishga imkon beruvchi isbotlash predmeti sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Jinoiy qilmish tabiiy atrof muhitga yoki uning alohida komponentlariga qaratilishi mumkin. Shunga muvofiq, jinoyat obyektlarini integratsiyalashgan (tabiiy ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar, tabiiy landshaftlar), differensiyalashgan (yer, tuproq, o'rmon, yer osti boyliklar, hayvonlar va o'simliklar), alohida muhofaza qilinadigan (qo'riqxonalar, milliy parklar, qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar) kabi turlarga ajratish mumkin.

Jinoiy qilmish predmeti sifatida tabiiy atrof muhit va uning komponentlariga jinoyat sodir etilishi natijasida har doim zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazish real xavfi paydo bo'ladi. Zarar alohida tabiiy obyektlarning ifloslanishi yoki ularning zararlanishi yoxud yo'q qilinishida namoyon bo'lishi mumkin. Alohida hollarda jinoiy qilmish predmeti bo'lgan tabiiy obyekt joyi ahamiyatga ega bo'ladi (Masalan: qo'riqxonada hududida ov qilish, alohida muhofaza qilinadigan hududlar rejimini buzish). Mazkur toifadagi ishlar bo'yicha tabiiy resurslarning ifloslanishi, ajratib olinishi, yo'q qilinishi yoki zarar yetkazilish joyini aniq belgilash talab qilinadi.

Jinoyatni sodir etish va yashirish usullari haqidagi ma'lumotlar - kriminalistik tavsifning markaziy qismidir. chunki aynan ushbu ma'lumotlar jinoiy faoliyatning funksional tomonni aks ettiradi. Ularni hamda ularning qo'llanilishini ko'rsatuvchi belgilarni bilmasdan jinoyatni tergov qilish imkonsizdir. Kriminalistikada prinsip mavjud: "Jinoyat sodir etish usulidan - uni aniqlash va ochish usuliga"²⁰⁴.

Kriminalistik adabiyotlarda belgilanganidek, kriminalistik tavsif elementi sifatida sodir etish usuli - qasd va maqsad birligini o'z ichiga oluvchi subyektning harakatlari tuzilishidir. Jinoyat maqsadi va motivini to'g'ri anglash jinoiy tajovuz predmeti va obyekt haqida, konkret shaxslar va qilmishga ularning ichki ruhiy munosabati haqida, jinoiy harakatlar va jinoyat izlarini yashirish usuli, ekologiya sohasidagi jinoyat sodir etishda qo'llanilgan usullar, qurollar va boshqa predmetlar haqida taxmin qurishga imkon beradi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni sodir etishda, qilmish, odatda, ekologiya qonunchiligida belgilangan, ya'ni atrof muhit muhofazasi va ekologik xavfsizlikni tahminlashga qaratilgan

²⁰⁴ Криминалистика /Под ред. Р.С.Белкина. стр-686.

maxsus normalar hamda qoidalarni buzish yoki ularda belgilangan talablarga rioya etmaslik bilan ifodalanadi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar tozalash qurilmalarini ekspluatatsiya qilish, ekologik xavfli moddalar bilan muomala qilish qoida va yo'riqlarini bajarmaslik va boshqalarda namoyon bo'luvchi harakatsizlik yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin.

Jinoyat sodir etish usulini bilish tergovchi va tezkor qidiruv xodimiga tergov yo'nalishini belgilash, vujudga kelgan vaziyatda tergov versiyalarini tuzish, samarali harakatlar va tezkor - qidiruv choralarini amalga oshirish imkonini beradi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarga sodir etishning quyidagi usullari xosdir:

- Konkret qoidalarni buzish: turli obyektlarni loyihalash va qurish bo'yicha; ekologik xavfli moddalar va chikndilar bilan muomala qilish qoidalari; veterinar qoidalar; yer osti boyliklarini muhofaza qilish va foydalanish qoidalari; ov, baliq ovlash va boshqa qoidalar.

- Alohida tabiiy obyektlar va tabiiy atrof-muhit komponentlarining ifloslanishi. Bunday ifloslanish deganda atrof-muhitga joylashuvi yoki miqdori salbiy ta'sir ko'rsatadigan moddalar yoki energiyaning kirib kelishi tushuniladi. Ifloslantiruvchi modda jumlasiga kimyoviy radioaktiv, boshqa moddalar va mikroorganizmlar uchun belgilangan normativlardan ko'p bo'lgan miqdor yoki konsentratsiyada bo'lgan hamda atrof - muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan moddalar yoki moddalarning aralashmasidir.

- Tabiiy, tabiiy-antropogen obyekt yoki tabiiy atrof- muhitning alohida komponentini noqonuniy ajratib olish, istehmol qilish, zarar yetkazish yoki yo'q qilish.

Noqonuniy ov qilish, suv hayvonlarini tutish va o'simliklarini olish, daraxt va butazorlarni chopish bilan bog'liq jinoyat sodir etish usulining shakllanishiga jinoyatchilarning amaliy tajribalari, bilimlari, kobiliyatlari, odatlari kabi omillar sezilarlita'sir ko'rsatadi. "Bilim va odatlar, inson faoliyatining ajralmas komponenti bo'lib, jinoyat sodir etishda namoyon bo'ladi. Boshqa dalillar bilan mujassamlikda ular jinoyat hodisasining ko'pgina muhim detallarini aniqlashga imkon beradi. Tergov jarayonida aniqlangan shaxsning bilim va odat harakatlari xususiyatlari mazkur jinoyat ishi bo'yicha aybdor shaxsni aniqlash bilan birga aybdor tomonidan sodir etilgan boshqa jinoyatlarni aniqlashda foydali bo'ladi va uning aybining muhim dalillaridan biri bo'lishi mumkin"²⁰⁵.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni sodir etish vaziyati o'z ichiga ikki guruhdagi holatni oladi:

Birinchi, tabiiy muhitning alohida komponenti yoki umuman tabiatning ifloslanishiga aloqasi bo'lgan yoki bevosita sabab bo'lgan ishlab chiqarish - texnologik va boshqa jarayonlardir. Tegishli ma'lumotlarni tergovchi guvohlarning ko'rsatmalari va turli xildagi texnik hujjatlardan oladi.

Ikkinchi, jinoyatni sodir etish vaqti va uning oqibatlarini aniqlangan vaqtdagi atrof-muhitning moddiy holati - ifloslanish manbai, kollektorlar tizimi va boshqa holati. Ushbu holatlar guruhi, eng avvalo, voqea joyini ko'zdan kechirish bayonnomasida aks etadi va jinoiy hodisa rivojlanishi mexanizmi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

²⁰⁵ В.И.Чулахов Навыки и привычки человека как источник криминалистически значимой информации: Дис...канд.юрид.наук. М.: 1999. стр.78.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni sodir etish vaziyati va vaqti tegishli ekologik mehyor va qoidalari qayerda va qachon buzilganligini hamda bunda kim aybdorligini belgilashga imkon beradi. Jumladan, masalan, zaharli ximikatlar bilan yerni zararlantirish agronom va zaharli ximikatlarni bevosita tuproqqa solgan shaxslar tomonidan agrotexnik qoidalarning buzilishini ko'rsatadi; atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi korxonalar tozalash filtrlarining yo'qligi, nosozligi yoki noto'g'ri ekspluatatsiya qilinishi va natijada ularning sozligi va ishlatilishi uchun javobgar shaxslarning jinoyatga aloqadorligini ko'rsatadi.

Atrof-muhitning ifloslanishi xarakteri, zaharli moddalarning tarqalishi vaqti va yo'nalishi ifloslantiruvchi - obyekt joylashgan yerni, hatto agar u jinoyat oqibatlarini topilgan joydan ancha uzoq masofada joylashgan bo'lsa ham, aniqlash imkonini beradi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar izlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- alohida tabiiy obyektlar va atrof-muhit komponentlarining ifloslanish izlari;
- tabiiy, tabiiy-antropogen obyekt yoki tabiiy atrof - muhitning alohida komponentini noqonuniy egallash, istehmol qilish, zarar yetkazish, yo'q qilish izlari.

Ko'pgina ekologiya sohasidagi jinoyatlar tarkibi o'z tuzilishi bo'yicha moddiy tarkibli hisoblanadi va oqibatlarini belgilash uchun yetkazilgan zararining xarakteri va o'lchamlarini belgilash. konkret shaxslar tomonidan tabiatni muhofaza qilish qoidalarning buzilish va kelib chikkan zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash ko'pgina qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

Bunda shuni inobatga olish kerakki, ekologiya sohasidagi jinoyatlar bo'yicha ishlarda oqibatlarining kelib chiqish ularga shamolning kuchi va yo'nalishi. yomg'ir yog'ishi, daryolarning to'lishi kabi tabiiy jarayonlarning sezilarli ta'siri bilan shartlanadi. Ularning mavjudligi, kuchi, davomiyligi ko'pgina hollarda ko'rilayotgan jinoyatlar oqibatlarini aniqlash imkonini belgilaydi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar kriminalistik tavsifining tarkibiy elementi bo'lib, jinoyatchi shaxsi xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Jinoyatchi shaxsi, eng avvalo, boshqa shaxslar bilan ko'p tomonlama va tizimli munosabatlar jarayonida shakllangan integratsiyalashgan ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlar majmuidir.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslardan N.A.Duxno²⁰⁶ uchta shartli guruhni ajratadi:

1) Turli korxonalar, muassasa va tashkilotlarning mas'hul xodimlari, ular o'z faoliyati bo'yicha tabiatni muhofaza qilish qoidalarga rioya etishlari yoki ularning boshqa shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilib turishlari lozim bo'ladi;

2) O'z tashabbusi bilan yoki rahbarlari buyrug'i bilan jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan oddiy ishchilar;

3) xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ekologik jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar (masalan, noqonuniy ravishda ov qilish, baliq ovlash, o'rmon kesish va b.).

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'ladigan holatlar tavsifi maxsus kriminalistik ahamiyatga ega bo'ladi.

²⁰⁶ Н.А.Духно, Ю.Г.Корухов Расследование экологических преступлений. Учеб. Пособие. М.:(МИИТа) 2002. Стр.4.

Bularga jinoyat-huquqiy normalarning yetarli darajada jiddiy sanksiyaga ega emasligi, xo‘jalik manfaatlarining ekologik manfaatlardan ustunligi, aholi ekologik madaniyatining past darajasi, u yoki bu modda va texnologiyalarning atrof-tabiiy muhitga ta‘sirining yetarli darajada o‘rganilmaganligi kabilarni kiritish mumkin.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi haqidagi ma‘lumotlar tergov harakatlari, tezkor qidiruv choralari natijalari hamda sud-biologik va sud-ekologik ekspertizasi, jinoyat sodir etish holati, uning tergov prognozi va modellashtirilishi, jinoyat sodir etish usuli va vositalari, izlar, jinoiy tajovuz predmetiga xos xususiyatlar, jinoyatchi shaxsi hamda aybdor shaxsning javobgarligini og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlar haqidagi ma‘lumotlarning kriminalistik taxlili yo‘li bilan olinishi mumkin.

Kriminalistik tavsifni tadqiq qilish ma‘lum amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi, bu uning “taxminiylik modeli sifatidagina qaralishi va tergovchi tomonidan faqat yo‘naltiruvchi ma‘lumot sifatida foydalanilishi mumkinligi”²⁰⁷ da namoyon bo‘ladi.

Ammo aniqlashtirilgan va detallashtirilgan kriminalistik tavsif uning elementlari o‘zaro qaramlikda bir-biriga bog‘langan taqdiridagina samarali foydalanilishi mumkin.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifini tergov jarayonida qo‘llashdan tashqari tezkor qidiruv faoliyatida ham samarali qo‘llash mumkin, chunki u mazkur kategoriya jinoyatlarni sodir etish va aniqlashning tipik usullarini tavsiflaydi, tipik jinoyatchi shaxsi tavsifi haqidagi ma‘lumotni o‘z ichiga oladi va shu orqali tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshirish uchun barcha zaruriy rejalarni o‘z ichiga oladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-con Qonuni 09.12.1992- yil.
4. I.A.Karimov "O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", - T.: “O‘zbekiston”.1997. 85-bet.
5. Kriminalistika. Prof.G‘. Abdumajidovning um.tahriri ostida. “Adolat” T.: 2003. 15-bet.
6. Kriminalistika darslik 2-jild “Adolat”, T.: 2003. 13-bet.
7. M.B.Usmonov Ekologik jinoyatlarni baholash "Hayot va qonun", 2001.№2-3.36-bet.
8. Л.Л.Каневский Криминалистические проблемы расследования и профилактики преступлений несовершеннолетних. Красноярск, 1991. Стр.74.
9. И.Ф.Панталеев Методика расследования преступлений. М.: 1975.
10. Р.С.Белкин Курс криминалистики: в 3 т. М.: 1997.
11. В.К.Гавло К вопросу о криминалистической характеристике преступлений// Вопросы повышения эффективности борьбы с преступностью. Томск.: 1980. Стр-43.
12. В.И.Чулахов Навыки и привычки человека как источник криминалистически значимой информации: Дис... канд.юрид.наук. М.: 1999. стр.78.

²⁰⁷ В.И.Шиканов Теоретические основы тактических операций в расследовании преступлений. Иркутск, 1983. Стр.24.

13. Криминалистика /Под ред. Р.С.Белкина. стр-686.
14. Н.А.Духно, Ю.Г.Корухов Расследование экологических преступлений. Учеб. Пособие. М.:(МИИТа) 2002. Стр.4.
15. В.И.Шиканов Теоретические основы тактических операций в расследовании преступлений. Иркутск, 1983. Стр.24.
16. Internet: www.law.isv.ru

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.

Ikromov Elyor Ibodulloevich

Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10192709>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy budjet daromadlari vazifalarini bajarish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi turmush farovonligini yaxshilash kabi bugungi kundagi asosiy maqsadlarni amalga oshirish muammolari muhokama qilinadi. Shuningdek ushbu maqolada ayrim jihatlarga e'tibor qaratilgan, ya'ni mahalliy budjetning barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, aytish mumkinki bugungi kunda Davlat moliyasini sog'lomlashtirish mahalliy budjeti daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash maqsadida yurtimizda yangidan-yangi islohotlar amalga oshirilayotganligi to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: Budjet, Budjet tizimi, Budjetni rejalashtirish, Davlat moliyasi, Davlat budjeti, Mahalliy budjet, mahalliy budjet daromadi, mahalliy budjet xarajati.

PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES.

Abstract. This article discusses the problems of today's main goals, such as fulfilling the tasks of local budget revenues, ensuring economic stability and improving the well-being of the population. This article also focuses on some aspects, that is, the stability of the local budget is one of the most important indicators characterizing the state of the country's economy and, above all, its social sphere. it was discussed that new reforms are being implemented in our country in order to ensure the perfect proportion and completeness of the sources of their formation.

Keywords: Budget, Budget system, Budget Planning, Public Finance, state budget, local budget, local budget income, local budget spending.

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ДОХОДОВ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА.

Аннотация. В данной статье будут рассмотрены проблемы реализации основных на сегодняшний день целей, таких как выполнение функций по доходам местного бюджета, обеспечение экономической стабильности и улучшение благосостояния населения. Также в данной статье уделено внимание определенным аспектам, а именно устойчивость местного бюджета является одним из важнейших показателей, характеризующих состояние экономики страны и, прежде всего, ее социальной сферы, можно сказать, что сегодня оздоровление государственных финансов остановилось на том, что в целях обеспечения стабильности доходов местного бюджета, идеального соотношения и целостности источников их формирования в стране проводятся все новые и новые реформы.

Ключевые слова: бюджет, бюджетная система, бюджетное планирование, государственные финансы, государственный бюджет, местный бюджет, доходы местного бюджета, расходы местного бюджета.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlari bilan belgilangan, ular tomonidan o'z vakolatiga muvofiq ravishda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ishlatiladigan soliqlar mahalliy soliqlar hisoblanadi.

Mahalliy soliq va yig'imglar — davlat hokimiyatining mahalliy organlari va idoralari daromadiga o'tkaziladigan soliq va yig'imglar.

Mahalliy soliqlar mahalliy budjetga o'tkaziladi. Yer solig'ining bir qismi qonunlarda belgilangan tartibda yerdan foydalanish ishlarini yaxshilash yuzasidan umumdavlat tadbirlarini amalga oshirish uchun respublika budjetida markazlashtirilishi mumkin.

Mahalliy yig'imglar – bu O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qaroriga muvofiq belgilangan, fuqarolar va tashkilotlardan ularga ko'rsatilgan madaniy-maishiy xizmatlar yoki davlat hokimiyatining mahalliy organlari nazorati ostida o'tkaziladigan boshqa tadbirlarning chiqimlari bilan bog'liq xarajatlarni qisman qoplash uchun undiriladigan to'lovlardir.

O'zbekiston Respublikasida Mahalliy soliq va yig'imglar tarkibiga quyidagilar kiradi:

mol-mulk solig'i;

yer solig'i;

reklama solig'i;

avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq;

ijtimoiy soliq;

savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im,

9. Муродова Д. (2023). КОНЦЕПЦИЯ СЛОВ "ВЕЛИКОДУШИЕ И ТРУСОСТЬ" В ЛАКСКИХ ЯЗЫКАХ. *Современная наука и исследования*, 2(6), 1147-1149
10. Муродова, Д. (2023, April). АРАБСКИЕ СЛОВА ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 2, No. 2, pp. 156-158)*.
11. Murodova, D. (2023). PROBLEMS OF RESEARCH OF VERBAL CONSTRUCTIONS WITH DEPENDENT OBJECT IN THE RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(3), 232–235. Retrieved from <https://inlib>
12. Муродова. Д. А. (2023). ОБРАЗ МАТЕРИ В ПРОЗЕ Ч.Т.АЙТМАТОВА. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 26–29. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1685>
13. Муродова. Д. А. (2023). ЦВЕТОВАЯ ГАММА В ЛИРИКЕ А. ФЕТА. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 300–303. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1355>
14. Муродова, Д. А. (2023). ОБРАЗ МАТЕРИ В ПРОЗЕ Ч.Т.АЙТМАТОВА. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 26–29. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1685>
15. Rashidovna, M. F., & Arabovna, M. D. (2023). Psychology of Family Relations in the "Female Prose" of Russian and Uzbek Writers. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 269-274.
16. Murodova, D. (2023). THE MATERNAL IMAGE IN WOMEN'S PROSE OF THE LATE TWENTIETH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(10), 143-146.
17. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
18. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
19. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.

20. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
21. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
22. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
23. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
24. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
25. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.

ОЛИЙ ТАЪЛИМДАН КЕЙИНГИ ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ВА МУАММОЛАР (ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)

Хошимов Уткиржон Кушмирзаевич

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

uzshona17@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10204296>

Аннотация. Мақолада мустақиллик йилларида Фарғона водийси вилоятлари мисолида олий таълимдан кейинги таълим соҳасидаги ўзгаришлар таҳлил қилинган. Ушбу соҳадаги мавжуд муаммолар очиб берилган, бундан ташқари олий таълимдан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштиришга оид таклифлар киритилган.

Калим сўзлар: олий таълимдан кейинги таълим, олий таълим муассасалари, илмий салоҳият, аспирантура, докторантура, таянч докторантура, фалсафа доктори (PhD), фан доктори (Doctor of Science).

REFORMATION OF POSTGRADUATE EDUCATION AND THE PROBLEMS OF THIS SPHERE (FOREXAMPLE FERGHANA VALLEY)

Abstract. In this article analyzed results of postgraduate educational held reforms forexample Ferghana Valley in the years of independence. Undercovered available problems of this area and introduced offers for perfection of system of postgraduate education.

Key words: postgraduate education, high educational institution, PhD student, Doctor of Philosophy, Doctor of Science.

РЕФОРМИРОВАНИЕ ПОСЛЕВУЗОВСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИМЕЮЩИЕСЯ ПРОБЛЕМЫ В ДАННОЙ СФЕРЕ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)

Аннотация. В данной статье проанализированы результаты проводимых в годы независимости реформ в послевузовском образовании на примере Ферганской долины. Раскрыты имеющиеся проблемы в этой области, а также внесены предложения по совершенствованию системы послевузовского образования.

Ключевые слова: послевузовское образование, высшее учебное заведение, аспирантура, докторантура, доктор философии (PhD), доктор наук (Doctor of Science).

Ёшларга сифатли таълим бериш, фаннинг илғор ютуқларини эгаллаш, республика ривожига катта хисса қўшадиган ихтироларни амалага ошириш, илм-фанни ривожлантириш, олий таълим тизимини тажрибали ва билимли мутахассис-педагоглар билан таъминлаш олий таълимдан кейинги таълим олдида турган асосий вазифалардан бири ҳисобланади.

Мустақилликнинг дастлабки йилларида республика ва водий вилоятларида олий таълимдан кейинги таълимга қаратилган эътибор натижасида бир қатор ютуқлар қўлга киритилди. Масалан, буни республикада мавжуд олий ўқув юртларида фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчиларнинг илмий салоҳиятидан ҳам кўришимиз мумкин. Хусусан, мустақилликка эришиш арафасида республика олий ўқув юртларида ишлаётган профессор-ўқитувчилар таркибига эътибор қаратсак, яъни 1990 йил якунлари бўйича республикада жами олий ўқув юртларида фаолият олиб борган 9,5 минг профессор-

Ўқитувчи таркибининг 44,5 фоизи фан докторлари ва фан номзодлар ташкил қилган бўлса²¹⁸, 1991 йилда олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тизимидаги олий ўқув юртлирининг жами профессор-ўқитувчилари 10818 кишини, шу жумладан 391 (3,6%) фан доктори ва 4706 (43,5%) фан номзодларини ташкил этаган²¹⁹. Юқоридаги рақамлардан шуни кўришимиз мумкинки, республика олий ўқув юртлирида фаолият олиб бораётган фан докторлари ва фан номзодлари 1990 йилга нисбатан 1991 йилда 2,6 фоизга ортган. Бундай ижобий натижаларни водий вилоятларида фаолият юритаётган ОТМлари мисолида ҳам кузатиш мумкин.

Хусусан, мустақилликнинг дастлабки йилларида институт мақомидан университет мақомига ўзгартирилган Фарғона давлат университетида ҳам илмий тадқиқот ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш яхши йўлга қўйилган эди. Бунинг натижасида ФарДУда олимлар сони ва уларнинг умумий педагогларга нисбатан илмий салоҳияти тез ортиб борган. Масалан, 1991 йилда университет олимлари ичида 13 нафари фан докторлар бўлган бўлса, 1996 йилда уларнинг сони 39 тага етган²²⁰. Жумладан, 1991 йилда университетда 1 та докторлик диссертацияси ёқланган бўлса, 1992-1995 йиллар давомида 15 та докторлик ва 40 га яқин номзодлик диссертациялари ҳимоя қилинган²²¹. 1996 йилга келиб университетда профессор-ўқитувчилар таркиби 500 кишидан иборат бўлиб, улардан 39 фан доктори, профессорлар, 254 фан номзодларидан иборат бўлган. 1996 йилда университетда 2 йўналиш бўйича докторантура, 10 йўналиш бўйича аспирантура мавжуд бўлиб²²², жами 6 докторант, 48 аспирантлар²²³ ўз илмий изланишларини олиб борган эди. 1996 йили ФарДУда ўқитувчи ва ходимлардан 2 та докторлик, 4 та номзодлик диссертацияларини ҳимоя қилдилар²²⁴.

Бироқ шуни алоҳида таъкидлаш ўринлики, мустақилликнинг дастлабки ўн йиллигида олий таълимдан кейинги таълим соҳасида қўлга киритилган бир қатор ютуқлар сақлаб қолинмади. Натижада эса 2000 йилларда сўнг бу соҳада ривожланиш ўрнига аксинча пасайиш кузатилди. Буни республика ва Фарғона водийси вилоятлари ОТМларида илмий салоҳиятли профессор-ўқитувчиларнинг сонини қисқарганлигида кўриш мумкин. Қўйидаги жадвалда бу ҳақида тўлиқ маълумот келтирилган.

Республика ва Фарғона водийси вилоятларидаги ОЎЮларида фаолият олиб бораётган фан докторлари ва фан номзодлари қўшиб ҳисоблаганда умумий сони (бирлик) ва уларнинг умумий профессор-ўқитувчиларга нисбатан фоизи.

	2000/2001		2005/2006		2010/2011		2014/2015		2016/2017	
	сони	фоиз	сони	фоиз	сони	фоиз	сони	фоиз	сони	фоиз
Ўзбекистон Республикаси	8038	43,6	8598	37,3	9059	39,4	8143	33,2	7481	31,2
Андижон	518	39,8	593	38,4	552	38,7	710	34,8	466	28,1

²¹⁸ ЎзР МА Р-2653-фонд, 1-рўйхат, 6337-йиғма жилд, 37-варақ.

²¹⁹ ЎзР МА Р-2653-фонд, 1-рўйхат, 6460-йиғма жилд, 64-варақ.

²²⁰ ЎзР МА М-130-фонд, 1-рўйхат, 492-йиғма жилд, 69-варақ.

²²¹ <http://fdu.uz/frontend/web/index.php?r=site%2Fsaifa&id=1> 30.09.2018

²²² ЎзР МА М-130-фонд, 1-рўйхат, 492-йиғма жилд, 4-варақ.

²²³ ЎзР МА М-130-фонд, 1-рўйхат, 492-йиғма жилд, 73-варақ.

²²⁴ ЎзР МА М-130-фонд, 1-рўйхат, 492-йиғма жилд, 40-варақ.

Наманган	281	33,5	303	33,8	258	28,9	264	29,9	260	27,9
Фарғона	361	30,8	445	32,7	464	31,2	380	24,7	331	21,5

Манба: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг 30.08. 2018 йилдаги №01/4-01-19-991-сонли маълумотномаси муаллиф томонидан умумлаштирилди.

Юқоридаги жадвалдан кўришимиз мумкинки, фан докторлари ва фан номзодларининг умумий ҳисобда ОЎЮларида фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчилар таркибига нисбатан республикада илмий салоҳият 2000 йилда 43,6 фоизни ташкил қилган бўлса, 2016 йилга келиб бу кўрсаткич 31,2 фоизни ташкил қилди. Республикага нисбатан водий вилоятларидан Андижон вилоятининг кўрсаткичи нисбатан яхши бўлиб, бу вилоят баъзи йилларда ОЎЮларидаги илмий салоҳият республика кўрсаткичидан ҳам юқори бўлганлигини кўришимиз мумкин. Водий вилоятларида паст кўрсаткич бу Фарғона вилоятига тегишли бўлиб, сўнги йилларда республика кўрсаткичидан диярли 10 фоизга пастлаб кетганлигига гувоҳ бўламиз. Бу шундан далолат берадики, Фарғона вилоятнинг баъзи ОЎЮларида фан докторлари ва фан номзодлари тайёрлаш ишлари яхши йўлга қўйилмаган. Бундай дейишимизга сабаб, юқоридаги кўрсаткичлар бўйича вилоятдаги ОЎЮ кесимида олсак, хусусан, 2005/2006 йилларда республикада жами ОЎЮларида илмий ўнвонли профессор-ўқитувчилар 37,2 фоизни ташкил қилган ҳолда Фарғона вилояти бўйича бу кўрсаткич 32,7 фоизни ташкил қилиб, 4,5 фоизга орқада бўлганига қармай, шу кўрсаткич бўйича Фарғона Давлат Университетида илмий даража 38,3 фоизни ташкил қилди. Яъни бу республика кўрсаткичидан 1,1 фоизга, вилоят кўрсаткичида эса 5,6 фоизга юқоридир. Кейинги йилларга эътибор қаратсак, 2010/2011 йилда республикада илмий даража 39,4 фоиз, Фарғона вилоятида 31,2 фоиз, ФарДУда 37,1 фоизни²²⁵ ташкил қилган. Шу ҳолатдан кўриш мумкинки, ФарДУда илмий салоҳият нисбатан яхши бўлган, фақат вилоятлар кесимида ҳисобланганда вилоятдаги бошқа ОЎЮлар ҳисобига умумий илмий салоҳият тушиб кетган.

Республика ва Фарғона водийси вилоятлари илмий салоҳиятнинг мустақилликнинг дастлабки йилларига нисбатан тушиб кетишига бир қатор сабаблар мавжуд. Хусусан, ОЎЮидан кейинги таълим, хусусан аспирантура ва докторантурада илмий тадқиқот олиб бораётган талабгорларнинг ўқиш давомида ва ўқишдан кейинги йилларда ўз илмий ишларини ҳимоя қила олмаслиги бўлса, бошқа томондан қараганда олий таълимдан кейинги таълимга яъни аспирантура ва докторантурага қираётганларнинг малака даражасининг пастлиги бўлди²²⁶. Шу билан бирга республика ОТМларида илмий фаолият билан шуғулланаётган педагог ходимларнинг моддий аҳволи ва ижтимоий мақоми етарли даражада эмаслиги ҳам сабаб бўлди. 2000 йиллар ўрталаридаги таҳлиллар шуни кўрсатдики, таълим соҳасидаги ўқитувчиларнинг номинал иш ҳақи иқтисодиёт бўйича ўртача иш ҳақи даражасидан орқада қолган. Хусусан, олий таълимдаги ўқитувчиларнинг иш ҳақи иқтисодиёт бўйича ўртача иш ҳақини 83,7 фоизини ташкил этган. Ўзбекистонда

²²⁵ <http://fdu.uz/frontend/web/index.php?r=site%2FsaHifa&id=1> 30.09.2018 (Маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисоблаб чиқилган.)

²²⁶ Инсон тараққиёти тўғрисида маъруза. Ўзбекистонда таълим: талаб ва тақлиф мутаносиблиги. Тошкент: БМТТД, 2008. Б.131

олий таълим тизмида профессор-ўқиувчиларнинг иш хақи миқдори иқтисодиётдаги ўртача иш хақидан паст даражада бўлган²²⁷.

Республикада олий таълим соҳасида илмий салоҳиятнинг пасайишига яна бир сабаб бу Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 24 июл “Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-4456-сонли Фармонининг²²⁸ қабул қилиниши бўлди. Бу фармонга биноан диссертация ҳимоя қилиш ва фан доктори илмий даражасини бериш бўйича олий ўқув юртидан кейинги таълимнинг бир босқичли тизимини жорий қилиш белгиланди. Яъни олдин мавжуд бўлган стажёр-тадқиқотчи-изланувчилар ва катта илмий ходим-изланувчилар институтлари (фан номзоди ва фан доктори) ўрнига фақат бир босқичли магистрликдан сўнг фан докторлари тайёрлаш йўлга қўйилди. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, бир босқичли тизимга ўтилгандан сўнг республикада диссертацияларни ҳимоя қилиш кескин камайди. Масалан, янги тизимга ўтилгандан сўнг (2014, 2015 йиллар назарда тутилмоқда) охириги икки йилда катта илмий ходим изланувчилик институтларини 600 нафардан ортиқ ходим туганган бўлсада, республика бўйича 2016 йилгача 103 нафар (17,1%) талабгор докторлик диссертациясини ҳимоя қилган. Уларнинг ҳам асосий қисми (80% дан ортиғи) мустақил изланувчилик асосида диссертацияни ёқлашган. Жами 103 нафар ҳимоя қилганларнинг 62 нафари олий таълим муассасаларига тўғри келган. Умуман олганда 2014-2015 йилларда Фарғона водийси вилоятларидаги олий ўқув юртларидан фақат НамМПИдан 1 киши докторлик диссертациясини ҳимоя қилган холос. Худди шу йиллар бўйича республикадаги бошқа ОЎЮларида ҳам шундай вазиятни кўришимиз мумкин. Масалан ТТА-10 та, ТТЕСИ -6 та, ЎЗМУ ва ТИМИларида 4 тадан бўлиб бу ОЎЮларнинг кўрсаткичларин бошқа олий ўқув юртларига нисбатан бироз яхши бўлсада, қолган ОЎЮлари, масалан, ТошФМИда 3 та, ТДТУ қошидаги “Фан ва тараққиёт” ДУК, ТКТИ, СамДУ, ТАТУ, ТДАУ, ТДТУ, ТПТИ, ТДСИ, СамДТИларида 2 тадан, ТДШИ, УрДУ, ТДЮУ, ҚарДУ, СамҚХИ, ТАТУ Самарқанд филиали, ТДПУларида 1 тадан ҳимоя бўлган холос²²⁹.

Бунинг натижасида эса олий таълим муассасаларининг илмий салоҳиятини пасайишига олиб келган. Хусусан, илмий салоҳият энг паст бўлган олий ўқув юртлари қаторига водий вилоятларидан КўқонДПИ-19,4%, АндМИ-20%, ТАТУ Фарғона филиали-22%, ФарПИ-25% кирган. Бу каби илмий салоҳият паст бўлган ОЎЮлар республиканинг бошқа минтақаларида ҳам мавжуд эди. Масалан, ТАТУ Урганч филиали-10%, ТДСИ Самарқанд филиали-11%, ТПТИ Нукус филиали-12,5%, ТДМРХОМ-17%, ТАТУ Нукус филиали-19%, НавДПИ-19%, ТерДУ-20%, ЖизДПИ-20%, ЎзДЖТИ-20,5%, ТАТУ Қарши филиали-21%, ЖизПИ-21,3%, ТАТУ Самарқанд филиали-22%, МРДИ-22%, ТДСИ Бухоро

²²⁷Эшбаев А.Х. Бозор муносабатларига ўтиш даврида таълим тизимининг миллий иқтисодиётни ривожлантиришга таъсири. Иқтисод фан.ном. дисс. Тош. 2008 йил. Б.61-62

²²⁸<http://www.lex.uz/docs/2035850> (ҳужжат кучини йўқотган 27.02.2017)

²²⁹ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори, 1/4-сон. 30.01.2016 й, Б-2.

филиали-23,2%, ГулДУ-26%, ТДСИ Нукус филиали-26%, СамДЧТИ-29% ни ташкил қилган²³⁰.

Сўнги йилларда республика ОТМлари илмий салоҳиятининг пасайиб кетишига яна бир сабаб, олий таълимдан кейинги таълим институтига қабул квоталарининг камайиши ҳам сабаб бўлди. Хусусан, 2011 йил учун стажёр-тадқиқотчи-изланувчилар институтига 437 нафар, катта илмий ходим-изланувчилар институтига 32 нафар тадқиқотчилар қабул қилинган²³¹. Республикада олий таълимдан кейинги таълим бир босқичли тизимга ўтиши муносабати билан катта илмий ходим-изланувчилар институтига қабул квоталари кескин камайган. Масалан, 2014 йилда Вазирлик тасаруфидаги олий таълим ва илмий тадқиқот муассасаларида мавжуд катта илмий ходимлар-изланувчилар институтларига қабул бўйича 288 та квота ажратилган бўлса²³², 2015 йилда катта илмий ходимлар-изланувчиларни давлат бюджет маблағлари ҳисобига ўқитиш учун қабул квотаси бўйича вазирликнинг таклифлари асосида 109 та ихтисосликлар бўйича 275 нафар катта илмий ходим-изланувчилар қабул қилинган²³³, Вазирлик тасаруфидаги олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари талабига мувофиқ шакллантирилган қабул квотаси бўйича 2016 йилда 233 нафар катта илмий ходимлар-изланувчиларни ва 240 нафар мустақил изланувчилар қабул қилинган²³⁴. Республика олий ўқув юртларида илмий салоҳият тушиб, диссертациялар ҳимоялари камайган бир даврда катта илмий ходимлар-изланувчиларни қабул квоталарининг олдинги йилларга нисбатан камайиши, ўз навбатида олий ўқув юртлари илмий салоҳиятига ўз таъсирини кўрсатди.

ОТМларида 2014-2016 йиллар давомида 237 нафар ходим докторлик диссертацияларини ҳимоя қилди. Шундан жами 972 нафар катта илмий ходим изланувчи ва мустақил изланувчилардан фақат 48 нафари (4,9%) ўз муддатида ҳимоя қилган²³⁵. Бу ҳолатни биз юқорида келтирган мустақилликнинг дастлабки ўн йиллигига солиштирсак, анча орқада қолганлигимиз маълум бўлади.

Шундай бир вазиятда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 16 феврал «Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида»ги ПФ-4958-сонли Фармонининг қабул қилиниши олий таълимдан кейинги таълим соҳасида янги ислохотларни бошлаб берди. Фармонга биноан олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимининг сифати ва самарадорлигини тубдан ошириш, олий ўқув юртидан кейинги таълим соҳасини янада такомиллаштириш, илмий-тадқиқот фаолиятида ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ҳар томонлама намоён этиш имкониятларини кенгайтириш мақсадида, 2017 йилнинг 1 июлидан

²³⁰ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори, 1/4-сон. 30.01.2016 й, Б-2-3.

²³¹ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. Б.2012. 2012 й январ, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори. 2012 йил 28 январ №1/1-сон, Б.5

²³² ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори, 1/1-сон. 31.01.2015 й, 5-Б.

²³³ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори. 23.10.2015 й, 6/1-сон, 3-Б.

²³⁴ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори. 09.04.2016 й, 3/1-сон, Б-6.

²³⁵ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори. 25.01.2017 й, 1/1-сон, Б-6.

бошлаб олий ўқув юртидан кейинги таълимнинг икки поғонали, диссертация ҳимоя қилиш ва тегишли фан тармоғи бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини беришни назарда тутувчи таянч докторантура ҳамда диссертация ҳимоя қилиш ва тегишли фан тармоғи бўйича фан доктори (Doctor of Science) илмий даражасини беришни назарда тутувчи докторантура тизимини жорий қилинди²³⁶. Бу янги ислохотлар натижасида олий таълимдан кейинги таълимга ўқишга қабул қилиш квоталари ҳам ортди. Хусусан, 2018 йил учун таянч докторантура учун 706 та ва докторантурага 155 та квота ажратиш масаласи юзасидан маълумот Фан ва технологиялар агентлигига тақдим этилди²³⁷.

Бироқ шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев 2018 йил 24 октябрь куни олий таълим соҳасини янада ривожлантириш, кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, илм-фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини кенгайтириш масалаларига бағишланган йиғилишда соҳадаги бир қатор муаммоларга алоҳида тўхталиб, қуйидагиларни таъкидлади. “Жорий йилда илк бор халқаро тажрибалар асосида олий таълим муассасаларининг миллий рейтинги яратилди, таълим ва илмий-тадқиқот жараёнлари таҳлил қилинди. Мазкур таҳлил соҳада қатор муаммо ва камчиликлар борлигини кўрсатди. Йиғилишда олий таълим муассасаларининг нуфузи, профессор - ўқитувчиларнинг илмий салоҳияти халқаро илмий ҳамжамиятда муносиб ўринга эга эмаслиги қайд этилди. Илм-фанни ривожлантириш, тадқиқотларни ишлаб чиқариш билан интеграция қилиш, илмий фаолият натижадорлигини ошириш, иқтидорли талабалар илмий изланишлар олиб бориши учун зарур шароитлар яратилмаганлиги²³⁸ таъкидланди. Йиғилишда кўрсатиб ўтилган муаммо ва камчиликлардан тўғри хулоса чиқариб олий таълимдан кейинги таълим соҳасини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилиши натижасида бу соҳада бир қатор ижобий ўзгаришлар юз бермоқда. Бундан ижобий ўзгаришларни докторлик диссертацияларни ҳимоя қилиш кўрсаткичи ошганлигида кўриш мумкин. Масалан, 2016 йилда республика ОТМларида 151 та докторлик диссертациялари ҳимоя қилинган бўлса, 2017 йилга келиб, 122 та (DSc), 221 та (PhD) диссертациялар ҳимоя қилинди. Худди шу ҳолат бўйича 2018 йилда диссертацияларни ҳимоя қилиш кескин ошиб, 169 (DSc), 630 та (PhD) диссертациялар ҳимоя қилинди. Шунга мос ҳолда республикада илмий салоҳият ҳам ошмоқда. Хусусан, 2016 йилда илмий салоҳият 31,6 фоиз, 2017 йилда 32,7 фоиз, 2018 йилда эса 34,2 фоизни ташкил қилди²³⁹. Диссертация ҳимоялари вилоят ОТМларида ҳам анча ўсди. Фарғона водийсидаги баъзи ОТМлари масалан, Фарғона давлат университетида 2018 йилда жами 20 та, шунда 2 та DSc илмий даражасини олиш учун қилинган ҳимоялар, 18 таси PhD илмий даражасини олиш учун қилинган ҳимоялар ташкил этди²⁴⁰. Андижон давлат университетида жами 25 та, шундан 4 та DSc илмий даражасини олиш учун, 21 та PhD илмий даражасини олиш учун қилинган ҳимоялар ташкил этди²⁴¹.

²³⁶ <http://www.lex.uz/docs/3119699> 16.10.2018

²³⁷ <http://edu.uz/uz/pages/2017-yil> 17.10.2018

²³⁸ Халқ сўзи газетаси 2018 йил 25 октябрь №221

²³⁹ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. (Таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграцияси бўйича маълумотлар) Б.2.

²⁴⁰ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. (Фарғона давлат университетининг илмий-тадқиқот фаолияти паспорти) электрон ресурс.

²⁴¹ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. (Андижон давлат университетининг илмий-тадқиқот фаолияти паспорти) электрон ресурс.

Наманган мухандислик-қурилиш институтида 2018 йилда институтда фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчилардан жами 10 нафари жумладан, 2 нафари фан доктори (DSc) ҳамда 8 нафари фалсафа доктори (PhD) илмий даражасига эга бўлдилар²⁴².

Республикада ва Фарғона водийси вилоятлари ОТМларида илм-фан билан шуғулланишни хохловчи ёш олимларнинг сонининг кўпайиши, шунингдек, диссертациялар ҳимояларининг ортганлигига бу соҳада фаолият олиб бораётган олимларни моддий жиҳатда рағбатлантиришга ҳукумат томонидан алоҳида эътибор қаратилаётганлиги ҳам сабаб бўлмоқда. Масалан, ОТМларида меҳнат қилаётган профессор-ўқитувчилар ва ёш олимларни моддий кўллаб-қувватлар мақсадида 2018 йил 5 апрелдаги “Республика олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари ходимларининг меҳнатига ҳақ тўлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги²⁴³, 2018 йил 20 июлдаги “Фан ва олий таълим соҳаси ходимларининг меҳнат ҳақи миқдорини янада ошириш, илмий ва илмий-техник фаолият натижалари жорий этилишини давлат томонида кўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги²⁴⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорларини қабул қилинишини келтиришимиз мумкин. Бу қарорларга асосан ОТМлари ва ИТИларида меҳнат қилаётган профессор-ўқитувчилар, олимлар, таянч докторант ва докторантларни ойлик маошлари босқичма-босқич ошириб борилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда охириги йилларда Ўзбекистонда таълим соҳасининг барча бўғинларида катта ислохотлар амалга оширилмоқда. Бу ислохотлар олий таълимдан кейинги таълим соҳасида ҳам амалга оширилмоқда. Шу билан бирга бу соҳани тараққиётини янада жадаллаштириш учун қуйидаги таклифларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз.

REFERENCES

1. ЎзР МА Р-2653-фонд, 1-рўйхат, 6337-йиғма жилд, 37-варақ.
2. ЎзР МА Р-2653-фонд, 1-рўйхат, 6460-йиғма жилд, 64-варақ.
3. ЎзР МА М-130-фонд, 1-рўйхат, 492-йиғма жилд, 69-варақ.
4. <http://fdu.uz/frontend/web/index.php?r=site%2Fsayifa&id=1> 30.09.2018
5. ЎзР МА М-130-фонд, 1-рўйхат, 492-йиғма жилд, 4-варақ.
6. ЎзР МА М-130-фонд, 1-рўйхат, 492-йиғма жилд, 73-варақ.
7. ЎзР МА М-130-фонд, 1-рўйхат, 492-йиғма жилд, 40-варақ.
8. <http://fdu.uz/frontend/web/index.php?r=site%2Fsayifa&id=1> 30.09.2018
9. Инсон тараққиёти тўғрисида маъруза. Ўзбекистонда таълим: талаб ва таклиф мутаносиблиги. Тошкент: БМТТД, 2008. Б.131
10. Эшбаев А.Х. Бозор муносабатларига ўтиш даврида таълим тизимининг миллий иқтисодий ривожлантиришга таъсири. Иқтисод фан.ном. дисс. Тош. 2008 йил. Б.61-62
11. <http://www.lex.uz/docs/2035850> (хужжат кучини йўқотган 27.02.2017)

²⁴²ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. (Наманган мухандислик-қурилиш институтининг илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш фаолияти бўйича 2018 йил Ҳисоботи.) электрон ресурс.

²⁴³ <http://president.uz/uz/lists/view/1622> 7.04.2018

²⁴⁴ <http://www.uza.uz/oz/documents/fan-va-oliy-talim-so-asi-khodimlarining-me-nat-a-i-mi-dorini-20-07-2018>

12. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори, 1/4-сон. 30.01.2016 й, Б-2.
13. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. Б.2012. 2012 й январ, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори. 2012 йил 28 январ №1/1-сон, Б.5
14. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори, 1/1-сон. 31.01.2015 й, 5-Б.
15. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори. 23.10.2015 й, 6/1-сон, 3-Б.
16. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори. 09.04.2016 й, 3/1-сон, Б-6.
17. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъат қарори. 25.01.2017 й, 1/1-сон, Б-6.
18. <http://www.lex.uz/docs/3119699> 16.10.2018
19. <http://edu.uz/uz/pages/2017-yil> 17.10.2018
20. Халқ сўзи газетаси 2018 йил 25 октябрь №221
21. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. (Таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграцияси бўйича маълумотлар) Б.2.
22. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. (Фарғона давлат университетининг илмий-тадқиқот фаолияти паспорти) электрон ресурс.
23. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. (Андижон давлат университетининг илмий-тадқиқот фаолияти паспорти) электрон ресурс.
24. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. (Наманган муҳандислик-қурилиш институтининг илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш фаолияти бўйича 2018 йил Ҳисоботи.) электрон ресурс.
25. <http://president.uz/uz/lists/view/1622> 7.04.2018
26. <http://www.uza.uz/oz/documents/fan-va-oliy-talim-so-asi-khodimlarining-me-nat-a-i-mi-dorini-20-07-2018>

ЯЗЫК ИНТЕРНЕТА КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Наимова Гулхаё Анвар кизи

Преподаватель русского языка и литературы кафедры
"Истории и филологических дисциплин"
Азиатского международного университета
Бухара, Узбекистан.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10205218>

Аннотация. Данная статья посвящена анализу лингвистических и лингво-культурологических особенностей текстов в Интернете. Рассматриваются и сравниваются особенности различных типов веб-ресурсов – компьютерных дискурсов, электронных СМИ и образовательных ресурсов, а также взаимоотношения различных типов текстов в структуре веб-ресурса.

Ключевые слова: Интернет, веб-ресурсы, электронные СМИ, компьютерный дискурс, веб-страница, Интернет-коммуникация.

INTERNET LANGUAGE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH

Abstract. This article is devoted to the analysis of linguistic and linguoculturological features of texts on the Internet. The features of various types of web resources - computer discourses, electronic media and educational resources, as well as the relationship of various types of texts in the structure of a web resource are considered and compared.

Keywords: Internet, web resources, electronic media, computer discourse, web page, Internet communication.

Введение

Интернет – это уже не новое глобальное средство хранения информации и коммуникации, позволяющее людям независимо от их местонахождения получать необходимую информацию, вступать в переписку, выбирать товары для покупки, знакомиться с новостями, получать образование, изучать языки и др. Статистические исследования показывают, что Интернетом на русском языке пользуются более 116 миллионов человек. Сегодня Русский язык занимает второе место в интернете. 10 лет назад по числу владеющих русский занимал шестое место в мире, уступая английскому, китайскому (включая говорящих на диалектах, отличных от путунхуа), хинди, урду, испанскому и арабскому. Сейчас он пропустил вперед и французский с бенгали. Необходимо подчеркнуть, что информационные ресурсы Интернета практически удваиваются каждый год, а число пользователей каждый год увеличивается в полтора раза.

Среду Интернета рассматривают как совокупность технических, функциональных, информационных, социальных, экономических, юридических компонентов, обеспечивающих существование, функционирование и деятельность индивидуальных и групповых пользователей, составляющих аудиторию Интернета. Ученые говорят о значимости лингвистического аспекта Интернета и даже о возникновении таких понятий, как виртуальная языковая личность, виртуальное сообщество, виртуальное общение, виртуальная языковая среда.

Современный Интернет – это огромное количество текстов, которые связаны друг с другом различного рода связями – гипертекстовыми ссылками, темами, ключевыми словами, расположением в сети и др. Выделяются следующие основные особенности веб-технологий, которые определяют функционирование текста в Интернете: интерактивность, диалоговость, заложенная в самой структуре WWW; персональный подход, ориентированность текста на потребителя, позволяющие учесть потребности и интересы различных групп людей с помощью ссылок, систем поиска, разного рода меню; инфоцентричность, под которой понимается иерархичность информации, ее доступность с различной степенью детализации в зависимости от запроса; измеримость, предполагающая, что сеть обладает инструментами, которые дают возможность оценить количество обращений к тексту; взаимосвязанность, построенная на гипертекстовой технологии, которая позволяет связать один текст с другими и т.д. (тексты в Интернете, связаны между собой гиперссылками и в каком-то смысле образуют огромный текст, все части которого связаны разного рода гиперссылками).

Литературный обзор

Функционирование русского языка в Интернете вызывает значительный интерес исследователей. В научной литературе в последние годы появилось несколько монографий, десятки статей об особенностях русскоязычного Интернета (часто как синоним употребляется и слово Рунет), о новых речевых жанрах, появившихся в Интернете на русском языке, об особенностях компьютерной коммуникации на русском языке (см. работы О.В. Дедовой, Г.А. Трофимовой, А.А. Атабековой и др.). К сожалению, эти работы пока не позволяют более или менее объективно представить реальное функционирование разных текстов в Сети. Это, на наш взгляд, связано прежде всего с тем, что еще не был проведен более или менее подробный анализ особенностей функционирования текстов в зависимости от коммуникативных задач общения, выполняемых функций, способов создания того или иного текста. На наш взгляд, исследование русскоязычного Интернета должно опираться на ряд весьма сложных факторов, в частности: особенности самого Интернета как сложной многофункциональной иерархической информационной системы; социолингвистическую характеристику основных групп пользователей, их коммуникативных потребностей, языкового вкуса; учет значительного влияния на развитие русскоязычного Интернета английского языка и культуры и традиций общения на английском языке; тенденции развития и изменения современного русского языка, которые активизировались в конце XX начале XXI века; процессы формирования новых форм общения, в определенном смысле и новых речевых жанров, например, как следствие развития компьютерных технологий.

Результаты исследования и их обсуждение

В настоящее время отмечается значительный рост количества публикаций, посвященных русскому языку в Интернете. Можно выделить следующие направления исследований русскоязычного Интернета:

- 1) анализ языка Интернета с точки зрения соответствия нормам русского литературного языка, с точки зрения развития и изменения русского языка;
- 2) формирование и функционирование специального компьютерного

- дискурса в чатах, блогах, форумах;
- 3) анализ систем гипертекста и способов их реализации в русскоязычном Интернете;
 - 4) специфическая организация веб-страниц как особого вида текста;
 - 5) особенности функционирования средств массовой информации в Интернете;
 - 6) социолингвистические и психологические особенности пользователей Интернета;
 - 7) особенности функционирования сетевой художественной литературы, особенности языка и стиля сетевой художественной литературы;
 - 8) формирование компьютерной терминологии в русском языке и особенности профессионального компьютерного жаргона.

Следует подчеркнуть, что такая классификация исследования представляется достаточно условной. Так, многие авторы не ограничиваются только одним аспектом рассмотрения. Работы О.В. Дедовой, Г.А. Трофимовой, например, во многом ставят задачи комплексного рассмотрения функционирования русского языка в Интернете.

Лингвистические особенности веб-ресурсов обусловлены рядом факторов: вид компьютерных технологий (например, блоги, чаты, Интернет-СМИ), коммуникативные потребности пользователей (общение, развлечение, поиск информации, обучение), социолингвистическая характеристика пользователей и создателей текста. Нами выбраны для сравнения три группы текстов, функционирующих в Интернете. Им посвящено наибольшее количество исследований. В первую группу входят тексты, создаваемые самими пользователями (онлайн) – блоги, чаты, форумы, во вторую – образовательные ресурсы Интернета, в третью – средства массовой информации в Интернете. Конечно, такое деление достаточно условно, так как и образовательные, и информационные ресурсы Интернета включают форумы, блоги, гостевые книги и др.

Заметим также, что даже если печатный текст в абсолютно идентичном виде попадает в Интернет, то он все-таки приобретает особые характеристики, в частности, он включается, вводится в систему гипертекстовых связей, становясь тем самым частью какого-либо другого сообщения, текста, классифицируется в системах поиска, в нем выделяют какие-то ключевые слова, термины, текст может стать частью другого текста, соединяться с аудиовизуальной информацией и др. Все эти разнообразные действия, совершаемые с текстом в Интернете, придают ему новые признаки, качества, помещая тем самым текст в различные классификационные группы. Сам доступ к тексту, например, становится зависимым от гипертекстовых ссылок, от его отличительных признаков в системах поиска. Наконец, текст, помещаясь в текстовое окружение на той или иной веб-странице, выполняет тем самым функции главного, второстепенного, дополнительного текста.

С точки зрения содержания, тем все интернет-ресурсы можно разделить на несколько групп. В первую группу войдут тексты справочно-информационной направленности, связанные с покупками, продажей, рекламой; во вторую — электронные версии бумажных газет и журналов или электронные газеты и журналы; в третью — ресурсы образовательного характера рефераты, образовательные порталы, сетевые версии учебников; в четвертую — тексты, создающиеся в режиме реального времени и в форме

свободной дискуссии на форумах, телеконференциях или так называемых чатах, блогах (подобная классификация текстов Интернета была представлена в работах Г.А. Трофимовой). В научной литературе представлены и другие подходы к типологии интернет-ресурсов.

В Интернете, условно говоря, функционируют два вида текстов. Первые – это просто электронные версии печатных текстов. Вторая группа текстов – это тексты, которые предназначены для функционирования в данной электронной среде, в связи с чем они приобретают особые формы, выполняют специфические функции. Последние также можно разделить на две группы. Первая группа — это тексты, которые создаются в режиме реального времени, в определенном смысле являются письменной фиксацией устной речи. Наиболее ярким примером таких особых текстов являются чаты, блоги, форумы, электронная переписка, общение в социальных сетях. Задача этих текстов – обеспечение коммуникации между пользователями. Их особенности проявляются в том, что они сочетают устное непосредственное общение и письменную форму. Для соблюдения правил общения в Интернете создаются специальные правила, рекомендации по созданию таких текстов, например, электронных писем, блогов. Вторая группа — это тексты, с помощью которых создаются различные типы веб-страниц. Такие тексты достаточно стабильны, их языковые особенности в основном зависят от коммуникативных задач, которые ставит создатель веб-страницы (сообщить о чем либо, рекламировать что-либо, служить средством развлечения).

Каждый тип интернет-ресурса использует свои особые средства взаимодействия с пользователем. Рассмотрим, например, особенности языка электронных СМИ. Электронные СМИ делятся по различным критериям. Некоторые из них являются точной копией бумажных изданий. Другие издания ориентируются на новые возможности информационных технологий

(использование баз данных, гипертекста).

Выводы

Каждая из трех рассмотренных содержательных групп (электронные СМИ, образовательные сайты, компьютерное общение в блогах, чатах) имеет свои особые средства организации взаимодействия с пользователем. Для текстов СМИ важным моментом является регулярная и быстрая обновляемость, организация взаимодействия с читателем (опросы, письма читателей), активное использование гиперссылок. Для образовательных ресурсов важно прежде всего информационная составляющая, отсюда включение традиционных жанров научной и учебной литературы (статьи, рефераты), использование развернутых систем поиска необходимой информации, активное использование принципа баз данных для накопления и хранения информации. Электронная коммуникация в Интернете в режиме реального времени представляется сложной комбинацией разных дискурсов: межличностное общение (бытовой дискурс), официальный обмен и запрос информации (деловой дискурс), обсуждение научных вопросов в группах новостей или конференций (научный дискурс) и т.д.

REFERENCES

1. Атабекова А.А. Лингвистический дизайн WEB-страниц (сопоставительный анализ языкового оформления англо- и русскоязычных WEB-страниц). — М.: Изд-во РУДН, 2003.
2. Галичкина Е.Н. Специфика компьютерного дискурса на английском и русском языках (на материале жанра компьютерных конференций): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Волгоград, 2001.
3. Дедова О.В. Теория гипертекста и гипертекстовые практики в Рунете. — М.: Изд-во МГУ, 2008.
4. Какорина Е.В. СМИ и Интернет-коммуникация (области пересечения и взаимодействия) // Язык современной публицистики: сб. статей. — М.: Флинта, 2007а.
5. Какорина Е.В. Язык Интернет-коммуникации // Сб.: Язык массовой и межличностной коммуникации. — М.: Медиатека, 2007б.
6. Калмыков А.А., Коханова Л.А. Интернет-журналистика. — М.: Юнити, 2005.
7. Кронгауз М.А. Утомленные грамотой // Новый мир. — 2008. — № 5.
8. Лутовинова О.В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. — Волгоград, 2009.
9. Морослин П.В. Есть ли речевой этикет в Интернете? // Русская речь. — 2009. — № 4.
10. Трофимова Г.Н. Языковой вкус Интернет-эпохи в России: Функционирование русского языка в Интернете: концептуально-сущностные доминанты — М.: Издво РУДН, 2004.
11. Фомичева И.Д. Социология интернет-СМИ: Учебное пособие. — М.: Факультет журналистики МГУ им. М.В. Ломоносова, 2005.
12. Bahronovna R. G. Epic Interpretations of the Image of Trees in Uzbek Folk Tales //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 330334.
13. Рустамова Г. Б. HISTORICAL-MYTHOLOGICAL BASES OF IMAGES ASSOCIATED WITH TREES IN FOLKLORE.
14. Шербекоева Г. Я. АФСОНА ВА РИВОЯТЛАРДА “ҲАЁТ ДАРАХТИ” ОБРАЗИ ИФОДАЛАНИШИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 244-250.
15. Uraeva D., Kabulova Z. INFLUENCE OF UZBEK LITERATURE ON ARTISTIC DEVELOPMENT OF KARAKALPAK MODERN POETRY //КУЛЬТУРОЛОГИЯ,
16. ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ И ФИЛОЛОГИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. – 2019. – С. 94-98.
17. Ураева Д. С. и др. ВЫРАЖЕНИЕ ВЕРЫ В ОГОНЬ И ЗОЛУ В ВОЛШЕБНОЕ ИСЦЕЛЕНИЕ НА НАРОДНЫХ ПЕСНЯХ //European Scientific Conference. – 2020. – С. 360-363.
18. Муродова Д. (2023). КОНЦЕПЦИЯ СЛОВ "ВЕЛИКОДУШИЕ И ТРУСОСТЬ" В ЛАКСКИХ ЯЗЫКАХ. Современная наука и исследования, 2(6), 1147-1149

24. Муродова, Д. (2023, April). АРАБСКИЕ СЛОВА ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 2, No. 2, pp. 156-158).
25. Murodova, D. (2023). PROBLEMS OF RESEARCH OF VERBAL CONSTRUCTIONS WITH DEPENDENT OBJECT IN THE RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(3), 232–235. Retrieved from <https://inlib>
26. Oxunjonovna, B. D. (2022). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO'RINISHLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 14(1), 22-25.

THE DIFFICULTIES OF TRANSLATION OF ENGLISH

Xudoyberdiyeva Nargiza Odil qizi

Termiz State University

Theory and practice of translation

+(998) 95-056-81-81

Rahmatullayeva Iroda Valijon qizi

Termiz State University

Theory and practice of translation

+(998) 99-203-8821

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10205236>

Abstract. *This article deals with the problem of possible difficulties in translating from English into Russian. It is shown that understanding the text is a skill that requires hard work. The problems that may arise in the translation of texts are analyzed. Difficulties connected with translation are classified and the characteristic of the selected problems of translation is given.*

Some recommendations are given to help in translating English texts into Russian. The interpreter should know and see the problems he can meet and be able to avoid them.

Key words: *translation, foreign texts, homonyms, grammar, vocabulary.*

ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.

Аннотация. *В данной статье рассмотрена проблема возможных трудностей при переводе с английского языка на русский. Показано, что понимание текста - это навык, который требует упорного труда. Проанализированы проблемы, которые могут возникнуть при переводе текстов. Классифицированы трудности, связанные с переводом и дана характеристика выделенным проблемам перевода. Приведены некоторые рекомендации, которые помогут при переводе английских текстов на русский язык.*

Переводчик должен знать и видеть проблемы, с которыми он может встретиться и уметь их избегать.

Ключевые слова: *перевод, иноязычные тексты, омонимы, грамматика, лексика.*

Currently, many linguists note that an amazing thing is happening. A linguistic revolution associated primarily with the scientific and technological revolution. Each word has its own history, even those that appeared spontaneously [1, p. 11].

Words are the most vibrant part of language; they are connected with all spheres of human society, politics, sports, technology, science and art, this is the area in which they formed to provide the necessary connection for existence human activity. Understanding the origins of words is powerful source of technical development of terminology [2, p. 8].

Most words in English are ambiguous with different interpretations; words can mean different things in different contexts, especially concerning technical terms.

Translation is the communication of intentions, feelings and implicit messages without compromising subtleties, features and inherent beauty of language. Translation means simultaneous communication and poetry [2, p. 13].

Translators usually have to deal with six different problem areas in their work, be it the translation of technical documents or assurance. These include lexical-semantic problems, grammar, syntax, rhetoric, pragmatic and cultural issues.

1. Lexica-semantic problems can be solved by referring to dictionaries, glossaries, terminology banks and experts. These issues include terminological alternatives, neologisms, semantic gaps, contextual synonyms and antonyms (they affect polysemantic units: synonyms and antonyms are aimed only at acceptance, which depends on the context, to determine which meaning is correct), semantic contiguity (a matching procedure that works by defining semantic features common to two or more terms) and lexical networks.

2. Grammar problems include, for example, issues of tense, aspectuality (appearance shows how a process or state is represented, expressed by the verb in terms of its development, as opposed to the tense itself), pronouns and whether an explicit subject pronoun follows or not.

3. Syntactic problems may arise due to syntactic parallels, direction of the passive voice, focus (the point of view from which the history) or even rhetorical figures of speech such as hyperbaton (inversion natural order of speech) or anaphora (repetition of a word or segment at the beginning lines or phrases).

4. Rhetorical problems involve identifying and reconstructing figures. thoughts (comparison, metaphor, metonymy, synecdoche, oxymoron, paradox, etc.) and diction.

5. Pragmatic problems arise from differences in formal and informal ways of addressing using “you”, as well as idiomatic phrases, sayings, irony, humor and sarcasm.

6. Cultural problems can arise due to differences between cultural references such as food names, festivals and cultural connotations in general. The translator will use language localization to correctly adapt the translation to the target culture. A very simple example – financial translation that includes dates.

The table below shows some recommendations when translating English texts.

Table 1. Recommendations

№	Recommendations
1	Extensive reading aloud of English texts can help develop reading skills and at the same time reduce the number of errors
2	Acquiring encyclopedic knowledge can form deep basic knowledge to improve your translation abilities. Various genres such as novels, television series, documentaries, songs, comics and academic articles are recommended in order to expose their wide variety of linguistic usage, which in turn will allow you to correctly interpret the text.
3	The use of dictionaries helps in translating texts in English. But we should remember the different meanings that a word can have, and various parts of speech that can influence propositional meaning.
4	Reading and writing develop linguistic awareness, which forces you to constantly monitor your translation.

The exclusivity of text conversion from Russian to English lies in the tangible difference between the two languages. For good understanding the meaning of a foreign language text, it is necessary not only to study individual complex cases, but also to gain systemic knowledge.

Polysemy viewed diachronically, historical change semantic structure of the word, leading to new meanings, added to the already existing in the rearrangement of these meanings in its

semantic structure. Since semantic structure is never static, the relationship between diachronic and synchronic assessment of individual meanings of the same word may be different in different periods of the historical development of a language.

It is necessary to take into account the diversity of terminology when translating technical texts correctly. Undoubtedly, engineers of a specific industries that speak the language can translate technical texts better, because that they know the subject of translation. However, knowledge of polysemantic terms will help you cope with the translation task.

REFERENCES

1. Solijonov Juraali Kamoljnovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek. *ASEAN Journal on Science & Technology for Development*, Vol 39(No 4), 221–229. doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>
2. Kamoljnovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
3. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVSKIY ASARLARI MISOLIDA). *Ta'lim fidoyilari*, 18(5), 32-37.
4. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II"* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
5. Arnold I.V. Stylistics. *Modern English* / I.V. Arnold. - M.:Flint; 5th edition, rev. and additional, 2002. - 384 p.
6. Bezkorovaynaya G.T. Methods of representing the semantic field gentleness / nobleness and correlation of component values: synchronic aspect (on Material of English fiction of the 19th century // *Lexicology and phraseology (Roman-Germanic cycle)*. St. Petersburg, 2011.- 231 p.
7. Vezhbitskaya A.P. *Understanding Cultures through Keywords* /Vezhbitskaya, Anna. M.: Languages of Slavic culture, 2001. - 288 p.
8. Vvedenskaya L.A. *Etymology: Textbook* / L.A. Vvedenskaya, N.P. Kolesnikov. M.: St. Petersburg: Peter, 2004. 221 p.

NORMAL JOYLASHGAN YO'LDOSHNING BARVAQT KO'CHISHI

Rjabova Dildora

Osiyo xalqaro universiteti,
klinik fanlar kafedrası anatomiya fan o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10207385>

Annotatsiya. Normal joylashgan yo'ldoshning barvaqt ko'chishi hozirgi davrda akusherlik amaliyotida tez-tez uchrab turuvchi patologik holatlaridan biridir. Bu patologik holatning sodir bo'lishi homilador ayol va homila hayoti uchun xavf tug'diradi. Yo'ldoshning barvaqt ko'chishi kuzatilganda homilador ayolda og'riq, qon ketishi, bachadon mushaklari taranglashishi, homilada kuzatiladigan ayrim o'zgarishlar yuzaga chiqadi.

Bunday patologiya aniqlanganda, homiladorlik va tug'ruqni olib borish taktikasida shifokorlardan hamda bemordan ehtiyotkorlik va ogohlikni talab qiladi.

Kalit so'zlar: yo'ldosh, patologiya, bachadon, tug'ruq, platsenta, abort, chilla, homila, barvaqt.

PREMATURE MIGRATION OF A NORMALLY LOCATED PLACENTA

Abstract. Premature migration of a normally located placenta is one of the most common pathological conditions in obstetric practice today. The occurrence of this pathological condition poses a threat to the life of the pregnant woman and the fetus. When early placental migration is observed, a pregnant woman experiences pain, bleeding, uterine muscle tension, and some changes observed in the fetus.

When such a pathology is detected, it requires caution and awareness from doctors and the patient in the tactics of pregnancy and childbirth.

Key words: placenta, pathology, uterus, childbirth, placenta, abortion, chill, fetus, premature.

ПРЕЖДЕВРЕМЕННАЯ МИГРАЦИЯ НОРМАЛЬНО РАСПОЛОЖЕННОЙ ПЛАЦЕНТЫ

Аннотация. Преждевременная миграция нормально расположенной плаценты на сегодняшний день является одним из наиболее частых патологических состояний в акушерской практике. Возникновение этого патологического состояния представляет угрозу для жизни беременной и плода. При ранней миграции плаценты у беременной возникают боли, кровотечения, напряжение мышц матки, наблюдаются некоторые изменения у плода.

При обнаружении такой патологии требуется осторожность и осведомленность врача и пациентки в тактике ведения беременности и родов.

Ключевые слова: плацента, патология, матка, роды, плацента, аборт, озноб, плод, недоношенность.

Kirish

Homiladorlik va tug'ruq normal kechganda yo'ldosh tug'ruqning uchinchi davrigacha bachadonning yuqori segmenti devoriga yopishgancha qolaveradi. Homila tug'ilgach, bachadon qisqarib, ichidagi bosim pasayishi munosabati bilan yo'ldosh ko'chadi. Ba'zan patologik jarayonlarda normal joylashgan yo'ldosh homila tug'ilgunga qadar tug'iladi. Yo'ldoshning barvaqt

ko'chishi homiladorlik va tug'ruqning bachadon bo'yni ochilish davrida ko'proq uchraydi, tug'ruqning ikkinchi davrida yo'ldoshning ko'chishi kam uchraydi.

Bu og'ir akusherlik asorati bo'lib, onalar va bolalar o'limiga olib keluvchi sabablar ichida asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekistonda bu asorat iliq iqlim mintaqalariga nisbatan 10 marta ko'proq uchraydi. Normal joylashgan yo'ldoshning barvaqt ko'chishi 2-8 % hollarda o'limga olib keladi.

Sabablari:

Tomirlar tizimining o'zgarishi bilan davom etadigan kasalliklarda yo'ldosh ko'pincha barvaqt ko'chadi. Normal joylashgan yo'ldoshning barvaqt ko'chishi ko'pincha bachadon va yo'ldoshda degenerativ va yallig'lanish jarayonlari kuzatilganda yuzaga keladi. Platsentaning ko'chishiga bachadon platsentar tomirlarining devorlari yupqalashib, mo'rtlashib, o'tkazuvchanligi oshib, oson parchalanib qon quyilishiga olib keluvchi yoki moyillik tug'diruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Homiladorlikning kech toksiozlari, buyrak kasalliklari, gipertoniya, yurak nuqsonlari, kamqonlik va boshqa kasalliklar oqibatida yo'ldosh tomirlarida o'zgarishlar ro'y berganligi yo'ldoshga qon quyilishiga sabab bo'ladi. Bachadon devori bilan yo'ldosh oralig'iga qon quyilishi sababli yo'ldosh yopishgan joyidan ko'chadi. Sun'iy abortdan keyin va chilla davrida bachadonning yallig'lanishi yo'ldoshning barvaqt ko'chishiga moyil qilib qo'yadi. Kindik kalta bo'lganda va homila pardasi kechikib yirtilganda yo'ldosh ko'chishi mumkin. Egizak homiladorlikda birinchi homila tug'ilgach, yo'ldosh ko'chishi kuzatilishi mumkin. Kamdan - kam sabablari: jarohatlar, asab-ruhiy omillar.

Normal joylashgan platsentaning vaqtidan ilgari ko'chishi patogenezi qon tomirlar yorilishi bilan tushuntiriladi, bu vorsinkalararo qon aylanishi buzilishiga olib keladi va qon ketib retroplatsentar gematoma shakllanadi. Ushbu asoratning uchrashi 1,0 dan 5% gacha.

Yo'ldosh barvaqt ko'chganda ro'y beradigan o'zgarishlar.

Yo'ldosh barvaqt ko'chganda ro'y beradigan belgilar nihoyatda xilma-xil bo'lib, yo'ldoshning qisman yoki to'liq ko'chganligiga bog'liq bo'ladi. Yo'ldosh to'liq ko'chganda yo'ldosh va bachadon devori oralig'iga qon to'planib, ba'zan qon bachadon devorlariga so'riladi. Bunda muskul va seroz qavatiga qon quyilishi natijasida bachadon yuzasi qoramtir-qizargan bo'ladi. Bunday o'zgarishni **kyuveler bachadoni** deb ataladi va bachadon tug'ruqdan keyingi dastlabki soatlarda qisqarish xususiyatini yo'qotadi, nihoyatda ko'p qon ketadi.

Normal joylashgan yo'ldoshning barvaqt ko'chishi og'irlik darajasiga ko'ra tasnifi: **yengil, o'rtacha og'irlikda, og'ir.**

Yo'ldoshning qisman yoki to'liq ko'chishiga qarab klinik manzarasi ham 3 xil darajada kechishi kuzatiladi.

Yengil darajada kechishi. 60% bemorlarda uchrab, bunday yo'ldoshning 15% yuzasi ko'chgan, ayolning umumiy ahvoli o'zgarmagan, tomir urishi, qon bosimi, homila yurak urishi normal bo'ladi. Jinsiy yo'llardan ozgina qon ketadi, ba'zan qon ketishi ham kuzatilmaydi.

O'rtacha og'irlikdagi darajasi 20% bemorlarda uchrab, yo'ldosh yuzasining 40% gacha qismi ko'chgan bo'ladi. Homilador ayol qornining doimiy og'rishidan, umumiy behollik, bosh aylanishi, ko'ngil aynishidan shikoyat qiladi. Bemorning rangi oqargan, sovuq ter bosgan, qon bosimi 10-15 mm simob ustunidan kamaygan, tomir urishi tezlashgan bo'ladi. Qorin devorlarini paypaslab ko'rilganda bachadon devorining taranglashgani, bachadonning yo'ldosh ko'chgan sohasi do'ppayib chiqqani kuzatiladi. Homila yurak urishi tezlashadi, ba'zan eshitilmay qoladi.

Yo'ldosh ko'chishining **og'ir darajasi** birdaniga ro'y berib, ayolning ahvoli nihoyatda og'irlashadi, qornining hamma sohasida qattiq og'riq sezadi, hushidan ketib, qon bosimi pasaygan, tomir urishi sustlashgan, sovuq ter bosib, ranglari oqargan bo'ladi. Bachadonni qorin orqali paypaslaganda bachadon taranglashib, qattiq og'riq natijasida homilaning qismlarini paypaslab aniqlash imkoni bo'lmaydi. Homila ona qornida nobud bo'ladi. Bachadon devori qon tomirlari orqali tromboplastin tanachalarining ko'p miqdorda o'tishi natijasida qonning ivish xususiyati pasaygan (gipofibrinogenemiya) yoki butunlay qon yo'qolganligi (afibrinogenetniya) ayolda yanada qon ketishiga olib keladi. Ayolning hayoti xavf ostida qoladi. Yo'ldoshning barvaqt ko'chishining og'ir darajasida buyrakning siydik chiqarish faoliyati buzilgan bo'ladi, ba'zan butunlay faoliyati to'xtaydi (O'BE), buni buyrak faoliyatining o'tkir yetishmasligi deb yuritiladi. Normal joylashgan yo'ldoshning barvaqt ko'chishini yo'ldoshning oldinda kelishi, bachadon yirtilishi, oshqozon yarasinig yorilishi, chalkashtirmaslik kerak.

Xavf guruhlari:

1. Homiladorlik asorati: gipertenziv sindrom, preyeklampsiya.
2. Yuran qon-tomir kasalliklari bor homiladorlar.
3. Buyrak kasalliklari va homiladorlik.
4. Qon kasalliklari: tug'ma va orttirilgan koagulopatiyalar.

Tug'ruq jarayoni davomida:

1. O'ta kuchli tug'ruq faoliyati.
2. Tug'ruq faoliyati diskoordinatsiyasi.
3. Asossiz tug'ruq faoliyatini kuchaytirish.
4. Kalta kindik tizimchasi
5. Bachadon ichi bosimining keskin pasayishi, ko'psuvlilikda.

Tashxisi.

1. Ayolning umumiy ahvolini baholash
2. Homila holatini baholash
3. UTT - platsentadagi o'zgarishlarni aniqlash asoratlarning oldini olishga imkon beradi

Olib borish taktikasi.

Ayol va homila holatiga va platsenta ko'chish darajasiga ham bog'liq. Klinik kechishga bog'liq bo'lmagan holda tez TTQI sindromi yoki qon yo'qotish natijasida gipovolemiya rivojlanishi mumkin.

Normal joylashgan yo'ldoshning barvaqt ko'chishida o'tkazish kerak bo'lgan chora-tadbirlarning ketma-ketligi.

1. Bemor shikoyatlarini baholash.
2. Umumiy ahvolini to'g'ri baholash.
3. Gemodinamika ko'rsatkichlarini to'g'ri aniqlash
4. Tashqi akusherlik tekshiruvi:
 - bachadon holatini baholash (tonus, tarangligi, bo'rtib chiqishi, og'riqlilik).
 - homilaning holatini baholash
5. Tezlik bilan stasionarga olib borish

Stasionarda qin orqali tekshirish:

- tug'ruq faoliyatini aniqlash

• xulosa chiqarish va olib borish taktikasini aniqlash: kesarcha kesish yoki bachadon og'zi ochiq bo'lsa, amniotomiya qilib tabiiy yo'l orqali tug'dirish.

Normal joylashgan yo'ldoshning barvaqt ko'chishini davolash uning klinik darajasi va tug'ruqda bachadon bo'yni ochilish darajasiga qarab olib boriladi. Agar yo'ldoshning ozgina qismi barvaqt ko'chgan bo'lib, ayol va homilaning ahvoli o'zgarmagan bo'lsa, ayolni darhol tug'ruqxonaga yotqizib, nihoyatda tinch sharoit yaratiladi, so'ngra koagulopatik qon ketishining oldini olish uchun chora-tadbirlar o'tkaziladi (kontrikal, disinon, ATF, vitamin E, kalsiy glyukanat va h.k.).

REFERENCES

1. Gilbert G.L. Infections in pregnant women. *Med J Aust* 2002; 176: 229– 236.
<https://www.mja.com.au/journal/2002/176/5/1-infections-pregnant-women>;
2. Palasanthiran P, Starr M, Jones C, Giles M; editors. *Management of perinatal infections*. Sydney: Australasian Society for Infectious Diseases, 2014.
3. Public Health Laboratory Network. *Laboratory case definitions for diagnosis of communicable diseases*. Canberra: Commonwealth of Australia, 2017.
4. LeBaron C.W., Forghani B, Beck C, et al. Persistence of mumps antibodies after 2 doses of measles-mumps-rubella vaccine. *J Infect Dis* 2009; 199: 552– 560.
5. Best J.M. Rubella. *Semin Fetal Neonatal Med* 2007; 12: 182– 192.
6. Cradock-Watson J.E., Ridehalgh MK, Anderson MJ, Pattison JR. Outcome of asymptomatic infection with rubella virus during pregnancy. *J Hyg (Lond)* 1981; 87: 147– 154.
7. Ahn K.H., Park YJ, Hong SC, et al. Congenital varicella syndrome: a systematic review. *J. Obstet. Gynaecol* 2016; 36: 563– 566.
8. Gilbert G.L. Parvovirus B19 infection and its significance in pregnancy. *Commun Dis. Intel.l* 2000; 24 (Suppl): 69– 71.
9. Bascietto F., Liberati M, Murgano D, et al. Outcome of fetuses with congenital parvovirus B19 infection: systematic review and meta-analysis. *Ultrasound Obstet Gynecol* 2018; 52: 569–
10. Tuksanova, D. I. (2019). Osobnosti sostoyanie parametrov gomeostaza i kardiogemodinamiki u zhenshchin s fiziologicheskimi techeniyami beremennosti. *Novyj den' v medicine-Tibbiyotda yangi kun-2019*, 1(25), 159-163.
11. Tuksanova, D. I. (2019). Features of the state of parameters of homeostasis and cardiodynamics in women with the physiological course of pregnancy. *Tibbiyotda yangi kun.-Tashkent*, (1), 25.
12. Zaripova D.Ya., Tuksanova D.I., Negmatullaeva M.N. Osobnosti techeniya perimenopauzal'nogo perekhoda zhenshchin s ozhireniem. *Novosti dermatovenerologii i reproduktivnogo zdorov'ya*. № 1-2.2020 Str.39-42.– 66.
13. Zaripova D.Ya. Sharipova R.G. Efficiency of hormone replacement therapy in prevention menopausal therapy. *Academicia an international multidisciplinary research journal*. Vol.10, issue 8. Page 422.
14. Zaripova D. and Sharipova R. Comparative evaluation of the use of aleandronic acid in menopausal women complicated by osteoporosis. *European journal of biomedical and pharmaceutical sciences*. Vol-7, issue-6.

15. Djalilova, Z. (2023). PEDAGOGICAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY: ESSENCE, CHARACTERISTICS AND EFFICIENCY. *Академические исследования в современной науке*, 2(23), 29-38.
16. Djalilova, Z. (2023). THE SIGNIFICANCE AND POSITION OF TEACHING METHODS IN PROFESSIONAL TRAINING. *Solution of social problems in management and economy*, 2(10), 31-42.
17. Djalilova, Z. (2023). THE USE OF LATIN TERMINOLOGY IN MEDICAL CASE. *Академические исследования в современной науке*, 2(14), 9-15.
18. Obidovna, D. Z., & Sulaymonovich, D. S. (2022). Physical activity and its impact on human health and longevity. *Достижения науки и образования*, (2 (82)), 120-126.

LINGUISTIC AND METAPHORICAL VERBALIZATION OF THE CONCEPT OF "KNOWLEDGE" IN KARAKALPAK AND ENGLISH

Kamalova Mamura Xabibulla qizi

A Master's student of the Faculty of Foreign Languages.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10207398>

Abstract. This scientific article explores the linguistic and metaphorical dimensions of expressing the concept of "knowledge" in two distinct languages, Karakalpak and English. Language serves as a powerful tool for conveying cultural nuances and shaping the way individuals perceive and articulate abstract concepts such as knowledge. The study delves into the lexical, syntactic, and metaphorical aspects of the term "knowledge" in both languages, shedding light on the unique cultural perspectives that influence linguistic representation.

Keywords: Knowledge expression, Linguistic analysis, Metaphorical representations, Karakalpak language, English language, Cultural influences, Syntax, Globalization.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ И МЕТАФОРИЧЕСКАЯ ВЕРБАЛИЗАЦИЯ ПОНЯТИЯ "ЗНАНИЕ" В КАРАКАЛПАКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В этой научной статье исследуются лингвистические и метафорические аспекты выражения понятия "знание" на двух разных языках, каракалпакском и английском. Язык служит мощным инструментом для передачи культурных нюансов и формирования того, как люди воспринимают и формулируют абстрактные понятия, такие как знание. В исследовании рассматриваются лексические, синтаксические и метафорические аспекты термина "знание" в обоих языках, проливающие свет на уникальные культурные перспективы, влияющие на языковую репрезентацию.

Ключевые слова: Выражение знаний, лингвистический анализ, метафорические репрезентации, каракалпакский язык, английский язык, культурные влияния, синтаксис, глобализация.

Language not only reflects but also shapes the way individuals understand and conceptualize the world around them. The concept of "knowledge" is central to human cognition and culture, and its expression varies across languages. This article focuses on the linguistic and metaphorical dimensions of verbalizing "knowledge" in Karakalpak, a Turkic language spoken in Central Asia, and English, a Germanic language widely used globally.

Lexical Analysis: To understand the linguistic representation of "knowledge" in Karakalpak and English, a lexical analysis is essential. The article explores the core terms, synonyms, and related expressions in both languages, examining how linguistic structures convey nuances and shades of meaning. Differences in linguistic structure may reveal cultural priorities and perspectives on knowledge acquisition and dissemination.

Syntactic Structures: Syntax plays a crucial role in conveying relationships and hierarchies within a concept. The article investigates the syntactic structures associated with the concept of "knowledge" in Karakalpak and English. Analyzing sentence constructions and grammatical patterns provides insights into the ways in which these languages organize and prioritize information related to knowledge.

Metaphorical Representations: Metaphors are powerful linguistic tools that enable individuals to conceptualize abstract ideas through concrete, familiar imagery. The article explores metaphors associated with "knowledge" in Karakalpak and English, examining how cultural and historical contexts shape metaphorical expressions. The study aims to uncover the underlying cultural narratives embedded in these metaphorical representations.

Cultural Influences: Language is inseparable from culture, and the ways in which "knowledge" is linguistically and metaphorically expressed are deeply rooted in cultural beliefs and values. The article discusses the cultural influences that contribute to the linguistic diversity observed in the representation of "knowledge" in Karakalpak and English, emphasizing the importance of understanding these cultural nuances for effective communication.

This scientific exploration of the linguistic and metaphorical verbalization of the concept of "knowledge" in Karakalpak and English reveals the rich tapestry of cultural influences on language. By examining lexical choices, syntactic structures, and metaphorical expressions, this study contributes to a deeper understanding of how cultures conceptualize and communicate the fundamental concept of knowledge. The findings underscore the importance of cultural sensitivity in cross-linguistic communication and highlight the need for further research in the dynamic intersection of language and culture. [1.71]

Comparative Analysis: A comparative analysis of the linguistic and metaphorical representations of "knowledge" in Karakalpak and English allows for a nuanced understanding of the similarities and differences between the two languages. This section examines specific lexical choices, syntactic structures, and metaphorical expressions side by side, identifying points of convergence and divergence. By elucidating these linguistic variations, the study contributes to the broader field of comparative linguistics and cross-cultural communication.

Historical and Socio-Cultural Context: To comprehend the linguistic nuances surrounding the concept of "knowledge," it is imperative to consider the historical and socio-cultural context of Karakalpak and English-speaking communities. Historical events, societal structures, and educational systems shape the ways in which knowledge is valued, acquired, and transmitted. Investigating these contextual factors provides a comprehensive perspective on the intricacies of linguistic expression.

Practical Implications: Understanding how the concept of "knowledge" is linguistically and metaphorically embedded in Karakalpak and English has practical implications for communication, education, and cross-cultural interactions. This knowledge can inform language educators, translators, and communicators about the potential pitfalls and opportunities in conveying complex ideas across linguistic and cultural boundaries.

Future Directions: The exploration of the linguistic and metaphorical dimensions of "knowledge" in Karakalpak and English opens avenues for future research. Subsequent studies could delve deeper into the influence of technological advancements, globalization, and contemporary socio-political changes on the evolving expressions of knowledge in these languages. Additionally, investigating the impact of linguistic borrowing and intercultural exchanges on the conceptualization of knowledge provides a fertile ground for further inquiry. [2.107]

In conclusion, this scientific article delves into the intricate interplay between language, culture, and the conceptualization of "knowledge" in Karakalpak and English. By examining

lexical choices, syntactic structures, metaphors, and cultural influences, the study sheds light on the diverse ways in which these languages articulate a fundamental human concept. The insights gained from this research contribute not only to linguistic studies but also to the broader understanding of how cultural perspectives shape our conceptualization and communication of knowledge. As we navigate an increasingly interconnected world, such cross-cultural insights become indispensable for fostering effective communication and mutual understanding.

As we traverse the intricate terrain of linguistic and metaphorical expressions of "knowledge" in Karakalpak and English, this exploration unveils promising avenues for future research. The dynamic nature of language, coupled with the profound impact of technological advancements, globalization, and contemporary socio-political changes, invites scholars to delve deeper into understanding how these factors influence the evolving articulation of knowledge in these languages.

Technological Advancements: The advent of technology has revolutionized the way information is accessed, shared, and processed. Future research could investigate how technological advancements, such as the rise of the internet, artificial intelligence, and digital communication platforms, shape the linguistic landscape surrounding the concept of knowledge. Exploring how these technologies influence vocabulary, syntax, and metaphorical expressions can provide valuable insights into the intersection of language and the digital age. [3.82]

Globalization's Impact: In an era of unprecedented globalization, languages are increasingly interconnected. The impact of globalization on the expressions of "knowledge" in Karakalpak and English is a fertile area for exploration. Researchers may examine how cultural exchange, international collaborations, and the global dissemination of information contribute to the cross-pollination of linguistic elements. Understanding how globalization shapes the linguistic fabric of knowledge expression can uncover shared cultural values and the emergence of new linguistic constructs.

Socio-Political Dynamics: The socio-political landscape exerts a profound influence on language, reflecting the values and priorities of a society. Future studies could delve into the impact of contemporary socio-political changes on the conceptualization and verbalization of knowledge. Political ideologies, policy decisions, and societal shifts may introduce new terms, alter existing expressions, or emphasize particular aspects of knowledge, offering a dynamic lens through which to observe the evolving nature of language.

REFERENCES

1. Crystal, D. (1997). *English as a Global Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
3. Stiglitz, J. E. (2002). *Globalization and Its Discontents*. New York: W. W. Norton & Company.

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUSIYASI – FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTINING BOSH OMILI SIFATIDA.

To‘yev Bahodir Baxtiyorovich

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Sobirova Qunduz Alijonovna

Buxoro viloyati yuridik texnikumi

II-bosqich “Yuridik xizmat” soha mutaxassisligi

YuX 1/22-guruh o‘quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10207410>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati kafolatlarining mustahkamlanishi, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rni va ahamiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar shuningdek, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ushbu sohaning joriy va istiqboldagi ustuvor maqsadlari hamda asosiy vazifalari belgilab berilganligi to‘g‘risida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, davlat, jamiyat, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi.

THE NEW UZBEKISTAN CONSTITUTION IS THE MAIN FACTOR OF CIVIL SOCIETY DEVELOPMENT

Abstract. In this article, the Constitution of the Republic of Uzbekistan strengthens the guarantees of civil society institutions, reforms aimed at increasing the role and importance of civil society institutions in our country, as well as the current and future priority goals of this sector in the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026. and it is stated that the main tasks have been defined.

Key words: Constitution, state, society, civil society, public control, Action strategy, Development strategy.

НОВАЯ КОНСТИТУЦИЯ УЗБЕКИСТАНА – ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. В данной статье Конституция Республики Узбекистан усиливает гарантии институтов гражданского общества, реформы, направленные на повышение роли и значения институтов гражданского общества в нашей стране, а также текущие и будущие приоритетные цели этой сферы в нашей стране. стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы и заявлено, что основные задачи определены.

Ключевые слова: Конституция, государство, общество, гражданское общество, общественный контроль, Стратегия действий, Стратегия развития.

“Yangilangan Konstitutsiyamizda muhrlangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirish kelgusi faoliyatimizning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi”²⁴⁵.

Bu haqda so‘z yuritganda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hayotimizning boshqa muhim sohalari va ustuvor yo‘nalishlari qatori faol fuqarolik jamiyatini

²⁴⁵ Qarang. <https://parliament.gov.uz> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi.

shakllantirish, jamoatchilik nazorati institutini yanada rivojlantirishga oid normalar ham kiritilganini ta'kidlash lozim. Bundan ko'zlangan maqsad, shubhasiz, mamlakatimizda ochiqlik siyosatini davom ettirishdir.

Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat quramiz, deb qayd etdi davlatimiz rahbari. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati kafolatlarining konstitutsiyaviy negizda belgilanishi timsolida ana shu mas'uliyatli jarayonlarda jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish uchun mustahkam huquqiy zamin hozirlandi.

Avvalo, Konstitutsiyamizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning XIII bobi "Fuqarolik jamiyati institutlari", deb nomlandi.

Yangilangan Konstitutsiya timsolida milliy qonunchiligimizda birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlarining tarkibi ochib berildi. Ushbu institutlar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlandi.

Asosiy qonunimizning 69-moddasiga ko'ra: "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi"²⁴⁶.

Konstitutsiyaning eski matnida "jamoat birlashmalari" tushunchasiga berilgan ta'rif yanada aniqlashtirildi. Bosh qomusimizning 70-moddasi jamoat birlashmalari faoliyatini kafolatlovchi norma bilan to'ldirildi.

Endilikda ushbu konstitutsiyaviy moddaga binoan: "O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi".

Davlat zimmasiga fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq muayyan majburiyatlar yuklandi. Konstitutsiyaning 72-moddasi birinchi bandiga muvofiq: "Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi".

Shu bilan birga, davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashmasligi, demakki davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bir-biridan mustaqil ravishda faoliyat olib borishi kafolatlab qo'yildi.

Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizning 72-moddasi ikkinchi bandiga asosan: "Davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi".

Bundan tashqari, Asosiy qonunda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash masalasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari qatoridan joy oldi. Konstitutsiyaning 115-moddasi

²⁴⁶ O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

oltinchi bandiga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi: "fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta'minlaydi".

Konstitutsiyaning 36-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi.

Shuni ham qayd etish joizki, Konstitutsiyaning 115-moddasi o'ninchi bandida hukumatning asosiy vakolatlaridan biri sifatida: "ijro hokimiyati organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatida korrupsiya ko'rinishlariga qarshi kurashish" vazifasi belgilangan. Bu, o'z navbatida, ayni jarayonlarda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik nazorati olib borilishini ham nazarda tutadi.

Bularning barchasi shu yil 13-15 mart kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Folker Tyurkning: **"Islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyatining to'laqonli ishtirokini ta'minlash uchun davlat muassasalari kerakli shart-sharoit yaratishi kerak"**, degan tavsiyasiga aynan o'rindir.

BMT Oliy komissari tashrifi davomida fuqarolik jamiyati faollari bilan muloqotlarga alohida e'tibor qaratgani bejiz emas. Chunki F.Tyurk ushbu yuksak lavozimga saylanishi bilan mazkur BMT Boshqarmasida taraqqiyotning yangi strategiyasi, ya'ni fuqarolik jamiyati bilan davlat o'rtasidagi sheriklikni kuchaytirish maqsadi belgilab olindi.

Bunday yondashuv O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan izchil siyosatga uyg'un va hamohang. Folker Tyurkning: **"kuchli fuqarolik jamiyati muhim murvat sifatida inson huquqlari g'ildiragining harakatini ta'minlaydi. Nodavlat tashkilotlar tashqi aralashuvsiz faoliyat yurita olishi suv bilan havodek zarur"**, degan fikrlari O'zbekistonda to'la qo'llab-quvvatlangani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Biz uchun Vatan ramzi bo'lgan mahalla tizimini barcha islohotlarimizda markaziy va hal qiluvchi bo'g'inga aylantiramiz, dedi O'zbekiston Prezidenti o'zining inauguratsiya nutqida. Binobarin, mahallalar, ya'ni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham fuqarolik jamiyati institutlari sirasiga mansub.

So'nggi yillarda el-yurtimiz hayotining barcha soha va yo'nalishlari bo'yicha "mahallabay" ishlash tizimi keng joriy etilib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat ta'sirchan tuzilma faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari o'rni va ahamiyatini oshirishga qaratilgan bu kabi ezgu amallar zamirida Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu tizimni yanada taraqqiy ettirish, xususan, baxtli va osoyishta, obod va farovon, to'kis va munosib hayot kechirishimizga bog'liq barcha masalalar yechimini xalq ovozi bo'lgan mahalla darajasiga tushirishga oid tashabbusi mujassam. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, **"Yangi O'zbekistonni barpo etishda biz uchun eng muhim va asosiy poydevor bu – xalq ovozi, xalq fikri ustuvor bo'lgan mahalladir"**.

Shu ma'noda, yangilangan Konstitutsiyamizning 127-moddasi ikkinchi bandida: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi

hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli", degan normalar mustahkamlangani juda muhim.

Bunda, bir tomondan, mahalla tizimining davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi qat'iy belgilangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahallalarning qonunga muvofiq va mustaqil faoliyat olib borishi kafolatlangan.

O'z navbatida, Asosiy qonunimizning 127-moddasi uchinchi bandida davlatning mahallalar faoliyati uchun mas'ul ekani ta'kidlangan. Ya'ni: "Davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashadi".

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda bunday kafolatlarining belgilanishi mahallalarga:

birinchidan, o'z hududini mustaqil boshqarish;

ikkinchidan, aholi manfaatlaridan kelib chiqib davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etib borish;

uchinchidan, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish;

to'rtinchidan, samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

beshinchidan, aholi farovonligini ta'minlash borasida muhim imkoniyatlarni taqdim etadi.

Mazkur yangi konstitutsiyaviy normalar fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatimiz hayotidagi rolini yanada oshirish bundan buyon ham e'tibor markazida bo'lishidan dalolat beradi. Bu bejiz emas. Chunki mahallalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mamlakatimiz hayotining barcha sohalaridagi qamrovdor islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishda beqiyos o'rin tutadi.

Bu haqda fikr yuritganda, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatadigan huquqiy makonni kengaytirish maqsadida, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablaridan kelib chiqib, 2018 yil 12 aprelda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun qabul qilinganini qayd etish lozim. Ayni yo'nalishda, shuningdek, bir qator qonunlar yangi davr talablari asosida takomillashtirildi, Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi hamda ijroga qaratildi.

O'z navbatida, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ushbu sohaning joriy va istiqboldagi ustuvor maqsadlari hamda asosiy vazifalari belgilab berildi. Bunda, avvalambor, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 1-maqsadi "Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish"²⁴⁷, deb nomlanganiga e'tibor qaratish zarur.

Taraqqiyot strategiyasining 4-maqsadi "Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini «fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish» tamoyili asosida transformatsiya qilish" deb nomlangan. Unda, xususan, davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng

²⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son

jamoatchilikni jalb qilish; vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo‘nalishlarini “Davlat – xalq xizmatchisi” tamoyili asosida fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish vazifalari belgilangan.

Eng asosiysi, Taraqqiyot strategiyasining “Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” deb nomlangan 12-maqсадida bu boradagi bevosita muhim bir qator vazifalar nazarda tutilgan. Jumladan, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish uchun, xususan, Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda hududiy, tarmoq va davlat dasturlari loyihalarini ochiq e’lon qilib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yilayotgani ahamiyatlidir.

Bugungi kunda jamoatchilik nazoratining qonuniy asoslari yanada mustahkamlanmoqda. Shu asosda jamoatchilik nazoratining samarali va ta’sirchan shakllari, ularni amalga oshirish mexanizmlari izchil joriy etilayotgani juda muhim. Zero, O‘zbekiston Prezidenti ta’biri bilan aytganda, **“jamoatchilik nazorati bu — faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir”**.

Ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlar kasbiy faoliyatining himoyasi ham izchil kuchaytirilmoqda. Bu maqsadga erish uchun, birinchi navbatda, fuqarolarni qiynayotgan muammolar hamda islohotlarning samaradorligini o‘rganishda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish tartibi joriy qilinayotgani e’tiborlidir.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga noqonuniy aralashganlik va to‘sqinlik qilganlik, jumladan, mansabdor shaxslar tomonidan senzura o‘rnatish, tahririyat xodimlariga bosim va tazyiq o‘tkazish, materiallar va texnik vositalarni ulardan g‘ayriqonuniy ravishda olib qo‘yish harakatlari sodir etilgani uchun javobgarlikni yanada kuchaytirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Taraqqiyot strategiyasining 89-maqсadi “Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash” deb atalgani katta ahamiyatga ega. Ayni vaqtda Taraqqiyot strategiyasi ko‘zda tutilgan eng muhim vazifalar qatorida Axborot kodeksi loyahasini takomillashtirish ustida qizg‘in ish bormoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bularning barchasi, shubhasiz, fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatimizni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish hamda jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki va ta’sirchan rolini oshiradi. Binobarin, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yanada ochiqqligini ta’minlash, boshqaruv qarorlari qabul qilinishini sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarishda aynan fuqarolik jamiyati institutlari beqiyos ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi 223-XII-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son;
3. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi 337-I-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son;

4. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-son Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
5. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘RQ-474-son Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
6. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-699-son Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son;
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son;

Internet saytlari

8. www.parliament.gov.uz
9. www.lex.uz
10. www.norma.uz
11. www.huquqiportal.uz

SPEAKING SKILL AND ITS IMPROVEMENT

Bo'riyeva Nilufar Anvar qizi

O'zbekiston davlat tillari universiteti 5-bosqich talabasi

Anvarova Maftuna Murodjon qizi

Guliston davlat universitetining 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10207429>

Abstract. *To provide pupils some methods to enhance their speaking skills.*

Key words: *Speaking success, small texts, new words and making sentences.*

РАЗГОВОРНЫЙ НАВЫК И ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ

Аннотация. *Предоставить учащимся некоторые методы для улучшения их разговорных навыков.*

Ключевые слова: *успех в устной речи, небольшие тексты, новые слова и составление предложений.*

The field of education is very comprehensive, and the focus on teaching foreign languages is increasing year by year. Today, the requirement of a foreign language certificate when applying to universities has motivated students to study English, Uzbek, Turkish, German, French and other languages thoroughly.

When we talk about the English language, first of all, the teacher tries to use different methods to make it simple and understandable for young learners of this language. Unfortunately, the teaching method may not be suitable for all students.

While it is a good thing that our young students can quickly learn grammatical topics, we are saddened by the fact that their speech is very slow, and in some cases they cannot speak at all. In today's article, we will consider several methods for students to speak faster and more fluently.

Working with small texts.

We should never give new learners a large text and tell them to memorize it. The reason is that the reader finds it difficult and thinks that I can't do it. This in turn causes mental depression. Doesn't want to teach and most of the time comes to the conclusion that I should stop learning the language. In order to effectively deal with such situations, the teacher should give students an opportunity to memorize a small text in each lesson. For example, if the student's level is beginner, the following text will suit them:

My name is Nozima and I am 10 years old. I like to read books. My favorite pet is a cat. I play with it every day.

As you can see, the text is very simple and consists of only 4 or 5 sentences. It is in this way that we can keep students interested in the language.

Praise the learner.

Every person is individual and everyone's world is different. Some people learn faster, while others learn more slowly. In both cases, we should use the student and give him a compliment. It's important to say that instead of saying that you don't speak enough, say that word wrong, you didn't prepare well, I'm very happy, you're doing great, and I believe you can speak even better. Every student expects attention from the teacher. We must not forget that

Make sentences with new words.

Unfortunately, another mistake many teachers make is to tell students to memorize new words. A modern pedagogue explains how to use dictionaries and says that more attention should be paid to sentences than to words. It is wrong to give just words to learn, instead of it we should encourage pupils to make sentences. For example, if we have the word "BENEFICAL" we can say our people "Learning English is really beneficial" and then pupils will be aware of its meaning, structure.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASINING TERMINOLOGIYA TIZIMI: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Pardayeva Nasiba Boyqobulovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10207469>

Annotatsiya. Maqola axborot texnologiyalari sohasidagi terminologiya tizimining shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi asosiy tushunchalarni takomillashtiradi. Ushbu maqola axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar, talabalarga, va soha bilan shug'ullanuvchi insonlarga axborot texnologiyalari sohasidagi terminologiya tizimining tushunchalarini oshirishda yordam bera oladi.

Kalit so'zlar: Terminologiya Tizimi, shakllanishi, so'zlar va tushunchalarning kelib chiqishini ifodalaydi, axborot texnologiyalari sohasidagi terminologiya tizimining so'nggi yillarda o'zgarishi va rivojlanishi.

TERMINOLOGY SYSTEM OF THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGY: DISTINCTIVE FEATURES OF ITS FORMATION AND DEVELOPMENT

Abstract. The article synthesizes key concepts regarding the formation and development of the terminology system in the field of information technology. This article serves as a comprehensive resource for specialists, students, and individuals engaged in the information technology sector, providing insights into enhancing their understanding of the terminology system in the field of information technology.

Keywords: The terminology system articulates the formation, expressing the emergence of words and concepts, illustrating the evolution and development of the terminology system in the field of information technology in recent years.

СИСТЕМА ТЕРМИНОЛОГИИ ОТРАСЛИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: ОСОБЕННОСТИ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье уточняются основные понятия об особенностях становления и развития системы терминологии в области информационных технологий. Эта статья может помочь профессионалам в области информационных технологий, студентам и людям, работающим в этой области, улучшить понимание терминологии системы в области информационных технологий.

Ключевые слова: система терминологии, формирование, представляет собой происхождение слов и понятий, изменение и развитие системы терминологии в области информационных технологий в последние годы.

Har qanday tilda lug'at darajasida ikki xil lug'at mavjud: umumiy va maxsus. Umumiy so'z boyligi odatda tushunish, takrorlash va boshqa tilga tarjima qilish oson bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Biroq, maxsus lug'atning leksik birliklari juda o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, maxsus bilim sohalaridan ma'lum tushunchalarni ifodalaydi. Bunday leksemashakllar qaysi sohaga tegishli ekanligini bilmaydigan o'quvchi uchun qiyin bo'lishi mumkin. Ko'p ishlatiladigan lug'atning leksik vositalari odatda "so'zlar", maxsuslari esa "terminlar" deb ataladi. Ayni paytda "so'z" va "termin" tushunchalari o'rtasidagi farq hali ham tilshunoslar tomonidan muhokama qilinmoqda. Atama va so'zning turli xil ta'riflari mavjud.

S.V. Grinev-Grinevich terminologik va ko'p ishlatiladigan lug'at o'rtasidagi chegara beqaror va tarixiy emas, balki funktsional xususiyatga ega ekanligini va atamalarni keng tarqalgan ishlatiladigan so'zlarga aylantirish jarayonini ham, tushunchalarni shakllantirishda kundalik lug'atdan foydalanishni ta'kidlaydi. g'oyalar asosida doimiy ravishda yuzaga keladi [57, Bilan. 23]. Tilshunos atamani keng tarqalgan so'zdan ajratib turadigan quyidagi xususiyatlarni aniqlaydi:

- foydalanishning o'ziga xosligi (professional foydalanish, maxsus foydalanish sohasi);
- tarkibning aniqligi (aniqlik, cheklangan ma'no muddat);
- ta'rif (ta'rifning mavjudligi);
- aloqadan mustaqillik;
- noaniqlik;
- stilistik betaraflik;
- an'anaviylik (tashqi ko'rinishning maqsadli tabiati);
- nominativlik.

V.P. Danilenko o'zining "Rus terminologiyasi: lingvistik tavsif tajribasi" asarida bu atamani "ilmiy yoki sanoat-texnologik tushunchaning nomi bo'lgan va ta'rifni talab qiladigan maxsus foydalanish sohasining so'zi (yoki iborasi)" deb tushunadi. , p. 15].

"Katta entsiklopedik lug'at" "so'z" tushunchasiga quyidagi ta'rifni beradi: "ob'ektlar va ularning xususiyatlarini, hodisalarini, voqelik munosabatlarini nomlash uchun ishlatiladigan, semantik, fonetik va grammatik ma'lumotlar to'plamiga ega bo'lgan tilning asosiy tarkibiy va semantik birligi. har bir tilga xos xususiyatlar". "So'z" ning xarakterli xususiyatlariga nutqning yaxlitligi, o'ziga xosligi va erkin takrorlanishi kiradi. Bu atamaning ta'rifini ham beradi: "(lotincha terminus - chegara, chegara) maxsus bilim yoki faoliyat sohasi tushunchasini bildiruvchi so'z yoki ibora." Termin tilning umumiy leksik tizimiga kiradi, lekin faqat ma'lum bir terminologik tizim (terminologiya) orqali. Termining quyidagi xususiyatlari ta'kidlangan:

- izchillik;
- ta'rifning mavjudligi (ko'p atamalar uchun);
- uning terminologik sohasi doirasida monosemiyaga moyillik, ya'ni. berilgan fan, fan yoki ilmiy maktab terminologiyasi;
- ifoda etishmasligi;
- stilistik betaraflik.

B.N. Golovin va R.Yu. Kobrin bu atamani kasbiy kontseptsiyani tashkil etuvchi va ifodalovchi va ijtimoiy ishlab chiqarishning kommunikativ jarayonlarida qo'llaniladigan so'z yoki bo'ysunuvchi ibora sifatida tushundi.

So'nggi bir necha o'n yilliklarda axborot texnologiyalari sohasi jadal rivojlandi va shuning uchun ushbu sohaning terminologik tizimi yangi atamalar bilan faol ravishda to'ldirildi.

Процессы воспитания и обучения – естественное и основополагающее стремление родителей, педагогов. Взрослые стараются дать детям самое лучшее, но критерием служит отнюдь не внутренняя гармония и целостность личности ребёнка, а объём усвоенных знаний. В то время как современная медицина настаивает, что от 30 до 40% хронических заболеваний имеют психогенную основу. Для того чтобы найти корень проблемы, следует проанализировать насколько среднестатистический современный ребёнок далёк от нормы.

Итак, основные показатели психологического здоровья личности:

- Всестороннее принятие самого себя, т.е. позитивный образ «Я»;
- Рефлексия – как одно из средств самопознания;
- Стремление к самоизменению, саморазвитию, самореализации.

Результаты современных исследований напрямую свидетельствуют о взаимосвязи нарушений психологического здоровья с успешностью детей в учёбе. Выраженное повышение тревожности является одним из таких нарушений психического здоровья,

способных в последствии привести к снижению произвольного внимания. Внутреннее напряжение, проявление которого обуславливает повышенную двигательную активность и защитную агрессию может привести к нарушению дисциплины. Страхи влекут за собой перманентное напряжение и, как результат, снижение работоспособности, повышенную утомляемость. Деструктивная агрессия и социальные страхи проявляются у дошкольников в виде так называемой «боязни сцены», т.е. трудности при необходимости публичных ответов у доски, выступлений и самого процесса общения. Демонстративная агрессия провоцирует стереотипизацию поведения, направленного на получение негативного внимания [3, 102с].

Учитывая крайнюю значимость психологического здоровья детей, важно грамотно организовывать образовательный процесс и процесс общения с данной возрастной группой.

Развитие, прежде всего, характеризуется качественными изменениями, появлением новообразований, новых механизмов, новых процессов, новых структур. Х. Вернер, Л. С. Выготский и другие психологи описали основные признаки развития. Наиболее важные среди них: дифференциация, расчленение ранее бывшего единым элемента; появление новых сторон, новых элементов в самом развитии; перестройка связей между сторонами объекта. В качестве психологических примеров можно упомянуть дифференциацию натурального условного рефлекса на положение под грудью и комплекса оживления; появление знаковой функции в младенческом возрасте; изменение на протяжении детства системного и смыслового строения сознания. Каждый из этих процессов соответствует перечисленным критериям развития. Как показал Л. С. Выготский, существует много различных типов развития. Поэтому важно правильно найти то место, которое среди них занимает психическое развитие ребенка, то есть определить специфику психического развития среди других процессов развития. Л. С. Выготский различал: реформированный и unreformированный типы развития. Преформированный тип -- это такой тип, когда в самом начале заданы, закреплены, зафиксированы как те стадии, которые явление (организм) пройдет, так и тот конечный результат, который явление достигнет. Здесь все дано с самого начала. Пример -- эмбриональное развитие. Несмотря на то, что эмбриогенез имеет свою историю (наблюдается тенденция к сокращению нижележащих стадий, самая новая стадия оказывает влияние на предшествующие стадии), но это не меняет типа развития. В психологии была попытка представить психическое развитие по принципу эмбрионального развития. Это концепция Ст. Холла. В ее основе лежит биогенетический закон Геккеля: онтогенез есть краткое повторение филогенеза. Психическое развитие рассматривалось Ст. Холлом как краткое повторение стадий психического развития животных и предков современного человека.[1, 15]

Итак, **проблемы с психологическим здоровьем дошкольников:** *повышенная тревожность, страхи, повышенная напряжённость, агрессивность, неуверенность, двигательная расторможенность, замкнутость, нарушения в общении и т. д.* Важно отличать патологический страх от нормального функционально значимого, чтобы не нарушить естественные адаптационные процессы в развитии ребёнка.

Основы психологического здоровья ребёнка безусловно закладываются в семье. Уникальный первичный социум даёт детям ощущение защищённости, «эмоционального тыла», поддержки, безоценочного восприятия. Изучением семейного института, или

института эмоциональных отношений, активно занимались: Т.А. Маркова, О.Л. Зверева, Е.П. Арнаутова, В.П. Дуброва, И.В. Лапицкая и др. Ожидания ребёнка-дошкольника, связанные с семьёй это, прежде всего, безусловная, безоговорочная любовь матери, отца, бабушки, дедушки, сестёр и братьев. Ребёнок любим не за хорошее поведение или отметки, не за внешность или качества характера, а таким каков он есть со всеми положительными и отрицательными проявлениями личности. [2]

Семья по определению является источником общественного опыта, здесь есть примеры для подражания, и собственное становление и социальное рождение ребёнка также происходит здесь. Отсюда следует, что основной целью педагогов дошкольного учреждения является профессиональная помощь семье в вопросах воспитания:

- развитие интересов и потребностей ребенка;
- распределение обязанностей и ответственности между родителями в постоянно меняющихся ситуациях воспитания детей;
- поддержка открытости во взаимоотношениях между разными поколениями в семье;
- выработка образа жизни семьи, формирование семейных традиций;
- понимание и принятие индивидуальности ребенка, доверие и уважение к нему как к уникальной личности [4, 59с].

Социальная ситуация развития детей дошкольного возраста сопряжена с постепенным отделением от родителей и расширением его круга общения. Ребёнок знакомится с нормами и правилами неведомого ему «взрослого» мира, посещает магазины, всевозможные развивающие центры, в том числе танцевальные студии. Мир взрослых людей становится так называемой идеальной формой, определяющей стремление и развитие. Согласно утверждениям Л.С. Выготского, идеальная форма – часть объективной действительности (более высокая, чем уровень, на котором находится ребенок), с которой он вступает в непосредственное взаимодействие; сфера, в которую ребенок пытается войти.

Изучением данного вопроса активно занимался Д.Б. Эльконин, согласно его утверждениям, взрослый человек для дошкольника является прежде всего носителем общественных функций, своего рода ориентиром в системе отношений. Главным противоречием этого периода Д.Б. Эльконин выделял опосредованное общение ребёнка с миром, то есть через взрослого, при наличии острой необходимости быть частью социума.

Объединяя вышеприведённые утверждения можно сделать вывод: ребёнок не способен полноправно участвовать в жизни социума. Однако, благодаря игре у детей есть возможность смоделировать мир взрослых, войти в него и примерить на себя интересующие роли, поэтому процесс обучения на данном этапе тесно сопряжён с игровой деятельностью.

Вывод. Цель самоприсутствия заключается в демонстрации профессиональной компетентности, включая власть удерживать предмет общения, регулирование и направление общения другого человека на решение его задач.

Важнейшим моментом, присутствующим в рождении высказываний, в говорении является тот, когда человек говорит и сталкивается с собственным сознанием. Педагог знает, как важно ученикам проговаривать (осознавать) переживаемое. При этом должно присутствовать проговаривание значимых, а не пустых слов. В последнем случае часто появляются фиксированные, навязчивые формы переживания.

REFERENCES

1. Обухова Л.Ф. Возрастная психология. –М.:Россия , 2011 , 15с.
2. Божович Л.И. Личность и ее развитие в детском возрасте. - М., 1968.
3. Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. - М., 1989. 102с.
4. Хрестоматия по детской психологии / Под ред. Г.В. Бурменской. - М., 2003. 59с.
5. Rustamhojaevna K. K., Yusupbayevna T. Z. ELECTRONIC AND DISTANCE LEARNING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION //International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 01. – С. 14-18.
6. Yusupbayevna T. Z. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF AN INTEGRATED APPROACH TO ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN EDUCATION //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2022. – Т. 8. – №. 6. – С. 26-29.
7. Yusupbaevna T. Z. SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL BASES OF THE INTEGRATED APPROACH IN THE EDUCATIONAL SYSTEM OF FOREIGN COUNTRIES DEVELOPED IN THE GLOBAL ENVIRONMENT //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 4. – С. 150-153.
8. Yusupbayevna T. Z. FORMATION OF NEW PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL THINKING AMONG STUDENTS BASED ON AN INTEGRATED APPROACH //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
9. Yusupbaevna Z. T. Integrative approach to the system of higher education of foreign countries, economically developed in the Republic of Uzbekistan //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 82-87.
10. Turumbetova Z. Integrative approach to the system of higher education of foreign countries, economically developed in the Republic of Uzbekistan.

MEN AND WOMEN SPEECH PECULARITIES AND EXCEPTIONS

Burxonov Baxodirjon Botirali o'g'li

teacher of Andizhan state university

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10231560>

Abstract. This article examines and discusses gender differences in language using the author's recorded conversations. The dissertation will begin with a detailed explanation of the research context in this area. He then proceeds to analyze the data, looking at the comparisons that can be made between the study here and previous studies in the field. It will also include a discussion of relevant issues arising from the analysis of this research.

Key words: gender role, speech, conversation, intervention, comparison process.

ОСОБЕННОСТИ И ИСКЛЮЧЕНИЯ РЕЧИ МУЖЧИН И ЖЕНЩИН

Аннотация. В данной статье рассматриваются и обсуждаются гендерные различия в языке с использованием записей разговоров автора. Диссертация начнется с подробного объяснения контекста исследований в этой области. Затем он приступает к анализу данных, рассматривая сравнения, которые можно провести между данным исследованием и предыдущими исследованиями в этой области. Он также будет включать обсуждение актуальных вопросов, возникающих в результате анализа данного исследования.

Ключевые слова: гендерная роль, речь, беседа, вмешательство, процесс сравнения.

Introduction

For the study of gender and speech, conversations are recorded so that they can be translated and analyzed to provide data for discussing these issues. A key difference in the language of women and men is that men have shown to dominate conversation through the use of pauses and overlaps, and that the number of these irregularities of conversation increases significantly when men speak. There is clearly a difference in the amount of interventions men and women use, with men being more likely to intervene and less likely to do so. Considering the size of the study and the way in which one participant differs significantly from the other, it cannot be said that this is due to gender differences, and it was interfered with the fact that the participants differed only from each other, not men, reluctance to participate. The female part interrupts men, and men pick up women more often than men.

Research methodology

The traditional view of differences between men and women is the use of offensive words and ugly language. This is explained by the prevalence of expressions such as "feminine" behavior or "a gentleman's curse", which indicates the belief that cursing is a purely masculine habit. Many claims have been made about the speaking styles of women and men in this field. Jespersen argues that women are inherently flawed in their vulgar and vulgar expressions and prefer to express themselves secretly and indirectly. (in some areas) Flexner states that "more American dialects are made and used by men".

Discussion

Lakoff also argued that while men call each other names more loudly, women use more polite language such as "shit" and "oh god". Lakoff highlighted the use of the "question mark" as an illustration of this. It states that women use more marked questions than men. Fewer answers

to these questions will give you more confidence. Recent studies have shown that tag issues are more often associated with female language (Siegler and Siegler), which illustrates people's attitudes towards women and their insecurity.

However, the study for this test found very different results, with men using the labels more often than women. Interestingly, none of the problems classified, which were considered more common due to excessive use of pauses, were addressed. Perhaps this is important because the more aggressive speech style used can also make it more confident in its speech. However, it cannot be said to be gender related as he uses mostly group-tagged questions.

Another form of language that has been identified as questionable speech is the use of closures, such as gender, type, etc. Lakoff described them as an element of female language that makes their language less direct. In this study, it was found that the women who participated actually used fences more often than men.

Results

This study seeks to explore differences between women's and men's language. And although the overall picture from a small study group cannot be summarized, it indicates that speech patterns vary greatly in some areas. Determining whether it is similar or just a difference in speech style requires further research. But in this group: the two men were the most interrupted and the two women the most interrupted; a woman used the most active hearing aids and a man the least; a man spoke more and a woman spoke less; both women used different obstacles, which meant dubious speech; and the two men used more vulgar terms.

Conclusion

These basic facts show that there are and can be many factors influencing this investigation, such as nationality, length of relationship, length of tenure with the company, and at least the fact that the investigator is male. It seems that some research results from twenty to twenty years ago are still valid today. These results are remarkable considering how each actor grew up in a very different society twenty or thirty years ago. The concepts of gender equality and women's rights are not new, and the responses of the participants in this study demonstrate awareness and commitment to equality.

REFERENCE

1. Brown, P. (1980) "How and Why Are Women More Polite: Some Evidence from a Mayan Community." In Coates (ed.) (1998)
2. Cheshire, J. (1982) *Variation in an English Dialect: A Sociolinguistic Study*. Cambridge University Press.
3. Coates, J. (1986) *Women, Men and Language*. Longman.
4. Coates, J (ed.) (1998) *Language and Gender: A Reader*. Blackwell
5. Coates, J. & D. Cameron (eds.) (1989) *Women in Their Speech Communities*. Longman
6. Flexner, S. (1960) *Preface to the Dictionary of American Slang* Thomas Y.Cromwell: New York.
7. Goddard A. & L.M. Patterson (2000) *Language and Gender* The Eihosha LTD.
8. Holmes, J. (1992) *An Introduction to Sociolinguistics*. Longman.

AYRIM TURDAGI JINOYATLARDA GUVOH, GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHILARNI SO‘ROQ QILISH TAKTIKASI.

Usmonova Odina Habibovna

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi

o‘qituvchisi, 3-darajali yurist

E-pochta: odinahonusmonova47@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10231720>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayrim turdagi jinoyatlarni tergov qilish va fosh etishda muhim tergov harakatlaridan biri guvoh, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so‘roq qilishning ahamiyati hamda taktik jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jinoyatlarni ochish, tergov qilishda, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, so‘roq qilish, taktik uslublar, so‘roq qilish taktika.

TACTICS OF QUESTIONING WITNESSES, SUSPECTS AND ACCUSED IN CERTAIN TYPES OF CRIMES

Abstract. This article addresses the importance and tactical aspects of questioning witnesses, suspects and accused of investigating and solving certain types of crimes.

Key concepts: tactics of solving crimes, investigation, witness, suspect, accused, interrogation, tactical methods, interrogation.

ТАКТИКА ДОПРОСА СВИДЕТЕЛЕЙ, ПОДОЗРЕВАЕМЫХ И ОБВИНЯЕМЫХ ПО ОТДЕЛЬНЫМ ВИДАМ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о важности и тактических аспектах допроса свидетелей, подозреваемых и обвиняемых в расследовании и раскрытии отдельных видов преступлений.

Ключевые понятия: тактика раскрытия преступлений, расследования, свидетеля, подозреваемого, обвиняемого, допроса, тактических методов, допроса.

Ma’lumki, jinoyatlarni ochish va tergov qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tergov harakatlaridan biri so‘roq tergov harakatidir.

So‘roq o‘tkazishning qonuniy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksining 96-108-moddalarini²⁴⁸ orqali tartibga solindi. Ma’lumki, so‘roq qilinuvchi shaxslar ko‘rsatuvlarining shakllanishi murakkab jarayon bo‘lib, uning yuzaga kelishida his etish hamda mantiqiy fikrlashning turli shakllari ishtirok etadi. Shu bois so‘roq qilishda shaxsning ruhiy holatini va boshqa omillarni nazarda tutgan holda taktik uslublarni qo‘llab, jinoyatga oid tegishli ma’lumotlarni olish mumkin.

Tergovchining ko‘rsatuvlarni qanday hosil bo‘lishini, uning psixologik asoslarini bilishi taktik uslublarni to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi. Psixologik nuqtai nazardan, har qanday so‘roq protsessual qonun bilan tartibga solingan so‘roq qiluvchi va so‘roq qilinuvchi o‘rtasidagi o‘zaro axboriy ta’sir qilish shakli hisoblanadi.²⁴⁹ So‘roq jarayonida taktik uslublarni ishlab chiqish va qo‘llashda shaxslarning protsessual holatlarini e’tiborga olish talab qilinadi.

²⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>.

²⁴⁹ B.X.Po‘latov Davlat ayblovchisining sudda dalillarni tekshirishdagi ishtiroki. TDYUI. T.: 2004 yil.40-bet.

Tergovchi ishni o'z yurituviga olganda so'roq qilinuvchi shaxslar doirasini to'g'ri belgilab olishi maqsadga muvofiqdir.

Tabiiy muhit ifloslanishining guvohi bo'lgan guvohlardan yuz bergan hodisaning holatlari aniqlanadi. Tergovchi guvohdan ifloslanishni qachon, qaysi joyda, qanday holatlarda kuzatgan yoki uning belgilarini aniqlagan, ifloslangan joy nimadan iborat ekanligini, ifloslanishning xarakteri, darajasi, ko'lami qanday ekanligi xususidagi savollarga javob olishi kerak.

Sodir etilgan hodisa yuzasidan guvohning zararli moddalar qaysi yo'nalishda va qanday manbalardan tarqalganligi, aynan qaysi bir harakatlanuvchi manbadan tarqalganligi va ifloslantiruvchi moddalar kim tomonidan chiqarilganligi, ifloslanishga sabab bo'lgan korxonalar yoki tashkilot ishchi - xodimlari ifloslanishni to'xtatish, uning zararli oqibatlarining oldini olish yuzasidan qanday chora - tadbirlar ko'rgan yoki sodir etilgan jinoyat izlarini yashirishga uringanliklari to'g'risidagi ko'rsatuvlari muhim ahamiyatga ega.

Atrof muhit muhofazasi qoidalarini jinoiy buzilishini tergov qilishda guvoh sifatida asosan quyidagi shaxslar so'roq qilinishi mumkin; ifloslanishga shohid bo'lganlar; birinchi bo'lib ushbu faktni aniqlagan shaxslar; nazorat organlari ishchilari; korxonalar mansabdor shaxslari, oddiy ishchilari va boshqa shaxslar. Guvohlarni so'roq qilishdan asosiy maqsad quyidagi ma'lumotlarni yig'ish hisoblanadi: suv, havoning ifloslanish vaziyatlari va alomatlari haqida, shuningdek, tuproq va boshqalar; tabiiy obyektlar holatining yomonlashuvi (suv, havo sifatining pasayishi, foydalanishga yaroqsizlanishi); ifloslanish mexanizmi va sabablari haqida; sodir bo'lgan holat uchun javobgar shaxslar haqida; sodir bo'lgan vaziyatga sababchi bo'lgan ishlab chiqarish faoliyatidagi tashkiliy, texnik va boshqa xil kamchiliklar haqida.

Guvohlarni so'roq qilish taktikasi ular ega bo'lgan ma'lumotlarga bog'liq.

Ushbu sohada ish olib borgan olimlardan biri yu.f.d. T.Mirzayev o'zining "Ekologiyaga doir jinoyatlarni tergov qilish" nomli kitobida guvohlarni quyidagicha guruhlariga bo'lib ko'rsatadi:

1. Nazoratchi ishchilar, suv va baliq muhofazasi tashkilotlari, meteorologiya xizmati, gaz tozalagich va chang yutkich moslamalarini nazorat qiluvchi davlat inspeksiyasi.

2. Hokimlik, qishloq fuqarolar yig'inlari, tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, kasaba uyushma tashkilotlari.

3. Ifloslanish joyini yoki ifloslanishni sezib qolgani haqida ma'lumot bergan shaxslar.

4. Ifloslanish manbai hisoblangan obyekt yoki korxonalar ishchilari.

5. Ishlab chiqarish korxonalarining sanitariya - laboratoriya xodimlari.

6. Ifloslantiruvchi va tozalovchi inshootlarni loyihalashtirish va montaj qilish korxonalarini xodimlari.

7. Ifloslantirish manbai bo'lgan korxonalar ishini nazorat qiluvchi yuqori tashkilot xodimlari.²⁵⁰

Guvohlarni guruhlariga ajratib ko'rsatishda yuqorida aytilgan mazkur fikrga qo'shilish o'rinli bo'ladi deb o'ylaymiz.

Birinchi guruh guvohlarni so'roq qilishda tekshirilayotgan korxonalar vakillaridan kimlar ishtirok etganligi, mansabdor shaxslarga xulosalar haqida ma'lumot berilganda bu ularga qanday ta'sir qilganligi, ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan nima ishlar qilinganligini

²⁵⁰ Т.Р.Мирзаев Экологияга доир жиноятларни тергов қилиш. "Янги аср авлоди". Т.: 2001. 42-45-бет.

aniqlash zarur. So‘roq davomida tergovchi nazorat organlarining mansabdor shaxslari, mutaxassislaridan me‘yoriy hujjat ko‘rsatkichlarini aniqlashi zarur. Nazorat organlari ishchilarini so‘roq qilayotganda ularning boshqa nazorat organlari bilan hamkorligi qanday muvofiqlashtirilganligini va bu qanday amalga oshirilganligini aniqlashi lozim. Bu ko‘rsatkichlar nazorat organlarining ishi qay darajada ekanligi yuzasidan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ikkinchi guruh guvohlarni so‘roq qilish orqali tekshirilayotgan korxonalar yoki tashkilotlar tomonidan ifloslanishning oldini olish bo‘yicha qanday choralar ko‘rilgani, yig‘ilishlar o‘tkazilib, muhokama qilinaganmi, qachon va qaysi yig‘ilishda tavsiya va qarorlar qabul qilingani, bu holat qanday hujjatda aks ettirilgani, uning bajarilishi nazorat qilinganmi, korxonalar rahbarlari bu qarorga qanday munosabatda bo‘lganligi, qolaversa, ushbu korxonalar qurilishi va obyekt qabul qilinganda davlat qabuli haqidagi dalolatnomalar o‘rganilganmi, hokimlik faoliyatida o‘z aksini qanday topganligini tergovchi o‘rganishi kerak. Agar obyektida tozalovchi inshootlar qurilishi qay yo‘sinda qabul qilinganligi isbotlansa, tabiatni muhofaza qilish qonunlarining buzilish sabablarini aniqlash oson bo‘ladi.

Uchinchi guruh shaxs so‘roq qilinayotganda, ular ifloslanish jarayonini sezib qolgan yoki ko‘rib qolganligi sababli, ifloslanish vaqti hamda sharoitini, ular nimaga e‘tibor berishganligini, bundan oldin ham bunday ifloslanish holatlari bo‘lgan - bo‘lmaganligini, ushbu holat qachon ro‘y berganligini, bundan tashqari ob - havoning oqish tezligi, shamolning kuchi va yo‘nalishi, yog‘ingarchilik va boshqalarni aniqlash mumkin. Bu xususida biror tashkilotga xabar berilganmi - yo‘qmi aniqlanadi.

To‘rtinchi guruh shaxslar, ya‘ni ifloslanish manbai hisoblangan obyekt yoki korxonalar ishchilarini so‘roq qilish tergov qilinayotgan jinoyat ishini fosh etishda eng muhim ma‘lumotlarni olish uchun katta ahamiyat kasb etganligi, shu bilan birga sodir etilgan ishlarining natijasidan manfaatdor bo‘lganliklari tufayli so‘roq jarayonining bir muncha qiyinroq kechishini hisobga olib, so‘roqni maxsus tayyorgarlik ko‘rilgandan so‘ng o‘tkazish talab etiladi. Mazkur toifadagi guvohlarni so‘roq qilish ifloslanishga sabab bo‘luvchi mexanizmlar va shaxslar haqida kerakli ma‘lumotlarni olish imkonini beradi. Bunda tergovchi so‘roqqa qadar ushbu korxonaning texnik imkoniyatlari, texnik jarayoni, xodimlar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishi va bajarilishi kabilarni o‘rganib chiqishi lozim bo‘ladi.

Guvoh sifatida so‘roq qilishga jalb etilgan shaxslarni so‘roq qilishda ushbu shaxs vazifalarining xarakterini, ishni tashkil qilish uslublari, ish jarayonida u qanday sharoitlar va qay darajada mas‘uliyat bilan ishlashi, ish davomidagi kamchiliklari kabi holatlar xususida hamkasblaridan so‘rab, bilib olishi kerak.

Ishlab chiqarish korxonalarining sanitariya - laboratoriya xodimlarini so‘roq qilishda ulardan texnologik jarayonlarni nazorat qilish usullarini tashkil etishning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash lozim. Ularni so‘roq qilishda tergovchi tegishli hujjat bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Bu esa unga o‘sha hujjatdagi talablarning bajarilishi qanchalik to‘g‘ri ekanligini solishtirish yo‘li bilan aniqlash imkonini beradi. So‘roq qilinayotgan shaxslardan ish jarayoni qanday tashkil etilganligini, bu jarayon loyihaga to‘g‘ri keladimi, obyektlar hamda ulardagi mexanizmlar to‘g‘ri montaj qilinganmi, tozalash inshootlari talabga javob beradimi, ularning ish rejalari buzilmaganmi singari masalalarga aniqlik kiritish lozim.

Qoidaga ko‘ra, guvohlarni so‘roq qilish bevosita yuqorida qayd etib o‘tilgan tashkilotlardagi hujjatni olishgacha, olinayotganda yoki olinganidan so‘ng amalga oshiriladi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilish taktikasi ekologiya sohasidagi jinoyatning o'zi va tergovning boshlang'ich vaziyatiga bog'liq bo'ladi.

Barcha jinoyat ishlarida bo'lgani kabi mazkur turdagi jinoyat ishlarini yuritishda ham gumon qilinuvchi hamda ayblanuvchilarni so'roq qilishda ularning protsessual holati va so'roq qilish taktikasining umumiy qoidalaridan kelib chiqish lozim.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilish samaradorligini ta'minlash uchun sodir etilgan jinoyat ishi yuzasidan ishonchli dalillar yig'ilgan bo'lishi kerak. Ularni so'roq qilish taktikasi so'roq qilinuvchini o'z aybini inkor etish bema'nilik ekanligiga ishontiradigan ma'lumotlarning mantiqiy tahliliga asoslangan bo'lishi darkor. Aksariyat holatlarda, mazkur turdagi jinoyatlar bo'yicha ayblanuvchilar o'z ayblarini boshqa shaxslarga, ya'ni o'z bo'ysinuvdakilarga ag'darishga moyil bo'ladilar yoki tajribalari yetishmagani, me'yoriy hujjat talablarini buzish xavfliligini bilmaganliklarini bahona qilib ko'rsatadilar. Ba'zida ular o'z ayblarini tan olib uni yumshatishga urinadilar, zararli oqibatlarini inkor etadilar yoki arziyas deb hisoblaydilar, ba'zan ishlab chiqarish manfaatlari yoki ishni yuritish uchun shunday qilganliklarini, yuqori lavozimdagi shaxs ko'rsatmasi ekanligini ro'kach qiladilar.

Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi qilmishi va kelib chiqqan ekologik zararli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni belgilashga doir tergov ishi qiyinchilik tug'diradi, buning uchun quyidagi holatlarni aniqlamoq lozim: atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq ishlarda: gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi kim bo'lib ishlashi; ishining xarakteri; ish staji; konkret tabiatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilish uning majburiyatlariga kiradimi; ifloslanish boshlanish vaqtida (sanasida) ish joyida bo'lganmi; uning yonida kim bo'lgan; uning fikriga ko'ra jinoyatni kim sodir etgan bo'lishi mumkin; uning o'zi bevosita bo'ysunuvchi va unga bo'ysunuvchi ishchilar doirasi; uni aybdor sifatida ko'rsatishdan kim manfaatdor bo'lishi mumkin, tabiiy obyektlarni qonunga xilof egallash, zarar yetkazish yoki nobud qilishga doir ishlarda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining muayyan joyda muayyan vaqtda (noqonuniy ravishda daraxt kesish bo'layotgan uchastkada, qo'riqxonada hududida) bo'lganlik faktini belgilashga imkon beruvchi holatlarni aniqlash, jinoyat sodir etish vaqtida voqea joyida yoki gumon qilinuvchi yonida hozir bo'lgan ehtimoliy guvohlar (baliqchilar, o'rmon himoyasi ishchilari va boshqalar)ni aniqlash. Ular gumonlanuvchining alibisini tasdiqlashlari yoki rad etishlari mumkin. Gumon qilinuvchining jinoiy faoliyatini olib borish usullaridan dalolat beruvchi holatlar aniqlanadi (masalan, daraxtlarni sotish, baliq sotish, baliq uvildirig'ini sotish, hayvonlardan olingan terilarni sotish va boshqalar).

Tergovchi ayblanuvchini so'roq qilayotganda uning shaxsi, kasbiy staji, zararli chiqindilarni qayerga va qancha tashlashga oid ko'rsatma berishda nimalarga asoslanganligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Ushbu ish bo'yicha ayblanuvchi ko'rsatuvini ekspertiza xulosasi va boshqa ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rishi zarur.

Ayblanuvchini so'roq qilish jarayonida jinoiy qilmishni sodir etish sabablari va sharoitlarini belgilashga alohida ahamiyat berish kerak: bu ishlab chiqarishni tashkil etishda va faoliyat ko'rsatishidagi kamchiliklar, tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishda ayrim mansabdor shaxslarning bee'tiborligi, tozalash inshootlari ishi yuzasidan nazoratning yo'qligi, texnik vositalar va transport bilan yomon ta'minlanganligi, ba'zi bir ishlab chiqarish jarayonlarida hisob ishlarini yuritish, chiqindilar saqlash, ularni hisobga olib borish va

boshqalar talabga javob bermaydi. Ushbu holatlar yuzasidan tergovchi mutaxassislar yordamida xuddi shunday jinoiy harakatlarning oldini olish choralari ko‘rishga majbur.

Fikrlarimiz yakunida aytish lozimki, aynan o‘tkazilgan so‘roq natijalariga ko‘ra boshqa tergov va tezkor-qidiruv harakatlari rejalashtiriladi hamda odil sudlovni ta‘minlash choralari ko‘riladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>
4. Mirzaev T. "Ekologiyaga doir jinoyat ishlarini tergov qilish". T, -"Yangi asr avlodi" 2001- y. 42-45-betlar.
5. B.X.Po‘latov Davlat ayblovcisining sudda dalillarni tekshirishdagi ishtiroki. TDYUI. T.: 2004 yil.40-bet.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ISHTIROKI

Kenjayev Umidjon Tavakkal o'g'li

Buxoro viloyati yuridik texnikumi

II-bosqich "Sud-huquqiy faoliyat" soha mutaxassisligi

SHF 1/22-guruh o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10232075>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ishtiroki shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishining asosiy usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, nodavlat notijorat tashkilot, fuqarolik jamiyati, halollik vaksinasi, manfaatlar to'qnashuvi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, plyuralizm, deklaratsiya, jamoatchilik nazorati.

IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION PARTICIPATION OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS

Abstract. This article talks about the participation of non-governmental non-profit organizations and other institutions of civil society in the fight against corruption in our country, as well as the main methods of participation of citizens' self-government bodies, non-governmental non-profit organizations in the fight against corruption.

Key words: Corruption, non-governmental non-profit organization, civil society, honesty vaccine, conflict of interests, legal consciousness, legal culture, pluralism, declaration, public control.

В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ УЧАСТИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. В данной статье говорится об участии негосударственных некоммерческих организаций и иных институтов гражданского общества в борьбе с коррупцией в нашей стране, а также об основных способах участия органов самоуправления граждан, негосударственных некоммерческие организации в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: Коррупция, негосударственная некоммерческая организация, гражданское общество, вакцина честности, конфликт интересов, правосознание, правовая культура, плюрализм, декларация, общественный контроль.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish yuzasidan tizimli chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimi yaratildi. Mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirishda milliy qonunlarga xalqaro huquqiy umume'tirof etilgan normalarni singdirish masalasiga alohida e'tibor berildi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizdagi yuksalishlarga jiddiy to'siq bu korrupsiya balosi ekanligini qayd etish zarur. Davlat va jamiyat boshqaruvini yanada demokratlashtirish hamda modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvi sohalarini liberallashtirish sharoitida davlat xizmatchilari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeini suiiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishi davlat hokimiyatining obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur etishiga, natijada, davlat hokimiyati faoliyati samaradorligining susayishiga sabab bo'ladi. Shu bois, ushbu illatga qarshi kurashish va barham berish siyosati davlat va jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat organlari tomonidan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash kabi chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: **“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak”**, deb haqli ravishda ta'kidlaydi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, korrupsiya muammosi so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzu hisoblanadi. Ayrim siyosatchilar tomonidan korrupsiyaga global inqirozni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ham ta'rif beriladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning ayrimlari korrupsiya balosiga o'z vaqtida muvaffaqiyatli kurashib, ijobiy natijalarni qo'lga kiritishgan.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvor vazifa etib belgilandi. Xususan, Taraqqiyot strategiyasida davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish (4-maqсад), korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish (84-maqсад) nazarda tutildi.

Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasida davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish belgilangan bo'lib, unga ko'ra, davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi. Shuningdek, davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish (83-maqсад) kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi²⁵¹.

²⁵¹ Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.

Qonunchilikda davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish yoʻnalishida xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirishga alohida eʼtibor qaratayotgani quvonarli hol. Bundan tashqari, davlat organlari va boshqa tashkilotlar oʻz mansabdor shaxslari va xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar koʻrishi majburiy etib belgilangan.

Jamiyat, jumladan, fuqarolik jamiyati murakkab turli tuzilmalar va fuqarolarning birikmasidan iborat. Unda davlat, uning organlari bilan birga, boshqa tuzilmalar ham faoliyat koʻrsatadi. Bu tuzilmalar oʻz xarakteri, vazifasiga qarab alohida yoʻnalishlar boʻyicha davlat huquqiy, konstitutsiyaviy, ijtimoiy-siyosiy masalalarda faoliyat koʻrsatadi. Ular huquqiy, ilmiy manbalarda “institutlar” deb ataladi.

Yuridik ensiklopediyada: institut – huquqiy yoki ijtimoiy siyosiy hodisa (borliq) va ularga qaratilgan huquqiy normalar va ular bilan bogʻliq ijtimoiy normalar yigʻindisidir, deya taʼrif berilgan.

Fuqarolik jamiyati institutlari ham davlat-huquqiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ishtirok etadi, alohida tuzilma hisoblanadi va faoliyati huquqiy, ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadi. Ular fuqarolik jamiyatining eng muhim xususiyatlari – siyosiy plyuralizm (turli fikrlik), koʻppartiyaviylik va boshqalarni roʻyobga chiqishini taʼminlaydi va jamiyat rivojlanib borgan sari, ularning jamiyat ishlaridagi ishtiroki kengayib boradi, ular oʻz zimmasiga yangi vazifalarni oladi.

Ana shunday vazifalardan biri – korrupsiyaga qarshi kurashdir. Korrupsiya har qanday jamiyat, tizimda uchraydigan eng jirkanch, oʻta makkor va xavf-xatardir. Unga faqat davlat organlari bilangina qarshi kurashib, muvaffaqiyatga erishib boʻlmaydi. Shu oʻrinda prezidentimizning quyidagi soʻzlari diqqatga sazovor: **“... korrupsiyaning har qanday koʻrinishiga murosasiz boʻlish kundalik hayot tarziga aylanishi shart. Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman har bir fuqaro safarbar etilishi zarur”**.

Prezident Sh.Mirziyoyev oʻz prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridayoq, **“Jamiyat rivojiga gʻov boʻlayotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir”**, - deb eʼtirof etdi. Shuningdek, prezidentlik lavozimiga ikkinchi muddatga kirishishi munosabati bilan oʻtkazilgan marosimda soʻzlagan nutqida esa **“... soʻnggi besh yilda korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosati darajasiga olib chiqdik”**, deb qayd qildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda davlat katta imkoniyatlarga ega, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi, unga tegishli choralar koʻruvchi davlat organlari mavjud. Bu organlarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va ularga uslubiy yordam koʻrsatuvchi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi, hududlarda hududiy kengashlar tashkil qilingan. Mamlakatimizda tashkil qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi”ga katta umid bilan qaralmoqda.

Tajriba shuni koʻrsatmoqdaki, korrupsiyaga faqat davlat organlari faoliyati orqali kurashish yetarli boʻlmayapti. Bunga keng jamoatchilikni jalb qilmasdan koʻzlangan maqsadga erishish mumkin boʻlmashligi ayon boʻlmoqda. Shuning uchun keyingi paytlarda korrupsiyaga qarshi kurashga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Chunki jamiyat illati boʻlmish korrupsiyaga jamiyatning barcha elementlari birdek urush eʼlon qilishi, kurashish zaruriyat boʻlib qolmoqda.

Bular avvalo jamoat birlashmalaridir. Jamoat birlashmalari konstitutsiyaviy tuzilma bo‘lib, bu Konstitutsiyaning XIII bobida belgilab qo‘yilgan. Uning 70-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e‘tirof etiladi”, deb mustahkamlangan²⁵².

Bundan keyingi yo‘l – fuqarolik jamiyati institutlarini faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilishi belgilanib, ularning o‘rni va maqomini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlashga alohida e‘tibor berish zarurligi belgilangan.

Fuqarolik institutlari nimaga asosan korrupsiyaga qarshi kurashadi? – degan savol kelib chiqishi mumkin. Qonunlarda bu masala turlicha tarzda o‘z o‘rnini topgan. Lekin barcha fuqarolik jamiyati institutlari uchun bu masalada umumiy vazifalar mavjud, ya‘ni qonunlarga asosan, fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning huquqlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish; fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini rivojlantirish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishi kerak.

Fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishning samarali usul va mexanizmlarini tatbiq qilish, jumladan, barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimini mukammallashtirishga erishish, joylarga chiqib, mavjud ahvolni shaxsan o‘rganish asosida aholini qiynayotgan eng muhim ehtiyojlarni hal etishda amaliy yordam ko‘rsatish nafaqat davlat organlari, balki nodavlat notijorat tashkilotlarning ham muhim vazifasidir. Shubhasiz, mavjud muammolarni hal qilishga birgina davlatning kuchi yetmaydi. Bunda nodavlat tashkilotlarning yordami zarur. Bejiz nodavlat notijorat tashkilotlar xalq va davlat o‘rtasidagi ko‘prikka qiyoslanmaydi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, jamiyat va davlat ishlari boshqarilishida ularning o‘rni hamda ahamiyatini kuchaytirish, aholining ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, insonlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza etish sohalarida “uchinchi sektor” faolligini oshirishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Dunyo tobora jadal rivojlanmoqda. Hozir bir joyda deysinib turib bo‘lmaydi. Faqat harakat, intilish, tashabbuskorlikni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Vaholanki, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlar hamda boshqa qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi aholining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa fuqarolik institutlarining jamiyat hamda davlat ishlari boshqaruvidagi ishtirokining huquqiy kafolatlarini sezilarli darajada mustahkamladi.

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining davlat organlari qarorlarini ishlab chiqishda, qonun loyihalarini tayyorlash va muhokama qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda qatnashish huquqi mustahkamlangan.

²⁵² Qarang. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

Buning barobarida, 1991 yilda atigi 95 tani tashkil etgan NNTlar soni bugungi kunga kelib, o'n mingga yaqinlashdi.

Korrupsiya esa, to'g'ridan to'g'ri fuqarolarning huquq va erkinliklariga salbiy ta'sir qiladi, moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga to'sqinlik qiladi, har bir fuqaroning ijtimoiy hayotda teng ishtirokini chegaralaydi. Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkin: a) jamoat birlashmalari fuqarolarning ixtiyoriylik asosida tuziladigan uyushma, ular qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak; b) fuqarolarning birlashmalari yuqorida sanab o'tilganlar bilan cheklanmaydi, ya'ni boshqa uyushmalar ham tuzish mumkin.

Konstitutsiyada ko'zda tutilgan jamoat birlashmalari tizimida ikki jamoat birlashmasining fuqarolar, jamiyat va davlat hayotidagi muhim roli hisobga olinib, alohida qayd qilingan. 73-moddada: "Kasaba uyushmalari" ning vazifasi, 74-moddada "Siyosiy partiyalar"ning vazifasi belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik jamiyati tizimida nodavlat va notijorat tashkilotlari alohida o'rin tutadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlar (foйда)ni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotlaridir.

Demak, NTT – bu o'zini o'zi boshqarish tashkiloti. U jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tuziladi. Asosiy maqsadi daromad (foйда) olish emas. Faoliyati davomida daromad (foйда) vujudga kelsa a'zolari o'rtasida taqsimlaydi. Lekin bu belgilar NTTning barcha vazifasini qamrab olmagan. Ular, yuqoridagilardan tashqari, o'z a'zolarini qonuniy manfaatlarini, ijtimoiy hayotdagi zarur demokratik qadriyatlarni himoya qilish; a'zolari ma'naviy va turli nomoddiy ehtiyojlarni qondirish; eng muhimi, xayriya faoliyatini amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi. Korrupsiya esa, shu qayd qilingan masalalarga to'sqinlik qiladi, shuning uchun ham NTT korrupsiyaga qarshi kurashda davlat organlarining eng yaqin hamkoridir.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari qatorida davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi alohida prinsip sifatida ko'rsatilgan²⁵³. Bu prinsip fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati orqali ta'minlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi davlat siyosatining yo'nalishlari qonunda belgilangan bo'lib, ularning orasida, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish qayd qilingan.

Mana shu vazifani ro'yobga chiqarishda fuqarolik jamiyati institutlari faol ishtirok etishi zarur va ularda etarli imkoniyatlar mavjud. Bu ularning asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunida, ularni tuzishdan maqsadlardan biri – ular o'z vakillari orqali jamiyat va davlat ishlarida ishtirok etishidir. Bunday ishtirok etish turli usullar bilan birga, jamoatchilik nazorati orqali ham amalga oshiriladi²⁵⁴. Boshqa fuqarolik institutlari hujjatlarida ham shunday vazifalar mavjud. Qonunda "Fuqarolarning o'zini

²⁵³ Qarang. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 9.11.2021-y., 03/21/729/1064-son.

²⁵⁴ Qarang. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'RQ-337-I-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son.

o'zi boshqarish organlarining, NTTning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishining asosiy usullari belgilab qo'yilgan.

Bular:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etish;

- korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faqat korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturlari ishlab chiqishda ishtirok etmasdan boshqa dasturlarni ishlab chiqishda ham ishtirok etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksak bo'lishi muhim omildir. Ana shu masalalarning yuksakligiga erishishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki muhimdir. Ularning ishtirokisiz aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qiyin masala. Huquqiy ong va madaniyat yuksak bo'lmasa korrupsiyaga qarshi kurashish samara bermaydi. Avvalo korrupsiya buzg'unchi illat ekanligini fuqarolik institutlarining har biri o'z a'zolari ongiga singdirishi, korrupsiyaga nisbatan nafrat uyg'otishi zarur. Huquqiy ong, bilimga ega bo'lish masalaning bir tomoni, faqat u bilan qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ongni, bilimni hayotda qo'llash kerak. Buning uchun esa huquqiy madaniyat kerak. Yuksak huquqiy madaniyatga erishish onga erishishga qaraganda murakkab masala. Buning uchun fuqarolik jamiyati institutlari tashviqot-targ'ibot ishlaridan tashqari, shaxsiy o'rnak, namuna bo'lish orqali fuqarolarning huquqiy madaniyatiga ta'sir qilishi kerak. Qisqasi, qonunlarni bilish emas, uni bajarish shartligi fuqarolar ongiga kiritilib, qonunga itoat etish, unga hurmat qilish hissini shakllantirish zarur.

Fuqarolik institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashida, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabablarga qarshi kurashi ustuvor faoliyat bo'lish kerak. Bunda, ayniqsa, NNT a'zolari o'rtasida qonunga hurmat ruhini shakllantirish, korrupsiyaning har qanday ko'rinishlari va uni keltirib chiqaruvchi sabablarga muhosasizlik kayfiyatini yaratish, korrupsiya jinoyatlariga nafratni vujudga keltirish muhimdir. Korrupsiyani vujudga keltiruvchi sabablar: xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik, kamchiliklarni ko'rib turib, uni ko'rmaslikka olish, tanqidga chidamsizlik, jur'atsizlik, beparvolik, beg'amlik ham hisoblanadi. NNT bor imkoniyatlardan foydalanib, shu illatlarga qarshi kurashishi zarur.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;

2. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 9.11.2021-y., 03/21/729/1064-son;
3. O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-337-I-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son;
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 6 dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-588-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 8.05.2022-y., 03/22/770/0424-son;
5. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 mayda “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-369-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
6. O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 27 dekabrda “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-369-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2022-y., 03/22/771/0448-son;
7. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 25 sentabrda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-376-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.

Internet saytlari

9. www.lex.uz
10. www.norma.uz
11. www.huquqiportal.uz

INSON O'Z MIYASINING QANCHA QISMIDAN FOYDALANISHINI KO'RSATUVCHI ILMIY TADQIQOTLAR

Maxmudova Zarina Ilxomovna

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti assistenti

Mehmonov Alisher Zafarovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti talabasi

Maxsiddinova Ozoda Odiljonovna

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti talabasi

Tirkashev Adxam Uktamjonovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10224383>

Annotatsiya. Bizning miyamiz — tabiatning eng g'aroyib mo'jizalaridan biri. Inson miyasi odatda ularning xamma qismi orqali foydalanadi. Miyaning barcha qismlari turli vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi, ammo har bir qism o'z vazifasini bajaradi. Bir qismi sezgirlik va hissiyotlarni boshqaradi, boshqa qismlari esa fikr, xotira va boshqa intellektual vazifalarni bajaradi. Bu jarayonlar birgalikda miyaning ishlatishga olib keladi. Bu esa miyaning barcha qismlarining bajariladigan vazifasi bir biriga chambarchas bog'liqligini dalilidir.

Kalit so'zi: Miya, neyron, iste'mol, E vitamini, nogironlik, miya hujayralar, losos, kislotalar, xotira, alfa va beta, yog'lar.

SCIENTIFIC STUDIES SHOWING HOW MUCH PART OF THE BRAIN A PERSON USES

Abstract. Our brain is one of the most amazing wonders of nature. The human brain usually uses all of its parts. All parts of the brain are used for different tasks, but each part has its own function. One part controls sensitivity and emotions, while other parts handle thought, memory, and other intellectual functions. These processes together lead to the use of the brain. This is evidence that the functions of all parts of the brain are closely related to each other.

Key words: Brain, neuron, consumption, vitamin E, disability, brain cells, salmon, acids, memory, alpha and beta, fats.

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПОКАЗЫВАЮТ, КАКУЮ ЧАСТЬ МОЗГА ИСПОЛЬЗУЕТ ЧЕЛОВЕК

Аннотация. Наш мозг — одно из самых удивительных чудес природы. Человеческий мозг обычно использует все свои части. Все части мозга используются для разных задач, но каждая часть выполняет свою функцию. Одна часть контролирует чувствительность и эмоции, а другая отвечает за мышление, память и другие интеллектуальные функции. Эти процессы вместе приводят к использованию мозга. Это свидетельство того, что функции всех отделов мозга тесно связаны друг с другом.

Ключевые слова: Мозг, нейрон, потребление, витамин E, инвалидность, клетки головного мозга, лосось, кислоты, память, альфа и бета, жиры.

Tadqiqotlar natijasi: Inson miyasining sirlari va imkoniyatlari uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilar uchun og'riqli nuqta bo'lib kelgan. Yaqin vaqtgacha ular faqat uning ishi haqida nazariyalarni qurishlari mumkin edi va organning o'zini faqat otopsiya paytida kuzatish mumkin edi. Birinchi katta yutuq shifokorlar elektrodni to'g'ridan-to'g'ri miyaga joylashtirishga

muvaffaq bo'lganlarida yuz berdi. Taxminan bir vaqtning o'zida neyron qanday ishlashi va u nervlar bo'ylab va bir neyrondan ikkinchisiga qanday sodir bo'lishi aniq bo'ldi. Miya umumiy tana vaznining taxminan 2 foizini tashkil etishiga qaramay, u kislorodning deyarli 20 foizini va organizm tomonidan iste'mol qilinadigan bir xil miqdordagi kaloriyalarni ishlatadi. 1945 yilda olimlar miyaning taxminan 73% suv ekanligini hisoblab chiqdilar. Uning atigi 2% suvsizlanishi zaiflik, e'tibor, xotira va inson qobiliyatlarining yomonlashishiga olib keladi. Ko'pchilik xolesterin salomatlikning asosiy dushmani ekanligiga ishonishadi. Albatta, siz xolesteringa boy oziq-ovqat bilan o'zingizni bezovta qilmasligingiz kerak, ammo odam bu moddasiz umuman yashay olmaydi. Tanadagi barcha xolesterinning taxminan 25% miya hujayralarida to'plangan bo'lib, ularsiz nobud bo'ladi. Uzoq muddatli spirtli ichimliklarni iste'mol qilish bir qator sog'liq muammolariga, jumladan miya shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Biroq, spirtli ichimliklarning miya hujayralarining bir qismini o'ldiradi, deb aytish mumkin emas - bu aniq fakt emas. Shikastlanish jarayoni juda murakkab. Misol uchun, agar ayol homiladorlik paytida spirtli ichimliklarni iste'mol qilsa, bolaning xomilalik alkogol sindromi bilan tug'ilish xavfi yuqori ekanligi isbotlangan. Ushbu kasallikka chalingan odamlarda miya odatdagidan kichikroq hajmga ega va kamroq hujayralardan iborat. Bunday bolalar kelajakda o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va boshqa nogironliklarga ega bo'lishi mumkin. Miya sog'lig'ingizni yaxshilash uchun dietangizga quyidagi ovqatlarni kiriting: to'q rangli o'simlik ovqatlari (masalan, ko'k, brokkoli, ismaloq), chunki ular juda ko'p E vitamini o'z ichiga oladi, qizil qalampir va shirin kartoshka beta-karotinga boy - bu ikkala modda ham miya uchun juda foydali; yog'li baliq (losos, orkinos, skumbriya) – kognitiv funksiyalarni yaxshilaydigan omega-3 yog kislotalarining ajoyib manbalari; yong'oq, pecans (yong'oq tarkibidagi antioksidantlar ham miya holatiga foydali ta'sir ko'rsatadi). Neyrojarrohlarning narkozsiz miya operatsiyasini bajarishini bilasizmi? Faqat miyada og'riq sezgisi yo'q. Shuning uchun, biz bosh og'rig'ini boshdan kechirganda, miyaning o'zi emas, balki atrofdagi to'qimalari og'riydi. Biz uyqu vaqtida miya o'chadi deb o'ylashimiz mumkin, lekin aslida kundan ko'ra u tunda faolroq ishlaydi. Tetik vaqtda, miya alfa va beta to'lqinlarni va uyqu paytida, ayniqsa dastlabki bosqichlarida, teta-to'lqinlarini ishlab chiqaradi. Ularning amplitudasi boshqa to'lqinlardan kattaroqdir. Bizning neyronlarimiz kun davomida elektr lampochkasini yoritish uchun yetarli energiya ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, miya eng aqlli kompyuterlarga qaraganda tezroq ishlaydi. Miya o'z ichiga eng ko'p yog' olgan organdir. Shuning uchun uning salomatligi uchun foydali yog'larga boy bo'lgan (omega-3 va omega-6) parhez juda zarur. Ular miya hujayralarining devorlarini kuchaytiradi, shuningdek yog'lar eriydigan vitaminlarni almashtiradi va saqlaydi. Bundan tashqari, yog'lar yallig'lanishni kamaytiradi va immunitet tizimining to'g'ri ishlashiga yordam beradi. Miya ko'p mashqlarni va harakatlarni bajaruvchidir. Shuning uchun kerak bo'lgan vaqtda resursning bir qismi mashqga e'tibor bersa, bir vaqtda miya boshqa muammolarni va harakatlarni hal qilishi mumkin, ular ko'rinmas (fonoviy) rejimda bajariladi, masalan, qo'l-oyoq yoki bosh harakatlanishi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda 75% odam inson miyasi 100% ga ishlamaydi deb o'ylaydi. Miyaning 100 foiz ishlashi haqida fikir bildirish va ijtimoiy tarmoqlarimizda so'rovnomaga o'tqazganda ham ko'pchilik miya 100 foiz emas, balki 3,5 va eng yuqorisi 10% ishlashi haqida bahs qilishdilar. Albert Eynshteyning miyasi ham 3 foizga ishlagan, fikringiz noto'g'ri inson miyasi 100 foizga ishlashi mumkin emas degan xulosalarga kelishdi. Endi o'zimning shaxsiy fikrimga keladigan bo'lsak, inson miyasi 100 foizga ishlasa odam uchib ketadi degan gaplar juda ham ko'p. Bunga sabab esa kinofilmlar bu fikrni juda

omallashtirib yuborgan zeroki u film ilmiy fantastik bo'lsa ham, lekin insonlar buni kinoligini unutib qo'yishgan. Inson miyasi neyroegiluvchanlik xususiyatiga ega. Agar biz miyamizning qaysidir qismini ishlatmay qo'ysak, aynan o'sha qismi atrofiyaga uchrab, yo'q bo'lib ketishi mumkin. Bu degani inson miyasi 5% ishlaganda 95% neyronlari atrofiyaga uchrab kichrayib, yo'q bo'lib ketishi ham mumkin edi. Miyani 3-5% ishlashi haqidagi afsona Louel Tomas ismli yozuvchiga borib taqaladi. Louel Tomas 1936-yilda Deyl Karnegi ismli mashhur yozuvchining kitobidabiz faqatgina miyamizning 10% ini ishlatamiz" degan gapni aytib o'tgan. Bu ma'lumotni jurnalistlar ommalashtirib targ'ib qilib yuborishgan. Shu sababli ko'pchilik bu ma'lumotga ishonishni boshlagan. Jeyms Kaled ismli olimning aytishicha "1930-yillarda inson miyasi haqida ko'p ma'lumotga ega bo'lmaganimiz va miyaning qanday vazifani bajarishini bilmaganmiz" deb aytib o'tgan, shu sababli o'sha davrdagi neyrobiologlar inson miyasining ko'p bo'limlari ishlamas ekan, shu bo'limlarni biz ishlatmas ekanmiz, 3 foizdan 10 foizgacha ishlatar ekanmiz, agarda qolgan foizlarni ishlatolsak, kanday hodisa ro'y berar ekan?", degan savolni qo'yishgan. Bu ma'lumotlar jurnalistlarning qulog'iga yetib borgan va ular turli xil afsonalarni yaratishni boshlashgan. Hozirgi kunga kelib, har qanday neyrofiziologdan so'rashingiz mumkin, inson miyasi aynan 100 foizga ishlaydi. Lekin 100 foizli imkoniyatdan biz faqatgina ma'lum qismini ishlatamiz. Barri Gorden ismli neyrofiziologning tahliliga ko'ra, inson miyasi 100 foizga ishlaydi, agar 100 foiz ishlamaganda, bunchalik energiya sarf qilmas edi. Inson miyasi 2 foiz vaznimizni tashkil qiladi, lekin organizmimizdagi 20-25 foiz energiyani, tanadagi taxminan 50 foiz kislorodni sarflashi mumkin. Undan tashqari, inson miyasini MRT orqali o'rganishganda, miyaning deyarli barcha xujayrasi ishlashi kuzatilgan.

Xulosa: Inson miyasi odatda ularning xamma qismi orqali foydalanadi. Miyaning barcha qismlari turli vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi, ammo har bir qism o'z vazifasini bajaradi. Misol uchun, bir qismi sezgirlik va hissiyotlarni boshqaradi, boshqa qismlari esa fikr, xotira va boshqa intellektual vazifalarni bajaradi. Bu jarayonlar birgalikda miyaning ishlatishga olib keladi. Bu esa miyaning barcha qismlarining bajariladigan vazifasi bir biriga chambarchas bog'liqligini dalildir 75% odam inson miyasi 100% ga ishlamaydi deb o'ylaydi. Miyaning 100 foiz ishlashi haqida fikr bildirish va ijtimoiy tarmoqlarimizda so'rovnomaga o'tqazganda ham ko'pchilik miya 100 foiz emas, balki 3,5 va eng yuqorisi 10% ishlashi haqida bahs qilishdilar. Albert Eynshteyning miyasi ham 3 foizga ishlagan, fikringiz noto'g'ri inson miyasi 100 foizga ishlashi mumkin emas degan xulosalarga kelishdi. Endi o'zimning shaxsiy fikrimga keladigan bo'lsak, inson miyasi 100 foizga ishlasa odam uchib ketadi degan gaplar juda ham ko'p. Bunga sabab esa kinofilmlar bu fikrni juda omallashtirib yuborgan zeroki u film ilmiy fantastik bo'lsa ham, lekin insonlar buni kinoligini unutib qo'yishgan.

REFERENCES

29. Вохидов А. М. и др. Разработка Графическим Пользовательским Интерфейсом- Программ В Пакете Tkinter С Исползованием Современных Педагогических Технологий В Области Медицины //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 30. – С. 181-184.
30. Vohidov D., Maxmudova Z., Sayfullayev R. TIBBIYOT YO'NALISHIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLAB TKINTER PAKETIDA GUI DASTURLARINI TUZISH //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-35.

31. Voxidov A. M. et al. TIBBIY-BIOLOGIK TADQIQOTLARDA STATISTIK TAHLIL JARAYONLARI //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 287-293.
32. Melitoshevich V. A., Alikulovich V. D. Main Issues of Statistical Analysis in Medical Research //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 13. – C. 129-132.
33. Vohidov A. Structural semantic characteristic of lexis in" Ghiyas-ul-lughot : дис. – Dissertation abstract of Cand. Sci. in Phil./A. Vohidov.-Dushanbe, 1975.-33.
34. Melitoshevich V. A., Alikulovich V. D. Development by a Graphic User Interface-Programs in the Tkinter Package Using Modern Pedagogical Technologies in the Field of Medicine //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 32. – C. 13-17.
35. Alikulovich V. D., Melitoshevich V. A. Use of Interactive and Modern Pedagogical Software in the Process of Freelancing Sites in Medicine //Eurasian Scientific Herald. – 2023. – T. 17. – C. 1-6.
36. Voxidov A. et al. TIBBIYOT UNIVERSITETI PEDIATRIYA FAKULTETI TALABALARI UCHUN TA'LIMDA ISHLAB CHIQISH AMALIYOTINING KONTEKST SIFATIDA TA'LIM //Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – T. 3. – №. 2 Part 4. – C. 150-154.
37. Abdullayeva S., Maxmudova Z., Xujakulov S. TIBBIY TA'LIMDA VR TEXNOLOGIYA //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 1140-1144.
38. Abdusamatovich K. S., Olimjonovna T. F. Application of web applications in medicine //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 14. – C. 46-50.
39. Nabiyeva, S. S., Rustamov, A. A., Malikov, M. R., & Ne'matov, N. I. (2020). Concept of medical information. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(7), 602-609.
40. Malikov, M. R., Rustamov, A. A., & Ne'matov, N. I. (2020). STRATEGIES FOR DEVELOPMENT OF MEDICAL INFORMATION SYSTEMS. *Theoretical & Applied Science*, (9), 388-392.
41. Berdiyevna, A. S., & Olimjonovna, T. F. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM TO INCREASE YOUTH PARTICIPATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 674-677.
42. Esirgapovich, K. A. (2022). THE EASIEST RECOMMENDATIONS FOR CREATING A WEBSITE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 758-761.
43. Toxirova, F. O., Malikov, M. R., Abdullayeva, S. B., Ne'matov, N. I., & Rustamov, A. A. (2021). Reflective Approach In Organization Of Pedagogical Processes. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
44. Ne'matov, N., & Rustamov, T. (2022). SANATORIYLAR ISHINI AVTOMATLASHTIRISH: BRON XIZMATI VA UNING STRUKTURASI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 763-766.
45. Ne'matov, N., & Ne'matova, N. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMI TALABALARIGA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Академические исследования в современной науке*, 1(19), 37-38.
46. OB Akhmedov, AS Djalilov, NI Nematov, AA Rustamov // Directions Of Standardization In Medical Informatics // Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(2), 1-4 p. 2021

47. Ne'matov, N., & Isroilov, J. (2022). TIBBIY VEB SAYTLAR YARATISH YUTUQ VA KAMCHILIKLARI. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(25), 162-164.
48. Ne'matov, NI. (2022). TIBBIY VEB SAYTLAR YARATISH SAMARADORLIGI. Academic Research in Educational Sciences (ARES) 3 (2), 118-124
49. Berdiyevna, A. S., Fazliddinovich, S. R., & Uralovich, R. N. (2022). Use of Information Technology in Improving the Quality of Education. Eurasian Research Bulletin, 14, 134-138.
50. Abdullayeva, S. B., & Dosmurodova, S. S. (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF VALUE DIRECTIONS IN YOUTH. Procedia of Theoretical and Applied Sciences, 1(1), 93-95.
51. Olimjonovna, T. F. (2023). SOCIO-HISTORICAL FOUNDATIONS OF FORMATION OF INTEREST IN THE PROFESSION AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL THINKING THROUGH PEDAGOGICAL COMMUNICATION.
52. Berdiyevna, A. S., & Shokirovich, X. S. (2023). Prospective Directions of Implementation of Modern Information Technologies in Education. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 17, 7-11.
53. Berdiyevna, A. S., Akramovna, M. M., & Olmasovna, R. P. (2023). Research in the Process of Education of Medical Students Shaping Their Abilities. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 17, 95-99.
54. Ismatullayevich, N. N. (2023). The role of educational websites in the development of student's higher education systems. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 17, 17-20.
55. Ismatullayevich N. N., Ilxomovna M. Z. Automation of Sanatorium Work: Reservation Service and its Structure //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 29. – C. 65-67.
56. Olimjonovna T. F. Pedagogical Communication and its Role and Significance in Developing the Professional Thinking of Students //Eurasian Scientific Herald. – 2023. – T. 16. – C. 82-86.

LOR ENDOSKOPIK AMALIYATLARDA ANESTETIK YARDAMNING OPTIMAL TURINI TANLASH

Tojiboev Murod Obidovich

Valiyev A.N

Madaminov M.M

Farg'ona viloyati Ko'p tarmoqli tibbiyot markazi anesteziologlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10232293>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida LOR endoskopik jarrohlik polipotomiya amaliyotida bemorlarni anesteziya davridagi gemodinamik ko'rsatkichlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: anesteziya davridagi gemodinamik ko'rsatkichlar, ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, LOR.

CHOOSING THE OPTIMUM TYPE OF ANESTHETIC SUPPORT IN ENT ENDOSCOPIC OPERATIONS

Abstract. This article shows the hemodynamic indicators of patients during anesthesia during ENT endoscopic surgery polypotomy at the multidisciplinary medical center of Fergana region.

Key words: hemodynamic indicators during anesthesia, multidisciplinary medical center, ENT.

ВЫБОР ОПТИМАЛЬНОГО ТИПА АНЕСТЕЗИОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ ПРИ ЛОР-ЭНДОСКОПИЧЕСКИХ ОПЕРАЦИЯХ

Аннотация. В статье показаны гемодинамические показатели больных во время анестезии при ЛОР-эндоскопической операции полипотомии в многопрофильном медицинском центре Ферганской области.

Ключевые слова: гемодинамические показатели во время анестезии, многопрофильный медицинский центр, ЛОР.

Mavzuning dolzarbligi: Maqolada LOR endoskopik jarrohlikda qo'llaniladigan anesteziya turlari va bemorning anesteziya davridagi gemodinamik ko'rsatkichlari keltirilgan. LOR endoskopik jarrohlik paytida arterial bosimni me'yorda ushlab turish va biroz gipotoniya qilish jarrohlikning sifati oshirish va vaqtini tejashni samarali omilidir. Maqolada Farg'ona viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida LOR endoskopik jarrohlik polipotomiya amaliyotida bemorlarni anesteziya davridagi gemodinamik ko'rsatkichlari ko'rsatilgan. Standart sinov usullaridan tashqari (biokimyoviy qon tahlili, umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili va EKG) qon koagulyatsiya tizimining holati tekshiriladi. Bu ma'lumot juda muhim va jarrohlik yarasining yuzasi kichik bo'lsa ham, oz miqdorda qon ketishi operatsiya joyini ko'rishni qiyinlashtiradi va jarrohning ishini murakkablashtiradi. Jaroxat sohasida kamroq qon ketishiga erishish va yetarli gemostazni ta'minlash juda muhimdir.

So'nggi paytlarda LOR sohasidagi operatsiyalarda mikroendoskoplardan foydalanish operatsiyalar sifatini oshiradi va shu sababli umumiy anesteziyaga talab ortib bormoqda. LOR jarrohligida adekvat anesteziologik yordam bemor uchun ham, shifokorlar uchun ham psixologik stressni kamaytirish, psixoemotsional qulaylikka erishish va davolanish muddatini qisqartirishning asosiy omilidir. Ba'zi LOR kasalliklarini faqat jarrohlik yo'li bilan davolash hali ham dolzarb

masala bo'lib qolmoqda. Jaroxat sohasida kamroq qon ketishiga erishish va yetarli gemostazni ta'minlash juda muhimdir. So'nggi paytlarda LOR sohasi operatsiyalarida mikroendoskoplardan foydalanish yaxshilandi.

Operatsiyalar sifatini oshirish uchun umumiy anesteziyaga talab ortib bormoqda. Mikroendoskopik operatsiyalarda rinoplastika, burun bo'shliqlari, adenoid va tonzillektomiya, pastki burun konka plastiklari, sinusotomiya, frontotomiya qo'llaniladi va bu operatsiyalar soni va davomiyligini oshiradi. Bu anesteziologlar uchun yangi muammolar paydo bo'ladi, chunki u to'liq ko'p komponentli umumiy anesteziyani talab qiladi. Ammo lokal anesteziya uning faqat bir qismidir.

Maqsad: LOR operatsiyalarida optimal anesteziya usulini tanlash.

LOR operatsiyalariga tayyorgarlikning muhim xususiyatlari:

Standart sinov usullaridan tashqari (biokimyoviy qon tahlili, umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili va EKG) qon koagulyatsiya tizimining holati tekshiriladi. Bu ma'lumot juda muhim va jarrohlik yarasining yuzasi kichik bo'lsa ham, oz miqdorda qon ketishi operatsiya joyini ko'rishni qiyinlashtiradi va jarrohning ishini murakkablashtiradi. Shuni hisobga olib, asosiy e'tibor trombotsitlar, qon ivish vaqti, protrombin, fibrinogen, antirombin III, ACHTV, PTI ko'rsatkichlariga beriladi.

Bunday hollarda bemorning anamnezi chuqur o'rganiladi va diqqat markazida bo'ladi (terida qon ketish, tishlarni yuvishda qon ketish, hayz paytida ko'p qon ketish, antikoagulyantlar va antiagregant vositalarni qabul qilish). Har qanday patologik holatga shubha tug'lsa, gematolog bilan maslahatlashish buyuriladi. Qon ketish xavfi yuqori bo'lsa, eritrotsitlarning yagona guruhi tayyorlanadi. Bemorga operatsiyadan 3 kun oldin gemostatik terapiya (etamzilat, vikalol, askorbutin) buyurilgan.

Usul va yondashuvlar: tadqiqot Farg'ona viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi LOR bo'limida 2022-2023 yillar davomida o'tkazildi. Umumiy behushlik uchun anesteziya qurilma: Drager FABIUS PLUS (Dragerwerk AG, Germaniya) izafluran bug'latgichli (Drager-Vapor 2014). Drager FABIUS PLUS da o'pka ventilyatsiyasi parametrlari kuzatildi. CO₂, O₂ qisman bosimi ABL800 FLEX qurilmasida kuzatildi. Exo KG SAMSUNG qurilmasidagi gemodinamik parametrlar. Tadqiqot uchun 40 nafar bemor 2 guruhga bo'lingan. Har bir guruhda 20 nafar bemor bor, ulardan 10 nafari (50%) ayollar va 10 nafari (50%) erkaklar. Ikkinchi guruhda 8 (40%) ayol va 12 (60%) erkak edi.

Jarrohlik behushligi ostidagi ikkala guruhdagi bemorlarda ASA modifikatsiyasi xavfi - I-II. Barcha bemorlarga endoskopik polipotomiya operatsiyasi o'tkazildi.

Birinchi guruhga: premidikatsiya: benzodiazepam seriyali midazolam 0,2-0,3 mg / kg mushak ichiga. Umumiy anesteziya uchun ketamin 2-3 mg / kg tomir ichiga yuboriladi. analgeziya fentanil 1-2mg/kg vena ichiga, traxeya intubatsiya arduan (tsisatkuroniy) 0,1mg/kg vena ichiga. Anesteziyani ushlab turish uchun: Propofol 8-10 mg/kg/soat vena ichiga, analgeziya fentanil har 25-30 minut davomida vena ichiga.

birinchi guruh AB, YuQS, SpO₂% va Exo KG ning markaziy gemodinamik parametrlari quyidagi jad valda keltirilgan.

Ko'rsatkichlar	Premidikatsiya I bosqich	Narkozga kirish II bosqich	Xirurgik bosqich III bosqich	Uyg'onish IV bosqich

Bir daqiqalik yurak urishi	78± 6	92± 10	100± 8*	106± 10
ABsist(mmHg)	120 ± 5	130± 10*	130± 10	120± 10
ABdiast(mmHg)	70± 2,87	80± 5	80± 5	80± 10
SpO2 %	98± 1	98± 1	98± 1	98± 5*
Yurak urishi indeksi, ml/m ²	41,19±2,14	41,19±2,14	41,19±2,14	41,19±2,14
O'rtacha qon bosimi, mmHg	92,3±1,93	92,3±1,93	92,3±1,93	92,3±1,93
Yurak indeksi, l/min xm ²	115,44±5,87*	115,44±5,87	115,44±5,8	115,44±5,87
Yurak urish tezligi indeksi, ml/m ²	5,0±0,5	5,0±0,5	5,0±0,5	5,0±0,5
Umumiy periferik qon tomir qarshiligi, din/s xu sm ⁻⁵	1100	1300	1300	1200

Olingan natijalar: Birinchi guruh AB ning markaziy gemodinamik ko'rsatkichlari, Yurak qisqaruvchanligi, SpO2% va Exo KG quyidagi jadvalda ko'rsatilgan. Bemorning anesteziya o'tqizilganidan keyin asosiy jarrohlik amaliyoti o'tkaziladigan davrlar bu anesteziyani 2 va 3-davrlari hisoblanadi.

Bu vaqtda bemorlarda Sist AB, YuQS va umumiy periferik qon tomir qarshiligining oshishi kuzatildi. Biz buni ketaminning simpatik asab tizimini faollashtirishi bilan bog'laymiz

Ikkinchi guruhga: Premedikasiya.benzodiazepam seriyali midazolam 0,2-0,3 mg/kg mushak ichiga

Induksiya. (propofol 2,5-3 mg / kg). Miyorelaksant (arduan 0,06-0,08 mg / kg vena ichiga) vena ichiga fentanil (2-3 mkg / kg) va orotraxeal entübasyon.

Birinchi burun shilliq qavatini anesteziyasi.

Anesteziyani ushlab turish uchun: Past bosimli anestetik izofluran 1.5 x % + kislorod aralashmasi (0,5-1,0 l / min). Analgetik komponent fentanil har 20- 30 daqiqada operatsiya oxirigacha.

Ikkinchi guruh AB, YuQS, SpO2% va Exo KG ning markaziy gemodinamik parametrlari quyidagi jad valda keltirilgan.

Ko'rsatkichlar	Premidikatsiya I bosqich	Narkozga kirish II bosqich	Xirurgik bosqich III bosqich	Uyg'onish IV bosqich
Bir daqiqalik yurak qisqarishi	68± 10	58± 10	55± 8	68± 10*
ABsist(mmHg)	120 ± 10	100± 10	90± 10	110± 10
ABdiast(mmHg)	70± 5	70± 5	70± 10	80± 10
SpO2 %	98± 1	98± 1	98± 1	98± 2*
Yurak urishi indeksi, ml/m ²	41,19±2,14	41,19±2,14	41,19±2,14	41,19±2,14

O'rtacha qon bosimi, mmHg	92,3±1,93	92,3±1,93	92,3±1,93	92,3±1,93
Yurak indeksi, l/min xm 2	115,44±5,87*	115,44±5,87	115,44±5,8	115,44±5,87
Umumiy periferik qon tomir qarshiligi, din/s xu sm ⁻⁵	1100	900	900	1200

Olingan natijalar: Ikkinchi guruh AB ning markaziy gemodinamik ko'rsatkichlari, Yurak qisqaruvchanligi, SpO₂% va Exo KG quyidagi jadvalda ko'rsatilgan. Bemorning anesteziya o'tqizilganidan keyin asosiy jarrohlik amaliyoti o'tkaziladigan davrlar bu anesteziyani 2 va 3-davrlari hisoblanadi.

Bu vaqtda bemorlarda Sist AB, YuQS va umumiy periferik qon tomir qarshiligining pasayishi kuzatildi. Biz buni ingalasion anestetik isofluranni simpatik nerv sistemasini tonusini kamaytirib, Umumiy periferik qon tomir qarshiligi pasayishi bilan bog'laymiz

XULOSA

1. LOR jarrohlidida qo'llaniladigan kombinatsiyalangan (vena ichi va ingalyatsion) anesteziyaning gemodinamik ko'rsatkichlarning boshqarilishi bilan an'anaviy vena ichi anesteziyasidan ustunligini ko'rsatdi.

2. Jarrohlik amaliyotida gemodinamik ko'rsatkichlarning nazorat qilinishi. AB normatoniyasi yoki engil gipotenziya holatini saqlab turish. Jarrohlik jarohati yuzasidan qon ketishini kamaytirish orqali LOR endoskopik jarrohlik amaliyotini nisbatan muddatidan oldin yakunlash imkoniyatini beradi.

3. Bemorning gemodinamik ko'rsatkichlari an'anaviy usul ketamin bilan umumiy vena ichi anesteziyasidan ko'ra ko'proq ekanligini ko'rsatdi. Birlashtirilgan umumiy vena ichiga va ingalatsiyali anesteziyada AB ning gemodinamik ko'rsatkichlarining pasayishi va umumiy periferik tomir qarshiligi pasayishi kuzatildi. Bu anesteziyani etarli ekanligini ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Меркулов О.А., Горбунова Т.В., Поляков В.Г. Метод трансназального эндоскопического удаления опухоли в комплексном лечении с эстезионейробластомой // *Онкопедиатрия*. — 2017. — Т.4. — №1 — С. 31–42. [Merkulov OA, Gorbunova TV, Polyakov VG. Transnasal endoscopic surgery in complex treatment of esthesioneuroblastoma. *Oncopediatrics*. 2017;4(1):31–42. (In Russ).] doi: 10.15690/onco.v4i1.168
2. Ivan ME, Iorgulescu JB, El-Sayed I, et al. Risk factors for postoperative cerebrospinal fluid leak and meningitis after expanded endoscopic endonasal surgery. *J Clin Neurosci*. 2015;22(1):48–54. doi: 10.1016/j.jocn.2014.08.009.
3. Виганд М.Э., Иро Х. *Эндоскопическая хирургия околоносовых пазух и переднего отдела основания черепа*. Пер. с англ. Кочкин Р.В., Кузьменко Е.В., Кутько А.П., и др. — М.: Медицинская литература; 2014. — 296 с. [Vigand ME, Iro H. *Endoscopic surgery of the paranasal sinuses and anterior skull base*. Translated from English by Kochkin

- R.V.,Kuz'menko E.V., Kut'ko A.P., et al. Moscow: Meditsinskayaliteratura; 2014. 296 p. (InRuss).]
4. Stapleton AL, Tyler-Kabara EC, Gardner PA, et al. Risk factorsfor cerebrospinal fluid leak in pediatric patients undergoingendoscopic endonasal skull base surgery. *Int J PediatrOtorhinolaryngol.* 2017;93:163–166. doi: 10.1016/j.ijporl.2016.12.019..
 5. Неттер Ф. *Атлас анатомии человека* / Под ред.Бартоша Н.О., Колесникова Л.Л. — М.: ГЭОТАР-Медиа;2007. — 624 с. [NetterF. *Atlasanatomyicheloveka.* Edby Bartosh N.O., Kolesnikov L.L. Moscow: GEOTAR-Media; 2007. 624 p. (In Russ).]
 6. Kozek-Langenecker SA, Afshari A, Albaladejo P, et al.Management of severe perioperative bleeding Guidelines fromthe European Society of Anaesthesiology. *Eur J Anaesthesiol.*2013;30(6):270-382. doi: 10.1097/EJA.0b013e32835f4d5b.
 7. Aldecoa C, Bettelli G, Bilotta F, et al. European Societyof Anaesthesiology evidence-based and consensusbasedguideline on postoperative delirium. *Eur JAnaesthesiol.* 2017;34(4):192–214. doi: 10.1097/Eja.0000000000000594.
 8. Smith HS. Perioperative intravenous acetaminophenand NSAIDs. *Pain Med.* 2011;12(6):961–981. doi:10.1111/j.1526-4637.2011.01141.x.
 9. Stokken J, Recinos PF, Woodard T, Sindwani R. The utilityof lumbar drains in modern endoscopic skull base surgery. *Curr Opin Otolaryngol Head Neck Surg.* 2015;23(1):78–82.doi: 10.1097/Moo.0000000000000119.
 10. Juraevna, G. D. (2022). Psychological views on the role of parents in raising children in the family. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(10), 143-147.
 11. Juraevna, D. G. (2022). Preparing young boys and girls for family life. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1513-1517.
 12. Juraevna, G. D. (2021). Prevention of divorce by preparing young people for family life. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 398-401.
 14. GAFFOROVA, D. (2023). Provoking factors of family breakdown in modern society. *Transnational Journal of Medicine & Health*, 2(10), 3-5.
 15. GAFFOROVA, D. (2023). Psychoprophylaxis of monthly conflict generating disagreements in modern society. *Young Scholar's Academic Journal*, 2(7), 5-7.

VOYAGA YETMAGANLARNING JINOYAT ISHLARINI YURITISHDA E'TIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR

Ubaydullayev Ilxomjon Raxmatovich

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi
"Mutaxassislik fanlari" kafedrası o'qituvchisi
Telefon: +998911515452
ubayilxom@gmail.com

Ortiqaliyeva Zilolaxon Bahodirjon qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi
"Yuridik xizmat" yo'nalishi, 2-bosqich "22-22"-guruh o'quvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10233204>

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishi, ularning oldini olish masalalari, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar, voyaga yetmaganlarning jinoyat islarini yuritish chog'ida va jazo tayinlashda sudlar e'tibor qaratishlari lozim bo'lgan masalalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan, biologik, fiziologik, va ijtimoiy omillar, huquqiy yordam, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jabrlanuvchi, isbotlash predmeti, qonun ustuvorligi.

ASPECTS THAT SHOULD BE CONSIDERED IN THE CONDUCT OF CRIMINAL CASES OF MINORS

Abstract. This article discussed issues of committing crimes by minors, their warnings, circumstances that should be proven in juvenile cases, issues that the courts should pay attention to when conducting criminal cases of minors and sentencing.

Keywords: juvenile, biological, physiological and social factors, legal assistance, crime control, victim, subject of proof, rule of law.

АСПЕКТЫ, НА КОТОРЫЕ СЛЕДУЕТ ОБРАТИТЬ ВНИМАНИЕ ПРИ РАССМОТРЕНИИ УГОЛОВНЫХ ДЕЛ О НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Аннотация. В данной статье обсуждались вопросы совершения преступлений несовершеннолетними, их предупреждения, обстоятельства, которые должны быть доказаны по делам несовершеннолетних, вопросы, на которые судам следует обратить внимание при производстве уголовных дел несовершеннолетних и назначении наказания.

Ключевые слова: несовершеннолетний, биологические, физиологические и социальные факторы, правовая помощь, борьба с преступностью, потерпевший, предмет доказывания, верховенство закона.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda davlatning jiddiy va muhim masalasi bo'lib kelgan. Bugungi rivojlangan jamiyatda inson, uning qadr - qimmat, huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida tan olingan. Demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish masalasi milliy qonunchiligimizda mustahkamlab qo'yilgan. Qonun ustuvorligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, yosh avlod huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar ana shu maqsadga xizmat qiladi. Bu borada o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilishi, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi

kurashish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlar uchun yaratib berilayotgan bir qator imkoniyatlarga qaramay, ular o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik masalasi keng jamoatchilikni tashvishga solmoqda.

Yoshlarning odob-axloqi, yurish-turishi va ma'naviy tarbiyasi masalasida gap ketar ekan, yurtboshimizning quyidagi so'zlarini eslatib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi:

“Bugun sizlar bilan jamoatchilikni bezovta qilayotgan ayrim muammolar yechimi bo'yicha ham fikrlashib olishimiz zarur. Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, oilaviy ajrashishlar, buzg'unchi va radikal oqimlar ta'siriga tushish holati davom etayotgani davlat rahbari sifatida meni jiddiy tashvishga solmoqda. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatilgan xunuk voqealar, ya'ni joylardagi Alisher Navoiy, Amir Temur, Motamsaro ona haykallari yonida ayrim tarbiyasiz yoshlar tomonidan sodir etilgan nomaqbul ishlar meni nihoyatda ranjitdi. Bu bolalarning ota-onasi, bobo-momolari, o'qituvchi ba muallimlari, qolaversa, mahalla-ko'y, yoshlar bilan ishlaydigan mas'ul mutasaddilar qayerga qarayapti? Vatanimiz yoshlariga mutlaqo yarashmaydigan, barchamizga isnod keltiradigan bunday salbiy ko'rinishlarga, jamiyatimizda mutlaqo o'rin bo'lmasligi zarur. Kerak bo'lsa, biz xalqimizning muqaddas qadriyatlarini, timsollari va tabarruk qadamjolariga bepisand munosabatda bo'ladigan kimsalarga nisbatan, jazo choralari yanada kuchaytiramiz. Bunday buzg'unchi ishlarning oldini olmasak, ertaga kech bo'ladi. Bu borada meni bir narsa chuqur o'ylantiradi. Nima uchun yoshlar tarbiyasiga bevosita mas'ul va javobgar bo'lgan tashkilotlar, ota-onalar, pedagogik jamoalar bu masala bo'yicha tezkor va prinsipial munosabat bildirmayaptimi? Hozirgi g'oyat murakkab davrning keskin talabi shundayki, har qanday imkoniyat va minbardan foydalanib, islohotlarimizga halaqit berayotgan barcha muammo va kamchiliklarni birgalikda, ochiq va oshkora muhokama qilishimiz lozim. Chunki bu ishlarni biz qilmasak, chetdan kelib hech kim biz uchun qilib bermaydi”²⁵⁵ – dedi Prezident.

Voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatchilikka qarshi kurash masalasida Oliy sud Plenumi qarorida ham “Jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni lozim darajada aniqlashga har doim tegishli e'tibor berilmayapti va ularni bartaraf etish yuzasidan qonunda nazarda tutilgan choralar ko'rilmayotganligi”²⁵⁶ haqida aytib o'tilganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik amaliyotida ilk bor Jinoyat Kodeksining umumiy qismida voyaga yetmaganlarning javobgarligiga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi qoidalarni tartibga solishga bag'ishlangan maxsus oltinchi bo'lim ajratildi. Bunday qoidalarning o'rnatilishi voyaga yetmagan shaxslarning shakllanishidagi biologik, fiziologik, va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, ushbu shaxslar toifasiga xos bo'lgan xususiyatlardan kelib chiqadi. Amaldagi Jinoyat Kodeksida voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi borasida muayyan qoidalar mustahkamlangan bo'lsa-da, u eng avvalo, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarni qonun tomonidan insonparvarlik, odillik, qonuniylik tamoyillari orqali himoya qilishni nazarda tutadi. Voyaga yetmaganlarning javobgarligi borasida ularga nisbatan jazo tayinlash, javobgarlikdan va

²⁵⁵ <http://uza.uz/uz/pots/prezident>.

²⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2000 yil 15 sentyabr 21-son “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” Qarori. <https://lex.uz/docs/-1449720>.

jazodan ozod etish borasidagi qoidalarni qo'llashda ushbu kodeksning umumiy qism qoidalariga amal qilinadi.

Ma'lumki, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarini yuritish Jinoyat protsessual kodeksida alohida bob bilan tartibga solinadi. Jinoyat protsessual kodeksida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarini yuritishning alohida berilishi 1985-yilda BMT tomonidan qabul qilingan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini olishga qaratilgan Minimal standart qoidalari, 1989-yildagi BMTning bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi²⁵⁷ asosida ishlab chiqilgan. Bu toifadagi shaxslarga nisbatan jinoyat ishlari yuritishni alohida bobda ko'rsatilishi qonunlarning ularga nisbatan alohida qoidalar asosida qo'llanishi bilan bog'liqdir.

Voyaga yetmaganlarni jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishda ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirib chiqilishi, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini hamda voyaga yetmagan sudlanuvchining shaxsini e'tiborga olgan holda aniqlangan haqiqiy holatlar va dalillar majmuasiga to'g'ri baho berilishi, odillik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilgan holda qonunda ko'rsatilgan imtiyozlardan to'la foydalanishga imkoniyat yaratilishi lozim.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishda O'zbekiston Respublikasi JPKning 82-84-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyat tarkibini aks ettiruvchi va voyaga yetmaganlarning javobgarligi darajasiga ta'sir qiluvchi holatlar e'tiborga olinishi kerak. Ya'ni, surishtiruv, dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlari bo'yicha ushbu Kodeksning 82-84-moddalarida ko'rsatilgan hollardan tashqari, quyidagilar isbotlanishi lozim:

- voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni);
- voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati;

uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;

- katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.²⁵⁸

Hozirgi vaqtda voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha isbotlash predmetini sharhlash yuzasidan umum e'tirof etilgan nuqtai nazar mavjud emas. Bu esa, muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu masalani tadqiq qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Isbotlash predmetining tarkibi quyidagi ko'rinishda bo'ladi: umumiy; barcha turdagi jinoyat ishlari bo'yicha "yagona" isbotlash predmeti; maxsus; voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ixtisoslashgan isbotlash predmeti; alohida; voyaga yetmaganlarnin ayrim jinoyatlari bo'yicha juz'iy isbotlash predmeti.

Voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlari bo'yicha isbotlash predmetining taklif etilgan bu ko'rinishi o'ziga xosligi jihatidan ikki darajada – maxsus va alohida darajalarda namoyon bo'ladi. Maxsus darajada isbotlash predmetini tahlil qilish odatda cheklangan tarzda bo'ladi va asosan faqat voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishga tegishli qonunda ajratib ko'rsatilgan maxsus jihatlarnigina o'z ichiga oladi. Alohida daraja esa, bu yerda isbotlash predmetining xususiyatlarini tadqiq qilish amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Shu munosabat bilan dastlabki tergovdagi va sud muhokamasidagi isbotlash predmetining aynanligini ta'kidlash shart, sudda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar dastlabki tergovda ham aniqlanishi lozim. Shunga ko'ra,

²⁵⁷ BMTning bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi. <https://lex.uz/docs/-4427813>

²⁵⁸ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>

adabiyotda uchraydigan tavsiyalar – sud majlisida dastlabki tergovda voyaga yetmaganing shaxsini, uning tarbiyasi sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘ldirish - qo‘shimcha shart bilan berilishi lozim.

Voyaga yetmagan shaxsning hayot va tarbiya sharoitlari, ijtimoiy kamol topishining mazmuni va sur‘ati oilada hal bo‘ladi. Ularni aniqlash sud protsessida uch maqsadni ko‘zlaydi:

- profilaktik ahamiyatga ega bo‘lib, aniqlangan salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni olishda ifodalanadi;

- voyaga yetmagan shaxsga nisbatan tegishli protsessual majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi masalani to‘g‘ri hal qilishga qaratilgan;

- jinoyat – huquqiy mazmunga ega bo‘lib, jazo chorasini yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olishda ifodalanadi. Shunga ko‘ra jinoyat qonunida voyaga yetmaganlarning javobgarligini yengillashtiruvchi holatlarni batafsil ro‘yxatini maxsus belgilash zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, e‘tirof etish lozimki, sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash masalasini hal etayotganda, birinchi navbatda, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, ana shu shaxslarga oid ma‘lumotlarni hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni nazarda tutib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoni qo‘llash imkoniyatini muhokama qilishi lozim. Sud aybdorni jamiyatdan ajratmasdan turib qayta tarbiyalashning imkoniyati bo‘lmagan hollardagina ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlashi mumkin. Qolaversa, sudlar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari sudda ko‘rilayotganda jinoyatni keltirib chiqargan sabablarni aniqlab, ularni bartaraf qilish uchun xususiy ajrim chiqarishlari shartligi ham maqsadga muvofiqdir.²⁵⁹

Voyaga yetmagan shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun zarur qonunchilik bazasini yaratish, ularning huquqlari himoya qilinishini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyatga bevosita aloqador BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasiga O‘zbekiston 1992-yilda qo‘shildi va ushbu hujjat qoidalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini izchillik bilan bajarib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, oila, ta‘lim muassasalari va keng jamoatchilik zimmasiga voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligining oldini olish, hududlarda voyaga yetmaganlarning ma‘naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ko‘maklashish, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy – pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga yordam berish vazifalari yuklatildi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olishni amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning yaqin o‘zaro hamkorligi bilan bunday muammolarni hal etish mumkin. Mamlakatimizda huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan tizimli islohotlar xalqimizning tinch va osoyishtaligini ta‘minlashga xizmat qilib kelmoqda.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.

²⁵⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2000 yil 15 sentyabr 21-son “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” Qarori. <https://lex.uz/docs/-1449720>.

2. BMTning bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi. <https://lex.uz/docs/-4427813>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi 2008 yil 7 yanvardagi O‘QR-139-son qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori.
7. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2000 yil 15 sentyabr 21-son “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” Qarori. <https://lex.uz/docs/-1449720>.

AGE CHARACTERISTICS OF THE DIGESTIVE SYSTEM

Bakhrieva Gulkhayo

TMC Institute in Tashkent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10250320>

Abstract. This topic discusses the physiological changes that the digestive system undergoes at different stages of human development - such as the transition from infancy to childhood, adolescence to adulthood, and into old age. Emphasis is placed on the digestive system's changing requirements and its adaptations to support the body's nutritional needs across various life stages. Considerations include the changing size and capacity of digestive organs, the production of digestive enzymes, potential digestive disorders, and how dietary habits and lifestyles can significantly impact digestive health.

Key words: Digestive System, Developmental Stages, Physiological Changes, Infancy, Childhood, Adolescence, Adulthood, Old Age, Nutritional Requirements, Digestive Disorders, Diet, Lifestyle, Digestive Enzymes, Digestive Organs.

ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПИЩЕВАРИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

